

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Sh.Abdullaeva, M. Yuldashev

Bank xuquqi

Darslik

Oliy ta‘limning

Bilim sohasi: 200000 – “Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq”;

Ta‘lim sohasi: 230000 – Iqtisod;

Ta‘lim yo‘nalishlari: 5230700 – Bank ishi;

TOSHKENT – 2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Sh.Abdullaeva, M. Yuldashev

BANK HUQUQI

Oliy ta’limning

Bilim sohasi: 200000 – “Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq”;

Ta’lim sohasi: 230000 – Iqtisod;

Ta’lim yo‘nalishlari: 5230700 – Bank ishi;

TOSHKENT 2019

UO’K:33. (075)
KBK:65052.2

Taqrizchilar:

S. M.Adilxodjaeva – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro ommaviy huquq va davlat huquqiy fanlari” kafedrasini mudiri, yuridik fanlar doktori, professor.

A.A. Omonov – Toshkent moliya instituti, “Bank ishi” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

Bank huquqi: Darslik. Sh.Z.Abdullaeva, M.I.Yuldashev. T.: “Iqtisod-Moliya” 329 b.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan (5230700 – “Bank ishi” bakalavr yo‘nalishi uchun) «Bank huquqi» fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim oluvchi talabalar uchun mo‘ljallangan. Darslikdan shuningdek, kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilari va o‘quvchilari, amaliyotchi yuristlar va iqtisodchilar, bank xodimlari, O‘zbekiston bank qonunchiligi bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

UO’K:33. (075)
KBK:65052.2

ISBN 978-9943-13-752-3



Sh.Abdullaeva, M. Yuldashev.

Kirish

Mamlakatimiz o‘z mustaqil taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq mamlakatda mustaqil pul va bank tizimini shakllantirishga birinchi navbatdagi vazifalar sifatida e’tibor qaratdi va bu sohada yanada taraqqiy ettirish bugungi kunning xam dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday say’i-harakatlarning natijasi tufayli mamlakatimiz bank-moliya tizimining mustahkam qonuniy-huqiy asoslari yaratildi va respublikamizda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari dunyoning etakchi xalqaro reyting kompaniyalarining “barqaror“ reyting ko‘rsatkichlarini olib xalqaro bank tizimida mustahkam o‘rin egallab bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining¹ “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish masalalariga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-sonli Farmonida “Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko‘lamli isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va prinsiplar qo‘llanilishini taqozo qilayotganligi, ... bank tizimining barqarorligini ta’minlash, omonatchilar va

¹ ¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. T: 2017 yil 7 fevral

kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalarini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ...jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash departamenti negizida asosiy vazifasi bank xizmatlari iste‘molchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, aholi va tadbirkorlik sub‘ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish bo‘lib hisoblangan Markaziy bankning Bank xizmatlari iste‘molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etilishi lozim² deb ta’kidlanganligi ham banklar faoliyatida huquqiy masalalarga ustivor e’tibor berish lozimligini taqazo etadi.

Mamlakatimizni rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bank tizimi va banklar faoliyatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyotida ishtirokini yanada kengaytirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta’minlash ko‘p jihatdan banklar faoliyatini strategik jihatdan to‘g‘ri rejalashtirish, ular faoliyatida yuzaga keladigan risklar va riskli holatlarni to‘g‘ri boshqarishning qonunchilik asoslarini chuqur o‘rganishdan iborat. Tijorat banklari faoliyati bozor munosabatining boshqa sub‘ekti faoliyatidan tubdar farq qiladi. Banklar bozor munosabatlarining boshqa sub‘ektlaridan farqli ravishda iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muassasa hisoblanib, moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda moliyaviy vositachi sifatida ishtirok etadilar. Tijorat banklari kapital aylanishining uzluksizligini ta’minlash, bo‘sh pul mablag‘larini yig‘ish va ularni pul zarur bo‘lgan sub‘ektlar o‘rtasida taqsimlash bo‘yicha faoliyat olib boradi. Banklar faoliyatining huquqiy asoslarini chuqur o‘rganishning zarurligi shundaki, banklar boshqa sub‘ektlardan faoliyatidan farqli ravishda asosan jalb qilingan mablag‘larga tayanib ishlaydilar. Bu esa o‘z navbatida banklar faoliyatining o‘z va jalb qilingan mablag‘larga nisbatan mas’uliyati va

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-sonli Farmoni. 2018 yil 9 yanvar.

javobgarligini oshiradi. Chunki, bank bir tomondan unga o'z jamg'armalarini ishonib topshirgan yuridik va jismoniy shaxslar oldida majburiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan bank o'z aksiyadorlari oldida majburiyatga ega hisoblanadi.

Shu sababli banklar o'z ixtiyorida mavjud bo'lgan mablag'lar qonunchilik talablariga muvofiq foydalanishi, har bir subekt bilan iqtisodiy aloqa o'rnatishdan mazkur munosabatlarning qonunchilik asoslarini puxta tahlil qilishi, sub'ekt faoliyatini, uning moliyaviy holati va ko'rsatkichlarini, o'rganishi lozim. Mamlakatimiz banklari faoliyatini jahon talablariga moslashtirish har bir bankdan samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishni, xususan, bank boshqaruvi qonunchilik asoslarini o'rganish va takomillashtirish choralarini ko'rishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ta'kidlanganidek, " Xolis tan olish kerakki, bugungi kunda pul-kredit siyosati va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlardan amalda to'laqonli foydalanilmayapti, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi, banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda."³ Haqiqatda ham bunday sharoitda bank faoliyati qonunchilik normalariga rioya qilishni

³ ³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoni. 2018 yil 9 yanvar.

kuchaytirish, banklar faoliyatni tartibga solishning me'yoriy talablarini Bazel nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining zamonaviy tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish, ichki reyting tizimini shakllantirish bo'yicha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish bank ishining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. SHu bois ham, bo'lg'usi bank xodimlari banklar faoliyatining qonunlari va normativ hujjatlari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bozor munosabati sharoitida banklarning depozit, kredit, investsiya, foiz, likvidlilikni boshqarish siyosati va boshqa faoliyat yo'nalishlari ular faoliyatining samarasini ta'minlovchi yo'nalishlar bo'lib ma'lum me'yoriy talablarga rioya qilishni taqazo etadi.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning banklardagi omonotlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Kredit axboroti almashinruvi to‘g‘risida”gi, “Lizing to‘g‘risida ”gi, “Mikromoliyalash to‘g‘risida”gi, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlar bank faoliyatining huquqiy asoslarini o‘zida mujassamlashtirgan. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan nobank kredit tashkilotlari bo‘lgan mikrokredit tashkilotlari, lombardlar faoliyatining qonunchilik asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Mikrokredit tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonun va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining lombardlar va mikrokredit tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan qator normativ hujjatlari talablari asosida tartibga solinadi.

Mazkur darslikda bank huquqining asoslari, uning ob'ekti va sub'ektlari, tamoyillari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi, maqsad va vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va majburiyatlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va tartibga solish borasidagi qonunda belgilangan vakolatlari

kabi mavzular ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, darslikda tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari, bank menejmenti va strategiyasini amalga oshirishning huquqiy jihatlariga ham e‘tibor qaratiladi.

Shuningdek, darslikda tijorat banklarifaoliyatini tashkil etish, uning depozit va kredit operatsiyalarining huquqiy asoslari, mijozlar va bank o‘rtasidagi shartnomalar va ularning huquqiy tomonlari, kredit, depozit munosabatlarida tomonlarning huquq va majburiyatlari, aholi omonotlarini kafolotlash masalalari, bank boshqaruvi, ijro organlarining huquq va majburiyatlari kabi mavzularni yoritib berishga e‘tibor qaratilgan.

Bank xodimi bank faoliyatining huquqiy asoslari borasida chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, xorijiy davlatlar tijorat banklari amaliyotining qonunchilik asoslari to‘g‘risida ham ma‘lumotlarga ega bo‘lishi lozim. “Bank huquqi” fani “Pul va banklar”, “Bank ishi”, “Xalqaro bank ishi”, “Tijorat banklarining moliyaviy resurslarini boshqarish”, “Bank menejmenti va marentingi”, “Monitar siyosat”, “Bank risklari” kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq.

Bank huquqi fanining asosiy maqsadi - bank tizimida faoliyat olib boradigan xodimlar va mutaxassislarni bank faoliyatining qonuniy-huquqiy va normativ-me‘yoriy asoslari bilan tanishtirish, ularning bu sohada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlashga erishishdan iborat.

Mazkur fan bo‘yicha dars jarayonlari ma‘ruza, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ta‘limdan tashkil topadi.

Darslikda moliya-bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, bank qonunchiligidagi yangilanishlar, bank xuquqi bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy-ilmiy tadqiqotlar va ularning natijalariga ham e‘tibor qaratilgan. Ushbu darslik hozirgi, yangi bosqichda bank-moliya sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ishiga munosib hissa qo‘shadi deb umid qilamiz.

I BOB. Bank huquqi fanining predmeti va vazifalari. Bank huquqi mohiyati, tamoyillari va manbalari

1-§. Banklarning paydo bo‘lishi va bank huquqining shakllanishi

Banklar va ularning kelib chiqishi, banklarning ilk faoliyati hamda bugungi kundagi yuksak axborot texnologiyalariga asoslangan banklar va bank tizimi, ular amalga oshirayotgan operatsiyalar, ko‘rsatayotgan xizmatlar, bank kapitali, uning etarlilik, bank aktivlari, kredit va investitsiyalari, bank passivlari, depozit va investitsiyalari, banklar faoliyatining samaradorligi, uning likvidlilik ko‘rsatkichlari, daromadlari va xarajatlari, bank foydasi, bank risklarini boshqarish kabi banklar faoliyatining tashkiliy – iqtisodiy jihatlari to‘g‘risida siz etarli bilim va ko‘nikmalarga egasiz. Ammo, banklar faoliyatida iqtisodchi - bank xodimi bilishi lozim bo‘lgan bank faoliyatining muhim yo‘nalishi ham mavjud bo‘lib bu - banklar faoliyatining huquqiy asoslaridir.

Banklar faoliyati bozor munosabatlarining xoxlagan boshqa sub’ektlari faoliyatidan farq qilib birinchidan, banklarning faoliyati asosiy vositasi yoki dastagi faqat pul mablag‘lari hisoblanadi. Ikkinchidan, banklar asosan, o‘z mablag‘lari emas, balki jalb qilingan mablag‘lar yoki mijozlarining mablag‘lariga tayanib faoliyat olib boradi va shu bois, uchinchidan, banklar o‘z aksiyadorlari va mijozlari, kreditorlari oldida majburiyatga ega sub’ekt hisoblanadi. Mazkur majburiyat va mas’uliyatlar bankning har bir faoliyat turini qonuniy asosda, mas’uliyat bilan tashkil etishni va amalga oshirishni talab etadi. Banklar faoliyatining huquqiy asoslari qadimiy ildizlarga ega bo‘lib, bular xaqida Xamurapi qonunlarida ham, qadimgi Misrda papiruslarga yozilgan qonunlarda ham, Xitoy qo‘lyozmalarida ham ko‘p eslatilgan. Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tarixi insoniyat sivilizatsiyasining erta tongiga, tovar-pul munosabatlari, o‘zaro tovar ayriboshlash aloqalari yuzaga kela boshlagan davrlarga borib taqalishi

shubxasiz. Insoniyat moddiy madaniyati osori-atiqalarini, qadimgi arxeologik manbalarni o'rganish yuqoridagi fikrga kelishga to'la asos bo'ladi.⁴

Markaziy Osiyo xududida yashagan va yashab kelayotgan xalqlar hamda elatlar tarixiga oid qadimiy yodgorliklar, bu er insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan bo'lganligini, bundan 5 ming yil avval ham rivojlangan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar qaror topganligini, tovar-pul munosabatlari avj olganligini tasdiqlaydi.⁵ Agar biz bank ishi tarixi bo'yicha ba'zi manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning guvohlik berishlaricha miloddan avvalgi birinchi ming yilliklarda Markaziy Osiyo xududida dastlabki quldorlik davlatlari – Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Parfiya vujudga keldi. Maroqand, Karashota, Marv kabi shaxarlar barpo etildi va u erlarda savdo-sotiq rivoj topdi, pul o'rnida ishlatiladigan buyumlar muomalaga kiritildi. Axmoniyalar hukmronligi davrida Avesto ta'limoti keng tarqaldi va unda odamlar o'rtasidagi o'zaro muomalalarga, savdo-sotiq ishlariga katta e'tibor berildi.⁶ Kushon podsholigi davrida tilla va kumush tangalar zarb etilib, savdo-sotiq ishlarida keng muomilaga kiritildi. Eftalitlar davlati davrida ham (eramizning I-V asri), Turk xoqonligi davrlarida ham (VI-VIII asrlar) mamlakatimizning tarixiy xududlarida xunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari keng rivoj topdi, pul va moliyaviy xizmatlarga oid munosabatlar yanada takomiliga etdi.

VIII asr o'rtalarida Markaziy Osiyoni arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi natijasida, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar yangicha asosga – islom aqidalari hamda tamoillariga tayanilgani holda yangicha shakllana boshladi.

Markaziy Osiyoning arablar tomonidan isti'lo qilinishi tufayli xalqimiz ma'naviy va madaniy tarixi jiddiy zarar ko'rgan bo'lsada, ammo bu xol savdo-sotiqni yanada keng avj olishiga, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni mislsiz kengayishiga olib keldi. Savdo-sotiq va o'zaro muomala soxasiga islom qadriyatlarini singdirilishi xalollik, insof-diyonat, lafzida turish kabi ijobiy axloqiy

⁴ «История денег». Бизнес вестник востока. 2002 г., №38-40 (сентябрь-октябрь)

⁵ O'sha manba.

⁶ Xasanov «Avesto va uning insoniyat taraqqiyyotidagi o'rni». Urganch, 2003 y., A Maxmudov «Avesto haqida». T., «Sharq», 2000 y.

mezonlarni qaror topishiga ko‘maklashdi va bu xol savdo-sotiqni keng rivojlanishi uchun qulay sharoit tug‘dirdi.

Markaziy Osiyoni XIII asr boshlarida mo‘g‘ullar tomonidan bosib olingunga qadar yurtimizda savdo-iqtisodiy munosabatlar rivoj topdi, yirik va obod shaxarlar barpo etildi, boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro savdo-madaniy aloqalar keng miqyosda olib borildi.

Markaziy Osiyo Chingizxon qo‘shinlari tomonidan bosib olinib, vayron etilgach bu erda chuqur ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz yuz berdi, savdo-iqtisodiy aloqalar izdan chiqdi. Bunday xol sal kam ikki asr davom etdi.

Sohibqiron Amir Temurning tarix sahnasiga kirib kelishi va yuksak darajada markazlashgan Temur imperiyasini barpo etilishi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar soxasida keskin yuksalish yuz berdi. Mamlakatlararo aloqalar yana kengaydi. Amir Temur davrida zarb qilingan oltin, kumush tangalar, mis chaqalar savdo-sotiq aloqalarida keng qo‘llanildi. Bu davrlarda savdo, pul bilan bog‘liq o‘zaro munosabatlarga xalollik, vijdonlilikka katta e‘tibor berildi, mamlakatda o‘g‘ri-kazzoblar bo‘lmasligi uchun qattiq kurash olib borildi. Sohibqiron Amir Temur aloxida faxr bilan ta’kidlaganidek: «Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tilla ko‘tarib o‘tadigan bo‘lsa, bir donasiga ham zarar etmaydigan tartib intizom o‘rnatdim».⁷

Amir Temur vafotidan so‘ng uning imperiyasi parchalanib ketdi va bu hol barcha sohalarda, shu jumladan savdo-iqtisodiy munosabatlarda ham inqirozlarni yuzaga keltirdi. Xonliklar tarixi davri rivojlanishning sekinlashganligi, tarqoqlik, savdo aloqalarining susayganligi bilan tavsiflanadi.

XIX asrning II yarmidan boshlab Rus chorizmini O‘rta Osiyoga kirishga urinishi va nihoyat shu asrning 60-70 yillarida bu erni istilo qilinishi kapitalistik tartibotlarni ham kirib kela boshlashiga sabab bo‘ldi. Markaziy Osiyo, xususan Turkiston o‘lkasi rus savdo-sanoat doiralari uchun arzon xom-ashyo va ish kuchi

⁷ «Temur tuzuklari» T., G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1991 y.,

manbai sifatida jozibali edi. Rossiya imperiyasining mamlakatimizga bostirib kirishi tarixiy, milliy, diniy va axloqiy qadriyatlarimizga o'nglash qiyin bo'lgan darajada katta ziyon etkazilganligini, istebdod va bosqinchilar zulmi xalqimizni xaqoratlangan, xamda jarohatlaganligini doimo yodimizda saqlaganimiz xolda chorizm sanoati, zamonaviy texnikasi, mutaxassis kadrlari salohiyatining mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida ijobiy voqea bo'lganligi, temir yo'llar qurilishi o'zaro iqtisodiy aloqalarni keskin kuchayishiga xizmat qilganligini ham e'tirof etilmog'i lozim.

Hozirgi zamon qarashlariga birmuncha mos keluvchi banklar, boshqa moliya-kredit muassalarining paydo bo'lishi ham aynan rus imperializmi va rus sanoatini O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog'liqdir.

Turkiston o'lkasi bosib olinganidan so'ng maxalliy mollarni Rossiya o'lkalariga jo'natish, Rossiyadan sanoat va boshqa tovarlar keltirilishida savdogarlarga moliyaviy qulaylik yaratish maqsadida 1892 yildan 1915 yilgacha o'lkada davlat bankining 10 ga yaqin bo'limlari, xususiy tijorat banklarining 40 ta bo'limi ochildi. Bank-moliya kapitali O'rta Osiyo iqtisodiyotining barcha soxalariga kirib bordi. Bunday banklar jumlasiga Moskva xisob banki, Rus-Xitoy banki, Rus-Osiyo banki kabilar kiritilishi mumkin.⁸

Chorizmni ag'darilishi va bolsheviklar hukumatining barpo etilishi mustamlakachilik sohasida jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmadi. Markaziy Osiyo respublikalari xom-ashyo bazasi, asosan paxta bazasi sifatida ahamiyatni saqlab qolaverdi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida yuritilgan «Xarbiy kommunizm siyosati» iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan bank-moliya tizimlarini barbod bo'lishiga olib keldi. Ahvolni o'nglash maqsadida 1921 yildan boshlab yuritilgan «Yangi iqtisodiy siyosat» (NEP) natijasida bozor munosabatlariga xos infratuzilmalarning cheklangan elementlari, shular qatori

⁸ «Turkston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida».I-kitob, T., «Sharq» nashriyoti matbaa konserni Bosh tahririyati. 2000y., 238b.

bank kredit muassasalari ishi ham jonlantirildi va ular iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynay boshladilar.

Sudxo'rlar va savdo kapitaliga qarshi kurash vositasi sifatida dehqonlarning o'zaro yordam jamiyatlari barpo etilishi 1923 yildan yo'lga qo'yila boshlandi. 1925 yilda O'zbekistonda bu jamiyatning 809 ta sho'ba bor edi. Ushbu jamiyat faoliyati shakllaridan biri sifatida kredit va omonat – ssuda shirkatlari faoliyat yurita boshladi. 1923 yilda 275 ta ana shunday shirkatlar bo'lgan. 1923 yilda RSFSR Xukumati Davlat qishloq xo'jalik bankini tashkil etdi va uning filiali Turkiston Avtonom Respublikasida ham ochildi. Bu bank o'z operatsiyalarini kredit shirkatlari orqali amalga oshirdi. 1923 yilda Turkistonda 1169 ta kredit-kooperativ shirkatlari mavjud bo'lgan. Mehnat va mudofaa Kengashi tomonidan 1924 yil 11 yanvarda O'rta Osiyo Tijorat banki ta'sis etildi va savdo-sotiqni, mahsulotlar tayyorlashni rivojlantirish xamda qo'llab-quvvatlashi uning asosiy vazifalaridan qilib belgilandi.⁹

XX asrning 30-yillari boshlarida bank-moliya soxasidagi isloxotlar natijasida sobiq SSSR Davlat banki va uning ittifoqdosh respublikalardagi bo'limlari tashkil topdi, xamda bank soxasidagi bunday qat'iy markazlashuv XX asrning 80-yillari o'rtalarigacha saqlanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin, bozor munosabatlariga asoslanuvchi erkin va ochiq jamiyat barpo etish orqali buyuk kelajakka erishish o'zining maqsadi ekanligini e'lon qildi, xamda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqar ekan, ushbu bosh maqsad diqqat markazida saqlandi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning vazifasi sobiq ittifoq barbod bo'lishi, xo'jalik-iqtisodiy aloqalarni barxam topishi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy tanglikni bartaraf etish, ishlab chiqarishning keskin

⁹ «O'zbekiston Sovet i mustamlakachiligi davrida».II-kitob, T., «Sharq» nashriyoti matbaa konserni Bosh tahririyati. 2000y., 186-187 bb.

pasayishi jarayonini to'xtatish, pul qadrsizlanishini jilovlash, aholi turmush darajasini keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik asosida ijtimoiy barqarorlikni saqlash, rivojlanish uchun zarur shart-sharoitni xozirlash kabilardan iborat edi. Bu davrda bank-kredit va moliya muassasalari faoliyati ham ushbu vazifaga bo'ysundirilgan edi.

Ayni paytda mamlakatimiz mustaqilligi ramzlari sifatida o'ziga xos bank-kredit tizimi, pul-kredit siyosati shakllantirilishi jarayoni ham davom etmoqda. Ma'muriy buyruqbozlik va totalitar tizimdan erkin bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat hamda jamiyatni boshqarishning samarali va qudratli dastaklaridan bo'lmish bank-moliya munosabatlari soxasida davlat mavqei, xamda nazoratini saqlab turishlik bozor munosabatlariga o'tish chog'ida davlat bosh islohotchi bo'lishi lozimligi xaqidagi bosh tamoilga to'la mos keladi. Mustaqilligimizning dastlabki davrlaridan boshlab amalga oshirishga kirishilgan bank-moliya tizimlarini shakllantirish xamda rivojlantirish ishlari yuqoridagi qoida e'tiborga olingan holda amalga oshirildi.

O'zbekistonning 1991-1993 yillardagi, ya'ni rubl zonasida bo'lib turgan davrdagi iqtisodiy siyosati ishlab chiqarishning butunlay inqirozga yuz tutishiga va aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslikka, savdo balansining ahvolini yaxshilashga, iqtisodiy tizimni takomillashtirishga qaratildi. YAgona iqtisodiy zonada bo'lgan xolda siyosiy mustaqillikni ro'yobga chiqarilishini ta'minlash lozimligi pul-kredit siyosati soxasida ham o'ziga xoslikni ifodalaydi. Bu boradagi muhim vazifa banklar faoliyatini, ular vazifalarini yangi talab va extiyojlar asosida tashkil etmoq edi. Ikki pog'onali samarali bank tizimini barpo etmasdan turib bozor munosabatlarini yuzaga keltirish, pul-kredit muomalasini qayta qurib bo'lmasdi.¹⁰

¹⁰ «Mustaqil O'zbekiston tarixi».III-kitob, T., «Sharq» nashriyoti matbaa konserni Bosh tahririyati. 2000y., 319-323 bb.

O‘zbekiston Respublikasining 1991yil 15 fevralda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun (keyingi qo‘shimcha va o‘zgarishlari bilan) bank soxasidagi islohotlar yo‘nalishlariga mos ravishda bank muassasalari faoliyatini bozor talablariga moslashtirish vazifalarini o‘zida aks ettirdi. Ushbu qonunga ko‘ra SSSR Davlat bankining respublikadagi mintaqaviy bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga aylantirildi va pul emissiyasi, xukumat xisob varag‘lariga xizmat ko‘rsatish, oltin-valyuta zaxiralarini saqlash, tijorat banklari faoliyati ustidan nazorat olib borish, pul muomilasini va pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi muhim vazifalar yuklatildi.

Mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotida va islohotlar soxasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, O‘zbekistonning rubl zonasidan chiqishi va 1994 yilda o‘z milliy valyutasi – So‘mni muomalaga kiritilishi, moliya soxasidagi islohotlarni chuqurlashtirilishi, uning xuquqiy asoslarini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. SHunga ko‘ra 1995 yil 21 dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonuni¹¹, 1996 yil 25 aprelda esa «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni¹² qabul qilindi. Ushbu qonunlar Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki kabi xalqaro bank muassasalari tomonidan yuqori baholandi.

Bank faoliyatini yanada erkinlashtirish va bank-kredit muassasalarini bozor talablariga to‘la moslashtirish, bank faoliyatiga davlat aralashuvini kamaytira borish, iqtisodiy hayot va iqtisodiy taraqqiyotda tijorat banklari mavqei, hamda ta’sirini keskin oshira borish – bugungi kunda amalga oshirilayotgan bank islohotlarining muhim jihatlaridandir.

Bank huquqi bozor iqtisodiyotiga o‘tish tarixiy davri bilan bog‘liq vujudga kela boshlagan yangi huquq sohasidir. Tovar-pul munosabatlarning keskin avj olishi, tadbirkorlik faoliyatining misli ko‘rilmagan miqyosda keng quloch yoyishi

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1995 y., 12-son, 247-modda.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996 y., 5-6 son, 54-modda.

hisob-kitob hamda pul muomalasi sohasida ham yangicha jarayonlar hamda yoʻnalishlarni vujudga keltirdi. Avval faqat davlat monopoliyasi hisoblangan ishlab chiqarish, xoʻjalik faoliyati bilan yakka shaxslarning tadbirkorlik asosida shugʻullana boshlaganlari hisob-kitoblar, bank xizmati, bank operatsiyalariga boʻlgan ehtiyoj keskin oshib ketishiga olib keldi hamda banklar bilan ularning koʻp millionli mijozlari oʻrtasidagi munosabatlarni ijtimoiy munosabatlarning muhim guruhiga aylantirdi, ularni huquqiy tartibga solishni yaxshilash va takomillashtirish zarurligini kun tartibiga qoʻydi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligiga erishgandan keyin sobiq ittifoq davrida faoliyat koʻrsatgan bank-kredit tizimlari, ularning ish uslublari, moddiy-texnikaviy imkoniyati zamonaviy talablarga hamda respublikamiz oldiga qoʻyilgan iqtisodiy va siyosiy vazifalarga mutlaqo mos kelmay qoldi. Iqtisodiy yangilanish va iqtisodiy islohotlarni yangi mexanizmlar yordamidagina amalga oshirish mumkinligi hammaga ravshan edi. Oʻzbekistonda milliy manfaatlarni hisobga olgan holda rivojlanish yoʻllarini belgilovchi dastlabki qonunlar sobiq ittifoq hali rasman barham topmagan davrda qabul qilingan boʻlsa ham «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»¹³ qabul qilingan qonun hozirgi zamon bank tizimlari uchun huquqiy baza va poydevor yaratdi. Oʻzbekiston Respublikasi moliya tizimlari vujudga kelishiga koʻmaklashdi. Ushbu qonun asosida sobiq Davlat bankining Oʻzbekiston boʻyicha mintaqaviy boshqarmasi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga aylantirildi. Unda milliy bankka xos funksiyalar yuzaga kela boshladi. Iqtisodiyotdagi qayta qurishlar va taraqqiyot dinamikasi bank tizimlaridan ham bank ishi boʻyicha jahon amaliyotini, Oʻzbekistondagi xoʻjalik yurituvchi subʼektlarning milliy mentalitetini hisobga oluvchi, unga mos keluvchi oʻzgarishlar roʻyobga chiqarilishini taqozo etar edi. SHunga mos ravishda, mazkur qonunga keyinchalik mustaqillikning dastlabki yillarida toʻplangan tajribalarga va xalqaro bank amaliyoti yutuqlariga asoslangan jiddiy oʻzgarishlar va qoʻshimchalar kiritib borildi. Shu tarzda banklar va bank

¹³ Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1991 y., 4-son, 84-modda .

faoliyatiga oid qonun hujjatlari to'plana borib, asta-sekin qonunchilik tarmog'i sifatida shakllana bordi hamda bugungi kunda bank faoliyati, hisob-kitoblarni tashkil etish, banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan turli xizmatlar ko'lami, hajmi hamda turlarining keskin ko'payib ketishi natijasida bozor infratuzilmasining hal qiluvchi bo'g'inlaridan biriga aylandi. SHu sababli bank muassasalari bilan ish yurituvchi har bir shaxsning mamlakatimiz bank qonunchiligi asoslaridan xabardor bo'lishi, ularga amal qilishi hayotiy zaruratga aylanib qoldi.

Ushbu omillar mamlakatimizda banklar va bank faoliyatini huquqiy tartibga solish masalalari bilan shug'ullanuvchi bank huquqi deb ataluvchi yangi huquq sohasini yuzaga keltirdi. Bank huquqi fan sifatida o'z predmeti, uslublari va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Banklar faoliyati juda ko'p sohalarni qamrab oladi. Bank faoliyatiga bank ishtirokidagi har qanday munosabatlarni kiritish mumkin. Bank faoliyati deganda banklar yoki boshqa kredit muassasalari pul, qimmatli qog'ozlar, valyuta boyliklari ko'rinishlaridagi moliyaviy resurslar vositasida amalga oshiriladigan u yoki bu harakatlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublikaning bank faoliyatiga doir ichki qonunchiligiga va xalqaro kelishuv va bitimlarga asoslanadi.

Bank qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini shakllantiradi. Ular bir daraja yoki boshqa bank faoliyatiga mos kelishi yoki ushbu faoliyatni cheklashlari kerak. Masalan, fuqarolarning huquqlarini va erkinliklarini ta'qiqlash, ularning mol-mulkini olib qo'yishni ta'qiqlash va mijozlarning hisobvaraqlaridagi mablag'lardan ularning roziligisiz harakatlarni amalga oshirish, mablag'larni hisobdan chiqarishni taqiqlash bo'yicha tartibga solish, huquqiy tartibga solishning huquqiy saviyasini va darajasini belgilash kabilar hisoblanadi. Bank qonunchiligining konstitutsiyaviy

asoslariga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan huquqiy nazariyalarga oid adabiyotlarda ba'zi konstitutsiyaviy tamoyillar ajratib ko'rsatilgan bo'lib, u faqat bitta umumiy g'oyani o'zidi mujassamlashtirgan prinsip - huquqiy qoidalarni o'z ichiga oladi. Unga asosan bank qonunchiligi **O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi** normalari asosida shakllantiriladi va konstitutsiya normalari **bank qonunchiligining asosi** hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning X bobi - **Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar** deb nomlanib uning **36-moddasida** "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 53-moddasida keltirilishicha, "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin"ligi va 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart" ekanligining belgilanishi ham banklar tomonidan mijozlarning iqtisodiy jihatdan mustaqil o'z mulkiga egalik qilishi mumkinligi va banklar kredit, hisob-qitob va boshqa munosabatlarni o'rnatganda, xizmatlar ko'rsatish borasida faoliyat olib borish bo'yicha o'z qonunchilik va me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda mijozlarning konstitutsiyaviy huquqlarini inobatga olishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining **XXV bobi Moliya va kredit** deb nomlanadi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasida bank, moliya, soliq va boshqa ushbu sohaga aloqador qonunlarning mazkur bo‘limda qo‘yilgan talablarga mos ravishda ishlab chiqilishi va tadbir etilishini talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining **122-moddasida** “O‘zbekiston Respublikasi o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega. O‘zbekistonning Davlat byudjeti Respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan iborat” debgan normani ifodalaydi. **123-moddada** esa O‘zbekiston respublikasi soliq tizimiga bag‘ishlangan bo‘lib unda “O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli” ekanligi qayd etilgan.

Bank qonunchiligining asosi bo‘lgan konstitutsiyaning muhim jihati shundaki, uning **124-moddasi** respublika bank tizimining asoslarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib unda “ O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqaradi.” deb qayd qilingan modda O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining huquqiy, tashkiliy va tarkibiy shakllanishining asosi hisoblanadi.

Banklar faoliyati to‘g‘risidagi qonunlar bir-birini to‘ldiruvchi, yuzaga keluvchi nizolarga echim topuvchi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladigan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmagan qonunlar bo‘lishi lozim. Ba’zi hollarda bank huquqida yuzaga keluvchi muammolarni hal qilish uchun protsessual vosita yuritish, to‘xtatib turish va ma’lum qonunlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilish orqali ma’lum bir echimlarga kelish mumkin. Konstitutsiyaviy tamoyillar bilan bir qatorda, qoidalar to‘g‘risidagi qonun ham printsip-normalarni, ya’ni. sektoral qonunlarni qabul qilish shart bo‘lmagan konstitutsiyaviy normalarni ajratib ko‘rsatishni talab qiladi va bu normalar aniq nizom tariqasida katta ahamiyat va salohiyatga ega bo‘ladi.

Bank huquqi sohasida yuqorida ko‘rib o‘tilgan printsiplardan biri Markaziy bank faoliyati, uning hisoboti, boshqaruvi tartibini tartibga soluvchi normalarni belgilash hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bank tizimining tashkiliy-tarkibiy jihatlariga ham e‘tibor qaratilib unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari degan **78-moddada**: “parlament palatalarining boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo‘li bilan tartibga solish”; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlarini ifoda etgan **80-moddadaning 9- bandida** “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish”, mazkur moddaning **12- bandida** “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish”, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **81-moddasiga** binoan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a‘zolari, respublika Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Sudyalari oliy kengashi raislari, Bosh prokurori, Markaziy banki Boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin”ligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **93-moddasining 13-bandiga** binoan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga Konstitutsiyaviy sud raisi va sudyalari, Oliy sud raisi va sudyalari, Oliy xo‘jalik sudi raisi va sudyalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining raisi lavozimlariga nomzodlarni taqdim etadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisini lavozimga tayinlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan ko‘rib chiqiladi. Moliyaviy xizmatlar bozorida yagona pul emitenti O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy banki hisoblanadi. Bu qoidaning amalga oshirish uchun hech qanday qo'shimcha qoidalar talab qilinmaydi, va shunga o'xshash modda O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi qonunda ham mavjud. Bank qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslarining ahamiyati shundaki, birinchidan, ular bank tizimini rivojlantirib, banklarning huquqlarini kengaytiradi, tadbirkorlik faoliyati, kapital xarakati, bank va moliyaviy xizmatlarning erkin harakatlanishini belgilash belgilab beradi. Davlat Konstitutsiya darajasida muayyan qoidalar va prinsiplarning belgilanishi bank xizmatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar yaratadi. Iqtisodiy faoliyat, raqobat, barcha mulk shakllarining teng muhofaza qilish kabilarga asos yaratadi.

Respublikamizda bank faoliyati sohasida milliy tajribaning to'plana borishi, xalqaro tajribalar va ilg'or yutuqlarning sinchkovlik bilan o'rganilib va umumlashtirib borilishi natijasida iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlariga kelib, mamlakatimizda bank, kredit, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va ularni boshqarish sohasida zamonaviy qonunlar tizimi yuzaga kela boshladi. Keyingi yillar, ya'ni 1995 va 1996 yillarda qabul qilingan «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, 1996 yildagi «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi, « Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi, 2012 yil 17 dekabrda «Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to'g'risida» gi, 2013 yil 23 oktyabrda «Garov reestri to'g'risida»gi, 2011 yil 4 oktyabrda «Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida »gi, «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi, 2003 yil 30 avgustda «Bank siri to'g'risida»gi, 2002 yil 5 aprelda «Fuqarolarning banklardagi omonotlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi, 2000 yil 25 mayda «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida»gi va boshqa qator qonunlar banklar faoliyati - pul muomalasini tashkil etish, valyutani tartibga solish, kredit-investitsiya, qimmatli qog'ozlar faoliyati bo'yicha bank va kredit muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlarning huquqiy asoslarini belgilab beradi.

2-§. Bank huquqi tushunchasi, uning predmeti va vazifalari

Har qanday davlat va jamiyatning iqtisodiy, xo‘jalik tizimida bank muassasalari, xamda ular tomonidan amalga oshiriladigan bank faoliyati muhim o‘rin tutadi, zero ki jamiyatdagi pul massasi oqimlarining samarali va maqsadli aylanishi, o‘zaro xisob-kitoblarning bir maromda amalga oshirilishi, bo‘sh moliyaviy mablag‘larni ishlab chiqarishga investitsiya qilinishi, xullas moliyaviy barqarorlikni ta‘minlanishi ularsiz mumkin emas. SHu sababli xar bir davlat eng avvalo mukammal va samarali ishlovchi bank-moliya tizimlari barpo etilishidan juda manfaatdordir. Tarixiy burilishlar, jamiyat hayotida chuqur o‘zgarishlar bo‘layotgan davrlarda ayniqsa aniq va samarali ishlaydigan bank-moliya tizimlarining mavjud bo‘lishi ijtimoiy-iqtisodiy falokatlarga yo‘l qo‘ymaslikning muhim shartlaridan bo‘lib sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ma‘muriy buyruqbozlik va davlat yakka xokimligi tuzumidan erkin bozor munosabatlariga o‘tish davri ham ana shunday tarixiy burilish davrlaridan sanaladi. Bank-moliya muassasalarining o‘tish davridagi ahamiyatini chuqur tushunilgani holda bank-moliya va kredit sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri – erkin bozor tamoyillari va talablariga to‘la mos keluvchi tijorat bank muassasalari tizimi barpo etilishini ta‘minlashdan iborat. Bugungi kunda ana shu maqsadga erishish soxasida muayyan yutuqlarga erishilganligi qayd etib o‘tilishi lozim. Jumladan, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida Markaziy bank va 29 ta tijorat banklari (5 ta davlat banki, 13 ta aksiyadorlik, 6 ta xususiy banklar, 5 ta chet el kapitali ishtirokidagi banklar) faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bozor infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sanaluvchi bank tizimi faoliyatining samarali natijalari ko‘p jihatdan uning qonunchilik asoslarining mukammalligiga va rivojlanish vazifalariga qay darajada mos kelishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bank soxasidagi xuquqiy islohotlar bank isloxotlarining asosiy yo‘nalishlaridan sanaladi.

Mamlakatimizda bank faoliyatini xuquqiy jihatdan ta'minlashda va bankka oid ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinishida O'zbekiston milliy xuquq tizimining tarmoqlaridan biri bo'lgan bank xuquqi muhim o'rin tutadi. Bank xuquqining xuquq soxasi, qonunchilik tarmog'i sifatidagi tushunchasi va uning predmetiga yuridik adabiyotlarda turlicha yondoshuvlar, xar hil ta'riflar mavjudligini kuzatish mumkin. Uning tushunchasi va predmeti doirasini to'g'ri aniqlash muhim nazariy xamda amaliy ahamiyatiga egadir. CHunki faqat shu yo'l bilangina uning boshqa xuquq soxalaridan tub farqlarini aniqlash, o'ziga xos vazifalari xamda muammolarini belgilash mumkin bo'ladi. Bank xuquqi tarmog'i predmetini aniqlash chog'ida bu soxada tadqiqotlar olib boruvchi olimlar ikki xil yondoshuvni namoyish etadilar. Ulardan bir guruxi bank xuquqi sobiq ittifoq davlati davrida ommaviy xuquq soxalaridan bo'lgan davlat xuquqi, ma'muriy xuquq, moliya xuquqi tarkibiy qismlaridan iborat ekanligini e'tiborga olib yondoshsalar, ikkinchisi, bank faoliyati erkin va mustaqil bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bank xizmati ko'rsatishga, bunda asosan shartnomaviylik tamoillariga amal qilishlik, ya'ni xususiy xuquqiy asoslar etakchi o'rin tutishiga ko'proq e'tibor beradilar. Biroq, bizning nazarimizda bank xuquqiga ta'rif berish va uning predmeti doirasini aniqlashda faqat bir tomonlama xamda yuzaki yondoshuvga yo'l qo'yib bo'lmaydi. CHunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek xar qanday huquq soxasini, jumladan, bank huquqi tarmog'ining predmeti doirasini to'g'ri va aniq belgilanishi, shu soxadagi xuquqiy munosabatlar barqarorligini, samarali tartibga solinishini ta'minlashning, xuquqiy munosabat ishtirokchilari xuquqlari va manfaatlarini tezkor ximoya etilishini ta'minlash yo'li bilan qonuniylik, hamda ijtimoiy adolat qaror topdirilishining asosiy omillaridan bo'lib sanaladi. Bank xuquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasini aniqlash chog'ida bank faoliyati bir tomondan, Markaziy bank orqali tijorat banklarini boshqarish xamda nazorat qilish yo'li bilan amalga oshiriladigan davlatning ommaviy xuquqiy faoliyati ekanligi, ikkinchi tomondan, Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasidagi ma'muriy, boshqaruv munosabatlaridan iborat ekanligi, uchinchidan esa, bank faoliyatining bosh maqsadi – tijorat banklari tomonidan

jismoniy va yuridik shaxslarga xususiy xuquqiy qoidalar va prinsiplar asosida ko'rsatiladigan erkin bank xizmatidan iboratligi nazarda tutilmog'i lozim.

Bank xuquqi soxasi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ob'ekti bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy aloqalar, predmeti jismoniy va yuridik shaxslarga, o'zga ishtirokchilarga bank xizmatlari ko'rsatilishi bilan bog'liq faoliyat sanaladi. SHuningdek, bugungi kunda bankdan tashqari turli kredit muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar ham bank xuquqi soxasi predmeti jumlasiga kiritilmoqda.


Banklarning moliyaviy va iqtisodiy munosabatlardagi asosiy funksiyalari ushbu xuquq soxasi predmeti doirasini yanada aniqroq tasavvur qilishga imkon beradi.

Bank huquqi vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jalb etish va qaytarilishi sharti bilan, xaq evaziga, muddatli va maqsadli foydalanish sharti bilan ularni joylashtirish (kredit sifatida berish, investitsiya qilish va xokazo)ning huquiy asoslarini shakllantirish;
- xisob-kitoblarni amalga oshirish, O'zbekistonda to'lov tizimlarini shakllantirishning huquqiy asoslari;
- pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan shug'ullanish;
- qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etish;
- tegishli asoslarda valyutaga oid munosabatlarni amalga oshirish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bozor talablariga asoslangan xolda boshqa turli xizmatlar ko'rsatishning huquqiy asoslarini shakllantirish va boshqalar kiradi. YUqoridagilarni barchasi bank xuquqi soxasi predmeti sanaluvchi ijtimoiy munosabatlar tabiati va mazmunini anglab etishga yordam beradi. Bank xuquqi predmetini aniqlash chog'ida uning o'zida bir necha xuquq soxalariga xos bo'lgan

xususiyatlarni jamlaganligi e'tiborga olinmog'i kerak. Bank xuquqi tijorat banklari bilan ularning mijozlari bo'lgan yuridik xamda jismoniy shaxslar o'rtasida fuqarolik qonunchiligi tamoyillariga ko'ra (ixtiyoriylik, tenglik, foyda olishga intilish) va odatda fuqarolik xuquqiy shartnomalar asosida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga soladi. Ayni paytda bank va uning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar moliya xuquqi, ma'muriy xuquqqa va boshqa xuquq sohalariga xos bo'lgan elementlari ham tez-tez uchraydi. Masalan, xisobotlar taqdim etish tartibini buzgan mijozlarga nisbatan

jarimalar qo'llanilishi va boshqalar.




1-rasm. Bank huquqi va uning tarkibi

SHu nuqtai nazardan olganda moliya va ma'muriy munosabatlar ham, basharti ular bank faoliyatini amalga oshirilishi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelsa bank xuquqi soxasi predmeti sanaluvchi ijtimoiy munosabatlarni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari o'rtasidagi munosabatlar

ma'muriy-xuquqiy, ommaviy-xuquqiy munosabatlardan iborat. Chunki Markaziy bank tijorat banklari uchun majburiy bo'lgan normativ-xuquqiy qoidalarni belgilaydi, davlat erki – irodasi amalga oshiriladi. Hamda bu erkning bajarilmasligi uchun davlat majburlovini qo'llash tahdidi mavjud bo'ladi. Tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga bevosita bank xizmatlaridan tashqari xizmatlarning yangi, noan'anaviy shakllari ham ko'rsatilayotganligi va bunday xizmatlar turlari xamda doirasi uzluksiz kengayib borayotganligi bank xuquqi sohasi predmeti sanaluvchi ijtimoiy munosabatlar doirasini ham muntazam kengayib borishiga sabab bo'lmoqda.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan asoslardan kelib chiqib bizning fikrimizcha, **bank xuquqi** deganda bir necha xuquq tarmoqlarining tutash chegaralarida yuzaga keladigan, moliya-kredit, pul muomalasi, xisob-kitob amaliyoti va bank hamda kredit muassasalari faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa iqtisodiy ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos tartibga soluvchi xuquq normalari tizimi tushuniladi.




2-rasm. O‘zbekiston bank huquqining vujudga kelishi asoslari

Boshqacha qilib aytganda, **bank xuquqi** – moliya xuquqining tarkibiy qismi bo‘lib, o‘z ichiga ommaviy – xuquqiy va xususiy – xuquqiy xarakterga ega bo‘lgan me‘yorlar jamlanmasini oladi va u bank faoliyatini amalga oshirishda yuzaga

keladigan munosabatlarni tartibga solishga yo‘naltirilgan.

Bank xuquqining predmeti – bank tizimini shakllantirish, faoliyat ini yuritish va uni rivojlantirish jarayonida yuzaga keluvchi ommaviy iqtisodiy



munosabatlar hisoblanadi. SHuningdek, O‘zbekiston

3-rasm. Banklar faoliyati bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar

Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari va kredit tashkilotlari tomonidan bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida, aholi, tashkilotlar va davlat manfaatlar uchun davlat organlari tomonidan bank tizimini faoliyati nazorat

qilinganda vujudga keluvchi ommaviy huquqiy munosabatlarni ham bank huquqining predmeti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1992-1994 yillarda bozor iqtisodiyotiga tez suratlarda o'tishi giperinflyasiya sharoitida amalga oshirilgan. Narxlar liberalizatsiyasi natijasida, ko'p yillar davomida to'planib kelgan pul massasi muomaladan chiqarilgan edi. Aynan shu davrda, xozirgi kunda iqtisodiyotning eng rivojlangan tarmoqlaridan biri bo'lgan O'zbekiston bank tizimini shakllanishi yuz berdi. Milliy valyutaning erkin suzuvchi almashuv kursini joriy qilish, O'zbekistonga milliy valyutani real qiymatida qayta baxolashga barham berish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga imkon berdi. Xozirgi kunda banklarni qo'shilishi, kredit tashkilotlarga (sherikchiligiga) birlashishi yo'li bilan ihtiyoriy qayta tashkil etilishi, ya'ni O'zbekiston bank tizimining kapitalizatsiya jarayoni takomillashib bordi. Baanklar iqtisodiyotning real sektorini faol tarzda moliyalashtira boshladilar. Xozirgi kunda aktivlarning 60% ziyodi iqtisodiyotni kreditlashga yo'naltirilgan va bu O'zbekiston rivojlangan davlatlarning universal banklariga anchayin yaqinlashib qolganini bildiradi. Keyingi davrlarda axolining milliy valyutadagi depozitlari sezilarli darajada oshdi. Xuquqiy nazrat tizimini yaratish maqsadida mustaqil moliyaviy nazorat organi - O'zbekiston Respublikasi moliya bozori va moliya tashkilotlarini tartibga solish va nazorat qilish agentligi ochildi. Bundan tashqari bir qator yangi moliyaviy xizmatlar joriy qilindi – masalan, ipoteka krediti, sug'urta bozorini rivojlanishi, pochta - jamg'arma xizmati, banklarda, tizimning shaffofligi va bir xilligini ta'minlashga yordam beruvchi xalqaro buxgalteriya xisobi standartlarining ikkinchi darajasini joriy qilish.

Bank qonunchiligining haqiqiy ijobiy imkoniyatlari muammoni hal qilish, sifat va miqdoriy talablarni muvofiqlashtirish uchun belgilanadi. Bu esa ma'lum vaqt va ma'lum bir sarf-xarajatlar va resurslar sarflanishini talab etishi mumkin. SHu bilan birga, bunday xarajatlarning hisobga olinishi rentabellikni va pul aylanishini qisqartirishi, mijozlarning bank faoliyatiga bo'lgan ishonchini yo'qotishga va boshqalarga olib kelishi mumkin.

Bank huquqini fundamental rivojlantirish va uni o'rganishning zarurligi:

a) bank faoliyatining mazmuni va "bank" hatti-harakati omillari, ya'ni odatiy va nostandart holatlarda jamiyat, aholi, davlat, bank tizimi, va pul va kapital oqimi harakati, ular bilan bog'liq huquqiy normalarni bilish;

b) taqiqlangan hatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik, ularning oldini olish, to'xtatishning texnologik imkoniyatlarini amalga oshirish, resurslar intensivligi mexanizmlarini uzluksizligini ta'minlash;

c) belgilangan yoki taqiqlangan harakatlarning mumkin bo'lgan oqibatlarini tushunish;

d) qabul qilingan huquqiy normalarni ro'yobga chiqarish uchun ruxsat etilgan va zarur vositalardan xabardor bo'lish;

e) banklarga ta'sir o'tkazishning uslublariga, ularning maqomiga, bank munosabatlariga va boshqalarga muqobil usullar va boshqalarni o'rganish zarur.

3-§. Bank huquqining tamoyillari va manbalari

Bank huquqining tamoyillari banklar faoliyatining huquqiy munosabatlarini muvofiqlashtirishni o'zida aks ettiradi. Umumiy olgan holda uning quyidagi tamoyillari mavjud:

a) mulkiy dahlsizlik tamoyili. Bu norma Konstitutsiyada belgilangan bo'lib u banklar faoliyatiga ham taaluqli hisoblanadi;

b) raqobatni rag'batlantirish va monopolizatsiyani ta'qiqlash yoki unga yo'l qo'ymaslik;

v) Iqtisodiy (bank) faoliyatini erkin yuritish tamoyili; va boshqalar.

Banklar faoliyatini huquqiy jihatdan muvofiqlashtirishga oid maxsus tamoyillari:

a) bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari:

— O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini ikki pog‘onali darajada tashkil etish tamoyili;

— O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining davlat hokimiyati organlaridan mustaqilligi;

b) bank faoliyatini amalga oshirish tamoyillari:

— O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mas’ullik tamoyili;

— O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining naqd pul emissiyasi bo‘yicha monopol huquqi tamoyili;

— davlat hokimiyati organlari va mahalliy hokimiyat organlarining kredit tashkilotlar faoliyatiga aralashmasligi tamoyili;

— bank faoliyati, kreditlash jarayonlarining litsenziyalashtirilganligi tamoyili;

— bank sirini saqlash tamoyili;

— bank mablag‘larining muddatliligi va qaytarilishi tamoyili va boshqalar.

Bank xuquqida qonuniylik, xuquqlarni suiste‘mol qilmaslik, xuquqlardan foydalanish chog‘ida o‘zgalarga zarar etkazmaslik lozimligi kabi umumxuquqiy tamoyillarga ham qat’iy amal qilinishi lozim.

Bank xuquqi yangi shakllanib kelayotgan xuquq soxasi bo‘lgani sababli uning tamoyillari ham hali shakllanish bosqichida va ularni aniq belgilash ancha mushkul. Bank xuquqi tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlarda moliya xuquqi, ma‘muriy xuquq, fuqarolik xuquqi va boshqa xuquq soxalari uchun xos bo‘lgan mezonlarni hamda qadriyatlarni kuzatish mumkin. SHu sababli ushbu tamoyillar

ko'p qirrali va bir qator xuquq soxalariga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda banklarning boshqa sub'ektlar bilan iqtisodiy munosabatlari jihatdan bank xuquqi sohasida amal qiladigan tamoyillarga quyidagi uch gurux tamoyillarni kiritish mumkin:

- Tijorat banklari bilan O'zbekiston Respublikasi MB, Moliya vazirligi, DSq, bojxona qo'mitasi o'rtasidagi munosabat tamoyillari;
- Tijorat banklari bilan boshqa kredit muassasalari o'rtasidagi munosabat tamoyillari;
- Tijort banklari uning mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo'ladigan munosabat tamoyillari.

Bulardan tashqari barcha turdagi bank faoliyatiga talluqli bo'lgan **umumiy tamoyillar** jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Bank faoliyatida qonunlarga qat'iy amal qilish tamoili;
- Bank operatsiyalarining maqsadga muvofiq bo'lishi lozimligi;
- Bank axborotlarining dahlsizligi va qonun bilan muhofazalanishi.
- Bank faoliyati tadbirkorlik faoliyatining muayyan shakli ekanligi.

Tijorat banklari bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, DSq va bojxona qo'mitasi bilan o'zaro munosabatlari mohiyatiga ko'ra moliyaviy-ma'muriy munosabat bo'lganligi tufayli moliya xuquqi va ma'muriy xuquqqa xos bo'lgan tamoyillar amal qiladi.

Huquqshunoslik fanida bank huquqining manbalari **aktlar** deb tushuniladi, qonun normalarini belgilovchi davlat organlari, huquq normalarini belgilovchilardir.

Bank xuquqi milliy xuquq tizimining alohida tarmog'i sifatida ahloqiy va xuquqiy g'oyalarni umumlashtirilgan holda o'zida ifoda etuvchi tamoillarga

tayanadi. Bank xuquqining tamoyillari bu sohada xuquqiy munosabatlar yuzaga kelishi va tartibga solinishining o'ziga xos jihatlarini o'zida ifodalaydi. Bank xuquqi bir necha xuquq sohalari chegaralarida shakllanganligi tufayli o'zida ularning har biriga hos bo'lgan usullar hamda vositalarni jamlagan bo'lib, bunday holat uning tamoyillarida ham o'z ifodasini topadi.

Bank huquqi ommaviy xuquq (moliya, ma'muriy huquqlar, Konstitutsiyaviy xuquq), hamda xususiy xuquq (fuqarolik xuquqi, xo'jalik xuquqi) sohasiga oid normalar va qoidalar o'zaro qo'shilishi natijasida paydo bo'lganligi, uning tamoyillari ham shartli ravishda shunga mos guruhlariga ajratilishi mumkin.

SHunga ko'ra Markaziy bank bilan tijorat banklari va boshqa kredit muassasalari o'rtasidagi munosabatlarning tamoyillari, tijorat banklari bilan uning mijozlari bo'lgan jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabat tamoyillari alohida guruhga ajratilishi mumkin.

Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasidagi munosabatlar ommaviy-xuquqiy hususiyatga ega, chunki bu munosabatlar davlat tomonidan o'zining vakolatli organi – Markaziy bank orqali amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatining mahsulidir. SHu tufayli Markaziy bank va tijorat banklarining o'zaro munosabatlarida bo'ysunish, bir tomonning (tijorat banklarining), ikkinchi tomon (Markaziy bank) farmoyishlarini bajarishi majburiy ekanligi bir tomon (Markaziy bank) ko'rsatmalarining bajarilmasligi davlat majburlovi qo'llanilishiga (tegishli huquqiy yoki iqtisodiy jazo qo'llanilishiga) sabab bo'lishi kabi tamoyillar ustun turadi.

Tijorat banklari bilan ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar esa xususiy-xuquqiy, fuqarolik-xuquqiy munosabatlardan iborat. SHu tufayli bu munosabatlar imperativ qoidalar va tamoyillarga emas, balki taraflarning erkinligi, o'zaro tengligi, xuquqiy munosabatlarga kirishishning ixtiyoriyligi, o'zaro manfaatdorlik, tashabbus ko'rsatishning qonun doirasida hech narsa bilan cheklanmaganligi, majburiyatlar bajarilmagan taqdirda esa davlat majburlovi choralari emas, balki

tomonlar o‘zaro kelishib belgilaydigan mulkiy ta’sir choralari ko‘rilishi kabi tamoyillarga tayanadi. Tijorat banklarining boshqa kredit muassasalari, mijozlari bilan bo‘ladigan munosabatlari o‘zaro tenglikka, ixtiyoriylikka, manfaatdorlikka asoslangan fuqaroviy-xuquqiy munosabatlar bo‘lganligi sababli bunday paytda tovar-pul muomalasiga asoslangan, bozor iqtisodiga mos bo‘lgan fuqarolik-xuquqiy tamoyillari qo‘llaniladi va bu paytdagi aloqalar tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga tayanilgan holda olib boriladi.

Zamonaviy ilm-fan sohasida bir nechta huquq manbalari mavjud:

- **Huquqiy odat** – xalq tomonidan tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqilgan, odatga kirgan va davlat tomonidan mustahkamlangan bo‘ladi. Xususan, huquqiy odatni biz O‘zbekistan Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘rishimiz mumkin.

- **Huquqiy pretsedent** (lotincha . praecedens «oldingi, o‘tgan holat») — o‘tgan davrda yuzaga kelgan, bugungi kunda nimadir uchun asos yoki misol bo‘ladigan huquqiy holat. YOki davlat organining keyingi ishlar ko‘rib chiqilayotganda na’ muna sifatida olinadigan qarori;

- **Normativ huquqiy akt** – vakolatli organ yoki davlatning mansabdor shaxsi tomonidan belgilangan rasmiy yozma hujjat bo‘lib u o‘zgartirilishi, vaqtincha to‘xtatib turilishi yoki umuman bekor qilinishi, to‘xtatilishi mumkin.

Bank xuquqining manbalari bo‘lib jamiyatda bank faoliyatini amalga oshirilishi chog‘ida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik xujjatlari majmui tushuniladi. Bank xuquqi tarmoqlararo xususiyatga ega ekanligi, uning manbai sanaluvchi xuquqiy-me’yoriy xujjatlarning ham turli xuquq soxalariga taalluqli bo‘lishi mumkinligini belgilab beradi. Bunda Konstitutsiyaviy xuquq, moliya xuquqi, ma’muriy xuquq, fuqarolik xuquqi, xo‘jalik-tadbirkorlik xuquqi, protsessual xuquq soxalariga mansub bo‘lgan normalar etakchi o‘rin tutishi shubxasizdir. Ayni paytda jinoyat va jinoyat-protsessual xuquqi soxalari normalari ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Konstitutsiyaviy yoki davlat xuquqiy normalar moliya, pul-kreditning davlat va jamiyat hayotida muhim o‘rin tutishi, jamiyatni boshqarishning qudratli dastaklaridan ekanligi hisobga olingani holda bu soxada davlatning mavqei va ta’sir kuchini mustaxkamlashga qaratilgan tamoillarni belgilaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakat o‘z moliya va pul-kredit tizimiga ega ekanligi (Konstitutsiyaning 122-moddasi) qayd etilgan bo‘lsa, boshqa tegishli moddalarida moliya, pul-kredit masalalarida davlat organlari vakolatlari chegaralari, Oliy Majlis, uning palatalariga berilgan vakolatlar nazarda tutiladi. Ushbu Konstitutsiyaviy normalarda moliya, pul-kredit soxasidagi prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan davlat tadbirlarini ishlab chiqish, bu sohadagi qonunlar qabul qilish Oliy Majlis va qonunchilik Palatasiga taalluqli ekanligi ko‘zda tutiladi.

Bank xuquqiga oid ma’muriy-xuquqiy normalar Respublika bank tizimlarini boshqarish, tijorat banklari kundalik faoliyatini tekshirish – nazorat qilish, bank munosabati ishtirokchilari bo‘lgan jismoniy shaxslar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, o‘zga shaxslar mulkiy va boshqa qonuniy manfaatlarini ma’muriy-xuquqiy vositalar bilan himoya qilishga qaratilgan qoidalarni belgilab beradi.

Bank xuquqida ma’muriy-xuquqiy normalar bank tizimining yuqori (Markaziy bank) va quyi (tijorat banklari) pog‘onalari o‘rtasidagi munosabatlarda eng ko‘p qo‘llaniladi. Xususan, tijorat banklari faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan bank faoliyatini amalga oshirishlik uchun litsenziya (ruxsat) berish yoki uni qaytarib olish, iqtisodiy normativlarni belgilanishi, bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirilishi, tegishli sanksiyalarni qo‘lash – ma’muriy vositalar hamda ma’muriy-xuquq normalari bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Bank xuquqiga oid ma’muriy-xuquqiy normalar xaddan tashqari ko‘p sonli ekanligi va ular asosan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chiqariladigan idoraviy aktlardan iboratligi va ular oliy yuridik akt sanaluvchi qonunlar bilan qamrab olinmaganligi bank xuquqi manbaalarining o‘ziga xos

jihatlardan bo‘lib sanaladi. Bank xuquqi manbaalari orasida idoraviy me‘yoriy xujjatlar xukmron o‘rinda turishi bu soxadagi qonunchilik normalarini idoraviy manfaat nuqtai nazaridan, «O‘ziga xos» talqin etilishiga va shu yo‘l bilan ma‘muriy-buyruqbozlik ish uslublari saqlanib qolishi, tadbirkorlik sub‘ektlarining, birinchi navbatda tijorat banklarining qonuniy manfaatlari buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ma‘lumki, ma‘muriy-buyruqbozlik ish uslublari bozor tamoiillariga tamomila zid bo‘lib, tadbirkorlikni, tashabbuskorlikni, iqtisodiy erkinlikni cheklanishiga va oxir oqibatda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining to‘xtab qolishiga olib keladi.

Bizning nazarimizda ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda bank faoliyatini idoraviy me‘yoriy xujjatlar bilan tartibga solishdan ularni bevosita qonunlar vositasida tartibga solishga o‘tish vaqti etib keldi. Loqqal idoraviy me‘yoriy xujjatlar soni cheklanishi, ularga tez-tez o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishdan iborat noma‘qul amaliyotdan voz kechib, me‘yoriy xujjatlar amal qilishining barqarorligi ta‘minlanmog‘i dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bank xuquqida fuqarolik xuquqiga oid bo‘lgan normalar etakchi o‘rin tutadi. Zeroki bank faoliyati asl maqsad-mohiyatiga ko‘ra jismoniy shaxslar, tadbirkorlik sub‘ektlari va o‘zga shaxslarga bank xizmati ko‘rsatishdan iborat bo‘lib, bank-mijoz munosabatlari mutlaqo fuqarolik xuquqiy tamoiillarga ko‘ra (ixtiyoriylik, tenglik, o‘zaro manfaatdorlik va boshqalar) yuzaga keladi va amalga oshadi.

Bank muassalarining yuridik shaxs maqomi, ularni ta‘sis etilishi, mulkiy maqomi, tarkibiy tuzilishi (vakolatxona va filiallar maqomi), qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalar fuqarolik kodeksida va boshqa fuqarolik qonun xujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan bank operatsiyalari aslida ularning o‘z mijozlari bilan tuzadigan fuqarolik-xuquqiy bitimlaridan iborat bo‘lib, bitimlar tuzish va ijro etishga oid bo‘lgan bosh qoidalar Fuqarolik kodeksida

belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-bobi 101-128 moddalar).

Tijorat banklari o‘z mijozlari va o‘zga shaxslar bilan iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, bu munosabatlarni o‘zaro tuzilgan shartnomalar asosida yuridik jihatdan mustaxkamlaydi. Bunday shartnomalar Fuqarolik kodeksining shartnoma to‘g‘risidagi umumiy qoidalariga (26, 27, 28 boblar, 353-385 moddalar) amal qilishi lozim bo‘ladi.

Tabiiyki, bank va mijoz munosabatlarida majburiyatlarni buzilishi (bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi) uchun javobgarlik yuz berishi, hamda qo‘llanilishiga oid munosabatlar ham fuqarolik qonunchiligi normalari bilan tartibga solinadi.

YUqorida qayd etilganlardan tashqari, Fuqarolik kodeksida bank faoliyatining ayrim turlari va ularning xuquqiy asoslari nazarda tutilgan bo‘lib, bu asoslar bankka oid munosabatlarni kundalik qonunchilik va qonun osti xuquqiy xujjatlari bilan tartibga solinishi uchun yuridik baza vazifasini ham bajaradi. Jumladan, kredit, bank omonati, hisob-kitoblar, bank hisob varag‘i kabi masalalar Fuqarolik kodeksining maxsus boblarida nazarda tutilgan. Bozor munosabatlari sharoitida tovar-pul muomalasi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hamda universal qonunchilik tarmog‘i sifatida fuqarolik xuquqi normalari bank faoliyatining boshqa soxalarida (masalan, valyutaga oid munosabatlar, banklar tomonidan qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish) ham keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi uning Konstitutsiyasi, respublikaning ichki qonunchiligiga va xalqaro kelishuv hamda bitmlarga asoslanadi.

SHu tariqa O‘zbekiston Respublikasi birinchi konstitutsiyasi o‘zida bank huquqi uchun muhim bo‘lgan qator normalarni mujassamlashtirgan, shular O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini huquqiy boshqaruvini amalga oshiruvchi qonunlarning asosi hisoblanadi.

Birinchiidan, unda bank huquqi faqatgina davlat organlari tomonidan belgilangan qonunlar bilan amalga oshirilishi belgilangan.

Ikkinchiidan, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati huquqi, shu bilan birga bank xizmatlari taklifi konstitutsiya normalariga asoslangan. Uchinchiidan, qonunlar respublikada yagona iqtisodiy muhit, tovar, xizmat va moliyaviy mablagʻlarning erkin xarakatlanishi, raqobatni qoʻllab quvvatlash, iqtisodiy erkinlik faoliyati kafolatlashga huquqiy zamin yaratadi.

Respublikaning Konstitutsiya normalari bank huquqini bank faoliyatiga tegishli yoki uni cheklashi mumkin boʻlgan konstitutsion normalarni hosil qiladi. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin:

- bevosita bank faoliyatiga aloqador, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bank meʼyoriy hujjatlari, normativlari;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini tartibga solish;

- huquqiy tartibga solishni vakolat va darajasini belgilash va boshqalar.

Bank huquqiga konstitutsiyaning tartibga solish asosini xisobga olganda konstitutsiyaning faqatgina qonunchilik prinsipi asoslarini oʻzida jamlashini inobatga olishimiz kerak. Bularga, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, hech kim shaxsni sud qarorisiz oʻz mulkidan maxrum qila olmaydi. SHuningdek, xar bir fuqaro qonuniy belgilangan soliq va yigʻimlarni toʻlashi majburligi belgilangan. SHu va bir nechta boshqa normalar kelishmovchilik yuzaga kelganda aynan shu qonunlarni qoʻllash imkonini beradi. SHuningdek, konstitutsiyada shunday normalar borki, ular tarmoq qonunlarining qabul qilinishiga ehtiyoj qoldirmaydi va aniq belgilangan tartibga solish potensialiga egadir. Bank huquqiga tegishli boʻlgan normalarga yana Markaziy bank boshqaruvini belgilash va uni xisoboti toʻgrisidagi normalarni aytib oʻtsak boʻladi.

Ushbu xususiyatlar taklif va qoʻshimchalarni tahlil qilish orqali aniqlanishi mumkin. Ushbu taklif va qoʻshimchalar qonun loyixasi muxokamasi vaqtida aytilishi va turli xil ijtimoiy guruhlar va xarakatlarni talablarini oʻz ichiga olgan va ushbu qonunlarda oʻz aksini topgan boʻlishi lozim.

Bank faoliyatini tartibga solishda qonun osti normativ hujjatlar katta rol o'ynaydi. Umuman olganda bank huquqiga ko'p darajali normativ boshqaruv xos bo'lib buni ijobiy omil ham aytish qiyin. Odatda qonunosti hujjatlarning ko'pligi faoliyat va boshqaruvda to'g'ri qaror qabul qilishda chalkashliklarga yo'l qo'yishga olib kelishi mumkin.

Qonun osti hujjatlar tizimida avvalo qonun asosida va uni yanada takomillashtirish uchun qabul qilinadigan Prezident farmonlarini keltirsak bo'ladi. Bank faoliyati qonunchiligiga qator Prezident qarorlari tegishli.

Qonun osti normativ hujjatlarning asosiy qismini Markaziy bank vakolatida bo'lgan va u tomonidan chiqarilgan farmon, ko'rsatma va yo'riqnomalar egallaydi.

Markaziy bank normativ hujjatlari:

-Davlat organlariga, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy;

- Ular qonunlarga zid bo'lmasligi lozim;

-Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari rasmiy nashrida e'lon qilingandan so'ng yoki belgilangan muddatlarda kuchga kiradi. Bank boshqaruvi tomonidan belgilangan istisno xolatlardan tashqari;

-Teskari kuchga ega emas;

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yhatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak.

Markaziy bankning davlat ro'yhatidan o'tishi majburiy bo'lmagan normalari ham mavjud bo'lib ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

-So'mga nisbatan xorijiy valyuta kursi;

-Foiz stavkasining o'zgarishi;

-Rezerv talablari miqdori;

-Kredit tashkilotlari va banklarga majburiy normativlar miqdori;

-To'g'ridan-to'g'ri miqdoriy cheklovlar;

-Markaziy bank uchun buxgalteriya xisobi va xisoboti qoidalari;

-Markaziy bank va tijorat banklari faoliyatiga doir ba'zi hujjatlari yoki farmoyishlari bo'lishi mumkin.

YUqoridagilardan kelib chiqib bank huquqining manbalarini **ikki guruhga** bo‘lish mumkin:

- 1) bank faoliyatini muvofiqlashtiruvchi manbalar;
- 2) bank faoliyatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri dahldor huquqiy manbalar.

Bank huquqining manbalarini bank faoliyatiga oid bo‘lgan, muvofiqlashtiruvchi ichki va tashqi rasmiy munosabatlarning normalarini o‘zida ifoda etadi. Bank huquqining manbalariga quyidagilar kiradi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi;
- 2) xalqaro huquq normalari;
- 3) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari;
- 4) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsion sudining qarorlari;

5) bank faoliyatiga doir qonunlar: «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Garov reestri to‘g‘risida”gi, “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Bank siri to‘g‘risida”gi, ” Fuqarolarning banklardagi omonotlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi, “ Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlar,”Fuqarolik kodeksi”, “Jinoyat kodeksi”, “Soliq kodeksi va boshqa qonunlar;

6)banklarning ichki me‘yoriy hujjatlari. Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlari, farmoyishlari, yo‘riqnomalari, normativlari va boshqalar.

Bank xuquqi manbai sanaluvchi qonunlar orasida etakchi o‘rinni «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi, hamda «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlar egallaydi. Bular tayanch qonunlar sifatida bank faoliyatiga oid munosabat ishtirokchilarining umumiy xulqi-atvor qoidalarini,

bank tizimini boshqarishi, bank soxasidagi tadbirkorlik va moliya-kredit xizmatlaridan foydalanish jarayonidagi xuquqiy xolatlarini belgilab beradi.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonun Markaziy bankning xuquqiy maqomi hamda asosiy maqsad va vazifalarini aniqlaydi. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida tijorat banklarining bank faoliyatini amalga oshirish chog‘idagi xuquqiy holati, bank faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirishga oid normalar va qoidalar nazarda tutiladi.

Fuqarolik kodeksi bozor iqtisodiyoti tizimi sharoitidagi asosiy qonun sifatida tovar-pul munosabatlarining barcha asosiy turlarini, shu jumladan, bank faoliyatiga oid munosabatlarni ham tartibga soladi. Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalari bilan bir qatorda bevosita bank xizmatlari ko‘rsatish (kredit, omonat, xisob-kitob ishlari va boshqalar)ga oid bo‘lgan normalari bank xuquqi manbaalaridan bo‘lib sanaladi;

Bank xuquqiga va bank faoliyatiga taalluqli bo‘lgan qonunlar son jihatdan anchagina bo‘lsada, ammo qonun osti aktlari, ya’ni qonunlar ijrosini ta’minlash, ularda belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan xuquqiy xujjatlar o‘z massasi va qamrovi jihatdan bank xuquqi manbalari orasida salmoqli o‘rin egallaydi. Bunday hol bank munosabatlariga oid barcha jihatlar, kundalik hayotda yuz berib turadigan tipik vaziyatlarni qonunlar bilan batamom qamrab olish va ularning barchasini qonunlarda nazarda tutish mumkin emas. Chunki xozirgi bozor munosabatlari shakllanib borayotgan shiddatli zamonda bank faoliyati uzluksiz rivojlanish va takomillashish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu jarayonlarni oqilona boshqarish. Kundalik muammolarni tezkor usullarda hal etish qonunosti xujjatlarisiz mumkin emas.

Bank xuquqi soxasida qonunosti xuquqiy xujjatlari qabul qilish xuquqiga ega bo‘lgan davlat organlari doirasi qonun xujjatlari bilan belgilangan bo‘lib, ularning

har biri o'zlariga yuklatilgan vazifalar hamda berilgan vakolatlar doirasida xuquq normasi ijodkorligi bilan shug'ullanadilar.

Bank xuquqi manbai sanaluvchi qonunchilik aktlari yuridik kuchiga, qo'llanilish soxasiga va maqsad-vazifalariga ko'ra tasniflanishi mumkin.

Yuridik kuchiga ko'ra bank xuquqi manbaalari bo'lgan qonun xujjatlari ikki asosiy guruhga: a) qonun aktlari va b) qonunosti aktlarga bo'linishi mumkin. Qonunlar ham ularda xalq va davlat erkinining ifodalanish miqyosiga ko'ra Konstitutsiya va Konstitutsiyaviy qonunlarga hamda joriy qonunlarga bo'linadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi moliya, pul-kredit tizimi asoslari, bank tizimini davlat boshqaruvi asoslari mustahkamlanadi.

Bank-huquqiy jihatdan tartibga solishning umumiy belgilari ba'zi kamchiliklari:

a) ko'p tartib-qoidalar bo'yicha tartibga solinishi, ularning 80 foizi normativ-huquqiy hujjatlarga to'g'ri keladi;

b) ba'zi huquqiy aktlarning nomutanosibliigi;

v) bozorgacha, xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan vaqtlarda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarning mavjudligi;

g). huquqiy tartibga solishning dinamikasining mavjud emasligi;

e) rasmiy manbalar yoki ilgari nashr etilgan manbalarning rasmiy nashrlarining etarli emasligi va boshqalarni keltirish mumkin.

Markaziy bank normativ hujjatlari sudda boshqa davlat organlari huquqiy hujjatlari kabi muhokama va munozara etilishi mumkin.

Xalqaro huquq hujjatlari va odatlari.

Bank faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro huquq hujjatlari, boshqa xalqaro huquq hujjatlari xususiyatiga ega. Ularga:

-Tajriba yoki kelishuv orqali belgilangan odat;

-Ularni amalga oshirish mehanizmi murakkabligi xususiyati;

-O'zining ko'p jihatlari bilan ushbu normalar milliy qonunchilikda o'z aksini topishi lozimligi va boshqalarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda bank faoliyati unifikatsiya va standartlashuviga intilishi xalqaro huquqiy hujjatlarning ahamiyatini oshirmoqda. Tabiiyki pul oqimining samaradorligini oshirish uchun, to'lov munosabatlarining barcha ishtirokchilari, misol uchun "akkreditiv" termini ularga qaysi milliy qonunchilik bilan ishlashidan qat'iy nazar bir xil tushunishlari zarur. Agar turli xil mamalakatlarining banklari to'lov hujjatlari va operatsiyalarni turlicha tushunishsa va talqin etishsa nafaqat to'lov operatsiyalari samaradorligi tushadi, balki ularni amalga oshirish mumkin bo'lmay qoladi. Bank qonunchiligi hujjatlari guruhlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

Birinchi guruhga bank operatsiyalarining ayrim turlarini amalga oshirish qoidalari kiradi. Ushbu xujjatlarning o'ziga xosligi shundaki, ularning kuchi barcha ishtirokchilarga tegishli bo'lishi va qo'shimcha izoh talab etmasligi lozim. Agar tomonlar bunday bo'lishini istashmasa ular shartnomada aynan shu akkredetivga masalan, unifikatsiyalashgan qoidalar qo'llanilmasligini belgilashlari zarur bo'ladi. Inkasso unifikatsiyalashgan qoidasida "ushbu ko'rsatma va keyingi moddalar barcha inkassoga tegishli... va barcha ishtirokchilar uchun majburiy, agar aksi to'g'ridan to'g'ri kelishilmagan bo'lsa" deganga o'xshagan yozuvlar kiritilishi lozim bo'ladi..

Ikkinchi guruh hujjatlariga ikki yoki bir nechta davlat tomonidan tuzilgan konvensiyalar kiradi.

Ushbu konvensiyalarga Jenevaning oddiy va o'tkazma veksellar to'g'risidagi konvensiyasini misol qilsak bo'ladi. CHEklar to'g'risidagi konvensiya, huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi konvensiyalar va boshqalarni misol qilsak bo'ladi. Alohida o'rinda xalqaro tashkilot tomonidan standartlash uchun ishlab chiqiladigan xalqaro bank standartlari turadi. Ushbu standartlar o'zida bank hujjatlarini to'ldirish to'g'risidagi texnik talablarning yig'indisini tashkil etib, ular texnik qo'mita tomonidan tuziladi. Ularga rioya qilish xalqaro bank amaliyotida

ishlatilgani uchun alohida huquqiy ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bank hujjatlarini to'lov topshiriqnomasi, bank cheklari orqali pul o'tkazish identifikatsion kartochka va boshqa turli hujjatlarga qo'l qo'yuvchi rasmiy shaxs to'g'risidagi standartlar ishga tushirilgan.

Uchinchi guruhga munozara vaqtida murojat qilinishi shart bo'lgan xalqaro huquqiy hujjatlar kiradi. Ularga, misol uchun inkassa to'g'risidagi unifikatsion qoida kiradi. Unga ko'ra, banklar xaqqoniy shaffof ishlashlari zarur.

Ushbu hujjatning boshqa normasiga ko'ra bank o'z majburiyatlarini bajarishi ustida javobgar hisoblanadi..

SHunday qilib, ko'rib chiqilayotgan normalarni bilish ikki xil xarakterga ega:

- Ular bir davlatdan ko'p bo'lgan barcha bank operatsiyalariga qo'llaniladi.
- Ulardagi qoidalar bir davlatning milliy qonunchiligida belgilanishi mumkin.

Bank huquqi barcha tashkilotlar va turli xil korxonalar o'z mablag'larini bankda saqlashlari va belgilangan naqdsiz xisob kitob qoidalariga rioya qilishlari shartligiga asoslanadi. Qonunchilikda kredit tashkilotlarda ochilishi mumkin bo'lgan xisob varaqlar, xisob kitob shakllari va xisob kotobni amalga oshirish tartibi belgilangan.

SHu sababli barcha bank tizimini va bank operatsiyalarini tartibga soluvchi qoidalar kompleksini shakllantiradi. Undan tashqari, bank faoliyati huquqi boshqa milliy tarmoqlar huquqlarini o'z ichiga oladi.

Ma'muriyat huquqi normalari kredit tizimi boshqaruvi asoslari va bank tizimi tuzilishini tartibga soladi. Bundan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, **bank qonunchiligi kompleks tarmoqlar yig'indisidir**. Ushbu normalarning kompleksligi bank huquqining kelajakda mustaqil tarmoq bo'lishi mumkinligidan dalolat berishi mumkin. Bank huquqi yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy huquqining tarkibiy qismi, asosi hisoblanadi deb aytsak bo'ladi. Chunki, bank huquqi monitar-fiskal siyosatni yuritish, iqtisodiyotni pul-kredit orqali muvofiqlashtirish, markazlashgan fondlarning mobilizatsiyasi, taqsimlash va ishlatish, davlat boshqaruviga asoslanadi.

Bank huquqiga ko'rsatib o'tilgan ikki metod xam xos. Birinchi metodga ko'ra, davlat to'g'ridan to'g'ri va bilvosita munosabatlar subektlarini xarakatini tartibga soladi. Ikkinchi metodga ko'ra esa, davlat faqatgina chegaralarni belgilaydi.

Bank huquqi tizimiga nafaqat bank faoliyati, strukturasi, organlarning huquqiy statusi to'g'risidagi qoidalari, balki, munosabatlarni tartibga soluvchi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni, kreditlashni va valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi qoidalari ham mavjud.

Albatta, ayrim hollarda bank qonunchiligining imkoniyatlarini ko'rib chiqish bo'yicha professional qaror qabul qilish har doim maxsus muhokamani talab qiladi. Biroq, bank qonunchiligining maqsadlariga xosligi bo'yicha, ularni amalga oshirish imkoniyatlarining aniq g'oyasi bo'lishi kerak. Aks holda xususiy huquqni tartibga solish usullarini qo'llash sohasida ham, qonunchilik, jamoat manfaatlarining, xalq irodasini ifoda etadigan bank qonunchiligi ham o'zining tartibga solish funksiyasini yo'qotishi mumkin. SHuni hisobga olgan holda, birinchidan, bank qonunchiligini to'g'ri tashkil etish va bank qonunchiligini amalga oshirish (birinchi navbatda tatbiq etilishi) bilan bank tizimining quyidagi holatini ta'minlashi mumkin:

- banklarning tashkiliy, boshqaruv va tartibga solish tizimlarining barqarorligi;
- bank faoliyati, xatti-harakatining prognozi;
- bank operatsiyalarining ishonchliligi;
- tijorat banklarining likvidligi va ularning resurslari barqarorligi;
- bank xizmatlarining turlari va sifati va boshqalar.

Ikkinchidan, bank huquqi manbalari, ularning shakllanishi, tarkibiy strukturasi, ularning faoliyati, foydalanish usullari, banklararo munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlarining minimal kafolatlarini belgilab beradi, ular maxsus bank me'yorlari bilan cheklanmaydi. Ushbu huquqlar va erkinliklar orasida mol-

mulk huquqiga, to'g'ri ma'lumotga, boshqa qonuniy huquq va erkinliklar va boshqalarga nafaqat O'zbekiston fuqarosi va yuridik shaxslar ham ega bo'lishi lozim.

4-§. Bank huquqining uslublari va tizimlari

Huquq sohasining predmeti deganda ushbu huquqqa oid normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar majmui tushunilsa, uning uslubi deganda mazkur ijtimoiy munosabatlarni qanday qilib (qanday vositalar xamda usullar bilan) tartibga solinishi nazarda tutilmog'i lozim. Bank huquqining uslublari deganda bank huquqi sanalmish munosabatlarni huquqiy tartibga solish maqsadida xizmat qiladigan vositalar, tartiblar majmuasi ko'zda tutiladi.

Odatda bank huquqida ikkita usul qo'llaniladi: dispozitiv va imperativ. **Dispozitiv** (xususiy - huquqiy) metod shartnoma majburiyatlarida o'z aksini topib, bank . konuniy munosabatlari qatnashchilarining teng huquqliligi va ixtiyoriyligi bilan ajralib turadi. **Imperativ metod** (hokimiyat va bo'y sunishlik metodi) – bir sub'ektni boshqasiga bo'ysunishida namoyon bo'ladi, masalan, litsenziya olish va nazorat qilish jarayonlarini aks ettiradi. Bu ikki metod birgalikda bank munosabatlarini huquqiy tartibga solishning **kompleks metodini** tashkil qiladi.

YUqorida qayd etib o'tilganidek, bank huquqi predmeti sanaluvchi munosabatlar ikki yoqlama xususiyatga ega. YA'ni, bir tomondan, tijorat banklari va ularning mijozlari o'rtasida xususiy-huquqiy (ixtiyoriylik, shartnomaviylik va xokazo) tamoyillariga asoslansa, Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasida esa ommaviy huquqiy (bir tarafning ikkinchi tarafga bo'ysunishi) qoidalariga tayanadi. Ushbu xolat bank huquqining uslublari ham o'z ifodasini topgan.

Tijorat banklari va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish chog'ida fuqarolik huquqiga xos bo'lgan uslublardan, ya'ni taraflarning tengligi, huquqiy munosabatga kirishishining ixtiyoriyligiga, huquq va majburiyatlarni xamda javobgarlikni belgilashning asosiy vositasi shartnomalar

ekanligiga tayanuvchi vositalardan foydalaniladi. Tijorat banklari Markaziy bank bilan munosabatga kirishganida, ayrim xollarda tijorat banklarining mijozlari bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishtirok etadigan munosabatlarda ham ommaviy xuquqiy usul va vositalardan foydalaniladi. YA'ni bank xuquqiy munosabatlari ishtirokchilariga yuklatilgan majburiyatlar bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani taqdirda ularga nisbatan davlat majburlovchi usullarini tatbiq etilishi mumkin. Bunday munosabatlarda ishtirok etuvchilarning xuquqlari hamda majburiyatlari davlat erki-irodasini ifoda etuvchi me'yoriy-xuquqiy xujjatlar bilan qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, ular taraflar xoxish istagiga ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Xuquqiy va iqtisodiy (moliyaviy) ta'sir o'tkazish (xuquqiy javobgarlikka tortish, moliyaviy jarima qo'llash) choralari moxiyat e'tiboriga ko'ra bankka oid xuquqiy munosabat ishtirokchilari xulq-atvoriga ta'sir o'tkazish, ular xatti-xarakatlarini qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlash usullaridandir.

SHunday qilib, bank xuquqining uslublari deganda shartnoma asosida yoki qonun xujjatlarida nazarda tutilgan davlat majburlovini qo'llash taxdidi bilan bankka oid munosabat ishtirokchilari xulq-atvorlariga ta'sir o'tkazish, bu xulq-atvorni shartnomaga, qonunchilik aktlari talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi tadbirlar va vositalarning yig'indisi tushunilmog'i kerak. Mamlakatimizda bozor munosabatlari chuqurlasha borishi, bank soxasida erkinlashtirishning kuchayishi, bozor iqtisodiy isloxotlarining amalga oshirila borishi bilan bank xuquqining uslublari ham takomillashib, tobora kengayib boraveradi.

Bank xuquqi yangi xuquq tarmog'i sifatida shakllanish jarayonini boshdan kechirmoqda va ayni paytda u yaqqol ifodalangan tizimga ega bo'lib qoldi. Ma'lumki, tizim bu aloxida-aloxida elementlarning o'zaro bog'lanishidan xosil bo'lgan yaxlitlikdan iboratdir. Bank xuquqi ham xuquq soxasi sifatida yagona ko'rinishga ega va ayni paytda o'ziga xos belgi hamda xususiyatlarga ega bo'lgan tarkibiy qismlar yig'indisidan iborat.

Bank xuquqi tizimi va bank qonunchiligi tizimi o‘zaro farqlanmog‘i lozim. Bank xuquqi – xuquq soxalaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi bank soxasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish, tadqiq qilish va shu asosda xuquqiy tartibga solish samaradorligini oshirish, nazariy xulosalarga tayangan xolda mavjud muammolarni hal etish yo‘llarini axtarib topishdan iborat. Bank xuquqi soxasining asosiy vazifalaridan biri - bank soxasidagi malakali xamda zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularga nazariy va amaliy ko‘nikmalar berishdan iborat.

Bank xuquqi umumiy va maxsus qismlarni qamrab oluvchi ichki tizimga ega bo‘lib, uning umumiy qismida universal xususiyatga ega bo‘lgan tushunchalar, institutlar ya’ni; Bank xuquqining kelib chiqish ijtimoiy iqtisodiy asoslari, tushunchasi, predmeti, o‘rganish uslublari, manbalari va tamoyillari, Bankka oid xuquqiy munosabatlar va ularning yuzaga kelish asoslari, ob’ektlari va sub’ektlari o‘rganiladi. Bu xuquq soxasining maxsus qismida bankka oid ijtimoiy munosabatlarning aloxida va aniq maqsadga qaratilgan guruxlari tartibga solinadi. Jumladan, Markaziy bankning tijorat banklarini boshqaruv faoliyati, mijozlarga bank xizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar va ularni xuquqiy tartibga solish, Bank sirining xuquqiy asoslari va boshqalar nazarda tutiladi. Bank qonunchiligi tizimi bank xuquqlari tizimlaridan farqli o‘laroq muayyan qonun aktlari tuzilishi, tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi, bank qonunchiligi tizimini tashkil etadi. Bank xuquqi va bank qonunchiligi tizimi, ularning tarkibiy elementlarga bo‘linishi ularni o‘rganishni osonlashtiradi.

Bank xuquqi o‘zida xo‘jalik (tadbirkorlik) xuquq sohasiga xos bo‘lgan normalarni ham mujassamlashtiradi. Ma’lumki, tijorat banklari tijorat tashkiloti, tadbirkorlik faoliyati sub’ektidir. SHu sababli bank faoliyati amalga oshirilishida tadbirkorlik faoliyatiga oid bo‘lgan (ularni tashkil etilishi, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi, foyda (daromad) olishi va ularni tasarruf qilish, xo‘jalik shartnoma aloqalarini o‘rnatish. Tadbirkorlik sub’ekti sifatida davlat himoyasi va kafolatlari-dan foydalanish va boshqalar) normalar to‘liq tatbiq etiladi.

Xo'jalik xuquqi nazariyasi tarafdolari uzoq vaqt davomida bank xuquqi xo'jalik xuquqining bir tarmog'i ekanligini uqdirib keldilar. M.L. Koganning fikricha banklar ishtirok etadigan munosabatlar xo'jalik munosabatlaridan iborat.¹⁴ I.A. Tanchuk esa ssuda va kreditga oid xuquqiy munosabatlarni xo'jalik munosabatlari tizimidagi tarkibiy qismlaridan biri deb xisoblaydi.¹⁵ Ammo, bozor munosabatlarining tobora chuqurlashib borayotganligi va iqtisodiy islohotlar natijasida yuz berayotgan o'zgarishlar xuquq soxalaridagi tabaqalanishni kuchayishiga va avval muayyan xuquq soxasi tarmog'i bo'lgan qonunchilik tizimlarini alohida xuquq soxasi bo'lib shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Bank xuquqi ham bozor munosabatlari tobora rivojlanib barayotgan sharoitda bank xizmati ko'rsatish miqyosi, diapazoni keskin kengayishi, bu soxaga oid qonunchilikning tubdan o'zgarishi tufayli alohida xuquq soxasi bo'lib shakllanmoqda.

Bank xuquqi jinoyat xuquqi, fuqarolik va xo'jalik protsessual xuquqlari normalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan qator moddalar bank faoliyati, pul muomalasi, valyuta munosabatlari bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo choralari nazarda tutadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasida qalbaki pul yasash va ularni o'tkazganlik uchun, 178-moddada chet el valyutasini yashirganlik uchun javobgarlik choralari belgilangan). Fuqarolik protsessual va xo'jalik protsessual qonunchilik normalari banklar bilan o'zga yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasida mulkiy yoki boshqa nomulkiy shaxsiy nizolar yuz berganda ularni hal qilish uchun sudga murojaat qilish, nizoni ko'rib hal etish va chiqarilgan sud qarorlari ijrosini ta'minlash qoidalarini nazarda tutadi. Bank xuquqi bank faoliyatini tartibga solinishi jarayonida boshqa xuquq soxalari (masalan, soliq xuquqi, bojxona xuquqi, sug'urta xuquqi va boshqalar) normalariga ham murojaat

¹⁴ Коган М.Л. Правоотношения между Госбанком и объединениями. Ж. Советское государство и право. 1974 г. №1. с. 60.

¹⁵ Танчук И.А., Ефимочкин В.П., Абова Т.Е. Хозяйственные обязательства. М., 1970 г., с. 36.

qiladi. Biz quyidagi ana shunday davlat organlari vakolatlarini ko'rib chiqamiz
jumladan:

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 94-moddasiga muvofiq: «O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib, hamda ularni ijro etish yuzasidan respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi». SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda «Normativ-xuquqiy xujjatlar to‘g‘risida»¹⁶ gi qonunining 10-moddasida ham «O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Konstitutsiya va qonunlar asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar shaklida normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qiladi» deb qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti bank-moliya, soliq, pul-kredit, valyuta sohasidagi islohatlarni yanada chuqurlashtirish, uning yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish, umummamlakat miqyosidagi yuksak ahamiyatli masalalarni hal etish, davlat boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalarni belgilash yuzasidan farmonlar chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasida bank-moliya tizimlarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi, bank-moliya soxasidagi islohotlarni ro‘yobga chiqarilishida Prezident farmonlari juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida chiqarilgan farmonlarda iqtisodiy barqarorlikka erishish, inflyasiya jarayonlarini jilovlash, bank-moliya tizimini yuzaga keltirish, pul muomalasini mustahkamlash kabi vazifalar ilgari surilgan bo‘lsa, keyinchalik bank-moliya muassasalari faoliyatini bozor munosabatlariga moslashtirish, ular faoliyatini erkinlashtirish va barqarorlashtirish ustivorlik kasb etdi. So‘nggi yillarda chiqarilgan farmonlarda esa bank-moliya tizimlari soxasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jahon ilg‘or tajribasini keng joriy

¹⁶O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001 y., №1-2, 6-modda.

etish va shu orqali makroiqtisodiy yuksalishni ta'minlash, valyuta munosabatlarini yanada erkinlashtirish vazifalari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga binoan Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining bunday vakolati «Normativ-xuquqiy xujjatlar to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida va «Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonunning 20-moddasida ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bank-moliya tizimlarini yanada takomillashtirish, pul-kredit siyosatining ro'yobga chiqarilishida tegishli tuzatishlar kiritishga qaratilgan ko'plab qarorlar qabul qilgan bo'lib, ular vositasida pul muomalasini barqarorlashtirish, hisob-kitob ishlari samaradorligini oshirish, moliyaviy oqimlarni yo'naltirish va boshqarish vazifalari ado etiladi.

Idoraviy (tarmoq) davlat boshqaruv organlarining me'yoriy xujjatlari.

qonunosti aktlari qonunchilik xujjatlarining quyi pog'onasi bo'lib, bank tizimini bevosita boshqaruvchi organlar qabul qiladigan idoraviy aktlar sanaladi. Bunda Moliya Vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa tarmoq vazirliklari hamda idoralari tomonidan qabul qilinadigan normativ xujjatlar ma'lum ahamiyatga ega bo'lsada, biroq bu soxadagi xuquqiy norma ijodkorligi bilan shug'ullanuvchi asosiy davlat boshqaruv organi, bu O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidir. Ushbu organning normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilishga vakolatli ekani «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida mustahkamlangan. Unda: «Markaziy bank o'z vakolatlari

doirasida O‘zbekiston Respublikasi xududida barcha shaxslar ijro etishi majburiy bo‘lgan normativ xujjatlar chiqaradi». O‘zbekiston Respublikasining «Normativ-xuquqiy xujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning 12-moddasida vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar o‘z vakolatlari doirasida normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilishlari mumkinligi ko‘rsatib qo‘yilgan. Idoraviy, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilinadigan normativ-xuquqiy xujjatlarning kuchga kirish vaqti yuzasidan «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan qoida bilan «Normativ-xuquqiy xujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning 26-moddasida ziddiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunni 7-moddasi, 2-qismiga ko‘ra: «Markaziy bankning normativ xujjatlari, agar xujjatning o‘zida o‘zga qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi» deyilgan. Biroq, «Normativ-xuquqiy xujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning 26-moddasi, 3-qismida: «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-xuquqiy xujjatlari, agar xujjatning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan so‘ng, o‘n kundan keyin kuchga kiradi» deyiladi. Ushbu ziddiyat «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonuniga tegishli o‘zgartirish kiritilish yo‘li bilan bartaraf qilinishi lozim.


«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan norma ijod qilish faoliyati yuzasidan yana bitta noaniqlikka yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, bu hol amaliyotda turli anglashilmovchiliklarga sabab bo‘layotganligi kuzatiladi. SHunga ko‘ra bizning nazarimizda ushbu qonunning 7-moddasida Markaziy bank tomonidan chiqariladigan normativ xuquqiy xujjatlarning shakli (buyruqlar, qarorlar) aniq ko‘rsatib qo‘yilmog‘i lozim. Telegrammalar, faksogrammalar, bayonnomalar, ko‘rsatmalar kabi qonunda ko‘zda tutilmagan shakllarda normativ ko‘rsatmalar berishga urinish, yaroqsiz amaliyot turli o‘zboshimchaliklar uchun imkon tug‘diradi va quyi tashkilotlarning o‘rinli e‘tirozlariga ham sabab bo‘ladi. Ayni

paytda qonunda Markaziy bank normativ-xuquqiy xujjatlaridan norozi bo'lgan, ularning qonuniyligiga asosli shubhasi bor shaxslarga bu normativ xujjatlar hususida nizolashish xuquqlari aniq belgilab qo'yilmog'i lozim. Davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy xarakatlari ustidan shikoyat berish va ularni bekor qilishning hozir amalda bo'lgan tartibi faqat individual aktlarga va xususiy fuqarolar xuquqlari buzilgan chog'da qo'llash uchun mo'ljallangan.

Endi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilinadigan normativ-xuquqiy xujjatlar miqyosi va mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratsak, bu normativ-xuquqiy xujjatlar mohiyatan qonun bilan Markaziy bank oldidagi maqsadga va yuklatilgan vazifalar mazmuniga mos keladi. Ular juda ham keng qamrovli bo'lib, tijorat bank muassasalari xamda boshqa kredit muassasalari faoliyatining barcha jihatlariga taalluqlidir. Ushbu normativ xuquqiy hujjatlar tijorat bank muassasalari va boshqa kredit muassasalarini tashkil etilishidan tortib, ular faoliyatini yo'lga qo'yilishi, tekshirish va nazorat qilinishi, ma'muriy va iqtisodiy sanksiyalarni qo'llanilishi, omonat va hisob-kitob ishlarini, xalq xo'jaligini kreditlashni amalga oshirilishi, valyuta nazoratini olib borilishigacha bo'lgan sohalarni o'z ichiga oladi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan norma ijodkorligi faoliyatining qonun talablari doirasida oqilona amalga oshirilishi tijorat banklari faoliyatida qonuniylikni hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim sharti bo'lib sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi va boshqa tarmoq (funktional) organlar me‘yoriy xuquqiy xujjatlari idoraviy aktlari ham tegishli ravishda bank xuquqi manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xisob-kitob va bank ishiga oid xalqaro huquqiy hujjatlar (konvensiyalar, xalqaro shartnomalar va boshqalar) ham bank xuquqi manbai sanaladi.



3-rasm. Bank huquqining manbalari

5-§.Bankga oid munosabatlarda nizolar va ularni hal etilishi.

Qonuniylik va ijtimoiy adolatni ta‘min etilishi bozor munosabatlari to‘la qaror topishi hamda huquqiy davlat barpo etilishining zaruriy shartlaridandir. Qonuniylik va ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya etilishi eng avvalo xar bir fuqaro, har bir tadbirkorlik sub‘ekti huquqlari va manfaatlarini qonuniy himoyalanihini ta‘minlay olishida o‘z ifodasini topadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida; “Xar bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-xarakatlari ustidan sudga shikoyat qilish xuquqi kafolatlanadi” – deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonunda tadbirkorlik sub’ektlari haq-xuquqlari himoyalaniishi va kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan.

Bank xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabat barcha ishtirokchilarning o‘zaro xuquq hamda majburiyatlari, ularning bajarilishi hamda himoyalaniish usullari qonunda nazarda tutilgan.

Bankka oid munosabatlarda huquqlarning buzulishi deganda bu munosabat sub’ekti bo‘lgan shaxsning sub’ektiv mulkiy yoki nomulkiy shaxsiy xuquqlarini o‘zga shaxslarning g‘ayriqonuniy tajovuzi natijasida poymol etilishidan iborat. Xuquqlarni bunday poymol etilishi huquqiy javobgarlikka, ya’ni jinoyat, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, fuqarolik va mehnat kodeksida, boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xuquqiy sanksiyalarni qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

O‘zga shaxslar xuquqlarining buzulishi bank munosabatlarida o‘zga shaxsga tegishli mulk yoki mulkiy xuquqni o‘zlashtirib olish, xuquqlarni amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilish, qasd yoki extiyotsizlikdan o‘zga shaxsga mulkiy yoki ma’naviy zarar etkazish, zimmasiga olgan majburiyatni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik tarzida yuz berishi mumkin.

Bankka oid munosabatlarda xuquqi buzilishi ehtimol shaxslar turiga ko‘ra ularni quyidagicha tasniflash mumkin;

- 1) bank mijozi bo‘lgan fuqaro xuquqlarining bank muassasasi tomonidan buzulishi (masalan. Bank xizmati ko‘rsatish qoidalarini buzilishi, mijoz bank sirlarini oshkor etilishi, shartnoma talablarining buzilishi va xokazo.);

- 2) bank mijozi bo'lgan tadbirkorlik sub'ekti shaxs yoki yakka tadbirkor shaxs xuquqlarini buzilishi (mablag'larni hisobga olish, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini buzilishi va boshqalar);
- 3) Davlat soliq. Moliya va boshqa organlari tomonidan tijorat banki huquqlarini buzilishi (masalan, g'ayriqonuniy tekshirishlar o'tkazilishi, g'ayriqonuniy qarorlar qabul qilish orqali bank faoliyatining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilinishi, noqonuniy moliyaviy va boshqa sanksiyalar qo'llanilishi va xokazolar);
- 4) Tijorat banklari tomonidan soliq va boshqa moliyaviy qonunlarni buzulishi tufayli davlat manfaatlariga zid keluvchi xuquqbuzarlik sodir etilishi (hisob-kitob va hisobotlar yuritish qoidalarini buzilishi, soliq qonunchiligining buzilishi va boshqalar);
- 5) Bank mijozi sanaluvchi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bank oldidagi majburiyatlarni buzilishi shaklidagi (masalan, kreditni o'z vaqtida qaytarmaslik) xuquqbuzarlik;
- 6) Bankning o'z xodimlari mehnatga oid xuquqlarini buzilishi, ayni paytda bank xodimlari tomonidan xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq ravishda bank muassasasiga moddiy zarar etkazilishi.

Bank munosabatlari ishtirokchilari xuquqlari buzilgan xollarda bu xuquqlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 11-moddasida belgilab qo'yilgan usullarda himoya qilinadi. Bu usullar quyidagilardan iborat;

- a) huquqni tan olish (masalan, garovga qo'yilgan mol-mulkka nisbatan bank xuquqining e'tirof qilinishi, vafot etgan mijozga tegishli omonatga nisbatan vorislik xuquqlarining tan olinishi);
- b) xuquq buzilishidan oldingi xolatni tiklash, xuquqbuzarlik keltirib chiqaruvchi xolatlarning oldini olish (masalan, g'ayriqonuniy tarzda etkazilgan zararni undirib berilishi);

v) bitim (shartnoma)ni xaqiqiy emas deb topish (masalan, mansabdor shaxs o‘z mansabini suiste‘mol qilgan holda bank manfaatiga xilof bo‘lgan bitimni bekor qilinishi);

g) davlat organi yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xujjatini xaqiqiy emas deb topish (masalan, davlat soliq organi g‘ayriqonuniy qarorini sud orqali bekor qilinishi);

d) burchni natura xolda bajarishga majbur qilish (masalan, garovga olingan ko‘chmas mulkni asl holida (natura xolida) topshirilishiga majbur qilish);

e) zararni to‘lash, neustoyka undirish;

j) xuquqiy munosabatni bekor qilish;

z) Ma‘naviy ziyonni undirish va boshqalar.

Bankkka oid munosabatlarda xuquqlarni himoya qilish ma‘muriy usulda (yuqori turuvchi davlat organiga murojaat qilish yo‘li bilan) yoki sud tartibida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni buzilgan xuquqlarni tiklash va xuquqbuzarliklardan himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish, nizoni sud yo‘li bilan ko‘rib hal etish tartiblarini belgilab beradi.

Jismoniy shaxs (mijoz yoki o‘zga tadbirkor bo‘lmagan shaxs) bilan bank muassasasi o‘rtasida yuz beruvchi nizolar umumiy sudlarda (fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, sudlar, viloyat, Toshkent shaxar, fuqarolik ishlari sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha kollegiyasi) ko‘rib xal etiladi. Umumiy sudlarda fuqarolik nizolarini ko‘rib xal etilish tartiblari, da‘vogar, javobgar va o‘zga shaxslarning xuquqlari majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilab qo‘yilgan.

Bank muassasalarining yuridik shaxs bo‘lgan yoki yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan mashg‘ul bo‘lgan yakka tadbirkor jismoniy

shaxslar bilan yuzaga keladigan nizolari, shuningdek bank va davlat boshqaruv organlari (masalan, Markaziy bank bilan Davlat soliq idorasi bilan, maxalliy davlat xokimiyat organlari bilan) o'rtasida yuz beruvchi nizolar xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib hal etiladi.

Iqtisodiy nizolar bo'yicha xo'jalik sudlariga murojaat qilish, u erda nizoni ko'rib chiqish va xal etish tartiblari O'zbekiston Respublikasining xo'jalik protsessual kodeksida mustaxkamlab qo'yilgan.

Bank muassasalarining barcha ishtirokchilariga sudda ko'rib xal etilgan nizolar bo'yicha o'z manfaatlariga daxldor protsessual xatti-xarakatlar xaqida sud qarorlari ustidan belgilangan tartibda va muddatlarda shikoyat qilish, imkoniyatlari ko'rib chiqilib, xal etilishi qonun bilan kafolatlangan.

Bankka oid munosabatlardan kelib chiquvchi nizolar yuzasidan sudlar tomonidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan xal qiluvchi qarorlari va boshqa xil Qarorlarining ijro etilishi xam kafolatlab qo'yilgan bo'lib. Bunday qarorlar qarzdor tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilmagani taqdirda uni majburiy ijro etilishi mexanizmlari xamda usullari tegishli qonun xamda boshqa qonun xujjatlarida mustaxkamlab qo'yilgan.

Bankka oid munosabatlarda xuquqlar nafaqat sudlar tomonidan, balki boshqa vakolatli organlar tomonidan xam amalga oshirilishi mumkin. Notarial idoralar anashunday organlardan bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi notarial to'g'risidagi qonunning 1- moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning xuquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda nazarda tutilgan tartibda himoya qilish notariuslarning vazifalaridan ekanligi belgilab qo'yilgan. Notariuslar ushbu vazifani turli shakllarda:

- a) bitimlarni tasdiqlash;
- b) hujjatlarning xaqiqiy ekanligini tasdiqlash;

- v) hujjatdagi imzoning xaqiqiy ekanligini tasdiqlash;
- g) merosga bo‘lgan xuquqni tasdiqlash (masalan, bank muassasasiga meros qilib qoldirilganda).
- d) ijro xatlarini yozish (qarzdordan pul summalarini undirish yoki mol-mulkni talab qilib olish uchun qarzdorlikni belgilovchi xujjatlarga notarius imzosini qo‘yish);
- e) vekselni protest qilish;
- j) xujjatlarni saqlash uchun qabul qilib olish;
- z) ishonchnomalar berish va boshqalar.

Notarial xarakatlarni amalga oshirish tartiblari, notarius xatti-xarakati ustidan shikoyat berish va uni ko‘rib xal etilishi masalalari qonun xujjatlari bilan belgilangan.

Bugungi kunda xuquqlarni nodavlat usullarida, jumladan, xakamlik mexanizmini qo‘llash obro‘li himoyalash masalalari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Fuqarolar va yuridik shaxslar xuquqlarini yuqori darajada kafolatlanganligi va samarali himoyalash mexanizmlari bilan ta‘minlangan ligi xuquqiy davlatning asosiy xususiyatlaridan biridir.

Tayanch so‘zlar va iboralar:

Bank huquqi, bank majburiyati, bank huquqining tamoyillari, bank huquqining usullari, bank huquqining manbalari, imperativ usul

Mavzuni o‘rganish yuzasidan nazorat savollari.

1. Bank faoliyati nima va iqtisodiyotda uning axamiyati qanday?
2. Bank huquqining mustaqil xuquq tarmog‘i sifatida vujudga kelish va rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy asoslarini aytib bering.

3. Bank xuquqi fan sohasi va qonunchilik tarmog'ining predmeti nimadan iborat?
4. Bank xuquqi predmetining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Bank huquqi uslublari qanday?
6. Bank xuquqining tizimlari va uning boshqa xuquq tarmoqlari orasidagi o'rni qanday?
7. Bank huquqining manbalarini keltiring va asoslang?
8. Bank huquqi tamoyillarini ayting va ularning mohiyatini tushuntiring?
9. Qonunlar bank xuquqi manbai sifatida qanday mavqeni egallaydi?
10. Bank xuquqining tarmoqqa oid qanday qonunlarini bilasiz?
11. Idoraviy me'yoriy-xuquqiy xujjatlar bank xuquqi manbai sifatida qanday rol o'ynaydi?
12. Davlat organlari vakolatlarini keltiring va chegaralang
13. Bankka oid munosabatlar yuzasidan nizolar tushunchasi va kelib chiqish sabablarini so'zlab bering?
14. Bankka oid munosabatlarda huquqlarning buzilish sabablari va shart sharoitlari nimada ko'rinadi?
15. Bankka oid munosabatlarda huo'uo'ni buzilish ehtimoli mumkin bo'lgan holatlar tasnifini bering?
16. Bankka oid munosabat ishtirokchilari huo'uo'lari buzilgan hollarda o'onunchilik bo'yicha o'anday himoya qilinadi?
17. Bankka oid huquqbuzarliklar qanday ko'rib chiqiladi?

II BOB. Markaziy bank faoliyatining huquqiy asoslari, kredit tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish

1-§. Markaziy bank faoliyatini tashkil qilishning huquqiy jihatlari, uning huquqiy maqomi va moliyaviy ahvoli

Bank tizimi har qanday davlat moliyaviy tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida uning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. SHu sababli bank faoliyatini amalga oshirilishi bilan bog‘liq ravishda vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan qat’iy va aniq xuquqiy tartibga solinishi nafaqat bank mijozlarining, balki davlat va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilishning muhim kafolatlaridan bo‘lib hisoblanadi. Bank sohasidagi xuquqiy munosabatlar deganda moliya, kredit va bank xizmati ko‘rsatish bozorida ishtirok etuvchi sub’ektlar o‘rtasida (Markaziy bank va tijorat banklari; tijorat banklari va ularning mijozlari) yuzaga keluvchi hamda qonunchilik normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy aloqalar majmui tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki – mamlakat bank-kredit tizimlarini boshqaruvchi, monopol tarzda pul emissiyasini amalga oshirishga xaqli bo‘lgan, milliy iqtisodiyot manfaatlarini ko‘zlab pul kredit siyosatini shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi bankdir.

Markaziy bank faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonuni va boshqa qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi. Bankka oid xuquqiy munosabatlar bo‘lib Markaziy bank tomonidan bank sohasini boshqarish va nazorat qilish chog‘ida o‘z vakolatlarini amalga oshirish tufayli Markaziy bank bilan tijorat banklari o‘rtasida yuzaga keladi. Bunday munosabatlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan butun mamlakat hududi uchun monetar va valyutani tartibga solish siyosatini shakllantirilishi hamda amalga oshirilishi, hisob-kitoblarni yo‘lga qo‘yilishi, banklar faoliyatini litsenziyalanishi, rasmiy oltin-valyuta rezervlarini saqlanishi va tasarruf qilinishi natijasida kelib chiqadi.

Markaziy bank maqomi va maqsadlari «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan: «O‘zbekiston Respublikasi **Markaziy banki yuridik shaxs** bo‘lib, faqat davlat mulki hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasa , o‘z harajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

Qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida ko‘chmas mulk va moliyaviy resurslarga egalik qiladi. Bu hol uning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va mustaqil pul-kredit siyosatini samarali o‘tkazish imkoniyatini siyosat sohasi hisoblanadi. Mustaqil siyosat esa pul va valyuta bozorida yuzaga kelayotgan vaziyatni, ichki bozordagi makroiqtisodiy shart-sharoitni, tashqi omillarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu holat qonunda Markaziy bank o‘z vakolatlari doirasida qarorlar qabul qilish borasida mustaqildir deb belgilab berilgan va u o‘z vakolati doirasida O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar ijro etishi majburiy bo‘lgan normativ hujjatlar chiqadi.

Davlat Markaziy Bankning majburiyatlari yuzasidan, Markaziy bank esa davlatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

Markaziy bank moliyaviy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanishga, tijorat faoliyati bilan shug‘ullanishga, (O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankining, «Mikrokreditbank» aksiyadorlik tijorat bankining, valyuta birjasining, shuningdek Markaziy bank faoliyat yuritishini ta‘minlovchi korxonalar va tashkilotlarning kapitallarida ishtirok etishini istisno etganda), banklar va boshqa yuridik shaxslarning kapitallarida qatnashishga haqli emas.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobdordir. Oliy Majlisning Senati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga ko‘ra Markaziy bank Boshqaruvining raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, shuningdek, yillik hisobotni, shuningdek auditorning xulosasini ko‘rib chiqadi.

Qonunda Markaziy bank faoliyatining tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, Markaziy bank yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega ekanligi, Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tegishli xizmatlar va muassasalar tashkil etilishi mumkinligi, jumladan, bu borada Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti, viloyatlarning markazlari va Toshkent shahrida yuridik shaxs maqomga ega bo'lmagan o'zining bosh boshqarmalarini tuzishi mumkinligini huquqiy asoslari keltirilgan, ammo ushbu bank boshqarmalari yuridik shaxs maqomiga ega emas. Markaziy bank o'ziga qarashli xizmatlar va muassasalarga ham ega bo'ladi. Lekin ular yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaydilar, hamda Markaziy bank Boshqaruvi tasdiqlaydigan ular haqidagi Nizomlarga asosan ish yuritadilar.

Markaziy bank raisi bank boshqaruvning raisi hisoblanadi.

Markaziy bank raisi Markaziy bank va uning Boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, Bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalar bajarilishi uchun javobgar bo'ladi. Markaziy bank faoliyati masalalarini halqiladi, Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi.

Oliy Majlisda, hukumatda, vazirliklar va idoralarda, sudlarda, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank nomidan ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro moliya-kredit va valyuta munosabatlariga oid faoliyatni amalga oshirishda boshqa davlatlarning Markaziy banklari, xalqaro banklar va boshqa moliya-kredit muassasalarida O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilishga, moliya operatsiyalari bajarishga, shu jumladan chet el hukumatlari, chet el Markaziy banklari va pul-kreditni tartibga solish organlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro tashkilotlarga bank xizmati ko'rsatish, xorijiy davlatlarda vakolatxonalar ochish,

O‘zbekiston Respublikasida chet el banklarining vakolatxonalarini akkreditatsiya qilishgahaqli ekanligi belgilab berilgan.

Markaziy bank o‘z faoliyatida foyda olishni maqsad qilib qo‘ymaydi, ammo har bir moliya yil davomida olingan daromadlardan ishonchsiz, shubhali qarzlardan va boshqa aktivlardan bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash rezervlari shakllantirilgandan so‘ng; barcha daromadlar va chiqimlar hisoblanganidan, shuningdek, aktivlar va passivlar amalda baholanganidan so‘ng bank faoliyatining natijasi (foydasi) aniqlanadi.

Markaziy Bankning foydasi boshqaruv belgilagan tartibda, yillik hisobotni tasdiqlash bilan bir paytda taqsimlanadi. SHuningdek, bank boshqaruvining qaroriga muvofiq foyda hisobidan aniq maqsadli rezervlar va fondlar ham tashkil etilishi mumkin .

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisobot beradi. Markaziy Bankning hisobot davri 1 yanvar — 31 dekabr qilib belgilanadi. Yillik hisobot 15 maydan kechiktirilmay Oliy Majlis Senatiga ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilishi lozim.

Markaziy Bankning organi uning Boshqaruvidir. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisini tayinlash va lavozimidan ozod qilish Oliy Majlis Senatining mutloq vakolati hisoblanadi. Qonunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga vakolatlar berish bilan bir qatorda, uning uchun ta’qiqlangan faoliyat turlari ham aniq belgilab berilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish, muassasa yoki tashkilotlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish ta’qiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga korxonalar va tashkilotlar faoliyatida bank ham da yuridik shaxslar sifatida ishtirok qilishga ruxsat etilmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy

bank o‘z vakolatlaridan foydalanishda barcha yuridik shaxslarni baravar ko‘rishi lozim.

2-§. Mamlakatda pul-kredit siyosatini olib borishda Markaziy bankning huquq va majburiyatlari

“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risidagi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yil 17 avgust kuni qabul qilinib O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga ko‘rib chiqish uchun yuborilgan.

Mazkur Qonunning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining huquqiy maqomi, funksiyalari, asosiy maqsadlari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati prinsiplarini belgilash hamda uning faoliyatini tashkil etish va tartibga solishdan iborat.

Bunda, Markaziy bankning bosh maqsadi narxlar barqarorligini, bank tizimi hamda to‘lov tizimi barqarorligini ta‘minlash sifatida belgiladi.

SHu bilan birga, qonun loyihasida quyidagilar:

pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini takomillashtirish, pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va choralarning shaffofligini oshirish;

Markaziy bankning boshqaruv sifatleri va banklarning risklarni boshqarish tizimiga ta‘siri mexanizmlarini ishlab chiqish, ma‘lumotlar yig‘ish va tahlil qilish tizimining samaradorligini oshirish;

bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash;

bank faoliyati mexanizmini tartibga solishni takomillashtirish va ularning boshlang‘ich bosqichlarida muammolarni aniqlash hamda samarali choralarni

qo‘llash, shu jumladan, Markaziy bank tomonidan banklarni, mikrocredit tashkilotlarni, lombardlarni va bank guruhlarini litsenziyalashda, tartibda solishda va nazoratni amalga oshirishda asoslantirilgan mulohaza ishlatilishi;

Markaziy bank faoliyati nazorat tizimini muvofiqlashtirish maqsadida uch a‘zodan, jumladan, bir mustaqil a‘zodan iborat bo‘lgan Auditorlik qo‘mitasi tashkil etilishi;

Markaziy bank faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va oshkoraligini ta‘minlash uchun Markaziy bank Boshqaruviga Markaziy bank Raisining taqdimnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi tasdiqlaydigan ikkita mustaqil Boshqaruv a‘zolari kiritilishi;

pul-kredit siyosatining asosiy uning interpretatsiyasi va ko‘rsatkichlarini, shu jumladan pul massasining tarkibini va dinamikasini, bank tizimining statistik ma‘lumotlarini, Markaziy bankning faoliyatini umumlashtirilgan ma‘lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilishi;

tijorat banklarining likvidligini favqulotda qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, Markaziy bank tomonidan beriladigan kreditlar bo‘yicha garovning ta‘minlanganligi mexanizmi takomillashtirish;

Markaziy bank va O‘zbekiston Respublikasi hukumati tizimli moliyaviy tanazzul vujudga kelishining oldini olish va moliyaviy tizim barqarorligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha hamkorlik qilishi;

Markaziy bank o‘zining tartibga solish va nazorat qilish funksiyalari amalga oshirish uchun doimiy ishlovchi organi – Markaziy bankning bank nazorati Qo‘mitasi tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki iqtisodiyotni pul-kredit vositasida boshqarish, avvalom bor kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasi monetar siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan iqtisodiy kon‘yunkturaning tahlili va istiqbol ko‘rsatkichlarini, muomalada bo‘lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini, pul massasi yillik

o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan, Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini, valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va har yili keyingi moliya yili boshlanishidan kamida o'ttiz kun oldin Oliy Majlisning Senatiga bu haqda axborot beradi.

Markaziy bank pul taklifi hajmini o'zgartirib, ishlab chiqarishning umumiy hajmiga, bandlik darajasiga va korxonalar faoliyatining o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotdagi tanglik davrida pul taklifi hajmining oshirilishi iste'mol va sarmoyaga bo'lgan talabning o'sishiga, binobarin, bandlik, ishlab chiqarish hajmi ortishiga yordam beradi. Pul yuqori sur'atlarda qadrsizlanayotgan sharoitda Markaziy bank ularni sekinlashtirish zarurligidan kelib chiqib muomaladagi pul miqdorini cheklash siyosatini o'tkazadi, natijada iqtisodiyotda unga bo'lgan talab kamayadi, pul bozorlaridagi foiz stavkalari o'zgaradi, pulning qadrsizlanishi kamayadi. Markaziy bank monitar siyosatning quyidagi asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi:

- iqtisodiy kon'yunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini;
- muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini;
- pul massasi yillik o'sish sur'atining aniq maqsadli ko'rsatkichlarini, shu jumladan Markaziy bank ichki aktivlarining o'zgarishini;
- valyuta hamda foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini;
- pul-kredit sohasini tartibga solishga doir harakatlarning aniq maqsadli asosiy ko'rsatkichlarini amalga oshirishi lozim.

Markaziy bank davlatning qimmatli qog'ozlari, shuningdek Markaziy bankning o'zi chiqargan qarz majburiyatlarini xarid qilishi va ochiq bozorda sotishi mumkin.

Naqd pul mablag'larini muomalaga chiqarish va qaytarib olishni faqat Markaziy bank amalga oshiradi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini

muomalaga chiqarishda mutlaq huquqqa ega. Markaziy bank yo‘q qilib yuborilgan, yo‘qotilgan, qalbaki, yasama va qonuniy kuchini yo‘qotgan banknotlar va tangalarning o‘rnini qoplamaslik huquqiga ega. Banknot va tangalarning dizayni Markaziy bankning mulki hisoblanadi. Markaziy bank banknotlar bosilishi va tangalar zarb qilinishi, muomalaga chiqarilmagan pul belgilari saqlanishini, shuningdek bosma qoliplar va bo‘yoqlar saqlanishi hamda yo‘q qilinishini ta’minlaydi, naqd pullarni saqlash, tashish va inkasso qilish, shuningdek ularni yo‘q qilib yuborish qoidalarini belgilashga haqlidir. Markaziy bank naqd pulsiz hisob-kitoblar shakllari va qoidalarini belgilash huquqiga ega. Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hududida har qanday banknot va tangalarni muomaladan qaytarib olishga haqli.

Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organidir. Bu vazifani amalga oshirish uchun Markaziy bank quyidagi jarayonlarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha shaxslar uchun ijro etish majburiy bo‘lgan valyutani nazorat qilishga doir normativ hujjatlar chiqish;
- banklarga chet el valyutasida operatsiyalar o‘tkazish bo‘yicha ularning faoliyatini nazorat qiladi va tartibga solib borish;
- valyuta birjasini litsenziyalashni amalga oshiradi va uning faoliyatini tartibga solish;
- banklar uchun ochiq valyuta pozitsiyasi chegaralarini va boshqa iqtisodiy normativlarni belgilash;
- milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash tartibini belgilash;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini tasarruf etish va boshqarish huquqiga ega.

Markaziy bank o'z nomidan yoki hukumat topshirig'iga ko'ra O'zbekiston Respublikasi nomidan chet elda joylashgan kliring muassasalari bilan kliring hamda to'lov bitimlari, shuningdek har qanday shartnomalar tuzishga haqlidir. Markaziy bank o'zining balans hisobvaraqlarida O'zbekiston Respublikasining xalqaro rezervlarini shakllantiradi. Bu rezervlar quyidagilarni:

-oltin va boshqa qimmatbaho metallarni;

-naqd chet el valyutasini;

-chet el banklarida, xalqaro moliya tashkilotlarida hisobvaraqlar va depozitlarda bo'lgan chet el valyutasi qoldiqlarini;

-chet el hukumatlari, banklari va xalqaro moliya tashkilotlari chiqargan yoki kafolatlagan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasining monetar hamda valyuta siyosatini amalga oshirish uchun, shuningdek xalqaro operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni ta'minlash uchun etarli bo'lgan darajada xalqaro rezervlar saqlab turilishiga yordam berishga, respublika hududi va uning tashqarisida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga hamda xalqaro amaliyotga muvofiq chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirishga haqlidir.

Markaziy bank qiymati to'lanishini banklar kafolatlagan qisqa muddatli xazina veksellari, shuningdek tijorat veksellari hisobini yuritishi mumkin va Markaziy bank o'z operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalarini mustaqil belgilashga haqli.

Markaziy bank o'zi belgilagan eng kam miqdorda rezervlar saqlash to'g'risida banklarga ko'rsatma berishga haqli. Markaziy bankda depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlarning eng kam miqdori Markaziy bankning normativ hujjatlari bilan belgilanib, u omonatlarning hajmi, turi, muddatiga, banklarning boshqa majburiyatlariga bog'liq bo'ladi. Majburiy rezervlarning miqdorlari jalb etilgan mablag'lar va omonatlarning har bir toifasi bo'yicha barcha banklar uchun bir xildir. Majburiy rezervlar Markaziy bankda naqd pul yoki omonatlar ko'rinishida,

Markaziy bank belgilaydigan tartibda depozitga o'tkaziladi. Majburiy rezervlarning tarkibi yoki miqdoriga doir yangi normativlarni banklar o'z muddatida bajarishlari shart, muddatlarga rioya qilinmagan holda Markaziy bank jarimalar qo'llashga haqli hisoblanadi.

Markaziy bank o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishga, o'zi belgilagan shartlarda banklarga kredit berishga, majburiy rezerv normalari va belgilangan iqtisodiy normativlar bajarilmaganda jarimalar qo'llashga, bank huquqiy talablariga rioya qilinmaganda boshqa choralar qo'llashga haqli hisoblanadi.

Muomalada bo'lgan banknotlar va tangalar Markaziy bankning qat'iy majburiyatlari hisoblanadi va uning jamiki aktivlari bilan ta'minlanishi lozim. Markaziy bank banknotlar va tangalarning namunalarini, shuningdek ularning dizaynini Oliy Majlis Senatining Kengashi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi. Markaziy bank yangi namunalardagi banknot va tangalar muomalaga chiqarilishi to'g'risidagi axborotni, shuningdek ularning tavsifini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishi lozim. Markaziy bank va u vakolat bergan banklar talabga ko'ra bir nominal qiymatdagi banknot va tangalarni boshqasiga hech qanday to'lovsiz yoki vositachilik haqsiz ayirboshlab berilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari, pul massasi o'zgarishining aniq maqsadli mo'ljallari va pul muomalasini tartibga solish vositalari ham qonunda yoritilgan bo'lib, unda Markaziy Bankning pul-kredit operatsiyalari belgilab berilgan.

Markaziy bankning tijorat banklarini qayta moliyalashtirish siyosati bu to'g'ridan -to'g'ri kreditlash, veksellarni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarniga rovg'a olgan holda kreditlar berish va kredit auktsionlarini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va ham ma bank hamda mijozlar uchun majburiy bo'lgan qoidalar asosida olib boriladi. Ushbu qoidalarning bir tarzda

qo‘llanishi butun respublika hududida hisob-kitoblarning uzluksizligini ta’minlaydi.

«Markaziy bank to‘g‘risida»gi qonunga muvofiq Markaziy bank xuquqiy holati ikki yoqlama xususiyatga ega bo‘lib, birinchidan, u yuridik shaxs sifatida kredit muassasalari, davlatning o‘zi, o‘zga mijozlar bilan muayyan fuqarolik-xuquqiy bitimlar tuzish, ya’ni fuqarolik-xuquqiy munosabatlarda teng xuquqli sub’ekt sifatida ishtirok etishi, bank faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Ikkinchidan esa, O‘zbekiston Respublikasida pul-kredit tizimlarini boshqarish, bank muassasalarini nazorat qilish yuzasidan teng hokimiyat vakolatlariga ega. Markaziy bank ikkiyoqlama xuquqiy tabiatga ega. U maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat boshqaruv organi sifatida ish yuritadi va ayni paytda yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgani holda xo‘jalik faoliyati bilan ham shug‘ullanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yuridik shaxs sifatida qonunda bevosita nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshiradi.

«O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonunniga ko‘ra:

Markaziy bank qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ularning muassasalari va tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, shuningdek Markaziy bankka qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning asosiy hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin.

Markaziy bank yuridik shaxs sifatida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin:

1. O‘zi chiqargan davlat qimmatli qog‘ozlarini va boshqa qarz majburiyatlarini qimmatli qog‘ozlarni ochiq bozorida sotish va sotib olish;

2. qiymati to‘lanishi tijorat banklari tomonidan kafolatlangan qisqa muddatli xazina vekselarini hamda tijorat vekselarining hisobini yuritish;
3. Tijorat banklariga kredit berishga va bunday kredit berish shartlarini o‘zi belgilashiga;
4. Xukumatning, shuningdek Moliya vazirligining ruxsati olingani holda boshqa davlat organlarining pul mablag‘lari va valyuta qimmatliklarini depozitga qabul qilish;
5. O‘zbekiston Respublikasi xukumati va boshqa davlat organlarining fiskal agenti sifatida ish yuritishi mumkin.

3-§. Markaziy bankning hukumat bilan o‘zaro munosabatlari

Xukumat maslahatchisi-xazina vakili vazifasi. Bu vazifa “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumat banki sifatida davlat muassasalari va tashkilotlarining hisobvaraqlarini yuritadi, Ana shu hisobvaraqlarda mablag‘larni jamg‘aradi va ulardan to‘lovlarni amalga oshiradi, davlat qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalarni o‘tkazib turadi, davlatga bevosita qisqa muddatli ssudalar shaklida yoki davlat obligatsiyalarini harid qilish tarzida kredit beradi, hukumati doralarining topshirig‘iga binoan oltin bilan yoki xorijiy valyutada operatsiyalar bajaradi.

Markaziy bank O‘zbekiston Respublikasi hukumatining bankiri, maslahatchisi va fiskal agenti (xazina vakili) sifatida ish tutadi. Markaziy bank hukumatga Markaziy bankning vazifalariga hamda vakolatlariga daxldor barcha muhim masalalar, davlat sektoriga qarz ajratish masalalari bo‘yicha maslahat beradi, har yili hukumatga iqtisodiy va moliyaviy masalalar, shuningdek monetar va valyuta siyosati bo‘yicha davlat byudjetini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan ma‘ruzani taqdim etadi. Hukumat o‘z navbatida kelgusi moliya yilida kreditlashning ichki va tashqi manbalaridan qarz ajratish to‘g‘risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi. Moliya vazirligi esa respublika va davlat organlari olayotgan barcha qarzlarni to‘g‘risida Markaziy bankka xabar beradi. Hukumat

davlat sektoriga qarz ajratish masalalarida, kredit berishning ichki va tashqi manbalaridan mablag' olish rejalari to'g'risida Markaziy bank bilan maslahatlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hukumatning fiskal (xazina) agenti vazifasiga muvofiq hukumat hisobvaraqlarini yuritarkan, hukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashadi, budget kirimlari va chiqimlari masalalari yuzasidan maslahatlar beradi, davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirishda vakil sifatida ishlaydi, ular bo'yicha hisobvaraqlarni yuritadi, davlat Qarz majburiyatlari bilan bog'liq boshqa masalalarini hal etishda qatnashadi.

Rasmiy oltin -valyuta zaxiralarini saqlash. Xalqaro hisob-kitoblarda zaxiradagi aktiv va kafolatli sug'urta fondi va zifasini ado etish Markaziy bankning pul-kredit siyosatida va mablag'laridan sharoitga qarab foydalanishi mkonini beribgina qolmay, balki dunyo moliya bozorlarida operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan mamlakatimizning oltin valyuta zaxiralarini qiymatini saqlab turishi mkoniyatini yaratadi. boshqa moliya muassasalari, korxonalar va xususiy shaxslar ham xorijiy valyutaga ega bo'lish va valuta operatsiyalarini o'tkazishga haqiborligiga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki valuta zaxiralarini saqlovchi asosiy depozitariy bo'lib qolishi mumkin.

Markaziy bank hukumatning va boshqa davlat organlarining pul mablag'larini va valyuta qimmatliklarini depozitga qabul qilishi, depozitariy sifatida pul mablag'larini va valyuta qimmatliklarini olishi va berishi, ularning hisobini yuritishga mas'ul hisoblanadi.

Markaziy bank Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi va davlat organlarining fiskal agenti sifatida:

-Moliya vazirligi va boshqa davlat organlari chiqargan qarz majburiyatlarini joylashtirish, bu joylashtirishlarni ro'yxatga olish va ularni topshirishda agent rolini bajarish;

- qimmatli qog'ozlarning qiymatini, ular bo'yicha foizlar va boshqa to'lovlarni to'lash;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobvaraqlari yuritish va ularga doir to'lov operatsiyalarini bajarish;

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish borasida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Markaziy bank Moliya vazirligiga davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish va davlat qarzini qaytarish jadvali hamda hajmi masalalari yuzasidan ularning bank tizimi likvidligiga ta'siri va monetar siyosatining ustuvor yo'nalishlarini hisobga olgan holda maslahat beradi.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan miqdorda, bir yil ichida qiymati to'lanadigan aktivlar garovga qo'yilishi sharti bilan, alohida kredit shartnomasi asosida hukumatga kreditlar berishi mumkin. Hukumat bilan Markaziy bank iqtisodiyotdagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish uchun doimiy ravishda statistik axborot almashib turadilar.

Markaziy bank banklar faoliyatini tartibga solish va ularni nazorat qilishdan asosiy maqsad "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonuniga muvofiq bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchi va kreditorlar, o'z aksiyadorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishning asosiy vositalaridan biri bank faoliyatiga ruxsatnoma (litsenziya) berishdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining maxsus komissiyasi bu faoliyat bilan shug'ullanishga

da'vogarlarining birlamchi hujjatlarini ko'rib chiqadi, pul bozorida ularning muomalaga tayyorligini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga javob berishini tahlil qiladi va qaror ijobiy bo'lgan taqdirda bank faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnoma beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank muassasalarining rivojlanishini har tomonlama hisobga olib, kuzatib boradi. Kapitalning aynan bir xilligi, likvidlikka doir talablarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy me'yorlarni, shuningdek, kreditlash hajmi va limitlarini belgilaydi, kredit tashkilotlarning hamma turlari uchun yagona mazmunga ega bo'lgan iqtisodiy me'yorlarni o'rnatadi va ular bajarilishi ustidan nazorat olib boradi. Bank kapitalining etarliligi, aktivlarning sifati, foydaliligi va likvidligiga qarab tijorat banklarining moliyaviy ahvoli baholanadi, nochor banklar aniqlanadi.

Tijorat banklariga kredit berish. Markaziy bank iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini bevosita kreditlamasada, u tijorat banklarining kredit zaxiralariga bozor usullari orqali samarali ta'sir ko'rsatishi mkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun pul bozorining turli bo'g'inlarida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki operatsiyalaridan, shu jumladan, va intervensiyasidan, ikkilamchi bozorda davlat qimmatli qog'ozlari bilan bo'ladigan operatsiyalaridan, kredit kimoshdi savdolari kabi dastaglardan foydalanadi. Markaziy bank o'zi belgilagan shartlarga binoan oltin, chet el valyutasi, xalqaro zaxiralar toifasiga kiruvchi valyuta boyliklari, davlatning qarz majburiyatlari va hukumat kafolatlagan boshqa qarz vositalari, Markaziy bankda depozitga o'tkazilgan va uning depozitariysi uchun maqbul bo'lgan, harid qilinishi va sotilishiga ruxsat berilgan aktivlar, to'lanishiga banklar kafolat bergan tijorat veksellarini garovga olgan holda tijorat banklariga uch oygacha bo'lgan muddatda kredit berishi mumkin. Tijorat banklariga kredit berishning eng ko'p tarqalgan bu turi banklarni qayta moliyaviy ta'minlash deb yuritiladi va u "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonuniga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklari va hukumat O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banking asosiy mijozlaridir, boshqacha aytganda, **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarning banki** hisoblanadi. Tijorat banklarida likvidlilik muammosi bo‘lganda ular o‘z aktivlari garovi asosida Markaziy bankdan kredit olishi mumkin, banklar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankidagi o‘z hisobvaraqlaridan o‘zaro hisob-kitoblar uchun foydalanadilar va undan tashqari naqd pul zarur bo‘lganda ham ular Markaziy bankka murojaat qilishadi.

Pul emissiyasi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ham pulni emissiyalash xuquqiga ega, ya’ni u emissiya markazi hisoblanadi. Bu vazifa hozir hamnihoyatda muhim ahamiyatga ega, chunkichakana savdoda mahsulot haqini to‘lash hamda qarz majburiyatlarini uzil-kesil uzish uchun mablag‘ga ega bo‘lishini ta’minlash uchun naqd pul zarur.

Tijorat banklarining kassa zaxiralarini jamg‘arish va saqlash. Muomaladagi pul miqdori hajmini boshqarish uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki jalb qilingan pul mablag‘lari hajmiga qarab tijorat banklarida zaxiralarning muayyan koeffitsientlarini belgilaydi. pul-kredit vositasida boshqarishning samaradorligi, uning pul miqdori o‘shish sur‘ati va tuzilmasiga, shuningdek pulning qadrsizlanish darajasiga ta’siri majburiy zaxiralash tizimining moslashuvchanligiga bog‘liq. Ko‘rib chiqilayotgan qonunning 28-moddasiga muvofiq majburiy zaxiralar alohida hisobvaraqdan naqd pul yoki omonatlar tarzida deponentga olinadi. zaxiralash tizimi tijorat banklariga likvidlik bilan bog‘liq qisqa muddatli muammolarni hal etish imkonini beradi. Ayrim hollarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qaroriga binoan majburiy zaxiralarga foizlar qo‘shib qo‘yilishi ham mumkin. tijorat banklarining mablag‘larini zaxiralash talablariga amal qilish borasida javobgarligini oshirish uchun qonunda moliyaviy sanksiyalar ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy bankiga to'lanmay qolgan pulni qonunda belgilangan tartibda so'zsiz undirib olish, shuningdek, jarimalar solish huquqi berilgan

Shuningdek, Markaziy bank hukumatning fiskal agenti sifatida, hukumat bilan shartnoma tuzganida, hukumat organlariga va muassasalariga bank xizmatlari ko'rsatganida ham Markaziy bank va hukumat o'rtasida bankka oid xuquqiy munosabatlar yuzaga keladi.

Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasidagi, Markaziy bank va hukumat muassasalari o'rtasidagi munosabatlar faqat qonunlar va boshqa qonunosti xujjatlari bilan tartibga solinadi.

Tijorat banklari bilan ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlari qonunchilik xujjatlari bilan bir qatorda ular o'rtasidagi tuzilgan bank xizmatlari ko'rsatishga oid shartnomalar bilan ham tartibga solinadi.

Bevosita tijorat banklari tomonidan ko'rsatiladigan bank xizmatlaridan tashqari boshqa kredit muassasalari (kredit uyushmalari, o'zaro yordam kassalari va boshqalar) tomonidan o'z vakolatlari doirasida moliyaviy xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lgan holdagi aloqalar ham bankka oid xuquqiy munosabatlar jumlasiga kiritilishi lozim.

Bank sohasidagi xuquqiy munosabatlarning yuzaga kelishiga quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

a) tijorat bankini ro'yxatga olish va litsenziya berilishini so'rab ta'sischi tomonidan Markaziy bankka belgilangan tartibda qilingan murojaat;

b) tijorat banki tomonidan iqtisodiy normativlarni shakllantirilishi chog'ida Markaziy bank bilan bo'ladigan aloqalardan kelib chiquvchi oqibatlar;

v) qonunchilik xujjati yoki idoraviy me'yoriy xuquqiy xujjat qabul qilinishi;

g) Markaziy bank tomonidan bank nazoratini amalga oshirish chog'ida o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xuquqbuzarlik faktlari;

- d) tijorat banklari va uning mijozlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar;
- e) tijorat banki yoki mijoz tomonidan shartnoma shartlari talablarini buzilishi;
- j) fors-major hodisalarning yuz berishi va boshqalar.

Bankka oid xuquqiy munosabatlar mazmuni bu munosabat taraflari (banklar va mijozlar) da paydo bo'ladigan xuquqlar hamda majburiyatlar ko'lami bilan belgilanadi. YA'ni bankka oid xuquqiy munosabatga kirishish uning ishtirokchilarida xuquqlar paydo bo'lishini hamda majburiyatlar yuzaga kelishini anglatadi. Bankka oid munosabatlarda qatnashayotgan shaxslarda o'ziga xos xuquqlar va majburiyatlar (Moliya-kredit, bank xizmatlari ko'rsatilishi, valyutaga oid) paydo bo'ladi.

Bank xuquqiy munosabatlarning ob'ekti bo'lib Markaziy bank tomonidan bank tizimini boshqarish hamda nazorat qilish faoliyati sanaladi. Tijorat banklari faoliyatida esa bunday ob'ekt bo'lib bank xizmatlari, bu xizmatlarni ko'rsatilishi bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladigan bank operatsiyalari, boshqa hildagi qo'shimcha bank xizmatlari sanaladi.

Majburiyatlarni bajarilishni ta'minlash vositasi sifatida berilayotgan kredit uchun mol-mulklar yoki xuquqlarni garovga olinishi, kafillik qilinishi, javobgarliklarni sug'urtalanishi ham bankka oid xuquqiy munosabatlarning ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Bankka oid huquqiy munosabatlar Markaziy bank bilan tijorat banklari o'rtasida yuzaga kelganda ma'muriy xuquqiy usullarda, tijorat banklari bilan ularning mijozlari sanaluvchi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida yuz berganida esa fuqarolik xuquqiy vositalar va usullar bilan tartibga solinadi. Markaziy bank tijorat faoliyati bilan, ya'ni foyda olishni mo'ljallovchi risk bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emas.

Markaziy bank tijorat maqsadlarida (foйда olishni ko'zlab) o'zga korxonalar va tashkilotlar, tijorat tashkilotlari, kredit uyushmalarining kapitalida ishtirok etishi

ta'qiqlanadi. Bunda davlat tomonidan unga topshirilgan mol-mulklar bilan risk qilmaslik, ularni xatar ostiga qo'yishdan saqlash maqsadi, shuningdek monopolistik faoliyatni oldini olish maqsadlari nazarda tutilgan.

4-§. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'muriy-boshqaruv vakolatlari va ularni amalga oshirilishi.

Markaziy bankning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning funksiyalarini belgilash mumkin. Bunday funksiyalar jumlasiga:

- 1) Baholar va to'lov tizimining barqarorligi va himoya qilinishi maqsadida O'zbekiston hukumati bilan birgalikda yagona davlat pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 2) Naqd pul emissiyasini monopol tarzda amalga oshirish va uning muomalasini tashkil etish;
- 3) Qayta moliyalashtirish tizimlarini tashkil qilish va amalga oshirish;
- 4) Bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalarini, tijorat banklarida hisob-kitob va hisobot ishlari tartiblarini belgilash;
- 5) Kredit tashkilotlarini davlat ro'yxatiga olish, ularga litsenziya berish va litsenziyani qaytarib olish;
- 6) Kredit tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- 7) Valyutani tartibga solish, valyuta nazoratini amalga oshirish;
- 8) CHet davlatlari bilan hisob-kitob tartiblarini o'rnatish;
- 9) O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi istiqbollari aniqlash, to'lov balansini tuzish.

Markaziy bank o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarish chog'ida preventiv (oldini olishga qaratilgan), himoyaviy hamda ta'minlovchi chora-tadbirlarni ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tashkiliy funksiyasi barcha moliya hamda pul-kredit tizimlarini tashkil qilish, ular faoliyatini lozim darajada ushlab turishga qaratilgan. Markaziy bank kredit tizimiga mansub tashkilotlar

oldiga pul barqarorligini ta'minlash, hisob-kitoblar samaradorligiga erishish vazifalarini qo'yish bilan birga ushbu vazifalarni bajarilishida pul kredit siyosatini shakllantirish hamda ro'yobga chiqarish orqali bevosita ishtirok etadi.


Mamlakatda amalga oshiriladigan pul-kredit siyosatining tarkibiy qismlari foizlar siyosatini, eng kam majburiy rezervlar siyosatini, ochiq bozor siyosatini, qayta moliyalashtirish, valyutani tartibga solish, to'g'ridan-to'g'ri miqdoriy cheklovlar qo'llash siyosatini o'z ichiga oladi. Ushbu sohalarda Markaziy bank amalga oshiradigan siyosat aslida iqtisodiyotga ta'sir o'tkazish vositalaridan bo'lib sanaladi va tijorat banklari to'lov qobiliyatini muayyan darajada saqlab turishga qaratilgan.

Naqd pul muomalasini yo'lga qo'yish ham Markaziy bankning tashkiliy funksiyalaridan bo'lib, naqd pullar va tanga-chaqalar emissiyasini amalga oshirish, pul birliklarini muomalaga kiritish va muomaladan chiqarish, rezerv banknotlar saqlanishi, tashilishi, ishlab chiqarilishini o'z ichiga oladi. Naqd pulsiz hisob-kitob ishlarini tashkil qilish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy funksiyalardan sanaladi va bu funksiya kredit tashkilotlari korrespondentlik hisobvarag'lari orqali banklararo hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish, kredit tashkilotlariga bu sohada uslubiy yordam ko'rsatish, naqd pulsiz hisob-kitob qoidalarini ishlab chiqish, qabul qilish va joriy etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Fuqarolar xuquqlarini himoya qilish va bank-kredit tizimlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash Markaziy bank funksiyalari orasida alohida o'rin tutadi. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunga asosan Markaziy bank:

- 1) tijorat bankini davlat ro'yxatiga olish chog'ida qonuniylik va maqsadga muvofiqlik jihatdan tekshiradi;
- 2) iqtisodiy-majburiy rezervlarni belgilaydi;
- 3) banklarning faoliyati ustidan bevosita kundalik nazoratni olib boradi.

Markaziy bank tomonidan qabul qilinadigan normativ xujjatlar kredit tizimini va pul-kredit munosabatlarini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning zarur xuquqiy mexanizmlarini belgilaydi va ushbu mexanizmlarni samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan yuridik shart-sharoitlar va kafolatlarni ta’minlaydi.



4-rasm. Markaziy bankning maqomi

5-§. Markaziy bankni boshqarish.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki nafaqat boshqaruv organi, ayni paytda boshqarilishi talab etiladigan muassasa hamdir.

Markaziy bank davlat boshqaruv organi sifatida eng avvalo qonunlar yordamida, qolaversa parlament va Prezident tomonidan ham boshqariladi (masalan, raxbar kadrlarini tayinlash yoki lavozimidan ozod qilish, asosiy iqtisodiy ko‘rsatgichlarini belgilab berish, hisobotlarini eshitish va boshqalar). Bularning barchasi amalga oshirib kelinayotgan moliyaviy islohotlar doirasida davlat oliy boshqaruv organlari tomonidan tashqaridan turib Markaziy bank faoliyatini boshqarishdan iborat.

Bundan tashqari, Markaziy bank ichkaridan o‘z vakolatli boshqaruv organlari orqali ham boshqariladi. qonun ushbu ichki boshqaruv organlari, ularning vakolatlari, vazifalarini belgilab qo‘yish, bu vakolatlarning amalga oshirilishini tekshirib borish orqali Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan maqsad va vazifalar muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi.

Markaziy bank yuridik shaxs sifatida o‘z tashkiliy tuzilishiga va vakolatli boshqaruv organlariga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bo‘ylama (vertikal) boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan markazlashgan yagona tizimni tashkil etadi. Bunga Markaziy Mahkama (Respublika Markaziy banki), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahridagi bosh boshqarmalar (yuridik shaxs maqomisiz), boshqa xududiy muassasalar, hisob-kitob markazlari, hisoblash markazi va boshqalar kiradi.

Markaziy bankning hududiy muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘la olmaydilar, normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilish vakolatiga ega emaslar. Markaziy bank xududiy muassasalarining vazifa va vakolatlari MB boshqaruvi

tomonidan tasdiqlanadigan xududiy muassasalar to'g'risidagi Nizomga asosan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining oliy organi MB boshqaruvi sanaladi. Boshqaruv Markaziy bank siyosati va faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, bankni boshqaradi.

Boshqaruv o'n bir kishidan iborat bo'lib, uning tarkibiga MB raisi, uning o'rinbosarlari, shuningdek, uning asosiy bo'limlarining boshliqlari kiradi. Boshqaruv a'zolarini MB Raisi taqdimnomasiga muvofiq, Oliy Majlis kengashi tasdiqlaydi.

Boshqaruv majlisiga MB Raisi, u yo'q paytlarda esa uning o'rnini bosadigan boshqa shaxslar raislik qiladi. Boshqaruv majlisida ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki quyidagi vakolatlarga ega:

- monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini, shu jumladan, Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari ko'lami, Markaziy bankning hisob va ssuda berishdagi foiz stavkalari hamda banklarning Markaziy bankdagi majburiy rezervlari me'yorini belgilaydi;
- Markaziy bankning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki masalasini hal qiladi;
- banknotlar va tangalarning nominal qiymati va namunalarini, shuningdek, pul belgilarini muomaladan chiqarish shartlarini belgilaydi;
- O'zbekiston Respublikasi hukumatiga beriladigan ssudalar miqdori va shartlarini tasdiqlaydi;
- banklar uchun iqtisodiy me'yorlarni tasdiqlaydi va ularga rioya etilishini kuzatib boradi;
- bank faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya berish va ularni qaytarib olish to'g'risidagi qarorlar qabul qiladi;
- Markaziy bankning tashkiliy tuzilmasini belgilaydi;

- Markaziy bank muassasalari hamda korxonalarini tashkil etadi, qayta tuzadi va tugatadi;
- Markaziy bank xarajatlari va daromadlari smetasini tasdiqlaydi;
- Markaziy bankning yillik va moliya hisobotlarini ko'rib chiqadi;
- Markaziy bankning tarkibiy bo'linmalari, muassasalari va korxonalari rahbarlarini tasdiqlaydi;
- Markaziy bank tarkibiy bo'linmalari, uning muassasalari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlari hamda ma'ruzalarini tinglaydi;
- Markaziy bank xodimlarini ishga yollash, ishdan bo'shatish, ularning mehnatiga haq to'lash shartlarini, shuningdek, ularning kreditlar olishi va aksiyalar sotib olishini tartibini qonun xujjatlariga muvofiq belgilaydi;
- Markaziy bank vakolati doirasidagi boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Markaziy bank Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Markaziy bank raisi:

- Markaziy bank va uning boshqaruvi faoliyatiga rahbarlik qiladi, bankning fondlarini tasarruf etadi va Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun javobgar bo'ladi;
- Markaziy bank faoliyati masalalarini hal qiladi, Ushbu qonunga binoan Boshqaruv vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Boshqaruv qarorlarini imzolaydi, buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;
- Markaziy bank faoliyati va joriy operatsiyalarini operativ tarzda boshqarish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi;

- Oliy Majlis, hukumat, vazirliklar, idoralar, banklar va muassasalarda, xalqaro va chet el tashkilotlarida bank faoliyatiga doir barcha masalalar bo'yicha Markaziy bank nomidan ish ko'radi;

- ayrim masalalarni hal qilishni o'zining o'rinbosarlariga, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalarining hamda xududiy muassasalarining rahbarlariga topshiradi.

Markaziy bank Raisining vakolat muddati – besh yil.

Markaziy bank raisi bo'lmagan paytda uning vazifalarini o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Markaziy bank Raisi quyidagi hollarda o'z egallab turgan lavozimidan ozod qilinishi mumkin:

- vakolat muddati tamom bo'lganida;
- sabablarini ko'rsatgan holdagi shaxsiy arizasiga ko'ra;
- jinoyat sodir qilishda belgilangan tartibda aybdor deb topilganida;
- o'z xizmat vazifasini salomatligi xolatiga ko'ra bajara olmasligini asoslovchi davlat tibbiy komissiyasining xulosasi mavjud bo'lganida;
- egallab turgan lavozimiga nomunosib hatti-harakatlar qilgan, shu jumladan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi qonunni qo'pol tarzda buzgan, bank manfaatlariga jiddiy zarar etkazgani hollarda;
- qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra.

Markaziy bank Raisining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari Rais tavsiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan vazifasiga tayinlanadi yoki ozod qilinadi.

6-§. Markaziy bankning boshqa kredit tashkilotlar faoliyatini tartibga solish sohasidagi faoliyati

Bankka oid xuquqiy munosabat sub'ektlari doirasi, ularning bunday munosabatlari chog'idagi xuquqiy holati (xuquqiy va muomala layoqati), vakolatlari hamda majburiyatlari xajmi O'zbekistonda ikki pog'onali bank tizimi mavjudligi bilan belgilanadi.

Bankka oid xuquqiy munosabatlarning sub'ektlari jumlasiga eng avvalo O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, tijorat banklari (ularning vakolatxonalari, sho'ba korxonalar, filiallari), bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy va hamda yuridik shaxslar, tegishli hollarda bankdan tashqari boshqa kredit muassasalar ham kiradilar. SHu bilan birga tegishli hollarda davlatning yoki o'zga shaxslarning xuquqlarini himoya qilish maqsadida davlat soliq idoralari, boshqa organlar ham bank xuquqi sub'ekti sifatida bankka oid munosabatlarda qatnashishlari mumkin. O'zbekiston iqtisodiyoti, respublika hududida faoliyat olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga tijorat banklaridan tashqari boshqa kredit tashkilotlari tomonidan ham moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun huquqiy va me'yoriy asoslar yaratilgan. Bunday kredit tashkilotlari qatoriga bugungi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mikrocredit tashkilotlari, lombardlarni kiritishimiz mumkin. Mazkur kredit tashkilotlarining faoliyati "Mikrocredit tashkilotlari to'g'risida»gi, "Mikromoliyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikrocredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini tashkil qilish va yuritishga oid me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida **mikrocredit tashkilotlari** faoliyati 2006-yil 20-sentyabrdan kuchga kirgan "Mikrocredit tashkilotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni asosida olib boriladi. Mikrocredit tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat beruvchi litsenziyasiga ega bo'lishi va talab qilingan ustav fondini shakllantirishi

lozim. Mikrocredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdori **2,0 mlrd.so‘m** miqdorida belgilangan.

Ustav fondi ta‘sischilar tomonidan pul mablag‘laridan, shuningdek ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantirishi mumkin. Bunda kredit, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘lar foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Ustav fondining eng kam miqdori litsenziya olish uchun murojaat qilingan kunga qadar faqat pul mablag‘laridan shakllantirilgan bo‘lishi kerak.

Mikrocredit tashkiloti litsenziya olish uchun ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bir oydan kechiktirmasdan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yoki uning hududiy boshqarmalariga litsenziya berish haqidagi ariza, mikrocredit tashkilotining ta‘sis hujjatlari, mikrocredit tashkiloti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi, mikrocredit tashkiloti boshqaruv organlarining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, mikrocredit tashkilotining ustav fondi shakllanganligini tasdiqlovchi bank hujjatini, mikrocredit tashkiloti joylashgan binodagi kassa xonalari texnik va qo‘riqlash – yong‘indan saqlash signalizatsiya vositalari bilan jihozlanishi va bu to‘g‘risida Markaziy bankning tegishli hududiy boshqarmasining xulosasini taqdim etishi kerak. Markaziy bank tomonidan arizava zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida ko‘rib chiqiladi litsenziya berish rad qilingan holda asoslangan raddiyani yozma shaklda etkazishi lozim. Agar litsenziya berilgan vaqtdan boshlab olti oy muddat ichida mikrocredit tashkiloti o‘z faoliyatini amalga oshirishmasa Markaziy bank tegishli choralar ko‘rishga haqli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki mikrocredit tashkilotlari ustav fondining eng kam miqdorini, moliyaviy va kassa operatsiyalari o‘tkazish, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish qoidalarini, shuningdek iqtisodiy me‘yorlarni belgilash, ko‘rsati layotgan mikro moliyaviy xizmatlar

uchun foizlarni hisoblash tartibini tasdiqlash, mikrocredit tashkilotlarining faoliyatini tekshirish va ularning faoliyatida aniqlangan mikrocredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining buzilishlarini bartaraf etishga oid bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, mikrocredit tashkilotining faoliyatini auditdan o'tkazishga doir talablarni belgilash, mikrocredit tashkiloti ijro etuvchi organi rahbarining malakasiga doir talablarni belgilash, mikrocredit tashkiloti tomonidan mikrocredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari va belgilangan iqtisodiy me'yorlar buzilgan taqdirda, ustav fondining belgilangan eng kam miqdorining bir foizigacha jarima undirish, mikrocredit tashkiloti tomonidan Ayrim moliyaviy operatsiyalar o'tkazishni uch oygacha bo'lgan muddatga cheklash, mikrocredit tashkiloti litsenziyasining amal qilishini to'xtatib turish yoki tugatish yoxud litsenziyani qayta rasmiylashtirish va bekor qilish orqali mikrocredit tashkilotlari faoliyatini tartibga soladi va nazorat qiladi.

Mikrocredit tashkiloti faoliyatida kamchiliklar aniqlangan hollarda, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlari buzilganda, qoida buzarlilklarni bartaraf etish majburiyatini yuklovchi qarorlar bajarilmaganda Markaziy bank tomonidan litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilishi mumkin.

Mikrocredit tashkiloti to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolgan da, mikrocredit tashkilotlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining, belgilangan iqtisodiy me'yorlarning talablari muntazam ravishda buzilganda va hisobot ma'lumotlari buzib ko'rsatilganda, mikro moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish litsenziya berilgan paytdan e'tiboran olti oydan ortiq kechikkanda Markaziy banklitsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilishi mumkin.

Mikrocredit tashkiloti buyurtma beruvchiga uning huquq va majburiyatlari to'g'risida, mikro moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq barcha har ajatlar to'g'risida, ko'rsatiladigan mikro moliyaviy

xizmat bo'yicha foiz stavkasi haqida to'g'ri hamda to'liq axborotni yozma shaklda xabar qilmagan, shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatmagan, qarz oluvchiga zarar etkazgan, moliyaviy va kassa operatsiyalari o'tkazish qoidalariga, shuningdek belgilangan iqtisodiy norma tiplarga rioya qilmagan va boshqa salbiy hollarda Markaziy bank unga nisbatan choralar ko'rishga haqlidir.

Qonunchilik bo'yicha mikrokredit tashkilotlariga qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar (depozitlar) qabul qilishga, jismoniy shaxslardan qarz mablag'larini jalb qilishga, o'z muassislarining majburiyatlari bo'yicha kafil bo'lishga yoki kafolat beruvchi bo'lishga, shuningdek ularga o'z majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning boshqa usullarini taqdim etishga ruxsat etilmaydi.

Aktivlarining balans qiymati bir milliard so'mdan ortiq bo'lgan mikrokredit tashkilotida mikrokredit tashkiloti yuqori boshqaruv organining qarori bilan ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Ichki audit xizmati mikrokredit tashkilotining faqat yuqori boshqaruv organiga hisobdordir. Ichki audit xizmatining rahbariva boshqa xodimlari mikrokredit tashkilotining yuqori boshqaruv organi tomonidan tayinlanadi. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

Mikrokredit tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda filiallar tashkil etishi mumkin. Filiallar o'z faoliyatini mikrokredit tashkiloti uchun berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bugungi kunda 50 mikrokredit tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirib mikro moliyaviy xizmatlar ko'rsatib kelmoqda.

Lombard ixtisoslashgan tijorat tashkiloti bo'lib mijozning ko'char mulkini garovga olib qisqa muddatli kreditlar berish va ularni saqlab berish bilan shug'ullanadi.

O'z ixtisoslashuviga qarab lombardlar qimmatbaho buyumlar, avtotrasport va boshqalar bilan ishlaydigan lombardlarga bo'linadi. qimmatliklar va buyumlarning bahosi tomonlar kelushuviga asosan belgilanadi va ular o'rtasida tuziladigan shartnomada aks ettiriladi. Qarz oluvchi yoki mulk egasi o'z mulkini garovga qo'yib lombarddan kredit olgandan keyin shartnoma shartlarini lozim darajada bajarishi va o'z mulk ini o'rnatilgan muddatlarda qayta sotib olishi mumkin. Bunda qayta sotib olish bahosi summasi lombardning mijozga bergan kredit summasi va lombardning xizmati uchun to'lanadigan foiz stavkasidan iborat bo'ladi. Lombard tomonidan berilgan kreditning muddati kelib garovga qo'yilgan mulk mijoz tomonidan qayta sotib olinmasa bu mulk lombard tomonidan sotuvga qo'yilishi yoki auksion orqali sotilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida lombardlar faoliyati "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi, " Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risida «gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 10-dekabrda 1291-son bilan ro'yxatdan "Lombardlar faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi nizomga asosan tartibga solinadi. Bugungi kunda lombardlar ustav kapitalining minimal miqdori 500 mln.so'm miqdorida belgilangan.

Lombardlar o'z faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziyaga) ega bo'lishi lozim. Lombardlar faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan litsenziyalanadi. yuridik shaxs litsenziya olgan kundan boshlab lomard sifatida faoliyatini boshlaydi. litsenziya olish uchun yuridik shaxs lombard sifatida o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tishi, zarur bo'lgan ustav fondining minimal miqdorini shakllantirishi lozim. Lombard tashkilotining ustav fondi muassislarining

faqat pul mablagʻlari hisobidan shakllanadi. Ustav fondini kredit, garov mablagʻlari va boshqa jalb qilingan mablagʻlar hisobidan shakllantirishga ruxsat etilmaydi. Lombard tashkilotlari faoliyatiga **litsenziya olish uchun** Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga lombard faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish uchun ariza, davlat roʻyxatidan oʻtganlik toʻgʻrisida maʼlumot noma nusxasi, biznes-reja, muassislar roʻyxati, lombard boshqaruv organlari tarkibi va strukturasi toʻgʻrisida maʼlumot, lombard faoliyatini amalga oshirish uchun bino, qoʻriqlash tizimi va sharoitlari toʻgʻrisida maʼlumot, lombard va baholovchi tashkilotlar oʻrtasida tuzilgan shartnoma, litsenziya uchun toʻlovning kvitantsiyasini taqdim qiladi.

Hujjatlar talab darajasida rasmiylashtirilmagan, ularda xatova kamchiliklar mavjud boʻlgan va boshqa kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan hollarda Markaziy bank litsenziya berishni rad qilishi mumkin. Bu toʻgʻrisida rad etishning sabablari aniq koʻrsatilgan holda mijozga yozma ravishda raddiya xati yuboriladi. koʻrsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilgandan keyin subekt hujjatlarini takroran Markaziy bankka taqdim etishi mumkin. hujjatlar 10 kun ichida qayta koʻrib chiqilishi lozim. litsenziya beruvchi organlitsenziya talablariga rioya qilinmagan, faoliyatida koʻrsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilmagan hollarda lombard faoliyatini toʻxtatib turish toʻgʻrisida qaror qabul qiladi. Lombard faoliyatini toʻxtatib turish muddati olti oydan oshmasligi lozim. Lombard tashkiloti faoliyatini toʻxtatish toʻgʻrisida ariza bilan murojaat qilganda, u bank rot boʻlganda yoki tugatilganda, boshqa faoliyat yoʻnalishi boʻyicha qayta tashkil etilganda, litsenziya talablariga doimiy va tizimli rioya qilmaganda, qonun talablarini buzgan hollarda Markaziy bank litsenziyaning amal qilishini toʻxtatishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki lombardlar faoliyatini nazorat qilish, lombardlarning faoliyati, operatsiyalari toʻgʻrisida maʼlumot, hisobot olish, ular faoliyatini tekshirish, litsenziya talablariga rioya qilinmagan hollarda ularni ogohlantirish, ularga bajarilishi lozim

bo'lgan talablarni yuborish va ular bajarilishini talab qilish huquqiga ega. Bugungi kunda respublikamizda 59dan ortiq lombardlar faoliyat olib bormoqda.

Tayanch so'zlar: bank, mikrokredit tashkiloti, lombard, bank huquqi, Markaziy bank, tijorat banki, banklar banki, hukumat xazinachisi, monitra siyosat, pul-kredit siyosat, fiskal siyosat, litsenziya

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan va uning tuzilishi qanday?
2. Markaziy bank va uning yuridik shaxs maqomi mazmuni nimalardan iborat?
3. Markaziy bank vakolatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Markaziy bankning ma'muriy-boshqaruv soxasidagi vazifalari haqida so'zlab bering.
5. Markaziy bankning boshqaruv organlari va ularning vakolatlari nimalardan iborat?
6. Markaziy bankning boshqaruv organi qanday tashkil etiladi?
7. Markaziy bank raisining vakolatlari qanday?
8. Markaziy bankning huquq va majburiyatlarini tushuntiring.
9. Markaziy bankning hukumat bilan munosabatlarini keltiring va asoslang
10. Banklarning banki sifatida Markaziy bankning faoliyatini tushuntiring.
11. Markaziy bankning nobank tashkilotlar bilan munosabatlarini tushuntiring.

III BOB. Tijorat banklari faoliyatining huquqiy asoslari: tashkil etish, qayta tashkil etish .

1-§. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning yuridik shaxs sifatidagi maqomi.

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan iqtisodiy islohotlar O‘zbekistonda bozor munosabatlarini tarkib topdirish va bozorga xos bo‘lgan iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy hamda boshqa zarur infratuzilma shakllanishiga erishishga yo‘naltirilgan. Bozor munosabatlarining jamiyatimiz hayotiga tobora chuqurroq singib borayotganligi moliya, pul-kredit tizimlarida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu hol bank muassasalari ishini yanada erkinlashtirish, ular faoliyatiga bozor prinsiplarini yanada kengroq joriy etilishini taqozo qilmoqda.

Banklar va ular tomonidan amalga oshiriladigan bank faoliyati har qanday mamlakat iqtisodiy tizimida muhim o‘rin tutadi va taraqqiyot sur‘atlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib sanaladi. Zero samarali ishlovchi bank tizimi moliyaviy mablag‘larni iqtisodiyot tarmoqlari, mintaqalar, korxonalar va tashkilotlar, fuqarolar o‘rtasida erkin va tez aylanishini ta‘minlaydiki, bu hol o‘z-o‘zidan tovar va xizmatlar muomalasini tezlashuvi hamda kengayishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarini tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida ifodalangan. Tijorat banklar respublika hududida o‘z faoliyatlarini Markaziy bank tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradilar.

Banklarga litsenziya berish O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”, “AktSIONERLIK jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi,

“Ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa qator qonunlar hamda banklar faoliyatiga oid me‘yoriy hujjatlarda belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatiga ruxsat berish 2015-yil 14-yanvarda oxirgi o‘zgarishlar kiritilgan “Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida olib boriladi. Qonunchilikga muvofiq tijorat banklari ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuniga asosan banklar:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo‘yicha hisob-kitob qilish;
- omonatlarni jalb etish;
- kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lar hisobidan o‘z nomidan kreditlar berish.
- mablag‘ egasi yoki mablag‘ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag‘larini boshqarish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo‘lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
- pul mablag‘lari, veksellar, to‘lov va hisob-kitob xujjatlarini inkasso qilish;
- uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
- uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish xuquqini olish;

- qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

- jismoniy va yuridik shaxslarga xujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;

- moliyaviy lizing va xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga haqli hisoblanadi.

Tijorat banklari eng avvalo mustaqil yuridik shaxs, tadbirkorlik faoliyatining mustaqil sub'ektidir. SHunga ko'ra tijorat banklari o'z faoliyatlarida nafaqat O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga, balki eng avvalo O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa iqtisodiy-xo'jalik faoliyatiga oid qonunlarga amal qiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasida ko'rsatilishicha: «O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulki bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy xuquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak».

Boshqa ko'pchilik yuridik shaxslardan farq qilib tijorat banklari o'zining mulkiga ega bo'ladi va bu mulk eng avvalo, agar bank aksiyadorlik tijorat banki bo'lsa, u holda bank aksiyadorlari qo'lidagi aksiyalarda ifodalanuvchi ustav (bank) kapitalida, ustav kapitali hisobidan kiritilgan ko'char va ko'chmas mulklar, intellektual hamda boshqa moddiy yoki nomoddiy boyliklarda o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari, tijorat banki tomonidan amalga oshiriladigan bank faoliyatidan olingan foyda (daromad) ham tegishli majburiyatlar (eng avvalo byudjet oldidagi) bajarib bo'lingach bankning mulki bo'lib qoladi.

Tijorat banki tomonidan yuridik shaxs sifatida o'ziga mulk xuquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulklarni egallash, ulardan foydalanish, ularni tasarruf qilish Fuqarolik kodeksida, «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunlarda, boshqa qonun xujjatlarida, ularning o'z ustavlarida belgilangan tartibda, shakllar va usullarda amalga oshiriladi.

Tijorat banklari davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadigan tijorat tashkilotlari bo'lganligi tufayli ularning mol-mulki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan javobgarliklarini qoplanishi uchun etarli bo'lishi masalasiga e'tibor beriladi. Bank ustav kapitalining eng kam miqdori qonun xujjatlari bilan belgilab qo'yilganligi va bu mablag'larni

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki depozitida saqlanishi, boshqa bir qator ehtiyot choralarining ko'rilganligi (iqtisodiyot normativlari va majburiy zahiralarini tashkil etilishi, omonatchilar xuquqlarini kafolatlashning boshqa iqtisodiy choralari) ana shunday maqsadlarni nazarda tutadi.

Tijorat banklarining mustaqil yuridik shaxs sifatidagi xususiyatlaridan bo'lib ular o'z majburiyatlari yuzasidan o'zlari javob berishlari sanaladi. Banklar davlatning majburiyatlari bo'yicha, davlat esa banklarning majburiyatlari bo'yicha javobgar emaslar. SHuningdek boshqa hech bir yuridik yoki jismoniy shaxslar ham banklarning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar.

Bank muassislari hamda aksiyadorlari bankning o'zga shaxslar oldidagi majburiyatlari yuzasidan qo'shgan ulushlari (o'z aksiyalari qiymati) doirasidagina javobgar bo'ladilar. Tijorat banklari Markaziy bankning ruxsati bilan o'zga hududlarda filiallarini, chet ellarda esa sho'ba banklari, filiallari va vakolatxonalarini ochishlari mumkin. Ushbu filial va vakolatxonalar rahbarlari

Markaziy bank bilan kelishilgani holda ularni tashkil etgan bank tomonidan tayinlanadilar. Filial va vakolatxonalarining vakolatlari hajmi filial (vakolatxona) rahbariga berilgan vakolatnomaga muvofiq belgilanadi. Filial va vakolatxonalar majburiyatlari uchun ularni tashkil qilgan bank javobgar bo‘ladi.

Tijorat banklarining fuqarolik-xuquqiy munosabat ishtirokchisi sifatidagi xuquq va muomala layoqati, bu layoqatni paydo bo‘lishi hamda mazmuni fuqarolik qonunchiligining umumiy normalari, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun, bank ustavi, boshqa qonunchilik xujjatlari bilan belgilanadi. Tijorat banklari o‘z mulkiy va shaxsiy nomulkiy xuquqlarini himoya qilish maqsadida xo‘jalik sudlariga, umumyurisdiksiyaviy fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga da’vo arizasi bilan murojaat qilishlari, javobgar, uchinchi shaxs, fuqarolik da’vogari yoki javobgari sifatida jalb etilishlari mumkin. Filiallar ham ularni tashkil etgan banklar tomonidan maxsus vakolat berilgani hollarda ana shunday xuquqlardan foydalanishlari mumkin.

Banklar xo‘jalik (tadbirkorlik) faoliyati sub’ekti sifatida o‘zga yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘z ustav vazifalariga mos keluvchi har qanday bitim (shartnoma) larni tuzishlari, zimmalariga majburiyatlarni olishlari mumkin.

Bankni tashkil etishning ilk bosqichi bu tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda bank muassislarining tashabbus guruhi tuziladi, bankning ta’sis hujjatlari majmui tayyorlanadi, ta’sis shartnomasi tuziladi. Aktsiyadorlik tijorat banklarining muassislari bank davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan birgalikda javobgar bo‘ladilar.

Bank muassisi sifatida davlat nomidan faqat O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qatnasha oladi. Bir yuridik yoki jismoniy shaxs (davlat yohud chet ellik ishtirokchilardan tashqari) ovoz beruvchi aksiyalarning 35 foizdan ortiq qismiga egalik qilishlariga yo‘l qo‘yilmaydi. Ushbu qoida bitim orqali o‘zaro bog‘langan, bir-birlarining mol-mulklarini o‘zga tarzda nazorat qiladigan shaxslarga ham taalluqlidir.

Bankning ustav kapitali_muassislar va aksiyadorlarning o‘z mablag‘laridan tashkil topadi. Byudjet mablag‘lari, kreditga va garov sifatida olingan mablag‘lar, boshqa jalb etilgan mablag‘lar bank ustav kapitaliga muassis ulushi sifatida jalb etilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ustav kapitalini to‘lash uchun muassislar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida pul mablag‘larini jamlaydigan hisobvarag‘ ochadilar. Bank ro‘yxatga olinishi paytida eng kam ustav kapitali muassislar tomonidan milliy valyuta-so‘mda to‘lab bo‘lingan bo‘lishi lozim.

2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» PF-5177-sonli Farmoni, shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish maqsadida:

2017 yilning 1 oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan:

tijorat banklariga — 100,0 mlrd.so‘m;

mikrokredit tashkilotlariga — 2,0 mlrd. so‘m;

lombardlarga — 500 mln.so‘m etib belgilandi.

Tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar 2019 yilning 1 yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga keltirilishini ta’minlashlari lozim.¹⁷

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3270 –sonli Qarori .T.: 2017 y. 12 sentyabr.

1-Jadval

2017 yilning 1 oktyabridan yangi tashkil etiladigan tijorat banklari ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori

№	Bank va boshqa kredit tashkilotlari	Ustav kapitali miqdori
1.	Tijorat banklari	100,0 mlrd.so‘m.
2.	Mikrokredit tashkilotlari	2,0 mlrd.so‘m
3.	Lombardlar	500 mln.so‘m.

Respublikamizda tijorat banklarining ustav kapitalining bosqichma-bosqich oshirilib borishi ijobiy holat. Chunki, ustav kapitali yuqorida ta’kidlangandek, bank kapitalining eng yuqori barqaror manbai hisoblanadi.

“Banklar va bank faoliyati to‘risida”gi qonunga asosan banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aktsiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar bank muassislari bo‘lishi mumkin. Har bir aktsiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko‘p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bank muassislari bank aktsiyadorlari tarkibidan u ro‘yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar. Keyingi bosqich bankni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bosqichi bo‘lib unda bank ochish haqidagi ariza bilan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga murojat qilinadi. Bunda arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

-yangi tashkil etilayotgan bankni ta’ sis etish bo‘yicha hujjat;

-muassislar tomonidan imzolangan va ularning muhrlari bilan hamda notarial tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi. Ta'sis etuvchilar jismoniy shaxs bo'lganlarida ularning imzolari notarial tasdiqlanadi;

-aktsiyadorlar yig'ilishida tasdiqlangan va muassislar tomonidan imzolangan bank ustavi(uch nusxada);

bank tashkil etish haqidagi qaror, ustav kapitalining miqdori va ustavni tasdiqlash, bank kengashi, taftish komissiyasi va boshqaruvini saylash haqidagi qarorlarni o'z ichiga olgan bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan ta'sis yig'ilishining bayonnomasi. Bulardan tashqari bank ochish xaqidagi ta'sis shartnomasida yana quyidagilar ham aks ettirilishi kerak:

- muassislarning bank ochish borasidagi xuquq va majburiyatlari, bank ochish chog'idagi birgalikda faoliyatni amalga oshirish tartibi;
- muassislar to'g'risidagi to'liq ma'lumotlar;
- har bir muassisga to'g'ri keladigan va ja'mi ustav kapitalining miqdori;
- Muassislar orasida joylashtirish lozim bo'lgan aksiyalarning toifasi va turlari, aksiya uchun haq to'lash miqdori hamda tartibi, boshqa ma'lumotlar.

Bank tashkil etishga oid ta'sis xujjatlari orasida bank Ustavi alohida o'rin tutadi. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga ko'ra bank ustavida quyidagilar o'z aksini topmog'i lozim:

a) bankning nomi (to'liq va qisqartirilgan atamasi);

b) bankning joylashgan manzili (pochta revizitlari);

v) bank tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bank operatsiyalarining ro'yxati;

g) ustav kapitali, uning miqdori;

d) muassislarning ro'yxati va ularning har biriga ustav kapitalida tegishli bo'lgan hissa miqdori;

e) bankning boshqaruv organlari, ularni tashkil etilishi tartibi, vakolatlari doirasi va vazifalari;

j) bank auditi tartibi;

z) qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar.

Bank Ustavi muassislar majlisida muhokama etilgan, hamda ma'qullangan bo'lishi lozim. quyidagilar bank muassisi bo'la olmaydilar:

- 1) to'lovga qobiliyatsiz yoki bankrot deb e'lon qilingan, nolikvid balansga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar;
- 2) g'arazli jinoyatlar sodir etgani uchun sudlangan shaxslar;
- 3) bankrot bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektga raxbarlik qilgan shaxslar;
- 4) ofshor zonalarda ro'yxatga olingan norezident yuridik shaxslar;
- 5) ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar;
- 6) bank muassislari.

Bulardan tashqari, Markaziy banka: bank kengashi a'zolari ro'yxati ularning Markaziy bank talablariga muvofiq kelishlarini tasdiqlovchi ma'lumotlar, yangi tashkil etilayotgan bankning tashkiliy tuzilishi, ichki audit to'g'risidagi Nizomi, kredit siyosati to'g'risidagi Nizomi, biznes rejasi, ariza topshiruvchining muassislar nomidan ariza topshirish vakolatini tasdiqlovchi hujjat, tashkil etilayotgan joydagi Markaziy bank bosh boshqarmasining bank tashkil etishning maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosasi, muayyan hududida bank tashkil etish mo'ljallanayotganligi haqida mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlariga berilgan bildirishnomaning nusxasi va boshqa talab qilinadigan hujjatlar topshirilishi lozim.

Xorijiy kapital ishtirokidagi tijorat banki tashkil etilayotganda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda yana quyidagilar taqdim etilishi talab etiladi:

-tegishli xorijiy muassisning bank tashkil etilishida ishtirok qilishi haqidagi qarori;

-nerezident bankning O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasasi tomonidan tasdiqlangan ustavi;

-bank joylashgan mamlakat bank nazorat organi tomonidan muassis bank faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga egaligi va xususan, qaytarib berish sharti bilan o‘z mamlakatida pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga egaligini tasdiqlovchi xat;

-bank nazorati organining muassis bankning o‘zi joylashgan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda nazorat ostida ekanligi haqidagi yozma tasdiqnoma;

-muassis bankning oxirgi uch moliya yili uchun tuzilgan, auditorlik firmasi tasdiqlagan yillik hisobotlari, shu jumladan, foyda va zararlar haqidagi konsolidatsiyalangan balansi va hisoboti;

-bank nazorati organi muassis bank tashkil etayotgan bankning ustav kapitalida ishtirok etishi uchun bergan yozma ruxsatnomasi yoki bunday ruxsatnoma muassis bank mansub bo‘lgan davlatning qonun hujjatlariga muvofiq talab etilmasligining yozma tasdig‘i.

Bulardan tashqari, xorijiy muassislar O‘zbekiston Respublikasida yangi tashkil etilayotgan yoki faoliyat yuritayotgan banklarning ustav kapitalida ishtirok etgan taqdirda;

-xorijiy nerezidentning to‘lovga qobiliyatligi to‘g‘risida unga xizmat ko‘rsatuvchi bank tomonidan berilgan tasdiqnoma;

-O‘zbekiston Respublikasi hududida bank tashkil etilishida ishtirok etish uchun mazkur mamlakat nazorat organining roziligi;

-muassis mansub mamlakatning savdo reestridan ko‘chirma yoki yuridik maqomini tasdiqlovchi boshqa muqobil hujjat.

Xorijiy kapital ishtirokidagi banklarda bank kengashining kamida bitta a‘zosi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank tashkil etish uchun zarur bo‘lgan barcha zarur hujjatlarni talab qilishga haqli bo‘ladi. Taqdim etilgan hujjatlar Markaziy bank tomonidan ikki oy muddat ichida ko‘rib chiqilishi kerak.

Bank ochilgunga qadar lokal, elektron tarmoq bilan ta'minlangan bo'lishi, dasturiy ta'minotning tarmoq variantining Markaziy bank tomonidan litsenziyalanishi, bank hisob-kitoblar markazi bilan barqaror ishlaydigan alohida aloqa kanali bilan ta'minlanishi, kompyuterlarga, modemlarga, dasturiy ta'minot va texnikani ishlatish bo'yicha ta'lim olgan mutaxassislariga, qo'riqlash xizmatiga ega bo'lishi shart.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish hamda bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziya olish uchun muassislar oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- litsenziya berish va bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida vakolatlari muassislar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan vakil shaxs tomonidan imzolangan arizani taqdim etilishi;

- davlat ro'yxatidan o'tkazish va litsenziya olish uchun berilgan barcha talablarni bajarish;

- barcha tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni amalga oshirishlari, binolar va uskunalarni tayyorlashlari, bank operatsiyalarini avtomatik amalga oshirish maqsadida dasturiy-texnikaviy vositalarni tayyorlashlari, kassa uzelini Markaziy bank talablariga muvofiq tayyor holga keltirishlari;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'lmagan miqdorda ustav kapitalini to'lashlari va ustav kapitali to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishlari;

- bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lovlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladilar.

Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish uchun muassislar dastlabki ruxsatnoma olingan kundan boshlab uzog'i bilan olti oy muddatda qonun hujjatlarida belgilangan talablarni bajarishlari lozim. Bankni ro'yxatga olish va unga litsenziya berish haqidagi qaror Markaziy bank talablari bajarilgan kundan ko'pi bilan bir oylik muddatda chiqariladi. Tijorat banki O'zbekiston Respublikasi

Markaziy bankida davlat ro'yxatidan o'tgandagina tashkil etilgan deb hisoblanadi va yuridik shaxs statusini oladi.

2-§. Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasidagi ikki pog'onali bank tizimining quyi pog'onasi sifatida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga mansub va hilma-hil shakldagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, yakka tadbirkorlar, ayrim fuqarolar uchun universal bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi kredit tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Banklar jamiyatning pul bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarida vositachilik vazifasini bajaradi va shu yo'l bilan bankka oid bozor makonini tashkil qiladi.

Tijorat banklari amalga oshiradigan asosiy funksiyalardan biri bo'lib jismoniy va yuridik shaxslar pul mablag'larini omonatga jalb qilish hamda jalb qilingan mablag'larni tavakkal qilib o'z nomidan tadbirkorlikka sarmoya joylashtirishdan iboratdir. Banklar vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarish oborotiga jalb qilish orqali iqtisodiy taraqqiyotni investitsiyalaydi, davlat va jamiyat yuksalishi uchun zarur iqtisodiy-moliyaviy sharoitni yaratadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning muhim sektori sifatida islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashning muhim omillaridan bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 29 ta tijorat banklari bank faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar.

Tijorat banklari, qoida tariqasida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Bank muassislari sifatida yuridik va jismoniy shaxslar, chet el yuridik va jismoniy shaxslari ishtirok eta oladilar. Umumiy qoidaga ko'ra davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, jamoat fondlari bank muassisi sifatida qatnashishlari mumkin emas. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonida, Hukumat qarorlarida maxsus nazarda tutilgan hollarda ushbu shaxslar ham hukumat tashabbusiga ko'ra tashkil etilayotgan banklar faoliyatida muassis sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Aksiyadorlik-tijorat banklari sifatida (ochiq yoki yopiq aksiyadorlik tarzida) ta'sis etilayotgan banklar faoliyatini tartibga solish ularni boshqarish chog'ida bank qonunchiligi bilan bir qatorda aksiyadorlik xuquqiga oid qonunlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Aksiyadorlik tijorat banki ustav kapitalining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilab qo'yiladi. Tijorat bankining ustav kapitalida har bir muassisning ishtiroki bu kapitalning qonunchilikda belgilangan miqdoridan oshib ketmasligi lozim.

Aksiyadorlik tijorat banklarida ularning boshqaruv organi bo'lib aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi, bank Kengashi va bank Boshqaruvi hisoblanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi – aksiyadorlik tijorat banklarining yuqori organi bo'lib sanaladi va uning vakolatlari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun, bank Ustavi, boshqa qonun xujjatlari bilan¹⁸ tartibga solinadi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining alohida vakolatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1) bank Ustavini tasdiqlash, unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish (umumiy yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiya egalari bo'lgan aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi yoqlab ovoz berishi orqali);
- 2) bankni qayta tashkil etish yoki tugatish (ovoz beruvchi aksiyadorlarning kamida 3/4 qismi ma'qullaganida);
- 3) bank kengashi a'zolari sonini belgilash, uning a'zolarini saylash, muddatidan oldin kengash a'zolidan chiqarish (ovoz beruvchi aksiya egalari 3/4 qismidan kam bo'lmagan ovoz bilan hal etiladi);

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 2 oktyabrdagi PF-2084 –sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan “Aksiyadorlik tijorat banklari to'g'risida”gi.T.: 1999 y. 1 mart.

- 4) e'lon qilingan aksiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash;
- 5) bankning Ustav kapitali miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish (ovoz beruvchi aksiya egalari 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 6) o'z aksiyalarini sotib olish (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ma'qullaganda);
- 7) bank Kengashi tomonidan tayinlangan bank Boshqaruvi Raisini tasdiqlash;
- 8) bank Taftish komissiyasi a'zolarini saylash va ular vakolatini muddatidan oldin to'xtatish;
- 9) bankning tashqi aksiyalarini tasdiqlash;
- 10) bank yillik hisobotini, balansini, foyda va zaralar hisobini tasdiqlash, foyda va zararlarni taqsimlash (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 11) bank xujjatlarini tasdiqlash va ularni bank biznes rejasi bilan taqqoslash, bank Kengashi a'zolariga kompensatsiya va mukofotlar miqdorini belgilash (ovoz beruvchi aksiya egalarining 3/4 qismi ovozi bilan hal etiladi);
- 12) Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;
- 13) aksiyalarni bo'lish yoki jamlash;
- 14) kredit berish, aktiv va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish, mijozlarga yangi bank xizmatlarini ko'rsatish masalalarida bank tomonidan amalga oshiriladigan siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunida belgilab qo'yilgan muddatlarda hamda tartibda chaqiriladi (mazkur qonunning 64-moddasi).

Bank Kengashi. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishlari o'rtasidagi davrda bank faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning 22-moddasiga ko'ra bank Kengashi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) bank faoliyati ustidan nazorat olib borish;
- 2) bank rahbarlarini ishga tayinlash va vazifasidan ozod qilish;
- 3) bank kapitalining muntazam o'sishini ta'minlash;
- 4) bank siyosatini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarilishini kuzatib borish;
- 5) bank faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash va bank Ustavida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bank Kengashi kamida besh kishidan iborat bo'ladi. Uning tarkibiga bank aksiyadorlaridan tashqari bank sohasi olimlari va mutahassislari a'zo sifatida kiritilishlari mumkin.

Bank Kengashi majlislarini chaqirish muddatlari, tartibi, masalalarni majlisda muhokama qilish va qarorlar qabul qilish tartiblari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunda belgilab qo'yilgan (qonunning 85-moddasi).

Bank boshqaruvi Raisini ishga qabul qilish va uning bilan Mehnat shartnomasi tuzish bank Kengashi tomonidan amalga oshiriladi va mehnat shartnomasiga bank Kengashining Raisi imzo qo'yadi.


Bank Kengashi bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi oldida hisob beradi.

Bank boshqaruvi bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladigan ijroya organidir va u kollegiallik asosida ish yuritadi. Bank boshqaruviga bank Kengashi tomonidan tayinlanadigan va umumiy majlis tasdiqlaydigan boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Bank boshqaruvi raisi o'rinbosarlari va bankning boshqa xodimlarini ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish (mehnat shartnomasi tuzish, uni o'zgartirish, bekor qilish) bank boshqaruvi raisi tomonidan amalga oshiriladi (Boshqaruv va uning Raisi vakolatlari «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 86-87 moddalarida belgilab qo'yilgan). SHuningdek, bank Boshqaruvi hamda uning Raisi vakolatlari, majburiyatlari, javobgarligi bank Ustavida batafsil ko'rsatib qo'yilishi lozim. Bank

boshqaruvi bank Kengashi va bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi oldida javobgar bo'ladi. Bank filiallarining rahbarlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki roziligi olingani holda bank boshqaruvi tomonidan vazifasiga tayinlanadi yoki lavozimidan ozod qilinadi.

Aksiyadorlik tijorat banklari aksiyadorlarining bankni boshqarish yuzasidan va boshqa masalalarga doir xuquqlari, ularning mulkiy hamda boshqa xuquqlarini himoya qilish aksiyadorlik xuquqiga oid qonunchilik normalari, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun va boshqa qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekistonda shuningdek belgilangan tartibda tashkil etilgan va akkreditatsiyalangan xorijiy banklarning vakolatxonalari ham faoliyat olib borishlari mumkin. Ularni boshqarish qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.



5-rasm. Tijorat banklari boshqaruv organlari va ularning tizimi

3-§. Banklarni qayta tashkil etish va tugatish.

Bankni qayta tashkil etish aksiyadorlar umumiy yig'ilish qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bu holda quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim:

-bank kengashi raisi tomonidan imzolangan iltimosnoma;

-aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining bankni qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

-bankni qayta tashkil etishning taxminiy shartlari, shakllari, tartib va muddatlarini aks ettiradigan hujjatlar;

-qayta tashkil etishning natijalari haqidagi moliyaviy taxminlar, shu jumladan, bankning u qayta tashkil etilganidan keyin hisob-kitob balansi va bankni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar.

Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ikki oy davomida ko'rib chiqiladi.

Bank faoliyatini to'xtatish va banklarni tugatish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunda hamda Markaziy bankning 240-sonli "Banklarni tugatish tartibi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Aktsiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra, Markaziy bank litsenziyani qaytarib olganda, bankrot deb e'lon qilinganda o'z faoliyatini to'xtatadi. Bu holda bank Markaziy bank tomonidan banklarni Davlat ro'yxatiga olish daftaridan chiqariladi. Uni faoliyati to'xtatilganligi to'g'risida matbuotda e'lon qilinadi.

Litsenziyaning bekor qilinishi tijorat banki tomonidan yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatiga nisbatan qo'llaniladigan qattiq huquqiy sanksiya bo'lib qonun buzilish holatiga Markaziy bankning bildirilgan munosabati va bankning faoliyatini to'xtatish uchun asos hisoblanadi.

Litsenziya bekor qilingandan keyin bank mavjud bo'lib turadi, ammo bank operatsiyalarini amalga oshira olmaydi.

Litsenziyani bekor qilish Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qo'llanadigan og'ir jazo chorasi hisoblanganligi sababli, boshqa jazo choralari natija bermagan quyidagi hollardagina qo'llaniladi;

-bank to'lov qobiliyatini yo'qotib, passivlari aktivlaridan ortib ketganida;

-litsenziya berilishga asos bo'lgan ma'lumotlarning haqiqiy emasligi aniqlanganda;

-bank o'z kreditorlari va omonatchilari oldidagi majburiyatlarini o'tashga qobiliyatsiz bo'lib qolganda;

-hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;

-bank operatsiyalarini qonunchilikka va litsenziya shartlariga xilof tarzda amalga oshirilganida;

-litsenziya berilganidan keyin bir yildan ortiq vaqt davomida bank operatsiyalarini amalga oshirishga kirishmasligi oqibatida;

-O'zbekiston Respublikasida shu'ba bank ochgan xorijiy bank litsenziyasining chaqirib o'z mamlakati tomonidan bekor qilinganida.

Litsenziyaning bekor qilinishi tijorat bankning sudga murojaat qilmasdan majburiy suratda tugatilishi uchun asos bo'ladi. Buni Markaziy bank tomonidan tayinlangan tugatish komissiyasi amalga oshiradi.

Bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;

Markaziy bank litsenziyani chaqirib olganida;

bankrot deb e'lon qilinganida.

O'z faoliyatini to'xtatgan bank Markaziy bank tomonidan banklarni davlat ro'yxatiga olish daftariidan chiqariladi va bu haqidagi xabar matbuotda e'lon qilinadi.

Bankni tugatish uning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga o'tkazmasdan bank faoliyatini to'xtatishdan iborat. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga ko'ra bank quyidagi hollarda o'z faoliyatini to'xtatadi:

- aksiyadorlar yig'ilishining qaroriga ko'ra;

- Markaziy bank litsenziyasini chaqirib olganda;

- bankrot deb e'lon qilinganida.

Bankni tugatishda bank aksionerlarining umumiy yig'ilishida Markaziy bank bilan kelishgan holda **tugatuv komissiyasi** yoki tugatuvchi tayinlanadi. Tugatuv komissiyasi tarkibiga Markaziy bank va uning hududlardagi boshqarmalari

mutaxassislari kiritilishi mumkin. Tugatish jarayonlarining asosiy maqsadi bank kreditorlari va omonotchilarining barcha talablarini tezroq qondirishga qaratilgan.

Quyidagilar **bankni tugatishga asos** bo'lishi mumkin.

a) Markaziy bank tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya chaqirib olinganda;

b) bankni ixtiyoriy tugatish bo'yicha aksionerlar yoki muassislar umumiy yig'ilishining qarori qabul qilinganda bankni tugatish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin.

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan litsenziyani chaqirib olish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bankni tugatish jarayoni boshlangan hisoblanadi, bank operatsiyalarini va xorijiy valutada operatsiyalarni amalga oshirish jarayoni to'xtatiladi hamda banklarni ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha Davlat kitobiga bank tugatish jarayonida ekanligi to'g'risida yozuv qilinadi. Tugatuvchi qonunda belgilangan tartibda bankni tugatish jarayonlari bo'yicha o'zining rejasiga ega bo'lishi lozim. Mazkur rejada tugatuvchining amalga oshiradigan chora-tadbirlari, tugatuvchi va jalb qilinadigan ekspertlar va mutaxassislarga ish haqi to'lash bilan bog'liq jarayonlar o'z ifodasini topishi lozim. Tugatish bilan bog'liq barcha harajatlari bank mablag'lari hisobidan qoplanadi. Tugatish bilan bog'liq harajatlarni Markaziy bank mablag'lari hisobidan qoplashga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziziya chaqirib olingan kundan boshlab ikki oy davomida tugatuvchi debitor qarzdorlik va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralar fondida zaxirada turgan bank mablag'larini undirib olish va ularni birinchi navbatda, tugatilayotgan bankning omonotchilarining omonotlarini qaytarishga yo'naltiradi.

Tijorat bankining moliyaviy holati qoniqarli bo'lib u o'z kreditorlari va omonotchilari oldida majburiyatlarini bajara olish imkoniyatiga ega bo'lgan holda

Markaziy bankning ruxsati bilan bank aksionerlarining umumiy yig'ilishi bank ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalari, veb-saytlarda e'lon qilinishi lozim.

Bankni tugatish deganda uni yuridik shaxs sifatida barham topishi, bank operatsiyalari amalga oshirilishining to'xtatilishi, bankning moliya bozori ishtirokchisi, tadbirkorlik sub'ekti sifatida xo'jalik faoliyatidan chetlashtirilishi tushuniladi. Bankni tugatish jarayoni ikki xil bo'lishi mumkin: ixtiyoriy tugatish yoki majburiy tugatishdir.

Bankni ixtiyoriy tugatish kreditorlar va omonatchilar oldida majburiyatlar bajarilishini ta'minlash imkoniga ega bo'lgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy tugatish Markaziy bankning bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasini chaqirib olish to'g'risidagi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Markaziy bank quyidagi hollarda:

- a) bankning passivlari aktivlaridan oshib ketganda va bank to'lovga layoqatsiz holga kelganda;
- b) litsenziya berish haqiqiy bo'lmagan ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa;
- v) bank o'z omonotchilari va boshqa kreditorlari oldida o'z majburiyatlarini bajara olmay qolganda;
- g) hisobotlarda doimiy ravishda xatolarga yo'l qo'yilganda;
- d) bank faoliyati va operatsiyalarini amalga oshirishda qonun talablari buzilganda;
- e) bank kapitalining etarlilik koeffitsienti Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorning 75 foizidan kam bo'lsa;

yo) bank oxirgi uch chorakning har oyi davomida regulyativ kapitalning 10 foizidan ortiq yoki davriga qaramasdan regulyativ kapitalning 50 foizidan ortiq zararga ega bo'lsa va boshqa hollarda bank kreditorlari va omonotchilarining talablarini qondira olmaydigan holatga tushganda, Markaziy bank tomonidan litsenziyani chaqirib olish va bankni majburiy tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganda bank majburiy tugatiladi. Banklarni tugatish to'g'risidagi nizomning 4-bo'limida tugatuvchi (likvidator) vakolatlari va majburiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Tugatuvchi tayinlangan kundan boshlab bank boshqaruvi tugatuvchining ixtiyoriga o'tadi va har bir bajarilgan operatsiya va faoliyat uchun tugatuvchi javobgar hisoblanadi. Tugatuvchi bankning aktiv va passivlari ustidan nazoratni amalga oshiradi,

-bankning barcha ishlarini bajarishga mas'ul hisoblanadi;

-kreditorlarning talabini qondirishga loyiq bahoda bank aktivlarini sotish;

-doimiy ravishda lozim darajada bank hisobotini yuritish va Markaziy bankka hisobot berib borish;

-bank faoliyatiga etkazgan zarari va noto'g'ri qaror qabul qilgan hollarda tugatuvchi javobgar hisoblanadi.

Tugatuvchi bankni boshqarish, bank nomidan ish ko'rish, bank aktivlarini aniqlash va ularni boshqarish, bank aktivlari va mulkini saqlash, zarur hollarda shartnoma asosida xodimlarni jalb qilish, bankning moliyaviy holatidan kelib chiqib xodimlarga ish haqi miqdorini belgilash, sudda tugatilayotgan bankning nomidan ishtirok etish va boshqalarni amalga oshirish huquqiga ega.

Barcha ishlar tugatilgandan keyin tugatuvchi Markaziy bankka amalga oshirgan ishlari bo'yicha hisobot va tugatuv balansini taqdim etadi.

Likvidator (tugatuvchi) Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksionerlar umumiy yig'ilishi tomonidan bankni tugatish to'g'risidagi qaror kuchga kirgan kundan boshlab 3 kun mobaynida tayinlanadi. Tugatish jarayonining maqsadi bank

omonatchilari va kreditorlari talablarini tezlik bilan qondirishdan iborat. Bankni tugatish jarayoni Markaziy bank boshqaruvining litsenziyalarni qaytarib olish to'g'risidagi qarori chiqqan kundan boshlangan deb hisoblanadi. Tugatilayotgan bankning Markaziy bank majburiy zaxiralar hisob varag'ida hisobda turgan mablag'lari tugatuvchi tomondan bankni tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risidagi tasdiqnoma taqdim etilgandan so'ng bankning tugatish hisob varag'ida aks ettiriladi. Markaziy bank tomonidan tugatish jarayoni boshlangandan so'ng aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi, boshqa organlar vakolatlari to'xtatiladi va boshqa cheklovlar kiritilishi mumkin. Bank hisobidan va nomidan hech qanday ish bajarilmaydi, qarz majburiyatlari muddati o'tgan hisoblanadi. Bankning tugatish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- moddiy nazorat va inventarizatsiya;
- aktivlarni tekshirish;
- aktivlarni baholash va sotish;
- sotuvdan tushgan tushumlarni joylashtirish;
- tugatish jarayonini aniqlashtirish.

Bank tugatilishi boshlangandan so'ng Markaziy bank moddiy nazoratni o'rnatadi va likvidator inventarizatsiya o'tkazadi. SHuningdek likvidator aktivlarni tekshirib tugatish hisobotini tayyorlashi lozim. Unda yakuniy balans, vakillik hisob varaqalari ahvoli to'g'risidagi hisobotlar, pul mablag'lari va valuta hisobini yuritish, balans va kredit portfeli bo'yicha kreditor qarzdorligini tekshirish natijalari aks ettirilishi lozim. Likvidator bank aktivlari bo'lgan ya'ni pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar, valuta mablag'larini baholaydi va sotadi. Tugatuvchi aktivlarni tekshiruvdan o'tkazgandan keyin, vakillik hisob varaqlarinig holati, pul va valuta mablag'lari hisobini yuritadi, kreditor qarzdorlik va bank inventar vositalarini o'zida aks ettiruvchi yakuniy balansni tuzadi. Pul mablag'lari, ssudalar, qimmatli qog'ozlar, valuta mablag'lari bankning moliyaviy aktivlari hisoblanadi. Pul mablag'lari, valuta, monetalar, hisob raqamidagi mablag'lar nominal qiymati bo'yicha baholanadi. Qimmatli qog'ozlar fond

birjasidagi holat bo'yicha baholanadi. Kredit portfeldagi kreditlar uchinchi tomonga sotiladi Kreditlar bahosi ularning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Muammoli kreditlar bo'yicha olingan ta'minot sotuvga qo'yiladi yoki sudda ko'rib chiqishga o'tkaziladi. Tugatuv jarayonida jismoniy shaxslarning omonotlari birinchi navbatda, to'lanadi.

Likvidator nizomga asosan omonatchilar va kreditorlar talabini qondirish kerak. Tugatish ishlari yakunlangandan so'ng likvidator bajarilgan ishlar to'g'risidagi yakuniy hisobotni va tugatish balansini tuzadi va Markaziy bankka taqdim etadi. Markaziy bank likvidator taqdim etgan hujjatlarni o'rganib chiqib, bankni banklarni ro'yxatga olish Davlat kitobidan chiqarib tashlash to'g'risida qarorni qabul qiladi. Tugatuvchi tomonidan qonunchilik talablari buzilgan hollarda Markaziy bank boshqa tugatuv komissiyasini yoki tugatuv komissiyasi a'zolarini tayinlashi mumkin. Tugatuv komissiyasi faoliyati va tugatuv jarayonlarini Markaziy bank doimo nazorat qilib boradi. Bankni tugatish bilan bog'liq bo'lgan barcha harajatlar mazkur bank hisobidan amalga oshiriladi.

Bank tugatilayotganida omonatchilar va kreditorlar talablarining ko'rib chiqilishi hamda qondirilishi tartibi. Likvidator tayinlanganidan keyin bir kunlik muddatda ikkita markaziy gazetada kreditorlar talablarini tasdiqlovchi xujjat bilan birgalikda talablarni bildirish tartibi va muddati hamda kreditorlar o'z talablarini da'vo qilishlari mumkin bo'lgan manzilni ko'rsatgan holda bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risidagi xabarnomani beradi. Talablarni bildirish muddati tugatish jarayoni boshlanganligi to'g'risida xabar berilgan kundan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu muddat tugaganidan keyin likvidator tomonidan qo'yilgan talablar qabul qilinmaydi.

Likvidator bankni tugatish ishlari boshlanganligi to'g'risida barcha kreditorlar va omonatchilarni yozma ravishda xabardor qiladi. Bunda tugatuvchi xabarnomada ularning shaxsiy xisobvaraqlarida qayd etilgan qarz yoki omonat miqdorini ko'rsatadi.

Xabarnomada likvidator da'volarni berish muddatini ma'lum qiladi. Ushbu muddat tugagach da'volar qabul qilinmaydi va ko'rib chiqilmaydi.

Kreditorlar va tugatilayotgan bankning o'zaro majburiyatlari mavjud bo'lsa, ular o'zaro qoplanishiga yo'l qo'yiladi. O'zaro qoplash quyidagi talablarga rioya qilingan holda amalga oshiriladi:

- o'zaro qoplash faqat to'lov muddati etib kelgan majburiyatlar bo'yicha ruxsat etiladi;

- biron bir majburiyat bo'yicha e'tiroz bildirilmaydi;

- ikkala tomon ham qarzni inkassatsiya qilish va to'lash xuquqiga ega bo'lishi shart;

- avtomatik ravishda o'zaro qoplashga yo'l qo'yilmaydi, tomonlar bir-biriga ariza bilan murojaat qilishlari shart;

- turli valyutalardagi majburiyatlarning o'zaro qoplanishi Markaziy bankning uni bajarish kunidagi ayirboshlash kursi bo'yicha amalga oshiriladi;

- bankka aloqador shaxslar bank oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, ularga bankning boshqa qarzdorlariga qo'yilayotgan talablar qo'yiladi;

- bog'liq shaxslarga berilgan qarzlarga oid majburiyatlarning o'zaro qoplanishiga ruxsat etilmaydi;

- aksiyadorning aksiyadorlik kapitalini to'lashga doir bank oldidagi majburiyatlari bankning Ushbu aksiyador oldidagi boshqa majburiyatlari bilan qoplanishi mumkin emas.

O'zaro qoplashda omonatchilar va kreditorlar talablarini qondirish navbati hisobga olinadi.

Bank tugatilayotganda uning kreditorlari talablari amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qondiriladi.

Jismoniy shaxs bo'lgan omonatchilar tugatishdan kelib tushgan tushumlar hisobiga o'z omonatlarini olishdan ustivorlikka egadirlar.

Tugatilayotgan bankning mulki birinchi navbatdagi barcha talablarni to'liq qondirish uchun etarli bo'lmasa, mavjud mablag'lar amaldagi qonunchilikka muvofiq kreditorlar o'rtasida taqsimlanadi.

quyidagi hollarda kreditorlarning talablarini qondirishdan bosh tortilishi mumkin:

- a) talabnomalar belgilangan muddat o'tganidan so'ng olingan bo'lsa;
- b) tugatuvchi tomondan asossiz deb topilgan bo'lsa.

Likvidator kreditorlar tomonidan talablarni bildirish muddati tugaganidan so'ng kreditorlar talablarini qondirishga doir quyidagi choralarni ko'rishi lozim:

- qabul qilingan talablar ro'yxatini tuzish;
- tugatuvchi tasdiqlamagan talablarni rad etish;
- har bir kreditor qarzi miqdori va talablarini to'lash ketma-ketligini belgilash;
- kreditorga ularning talablari qabul qilinganligi yoki rad etilganligi to'g'risida ma'lum qilish;
- oraliq balansni tuzish.

Kreditorlar talablarini qondirish rad etilganligi to'g'risida ularning manziliga yozma tarzda xabarnoma jo'natiladi.

Kreditor talablarini qondirish rad etilgan yoki uni ko'rib chiqishdan bosh tortilgan holda u likvidatorga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Tugatilayotgan bankning pul mablag'lari kreditorlar talablarini qondirish uchun mavjud bo'lmasa, tugatish komissiyasi sud qarorlari ijrosi uchun belgilangan tartibda Kim oshdi savdolari orqali bank mulkini sotadi.

Tugatilayotgan bankning mulki etarli bo'lmaganligi tufayli kreditorning qondirilmagan talablari to'langan hisoblanadi.

SHuningdek, kreditor da'vo bilan sudga murojaat qilmagan bo'lsa, tugatuvchi tomonidan tan olinmagan hamda sud qarori bilan kreditorning talablari qondirilishi rad etilgan talablar to'langan hisoblanadi.

Kreditorlar talablari qondirilganidan so'ng qolgan bank mulki qonunchilikda belgilangan tartibda taqsimlash uchun bank aksiyadorlariga beriladi.

Tugatish jarayonini yakunlash. Tugatish ishlari yakunlanganidan so'ng tugatish komissiyasi (likvidator) bajarilgan ishlar xaqida yakuniy hisobot va yakuniy balans tuzadi.

O'z ishini yakunlagan likvidator Markaziy bankka quyidagilarni taqdim qiladi:

- tugatish komissiyasining Markaziy bank tasdiqlaydigan qilingan ishlar to'g'risidagi hisoboti;
- bank aksiyadorlari (ishtirokchilari) umumiy yig'ilishining bankni tugatish (ixtiyoriy ravishda tugatilganda) to'g'risidagi bayonnomasi;
- Markaziy bank Boshqaruvining litsenziyani qaytarib olish to'g'risidagi qarori;
- bankni tugatish to'g'risida gazetalarda e'lon qilingan axborot nusxasi;
- tugatish komissiyasini tuzish to'g'risidagi qaror;
- bankning oxirgi ish kunidagi balansi;
- tugatish balansi;
- balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha tugatish balansi;
- soliq inspeksiyasining tugatish dalolatnomasi;

- yo‘q qilish uchun bank xujjatlari va yig‘majildlari ajratilganligi to‘g‘risida dalolatnoma;

- xujjatlarni arxivda saqlash uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

- muhrlar yo‘q qilish uchun xuquqni muhofaza qilish organlariga topshirilganligi to‘g‘risida tasdiqnoma.

Markaziy bank taqdim etilgan xujjatlarni ko‘rib chiqib, bankni Banklarni ro‘yxatga olish Davlat kitobidan o‘chirib chiqarib tashlash to‘g‘risidagi qarorni qabul qiladi.

Bankni Banklarni ro‘yxatga olish Davlat kitobidan o‘chirib chiqarib tashlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan so‘ng 10 kun davomida Markaziy bank Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga hamda bank joylashgan manzil bo‘yicha ularning organlariga bank tugatilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni etkazadi. Bank Banklarni ro‘yxatga olish Davlat kitobidan o‘chirib tashlangan vaqtdan boshlab tugatilgan hisoblanadi.

Bank xo‘jalik sudining bankni to‘lovga qobiliyatsiz (bankrot) deb topishi xaqidagi hal qiluvchi qarori asosida tugatilayotgan chog‘da O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq (yangi taxrirda) tugatish ishlari amalga oshiriladi.

4-§. Tijorat banklarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar malakasiga qo‘yiladigan asosiy talablar

Bank ochiladigan vaqtda barcha operatsiyalarni to‘liq amalga oshirilishini, to‘lov tizimida ishtirok etishini va ichki jarayonlarga to‘liq rioya etishini ta‘minlovchi dasturiy-texnik jihozlarga ega bo‘lishi kerak. Bankning dasturiy-texnik jihozlari «Markaziy bankning dasturiy-texnik jihozlarga qo‘yiladigan talablari»ga muvofiq bo‘lishi lozim.

Bank quyidagilarni ta‘minlashi lozim:

a) bankda dasturiy-texnik vositalarni ekspluatatsiyasini, hisoblash texnikasi va dasturiy ta'minotni ta'minlovchi xodimlarning bo'lishi va mazkur xodimlar telekommunikatsion jihozlar, kompyuter va server vositalari bilan ishlash amaliy ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim;

b) Markaziy bank uslubiy qo'llanmalariga muvofiq dasturiy-texnik jihozlarni ishga tushirilishiga tayyorligi;

v) bankning avtomatlashtirilgan bank tizimi bilan ishlovchi xodimlari maxsus kurslarda o'qishi va tegishli sertifikatga ega bo'lishi;

g) Markaziy bank bilan ma'lumot almashinuvini amalga oshiradigan ishchi stansiya xonasiga kirib-chiqish, tarmoqli yoki avtonom kodli qulf bilan ta'minlash.

d) bank bo'yicha elektron arxivlar ishini yurituvchi javobgar mutaxassisni buyruq asosida tayinlash va ushbu shaxs bilan molddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzish.

Xodimlar malakasiga qo'yiladigan talablar.

Tijorat banklari tomonidan rahbarlik lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod quyidagilarni bilishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlarida yoritilgan asosiy masalalar mohiyati;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bank faoliyatiga oid qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Markaziy bankning me'yoriy xujjatlari va boshqa me'yoriy xujjatlarni, shu jumladan:

a) fuqarolik, xo'jalik va mehnat qonunchiligi;

b) bank hisobotlarini tuzish tartibi;

v) hisob kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish tartibi;

- g) bank ichki kredit siyosati va kreditlash tartibi;
- d) kichik va o‘rta biznesni kreditlash tartibi;
- e) omonatlarni qabul qilish va berish tartibi;
- j) bankni korporativ boshqarish tartibi;
- z) ichki audit vazifalari va faoliyati;
- i) emissiya-kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;
- y) chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirish tartibi;
- k) pul muomalasini tashkil etish masalalari;
- l) Respublika bank tizimida olib borilayotgan kadrlar siyosatining mohiyati va ahamiyati.

SHuningdek nomzod Bazel qo‘mitasining bank faoliyatiga oid asosiy tamoyillarini bilishi lozim.

Tijorat banklarining respublika apparati, ularning viloyat va Toshkent shahar boshqarmalari (filiallari) boshliqlari lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod bank tizimida bevosita rahbarlik lavozimida kamida **6 yil** ishlagan bo‘lishi, bosh buxgalter lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod esa bevosita rahbarlik lavozimida kamida **5 yil** ishlagan bo‘lishi lozim.

Tijorat banklarining shahar va tuman bo‘limlari boshqaruvchisi lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod bank tizimida kamida **4 yil** mehnat stajiga ega bo‘lib, boshqaruvchi o‘rinbosari yoki bo‘lim boshlig‘i lavozimida **2 yil** ishlagan bo‘lishi, bosh buxgalter lavozimiga tavsiya etilayotgan nomzod esa bosh buxgalter o‘rinbosari lavozimida kamida **2 yil** ishlagan bo‘lishi lozim.

Ayrim hollarda bank sohasida belgilangan muddatdan kam ish stajiga ega bo‘lgan va ish faoliyatida alohida o‘rnak ko‘rsatgan yuqori malakali nomzodlar

ham Respublika tijorat banki Boshqaruvining tavsiyanomasi (tegishli Boshqaruv qarori) bilan **Komissiya** suhbatiga qo'yilishi mumkin.

Bank xodimlarining malakasi va kasbga muvofiqligi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Malaka talablarini qo'yish va kasbga muvofiqlikni aniqlash bank ishi va amaliyotini yuritishda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash uchun yuqori malaka va salohiyatga hamda benuqson ishbilarmonlik va jamoa orasida obro'-e'tiborga ega bo'lgan mutaxassislarni tanlash usuli sanaladi.

Kasbga muvofiqlikni aniqlash oshkoralik, kengashlilik va xolislik tamoillariga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qoshida Tijorat banklari va ularning filiallari raxbarlari hamda bosh buxgalterlarining kasbga muvofiqligini aniqlash komissiyasi faoliyat yuritadi.

Mazkur **Komissiyada** tijorat banklari Boshqaruvi raislari, rais o'rinbosarlari (Vazirlar Maxkamasi nomenklaturasiga kiradigan lavozimlar bundan mustasno), Boshqaruv a'zolari, bosh bankning bosh buxgalteri, Koraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaxar va tuman filiallari, amaliyot boshqarma (bo'lim)lari raxbarlari xamda bosh buxgalterlari lavozimlariga tayinlash uchun tavsiya etilayotgan nomzodlarning kasbga muvofikligi aniqlanadi.

Tijorat banklari Boshqaruvi raislari, ularning o'rinbosarlari, bosh buxgalterlari, filial raxbarlari va bosh buxgalterlari quyidagi hollarda tavsiya etilaetgan lavozimga muvofiq emas deb topiladilar va o'z navbatida ular bu lavozimlarga tayinlanishi mumkin emas:

- oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar;
- amalga oshirgan xarakatlari yuridik shaxslarning bankrotlikka yoki moliyaviy ahvoli yomonlashuviga olib kelganligi to'g'risida dalillar ma'lum

bo'lgan taqdirda, bankrotlikka uchragan yoki moliyaviy ahvoli yomonlashgan banklar va yuridik shaxslarning sobik, raxbarlari, boshqaruv va kuzatuv kengashi a'zolari xamda yirik ishtirokchilar (ustav kapitalida 10 foiz va undan ko'p miqdorida ovoz beruvchi aksiyalar yoxud ulushlarga ega bo'lgan shaxslar);

- o'zining ishbilarmonlik va shaxsiy xatti-harakatida noto'g'ri ish olib borish va vijdonan ish yuritmaslikni namoyon qilgan shaxslar;

- o'zaro yaqin qarindosh bo'lgan shaxslar bir bankda pahbarlik yoki moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarda biri ikkinchisiga bevosita bo'ysunib yoki uning nazorati ostida birga ishlasa.

Bank yoki filial raxbarlari bir bank tarkibida boshka filialga yoki umuman boshka bankka teng lavozimlarga o'tkazilganida ularning kasbga muvofiqligi Komissiya tomonidan qayta ko'rib chiqiladi.

5-§. Tijorat banklari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish. Xisob-kitob va hisobotlar tartibi.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni 41-moddasiga ko'ra: «Banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisoblash qoidalari Markaziy bank tomonidan qonun xujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanadi».

Buxgalteriya hisobi yuritishning asosiy tamoillari va umumiy qoidalari O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 3 avgustdagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunida¹⁹ hamda uning asosida va xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan «Buxgalteriya hisobi milliy standartlari»da belgilab qo'yilgan.

Bank muassasalarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari aks ettirilgani holda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2004 yil 27

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y, 9-son, 142-modda.

noyabrda 2519-son qaror bilan «Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi tartibi to'g'risida Nizom» tasdiqlangan.²⁰

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 1998 yil 20 fevraldagi 2-sonli bayonnomasi bilan 386-tartib raqami bilan «O'zbekiston Respublikasi banklarida statistik hisobotlarni tashkil etish qoidalari» tasdiqlangan va ushbu qoidalar Adliya vazirligida 1999 yil 22 martda 680-son bilan ro'yxatga olingan.

Tijorat banklari tomonidan hisob-kitoblarni yuritish tartiblarini buzganlik, hisobotlarni taqdim etish muddatlariga, tartiblariga amal qilmaganlik, ishonarli bo'lmagan hisobotlar taqdim etganlik uchun bank rahbarlariga nisbatan qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xuquqiy javobgarlik choralari, banklarga nisbatan esa iqtisodiy jazo choralari (moliyaviy sanksiyalar) qo'llashlik nazarda tutilgan.

Bankda xisob-kitob va xisobotlarning qonun talablariga to'la mos kelishi uchun bank rahbarlari va bosh buxgalteri shaxsan javobgar sanaladi.

Bankning xo'jalik faoliyati ustidan tekshirishni aksiyadorlik tijorat banki umumiy majlisi tomonidan belgilangan tartibda saylanadigan taftish komissiyasi olib boradi.

Taftish komissiyasi a'zolari o'zlariga yuklatilgan vazifalarni halol va to'liq bajarilishi uchun javobgar bo'ladilar.

Taftish komissiyasi bank tomonidan qonun va qonunosti me'yoriy xujjatlariga rioya etilishini, bank ichki nazorati ahvolini, bank operatsiyalarining qonuniyligini, kassa va mol-mulklar ahvolini tekshirib boradi. Tekshirish natijasida aniqlangan qonun buzarlilklarni bartaraf etish, aybdorlarni javobgarlikka tortish chorasini ko'radi. U o'z faoliyati xaqida belgilangan tartibda bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishiga hisob beradi.

²⁰O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y, 50-son, 511-modda.

Bank Kengashi yoki boshqaruvi a'zosi, bankda Biron-bir shtatli lavozimni egallagan shaxslar taftish komissiyasi a'zosi etib saylanishi mumkin emas.

Taftish komissiyasi, uning son tarkibi va asosiy vazifalari Bank ustavida belgilab qo'yiladi.

Banklar faoliyati ustidan qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan nazorat amalga oshiriladi.

Bankning yillik moliyaviy hisobotlari ishonchliligi hamda to'g'riligini tekshirish maqsadida tegishli litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvdan o'tkazib turiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 24 iyunda 430-son bilan «O'zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida Nizom» tasdiqlangan. Bu nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 4 noyabrda 982-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan.

Ushbu nizomda audit tekshiruvlarini o'tkazish xuquqini beruvchi sertifikat va malaka sertifikati berish bo'yicha bank audit komissiyasi ishini, sertifikat berish tartibini, auditorlik tekshirishlarini o'tkazish tartibini va boshqa tartib-qoidalar nazarda tutilgan.

6-§. Banklarga vasiylik qilish.

Vasiylik – bankni adekvat moliyaviy ahvoriga keltirish, uning faoliyati qonunchilikka mos kelishini ta'minlash, uni qayta tashkil etish yoki tugatishga tayyorlash maqsadida Markaziy bank tomonidan joriy etiladigan hamda ma'muriy, xuquqiy, moliyaviy, tashkiliy va boshqa tadbirlarni o'z ichiga olgan chora-tadbirlar majmuidir.

Bankka nisbatan vasiylik joriy etilgan holda uni boshqarish vasiy etib tayinlangan mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunga ko'ra: «Bankning muvaqqat ma'muriyatini tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda Markaziy bank vasiy tayinlaydi va vasiylik qilish xaqida farmoyish chiqaradi. Farmoyish matbuotda e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi».

Bankning vasiydan oldindan rozilik olmay qilgan yuridik harakatlari haqiqiy sanalmaydi. Vasiylik tartibida boshqarishning boshlang'ich muddati 12 oydan iborat.

Bankka vasiylik qilish tartibi bank tomonidan yo'l qo'yilgan omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga real xavf soluvchi tartibbuzarliklar yuz bergan hollarda joriy etiladi. Bankning etarlilik koeffitsientining pasayib ketishi, depozitorlar va kreditorlar talabi bo'yicha to'lovni amalga oshira olmasligi, zarar ko'rib ishlashi kabi holatlar omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug'diruvchi holatlar bo'lib hisoblanishi hamda vasiylik joriy etish uchun asos bo'lishi mumkin.

Vasiylik vakolatlari, majburiyatlari va unga nisbatan qo'yiladigan talablar.

Vasiy Markaziy bank tomonidan bank nazorati bilan shug'ullanuvchi Markaziy bank xodimlari, yuridik va konsalting firmalari xodimlari hamda mustaqil mutaxassislar tarkibidan tayinlanadi. Vasiy o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Markaziy bank me'yoriy xujjatlari va ko'rsatmalariga amal kiladi.

Bankka vasiy etib tayinlanadigan shaxs «Banklarni ro'yxatga olish va ularga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomda bank boshqaruvi raisiga nisbatan belgilangan talablarga mos kelishi lozim.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq bank aksiyadori, qarzdori va kreditori yoki bankka aloqador bo'lgan shaxs yoxud 1998 yil 9 dekabrda tasdiqlangan "Banklar o'rtasida va ularga daxldor shaxslar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar to'g'risida"gi Nizomga ko'ra bunday shaxsning yaqin qarindoshlari vasiy etib tayinlanishi mumkin emas.

Vasiy hamda muvaqqat ma'muriyatda band bo'lgan shaxsga ish haqi to'lash shartlari Markaziy bank va vasiy o'rtasida tuziladigan alohida shartnoma bilan belgilanadi. Muvaqqat ma'muriyatda band bo'lgan Markaziy bank xodimlari, jumladan, vasiyga vasiylik tartibi belgilangan bankda ish xaqi to'lanadi. Ushbu toifadagi shaxslar ish haqi miqdori ularning asosiy ish joylaridagi ish xaqidan kam bo'lmashligi lozim. Vasiyning ish xaqi bank boshqaruvi raisining ish xaqidan kam bo'lmashligi kerak. Muvaqqat ma'muriyat a'zolarining qayd etilgan toifasi uchun ularning asosiy ish joylarida lavozim maoshi miqdorida ish haqi saqlanib qoladi.

Vasiyning vazifasi bankning kreditorlari va depozitorlari manfaatlarini ko'zlab, uning to'lovga layoqatlilikini saqlab qolish hamda tiklash bo'yicha choralar qabul qilish, mavjud tartibbuzarliklarga barham berishni ta'minlovchi boshqarish mexanizmini yaratish, shuningdek, moliyaviy ahvolni sog'lomlashtirish va bank faoliyatining qonunchilikka mos kelishini ta'minlashga yo'naltirilgan samarali tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Vasiylikni joriy etish to'g'risidagi qaror topshirilgan vaqtdan boshlab hamda butun tartib davomida:

a) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlari to'xtatiladi;

b) bank boshqaruvi, bank kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining barcha vakolatlari vasiyga o'tadi;

v) vasiy vasiylik belgilangan bank nomidan harakat qiladi.

Vasiy quyidagi xuquqlarga ega:

a) o'z xohishiga ko'ra bank, bank iazorati, yuridik, konsalting yoki auditorlik kompaniyalari xodimlari yoki mustaqil mutaxassislar tarkibidan muvaqqat ma'muriyat uchun xodimlarni ishga yollash;

6) vasiylik qilinayotgan bank xodimlarining ish xaqini uning moliyaviy ahvolini hisobga olgan holda belgilash;

v) bank xodimlarini amaldagi mehnat qonunchiligiga ko'ra ishdan bo'shatish;

g) amaldagi qonunchilikka muvofiq bank bo'limlari va filiallarini yopish to'g'risida qaror qabud qilish;

d) bank aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga doir dividendlarni, shuningdek, bank rahbariyati va mansabdor shaxslariga to'lanadigan barcha to'lovlarni to'xtatib qo'yish;

e) bank mablag'lari hisobidan investitsiyalash yoki kreditlash ko'zda tutilgan bank shartnomalariga bir tomonlama tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

j) agar fuqarolar depozitlari va investitsiyalarining (bank aksiyalaridan tashqari) taxminiy qiymatini saqlab qoladigan choralar ko'riladigan bo'lsa, ushbu depozitlar va investitsiyalarni ko'pi bilan bir yilga qisman yoki to'liq cheklab qo'yish to'g'risida istalgan vaqtda e'lon qilish;

z) bank nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab, da'vo talablari taqdim etish, kreditorlar talablari qonuniyligini aniqlash;

i) bank aktivlari va passivlarini sotish;

k) vasiylik rejasi va vasiy vakolatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mumkin.

Vasiylik muddati tugagach, agar bu muddat Markaziy bank tomonidan uzaytirilmasa, bekor qilinadi.

Agar vasiylik davomida bankning moliyaviy ahvoli sog'lomlashmasa, u holda Markaziy bank bank operatsiyalarini o'tkazish uchun berilgan litsenziyani qaytarib oladi va bankni tugatish ishlari boshlanadi.

7-§.Banklar tomonidan ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar

Tijorat banklari tadbirkorlik faoliyatining sub'ektlari sifatida asosan mamlakat moliya-pul bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga xisob-kitob va boshqa bank xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanadilar. Ayni paytda ular o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmat turlari doirasini kengaytirish, bunday xizmatlar sifatini oshirish, bank xizmati servisi shakllanishi hamda keng rivoj topishidan bevosita manfaatdordirlar. Chunki bunday pullik xizmatlar tijorat banklariga qo'shimcha daromad olish, ta'minlash, mijozlarni keng jalb etish, bankning ishchanlik obro'sini ko'tarish imkonini beradi.

Ikkinchi tomondan olganda, bank qo'shimcha xizmat turlari kengaytirilishi, ular sifat darajasini yuksaltirilishi bank mijozlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun qulaylik tug'diradi, o'z muammolarini tez va samarali hal etishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan bimalol shug'ullanishlariga imkon yaratadi. Bular esa mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sur'atini jadallashtirishi, bozor munosabatlarning zaruriy infratuzilmalari shakllantirilishining asosiy shartlaridan biridir.

Xorijiy bank tizimlari va bank amaliyotini o'rganish bank-moliya tizimlari mukammal qaror topgan va rivojlangan bozor munosabatlari mavjud mamlakatlarda tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga bir necha yuzlab turdagi bank xizmatlari ko'rsatilishidan darak bermoqda.

Mamlakatimizda ham iqtisodiy islohotlarimiz chuqurlashib va rivojlanib borar ekan, bozor tizimi infratuzilmalari asta-sekin vujudga keltirilmoqda, ular tobora sivilizatsiyalashgan qiyofa kasb etmoqda.

Sobiq ittifoq davlati zamonida hukm surgan «Yagona boshqaruv markazi» orqali ma'muriy-buyruqbozlik ish uslublarida idora qilish ham evolyusion tarzda, bosqichma-bosqich barham topmoqda va uning o'rniga asta-sekin omilkorlik va tashabbusga asoslanuvchi, ko'proq foyda ko'rishga yo'naltirilgan iqtisodiy boshqaruv mexanizmlari joriy qilinmoqda. Tijorat banklarining asosiy faoliyatlariga qo'shimcha ravishda turli bank servis xizmatlarini ko'rsata

boshlagani va bunday xizmat doirasi kengayib borayotganligi aynan bozor munosabatlari talab hamda tamoyillari joriy etilayotganligi mahsuli sifatida baholanishi kerak.

Bugungi kunda banklar ko'rsatadigan qo'shimcha xizmatlarning xuquqiy asoslari yanada kengaytirilishi va mustahkamlanishi, yangi bank xizmatlari ko'rsatishning xuquqiy bazasi yaratilishi dolzarb bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotini va bank qonunchiligini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pgina qo'shimcha bank xizmatlari xorijiy mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda joriy etilmoqda va o'zining qonunchilik asosiga ega bo'lmaganligi, qonun hujjatlari bilan etarli tartibga solinmasdan qo'llanila boshlaganligi sababli qiyinchilik bilan o'z o'rnini topmoqda, bir qator qo'shimcha muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda ya'ni, bizning fikrimizcha bank qonunchiligi ayrim hollarda bank amaliyotidan ortda qolmoqda. Bularning barchasi «Bank xuquqi» soxasida ilmiy tadqiqotlarni keskin kuchaytirish, fanning amaliyotdan oldinda yurish tamoyilini ro'yobga chiqarish zaruratini juda dolzarb qilib qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23 mart 2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620- sonli qarorida ²¹ amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko'rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilayotganligi, ularning turlari kengayib, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib borayotganligi bilan birga, bank xizmatlari iste'molchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko'rsatish madaniyati va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar kuzatilayotganligi ta'kidlanib bu sohani yanada takomillashtirish va talab

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23 mart 2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ -3620- sonly qarori . T.: 2018.

darajasiga olib chiqish uchun quyidagi kamchiliklarni bartaraf etish lozimligiga e'tibor qaratildi. Bu kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, kreditlarni ajratish bo'yicha qaror qabul qilishda vakolatlar haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to'sqinlik qilayotganligi;

ikkinchidan, kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkab mexanizmlari kreditlarni tezkor olish imkoniyatlarini chegaralanganligi;

uchinchidan, tijorat banklari tomonidan mikroqarzlarni ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzlarni olish darajasini oshirishni ta'minlamayotganligi, mikrokredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlari bo'yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelayotganligi;

to'rtinchidan, chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratayotganligi;

beshinchidan, bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to'lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko'rsatayotganligi va aholining keng qatlamlari uchun ochiq innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik echimlarni ilgari surishga to'sqinlik qilayotganligi;

oltinchidan, kreditlarni (mikroqarzlarni) ko'rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqlari va boshqa to'lovlarning undirilishi qarzni real qiymati oshishiga olib ketayotganligi;

ettinchidan, shartnomalarga xizmatlar uchun tariflar, ajratilgan kreditlar va qabul qilingan depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini bir tomonlama o'zgartirishni nazarda tutuvchi shartlarni kiritish, shuningdek, bir xizmatni qo'shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan ko'rsatish bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzayotganligi;

sakkizinchidan, bank to'lov kartalaridan chet el valyutasini echish bo'yicha cheklovlarning mavjudligi va bankomatlar sonining etarli emasligi valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishda xizmat ko'rsatishni talab darajasida ta'minlamayotganligiga urg'u berildi. Ko'rsatib o'tilgan muammolarni bartaraf etish, bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendensiyalarini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida bank xizmatlarining ommabopligini oshirishni ta'minlash va bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha qator vazifalar belgilab berildi.²²

Tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar turi sifatida kafolatni keltirish mumkin.

Kafolat (garantiya) ham majburiyatning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora bo'lib, Fuqarolik kodeksining 299-moddasiga ko'ra, «kafolatga binoan bank boshqa kredit muassasasi yoki sug'urta tashkiloti (grant) boshqa shaxs (prinsipial)ning, iltimosiga ko'ra kafil o'z zimmasiga olayotgan majburiyat shartlariga muvofiq prinsipialning kreditori (benifetsiar) pul summasini to'lash haqida yozma talabnoma taqdim etsa, pulni unga to'lashi haqida prinsipialga yozma majburiyat beradi».

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23 mart 2018 yildagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ -3620- sonly qarori . T.: 2018.

Kafolat berilganligi uchun prinsipial kafilga haq to‘laydi. Kafolat berilgan kundan kuchga kiradi va uning o‘zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, kafil tomonidan chaqirib olinishi mumkin emas.

Majburiyat prinsipial tomonidan belgilangan muddatda to‘la yoki qisman ijro etilmagani taqdirda benifitsiar o‘z talablarini zarur hujjatlarni ilova qilgani holda kafilga bildirishi va, majburiyatini bajarishni talab qilishi mumkin. Kafil bunday talab va taqdim etilgan hujjatlar haqida prinsipialni darhol xabardor qilishi, talabni o‘zaro belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqishi lozim. Benifitsiar oldida majburiyatni ijro etgan kafil prinsipialga nisbatan regress da’vo qo‘zg‘atishi va ijroning o‘ziga qaytarilishini talab qilishi mumkin.

Kafolat qonunda yoki shartnomada ko‘zda tutilgan asoslarga ko‘ra bekor bo‘ladi. Jumladan, Fuqarolik kodeksining 309-moddasiga ko‘ra, «kafiliing kafolat bo‘yicha benifitsiar oldidagi majburiyati quyidagi hollarda bekor bo‘ladi:

- kafolat berilgan summa benifitsiarga to‘langanida;
- kafolatda belgilangan muddat tamom bo‘lishi bilan;
- benifitsiar kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi va uni kafilga qaytarib berishi oqibatida;
- benifitsiar kafilni uning majburiyatlaridan ozod qilishi haqida yozma ariza berish yo‘li bilan kafolat bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechishi oqibatida.

O‘zbekiston Respublikasi tergov va sud amaliyotida tijorat banklarining rahbarlari, ayrim mansabdor shaxslarning o‘z xizmat vazifalarini suiste‘mol qilib, turli firma va kompaniyalarga g‘ayriqonuniy kafolat berish hollari uchrab turibdi. Bunday hollarda mansabdor shaxs sodir etgan jinoyat tufayli qonunga xilof tarzda berilgan kafillik uchun bank majburiyatni o‘tash burchidan ozod etilmog‘i lozim.

Sug‘urta - inson faoliyatining turli sohalarida sodir bo‘ladigan tabiiy ofatlar, favqulodda hodisalar va boshqa voqealar natijasida etkazilgan zarar hamda

talofatlarni jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan sug'urta badallari (sug'urta puli)dan hosil qilinadigan pul fondlari hisobidan to'liq yoki qisman qoplash yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari sug'urtalanishini ta'minlashga doir munosabatlar demaقدir.

Ma'lumki, har bir mulkdor yoki mulkni saqlovchi uning to'la saqlanishidan manfaatdor bo'lib, bu manfaatdorlik darajasi mulk qiymatiga mutanosib hisoblanadi. Omonatchilar mablag'lariga jamlovchi va saqlovchi bank muasasalari ham bu mablag'larni turli tasodifiy hodisalar: tabiiy ofat, yong'in, bosqinchilik, xodimlar xatosi yoki suiiste'mollaridan himoya qilinishidan bevosita manfaatdordir. Bankning barqaror faoliyat yuritishi, turli tasodifiy hodisalardan himoya qilinishidan bevosita manfaatdordir. Bankning barqaror faoliyat yuritishi, turli tasodifiy hodisalardan ximoyalaniishi usullaridan biri ishonchli hamda malakali sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanishidir. Sug'urtalash mexanizmi bank faoliyati davomida yuz berishi mumkin bo'lgan tasodifiy hodisalar uchun butun mas'uliyatni sug'urtalovchi zimmasiga yuklash imkonini beradi.

Bugunga kunda banklar tomonidan o'z mol-mulkleri (binolar, xonalar, avtotransport vositalari, elektron-hisoblash texnikalari (kompyuterlar) va boshqa mulklar), kassadaga naqd pullar, bankda saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar, bank garovga olgan ashyolar, inkassatsiya xizmatini va boshqa ob'ektlarni sug'urtalash tobora keng tarqalib bormoqda.

Fuqarolik kodeksining 915-moddasida mulkiy sug'urta shartnomasi tarifi berilgan. Unga ko'ra, mulkiy sug'urta shartnomasiga muvofiq bir taraf (sug'urtalovchi) shartnomada shartlashilgan haq (sug'urta mukofoti) evaziga shartnomada nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda boshqa tarafga (sug'urta qildiruvchiga) yoki shartnoma qaysi shaxsning foydasiga tuzilgan bo'lsa, o'sha shaxsga (naf oluvchiga), bu hodisa oqibatida sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni yoxud sug'urtalanuvchining boshqa mulkiy manfaatlari bilan bog'liq zararni

shartnomada belgilangan summa (sug'urta puli) doirasida to'lash (sug'urta to'voni to'lash) majburiyatini oladi.

Sug'urtalash qoidalari odatda sug'urta kompaniyalari tomonidan o'z mijozlariga taqdim etiladi hamda bu qoidalarda sug'urta shartnomasi mazmuniga oid barcha talablar nazarda tutiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, Adliya vazirligi tomonidan 1997 yil 29 aprelda 35-tartib raqami bilan qayd etilgan "Garovga qo'yilgan mulklarni majburiy sug'urtalash yuzasidan yo'riqnoma"da sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining o'zaro xuquqlari hamda majburiyatlari, sug'urtalovchi javobgarligining yuz bershini shartlari, xajmi, zarar o'rni qoplab berish tartiblari va boshqa holatlar aniq belgilab qo'yilgan.

Bank faoliyatida, ayniqsa, olingan kreditning qaytarilishini sug'urtalash muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kreditning qaytarilishini ta'minlash paytida mijozlar tomonidan bunday kreditlarni qaytarilishini ta'minlash maqsadida sug'urtalashni amalga oshirilishiga erishish banklarning muhim vazifalaridan biri sanaladi. Bunday sug'urtaga oid nazariy va amaliy masalalar matbuotda yoritib borilmoqda.²³

Lizing xizmati (moliya ijarasi) bozor infratuzilmalarining tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, kapital oborotini tezlashtirish, foydani olish, ishlab chiqishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan hisoblanadi. Mutaxassislarining guvohlik berishlaricha, g'arb mamlakatlari tomonidan investitsiya maqsadlarida sarflanadigan mablag'larning 36 foizi lizing (moliyaviy ijara) hisoblanar ekan²⁴

Mamlakatimizda moliya bozorining rivojlanishi bilan lizing xizmati ham keng yo'lga qo'yila boshlandi va natijada korxonalar uning yordamida yirik iqtisodiy loyihalarni ro'yobga chiqarish imkoniyatini, banklar esa vaqtincha bo'sh mablag'larini muomalaga kiritib foyda olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Hozirga paytda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik

²³ М. Мирсодиқов. "Кредитнинг қайтарилиши юзасидан қарздор жавобгарлигини суғурталаниши". "Частная собственность", 1998 г., №4.

²⁴ Х. Нормуродов. "Лизинг выгодно банку и предпринимателю". «Банковские ведомости» хафтаномаси. 1997 йил 25-26 сон.

kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni va “Lizing to‘g‘risida”gi qonun boshqa qonunlar lizingini huquqiy asosi sanaladi.

Fuqarolik kodeksining 587-moddasiga ko‘ra, «Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan ishlab chiqaruvchi (yutuvchi) uchinchi taraf bilan undan o‘z mablag‘i hisobiga lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi».

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1997 yil 29 martda tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o‘gkazish tartibi»ga muvofiq lizing shartnomasi moliyaviy barqaror (ishonchli) yuridik shaxslar bilan qo‘yilayotgan mablag‘larning qaytarilishini ta‘minlash, muddatlilik, xaq olinishi tamoyillariga amal qilingan holda tuzilishi, lizing oluvchi lizing ob‘ekti bo‘lgan mulkni shartnoma muddati tugagach yoki muddatidan oldin sotib olishi mumkinligi nazarda tutilishi kerak.

SHuningdek, ushbu “Tartib”da lizing ob‘ektlari, uning sub‘ektlari doirasi ham belgilab ko‘yilgan.

Lizing shartnomasi tuzish quyidaga bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- Bank tomonidan lizing berilishi haqida arizaning qabul qilinishi va lizing oluvchi bilan muzokaralar olib borish;
- Lizing oluvchining moliyaviy barqarorligi to‘lovga qobiliyatligi haqida xulosa va u ilgari surayotgan loyiha samaradorligini aniqlash;
- Lizing shartnomasini tayyorlash va tuzish;
- Sotuvchiga mulkni tayyorlash va jo‘natish haqida buyurtma yuborish;
- Lizing predmetini olish-sotish shartnomasini tuzish;
- Lizingga olingan uskunalarni o‘rnatish va undan foydalanishni boshlash;

-Lizing oluvchi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida lizing ob'ekti bo'lgan uskunani sug'urtalash to'g'risida shartnoma tuzish.

Ushbu harakatlarning amalga oshirilish tartiblari tomonlar o'rtasida tuzilgan, shartnomada me'yoriy hujjatlar asosida belgilab ko'yilgan.

Lizing shartnomasi qatnashchisi bo'lgan lizing beruvchi, lizing oluvchi, sotuvchilarning o'zaro huquqlari va majburiyatlari Fuqarolik kodeksining 590-599-moddalarida, "Lizing to'g'risida"gi qonun, «O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish tartibi» va tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilab qo'yilgan.

Tijorat banklari amaliyotida lizing operatsiyalarining amalga oshirilish tajribalari, bu operatsiyalarni amalga oshirish mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo'llari to'g'risida matbuotda bir qator ilmiy maqolalar e'lon qilingan.²⁵ Lizing operatsiyalaridan keng foydalanish mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirishning muhim shartidir.

Tayanch so'zlar: litsenziya, tijorat bank, vasiylik, tugatish, majburiy tugatish, ixtiyoriy tugatish, kafillik, kafolat, ruxsat berish, operatsiya, vakolat, aksiyador, aksiya, bank kengash, bank boshqaruvi, depozit. ulush

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. O'zbekiston Respublikasidagi mavjud bank tizimi haqida so'zlab bering.
2. Tijorat banki deganda qanday tashkilot tushuniladi?
3. Bank tashkil etish tartibi qanday?
4. Bankni qayta tashkil etish qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziya berish tartibini so'zlab bering.

²⁵ E. Мезенцев. «Лизинговая операция и этапы ее проведения», «Банковские ведомости» хафтаномаси, 1997 йил, 34-сон; E. Мезенцев, Д. Жолдасова. «Анализ кредитоспособности лизингополучателя». «Банковские ведомости», 1997 йил, 35-сон. X. Нурмуратов. «Лизинг: выгодно и банку и предпринимателю». «Банковские ведомости» хафтаномаси, 1997 йил, 25-26 сон ва бош'алар.

6. Bankning boshqaruv organlari va ularning vakolatlari xaqida nimalarni bilasiz?
7. Bankning vakillik shaxslari deganda kimlar nazarda tutiladi?
8. Bank vasiyligi nima?
9. Bankni tugatish asoslari qanday?
10. Bankni tugatish tartibi qanday?
11. Banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan asosiy xizmat turlarini aytib o'ting.
12. Banklar tomonidan ko'rsatiladigan o'qoshimcha xizmat turlari, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni va ahamiyati xaqida aytib o'ting.
13. Ko'rsatiladigan xizmatlarning huquqiy asoslarini aytib bering.
14. Kafolat majburiyatining mazmuni va huquqiy asosini ayting.

IV BOB. Bank siri va bank axborotining maxfiyligiga rioya qilish talablari

1-§. Bank siri va bank axboroti maxfiyligi tushunchalari

Mamlakatimizda bozor munosabatlarning jadal taraqqiy qilib borishi sharoitida O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishga yo‘naltirilgan Harakatlar Strategiyasining²⁶ qabul qilinishi va unda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta‘minlash, ular faoliyatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish masalalarining ustivor vazifalar sifatida belgilab olinganligi bank tizimini yanada jadal rivojlanirishga asos bo‘lmoqda. Tijorat banklari faoliyatining tijoratlashuvi, ularning foyda olish maqsadida o‘z faoliyatini olib borishi faoliyati natijalari va jarayonlarini sir tutishni taqazo etadi. Bu nafaqat bank faoliyati, balki bank mijozlarining faoliyati, pul mablag‘larining saqlanishi va xavfsizligi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Banklar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va axborotlarining sir tutilishini ta‘minlashning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Tijorat siri to‘g‘risida”gi, “Xususiy bank va moliya institutlari hamda ular faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonunlarda mujassamlangan. Ushbu qonunlar bank siri, tijorat sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni olish, saqlash, muhofaza qilish, e‘lon qilish va taqdim etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

2003 yil 30 avgustda qabul qilingan “Bank siri to‘g‘risida”gi qonunning maqsadi bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni olish, saqlash, muhofaza qilish, e‘lon qilish va taqdim etish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning 3-moddasiga binoan bank siri - bank tomonidan muhofaza qilinadigan quyidagi ma‘lumotlardan iboratdir:

²⁶O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida .(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)

- o‘z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma’lumotlar;
- bank o‘z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko‘rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to‘g‘risida olgan ma’lumotlar;
- mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma’lumotlar;
- mijoz (vakil) topshirig‘iga binoan yoki uning foydasini ko‘zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarning banklar o‘rtasida muomalada bo‘lishi natijasida ma’lum bo‘lib qolgan, boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma’lumotlar;
- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining ishtirokchilari, pensiya badallarining miqdori va summalarining harakati, fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi pensiya jamg‘armalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan²⁷ iborat. Qonunchilik me‘yorlari asosida bank amaliyotiga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish bilan samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda o‘z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko‘paytirish orqali o‘zining mavjudligini saqlab qolishni ta‘minlaydi. SHu bilan birga aksiyadorlar boshqa manfaatdor shaxslar va bankning manfaatlariga rioya qilinishi kerakligiga asoslanadi. Bunda bank aksiyadorlari va mijozlarining manfaatlarini himoya qildish, ular faoliyati, bankda mavjud mablag‘lari, hisob-kitoblari, hamkorlariga oid ma’lumotlarning sir saqlanishi bir tomondan, banklar faoliyatida riskli holatlarni kamaytirsam, ikkinchi tomondan, mijozlarning banklarga nisbatan ishonchining oshishiga zamin yaratadi. Bank sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni oshkor qilish ularni ommaviy axborot vositalari orqali e‘lon qilishni, og‘zaki yoki yozma shaklda yoxud boshqa yo‘llar bilan tarqatish yoki etkazishni, ma’lum qilish

²⁷ “Bank siri to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2003 yil 30 avgust

yoxud uchinchi shaxslar e'tiboriga etkazishni anglatadi. Bunday holat bank sirini saqlash borasida qonunda belgilangan tartibda ma'lumotlarni saqlash tartibining buzilishidan dalolat beradi.

Har bir bankning rahbarlari va bankda faoliyat yurituvchi bank xodimi o'z xizmat vazifasi doirasida foydalangan unga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishi, ulardan shaxsiy maqsadda yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanishi, uchinchi shaxslarga bunday foydalanish imkoniyat berishi yoki unga mazkur ma'lumotlarni etkazishi bank siri bo'lgan ma'lumotlarni saqlash tartibini buzgan hisoblanadi.

Qonunning 5-moddasiga asosan, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish, og'zaki yoki yozma shaklda yoxud boshqa yo'sinda tarqatish yoki ma'lum qilish, uchinchi shaxslar e'tiboriga etkazish, bunday ma'lumotlarni qo'lga kiritishi uchun uchinchi shaxslarga bevosita yoki bilvosita, shu jumladan ana shunday ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoxud ma'lum bo'lib qolgan yoki qonunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar tomonidan bunday ma'lumotlarni saqlash tartibining buzilishi oqibatida imkoniyat yaratib berish bank sirining oshkor qilinishi deb hisoblanadi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning bank tomonidan uchinchi shaxslarga qonunda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek bankka yuridik, buxgalteriya, auditorlik, axborot va maslahat yo'sinidagi xizmat ko'rsatuvchi shaxslarga ma'lum qilinishi yoki taqdim etilishi qonunda nazarda tutilgan hollarda taqdim etiladigan bo'lsa u holda bank siri oshkor etilmagan hisoblanishi mumkin.

Banklar faoliyatida bank sirining oshkor qilinishini taqiqlanadi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan yoki qonunda belgilangan tartibda taqdim etilgan shaxslar tomonidan bu ma'lumotlarning oshkor qilinishi yoki ulardan shaxsiy maqsadda yoxud uchinchi shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanilishi taqiqlanadi va bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning muhofaza qilinishi bank tomonidan kafolatlanadi.²⁸

²⁸ "Bank siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 2003 yil 30 avgust

Banklar pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar boʻlgan:

- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- qimmatli qogʻozlar bozorining professional ishtirokchilari;
- birja aʼzolari;
- sugʻurtalovchilar va sugʻurta vositachilari;
- lizing xizmatlari koʻrsatuvchi tashkilotlar;
- pul oʻtkazmalari, toʻlovlar va hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tashkilotlar;
- lombardlar;
- lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa oʻyinlarni oʻtkazuvchi tashkilotlar;
- qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan bogʻliq operatsiyalarni amalga oshiruvchi shaxslar;
- koʻchmas mol-mulkning oldi-sotdisi bilan bogʻliq operatsiyalarda xizmatlar koʻrsatuvchi va ishtirok etuvchi shaxslar;
- mijozlar nomidan bitimlar tayyorlash va ularni amalga oshirishda notarial idoralar (notariuslar), advokatlik tuzilmalari (advokatlar) hamda auditorlik tashkilotlari, boshqa jismoniy va yuridik shaxslar pul mablagʻlari, oʻtkazmalari va boshqa moliyaviy munosabatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning sirini saqlashi lozim.

Agar bank bilan mijoz (vakil) oʻrtasida nizo kelib chiqqan boʻlsa, bank oʻz huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga mijozning (vakilning) bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni zarur hollarda va doirada maʼlum qilishi mumkin.

Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar mijozning (vakilning) oʻziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek qonunda belgilangan tartibda boshqa shaxslarga taqdim etiladi.

Bank sirini tashkil etuvchi, pul mablagʻlari yoki boshqa mol-mulk bilan bogʻliq operatsiyalar toʻgʻrisidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bogʻliq boʻlgan axborot qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etiladi.

Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni, agar bu maʼlumotlar ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun zarur boʻlsa, olishga haqlidir.

Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga taqdim etish rasmiy asoslar va murojaat boʻlgandagina amalga oshirilishi lozim. Masalan, bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga mazkur bank mijoziga nisbatan qoʻzgʻatilgan jinoyat ishi mavjud boʻlgan taqdirda, etkazilgan zarar undirib olinishini yoki uning mol-mulki xatlanishini taʼminlash maqsadida tergovchi yoxud surishtiruvchining asoslantirilgan qaroriga binoan prokuror sanksiyasi bilan taqdim etiladi. Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni sudga, prokuratura, tergov va surishtiruv organlariga, shuningdek davlat ijrochisiga taqdim etish qonunda nazarda tutilgan asoslar boʻlgan taqdirda, ularni soʻrayotgan organga yopiq va muhrlangan konvertda yoki axborot tizimi orqali elektron hujjat tarzida himoyalangan aloqa kanallari vositasida yuborilishi mumkin.

2-§. Toʻlov tizimida axborot xavfsizligi va muhozafrasini taʼminlash

Hattoki bankning rahbari yoki boshqa xodimi bankda ishlash davrida oʻziga maʼlum boʻlib qolgan, bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlarni uning bank bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingandan keyin ham oshkor qilishga haqli emas. Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki zimmasiga qonun bilan yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishi munosabati bilan oʻziga maʼlum boʻlib

qolgan, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etishga yoki taqdim etishga haqli emas.

Bank qonunchiligiga asosan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning muhofaza qilinishi bank tomonidan kafolatlanadi. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning tegishli ravishda saqlanishi uchun bank zarur tashkiliy va texnikaviy chora-tadbirlar ko'rishini, ularning saqlanishini kafolatlashi lozim.

Bugungi keng kamrovli iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida to'lov tizimi har bir mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Chunki, to'lov tizimi iqtisodiyotning moliyaviy infrastrukturasi hayotiy zarur element bo'lib hisoblanadi hamda iqtisodiyotni pul-kredit siyosati orqali samarali boshqarishni ta'minlovchi zaruriy kanallardan biri bo'lib sanaladi.

Iqtisodiyotda turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan kompaniya va firmalar faoliyat ko'rsatib, ular doimo bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Korxonalar va tashkilotlar bir-birlari bilan oldi-sotti munosabatlarini o'rnatadilar, bu munosabatlar o'zaro hisob-kitoblari orqali hal qilinadi. Bu hisob-kitoblarni o'tkazish uchun to'lov tizimi mavjud bo'lishi lozim. Ushbu to'lov tizimi arzon, qulay shu bilan birga xavfsiz ham bo'lishi lozim. Agar to'lov tizimi rivojlangan bo'lsa, undan foydalanish sur'ati ham oshib boradi. To'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya'ni aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraqdan boshqa bank hisobvarag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlashdir.

To'lov tizimi deyarli barcha risk turlariga uchraydi. To'lov tizimlarning ishtirokchilari uchrashi mumkin bo'lgan risklarning har xil turlari mavjud.

To'lov tizimi bu- tashkilotlar, huquqiy me'yorlar, vositalar hamda hisob-kitoblarda qatnashuvchilarning hisob-kitoblari o'tkazishni ta'minlaydigan dasturiy-texnik, kommunikatsion-axborot vositalari majmuidir. SHu jihatdan to'lov tizimining faoliyati, tashkiliy tuzilishiga uning riskka tortilishiga olib keladi. Bunda:

- hisob-kitoblari va bank holati bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlarning

berilishi, xodimlar tomonidan amalga oshirilgan o'g'irliklarni yashirish, xodimlarga berilgan pora evaziga kredit hujjatlarini sohtalashtirish va boshqalar;

- hisob-kitob hujjatlarini o'g'irlash va ularni sohtalashtirish, kredit olish va to'lash bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;

- mijozlar, xizmatlar va biznes yuritish standartlariga oid

ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va xisobvaraqlardan foydalangan holda firibgarlik;

- ishdagi, axborot va aloqa tizimidagi xatolik va uzilishlar, ya'ni

texnikaning ishlamay qolishi, telekommunikatsiya muammolari va dasturdagi uzilishlar;

- to'lov tizimi va kompyuter aloqalariga ruxsatsiz kirish,

- hujjatlarni rasmiylashtirish, operatsiyalar o'tkazish va jarayonlarni

boshqarish, ya'ni ma'lumotlarni kiritishdagi hatoliklar, xuquqiy hujjatlarning etishmasligiva boshqalar kiradi.

O'zbekiston respublikasining 2006 yil 4 aprelda qabul qilingan "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunida avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi keltirilgan. Bular::

- banklarning axborot xavfsizligini ta'minlash va bank sirini muhofaza qilish; axborotning tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va undan o'zgacha tarzda ruxsatsiz foydalanilishi, shuningdek nusxa olinishining hamda avtomatlashtirilgan bank tizimiga boshqacha shakldagi aralashuvlarning oldini olish kabilar hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotning muhofaza qilinishini tashkil etish uchun axborotni muhofaza qilish qoidalarini ishlab chiqish hamda ularga rioya etish, avtomatlashtirilgan bank tizimida ishlov beriladigan axborotni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish, sertifikatlangan texnika vositalari va axborotni muhofaza qilish vositalaridan foydalanish, avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish

belgilangan va barcha banklar bu qonuniy normalarga rioya qilishlari lozim. Avtomatlashtirilgan bank tizimi mulkdori O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq axborotning muhofaza qilinishini ta’minlashi hamda axborot mulkdorini uning axboroti muhofazasi buzilishining barcha hollari to‘g‘risida xabardor qilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va banklarda avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmati tashkil etilgan bo‘lib u:

- axborotning saqlanishini ta’minlash ustidan nazoratni tashkil etadi;
- axborotni muhofaza qilish masalalarida uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;
- avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish tizimini loyihalash, sinovdan o‘tkazish va qabul qilib olishda ishtirok etadi;
- avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotdan ruxsatsiz foydalanishga urinishlar bo‘lganligi, unga boshqacha shaklda aralashilganligi aniqlanganda hamda tizimning ishlash qoidalari buzilganda mazkur tizimdagi axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko‘radi;
- axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarining holati va samaradorligini tahlil etadi va boshqa vakolatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bank ichki jarayonlarda o‘rnatilgan jarayonlardagi

nosozliklar, jarayonlarga bo‘ysinmaslik va jarayonning biznes-liniya doirasida etarlicha aks ettirilmasligi, inson omili bilan bog‘liq risklar,

noto‘g‘ri boshqaruv, kadrlarning noto‘g‘ri tanlangani, qonunlar, etik normalar va shartnomaviy kelishuvlarga rioya qilmaslik, hamda bank faoliyatida bank siri bilan bog‘liq jarayonlarda muammolar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Ammo, kredit axborotini belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etish bank sirining buzilishi deb hisoblanmaydi. Kredit axborotini kredit byurolariga

taqdim etish kredit axboroti almashinuvi to'g'risidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Banklar o'z faoliyatining xavfsizligini ta'minlash, omonatlarni, kreditlar va boshqa investitsiyalarning qaytarilishini kafolatlash maqsadida o'z mijozlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunda belgilangan tartibda va doirada o'zaro almashib turishlari va bir-birlariga taqdim etishlari mumkin. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondiga, shuningdek omonatchilarga pullarni qaytarish tadbir-choralarini ko'rish uchun agent banklarga taqdim etiladi. Agar bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risidagi talab qonun talablariga muvofiq bo'lmasa, bank bunday ma'lumotlar taqdim etishni rad qilishga haqli hisoblanadi. Bu borada ma'lumot so'rovchi ma'lumotlarni taqdim etishni rad qilganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Bank va bank xodimi bank siri to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun, bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar xizmat vazifasini bajarishi munosabati bilan o'ziga ishonib topshirilgan yoki ma'lum bo'lib qolgan shaxsning ma'lumotlarni noqonuniy ravishda oshkor qilganligi yoxud ulardan noqonuniy foydalanganligi hamda bank mijoziga zarar etkazganligi aniqlansa bank xodimi qonunga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

3-§. Bank faoliyatiga oid axborotlar va bank sirini xuquqiy himoya qilish.

Fuqarolik qonun xujjatlari xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborotni, basharti bu axborot uchinchi shaxslarga nomalumlighi sababli xaqiqiy yoki nisbiy tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonun yo'li bilan undan erkin baxramand bo'lish mumkin bo'lmagan hamda axborot egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralar ko'rgan hollarda himoya etiladi (FKning 98-moddasi).

Bank faoliyati soxasida banklarning o'ziga, ular amalga oshiradigan bank operatsiyalariga, hamkorlari bilan o'zaro aloqalariga, mijozlariga taalluqli bo'lgan moliyaviy, tashkiliy, iqtisodiy, shaxsiy va boshqa ma'lumotlar bank siri hisoblanadi.

Bank siri hisoblanuvchi axborotlarni xuquqiy muxofaza qilish choralari, ularni vakolatli shaxslar hamda organlarga taqdim etish tartiblari, bank siridan noqonuniy foydalanish, ularni oshkor etganlik uchun javobgarlik bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1095-1097 moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2003 yil 30 avgustda qabul qilingan “Bank siri to‘g‘risida”gi qonunida²⁹, ushbu qonunlar asosida qabul qilingan qonunosti xujjatlarida belgilangan.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish, bank faoliyati bilan shug‘ullanish, bank bitimlari tuzish odatda juda katta iqqisodiy va moliyaviy qiymatga ega bo‘lgan axborotlarni olish, qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanishdan iborat.

Zarur axborotlarga ehtiyoj mijozda bankni tanlash, banqda esa mijoz bilan aloqa o‘rnatish paytida paydo bo‘ladi. Banklar faoliyatini nazorat qiluvchi organlarda bankni ro‘yxatta olish paytida ham, ular faoliyat yuritib turgan davrda axborotlar olish zarurati yuzaga keladi. Bu holatlar axborotlarni olish, ularni tekshirish va baholash sohasida iqtisodiy yoki texnikaviy masalalarnigina emas, balki huquqiy muammolarni ham ilgari suradi.

Bank axborotlari muayyan talablarga javob beradigan ma’lumotlar yig‘indisi bo‘lib, ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bank ta’ sis hujjatlari va hisobotlari;
- bankka rahbarlik qilish va uning tashkiliy-huquqiy shakllari haqidagi ma’lumotlar;
- bank xodimlari haqidagi ma’lumotlar;
- bank xizmati ko‘rsatish turlari va shakllari haqidagi ma’lumotlar;
- bank xizmatlari ko‘rsatish va unga haq olishga oid axborotlar;
- mijozlari soni va tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

²⁹ . O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.,19 -son,1 76-modda

- Mijozlar hisobvarag‘i orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqidagi axborotlar;
- bankning korrespondentlnk aloqalari xaqidaga ma’lumotlar;
- bank texnik jihozlanishi, ichki tuzilishi, arxitekturasiga oid ma’lumotlar va boshqa bank faoliyatiga aloqador har qanday ma’lumotlar. Bank axboroti hisoblanuvchi axborotlarning to‘la ro‘yxatini amalda sanab chiqish mumkin emas. Bank axborotlarining ayrimlari oshkora e’lon qilinadi (balans va hisobotlari), boshqalari esa bank obro‘-e’tiboriga daxldor bo‘lib, bankning nomulkiy huquqlari sifatida har tomonlama muhofaza etiladi. Bankning mavqeini belgilash paytida u xaqdagi axborotlar umumlashtiriladi va tahlil etiladi. Hozirga paytda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari reyting tizimi va unda har bir bank egallagan mavqei ana shu asosda belgilanmoqda.

Tijorat banki muassasalari tomonidan bank axborotlarini. to‘plash, jamg‘arish, qayta ishlash, uzatish, qo‘llash, ruxsat etilmagan tanishuvdan saqlanishga oid, axborotlar bilan bog‘liq ravishda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, davlat, jamoat organlari bilan bo‘ladigan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 7 maydagi “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi, 1997 yil 24 apreldagi «Axborot olish kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy va tijorat banklarining tijorat sirlari xaqida»gi Nizom ishlab chiqilgan bo‘lib, bank axborotlarini ximoyalash qoidalari unda belgilangan.

Bank axborotlarini to‘plash, saqlash va muhofaza qilinishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qator Me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, bundan asosiy maqsad bunday axborotlarni ruxsat etilmagan holda to‘plash va tarqatish orqali banklar moliyaviy faoliyatiga zarar etkazilishining oldini olishdan iborat. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi "Markaziy banki tomonidan 1996 yil 29 aprelda 216-sonli qaror bilan «Axborotlarni muhofaza qilish, axborotlashtirish

hududiy markazlarida, Bosh axborot markazlarida axborotlarning saqlanishi uchun mansabdor shaxslar javobgarligi qoidalari» tasdiqlangan bo‘lib, unda axborotlarni saqlash va muhofaza qilishning aniq texnik hamda xuquqiy mexanizmlari belgilab qo‘yilgan.

Bank siri bank axborotlarini muhofazalashning maxsus rejimi bo‘lib, bu rejimning belgilanishi bank uchun va bank mijozlari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar uchun o‘ta muhim ahamiyat kasb etuvchi ma’lumotlarni himoyalash bo‘yicha qo‘shimcha, kuchaytirilgan choralar ko‘rilishini taqozo etadi.

Bank siri mohiyati jihatidan korxonalar va tashkilotlar tijorat sirlarining bir ko‘rinishi bo‘lsa-da, boshqa tijorat sirlaridan farqli o‘laroq uning egasi tomonidan emas, balki qonunchilik yo‘li bilan belgilab qo‘yilgan. Jumladan, «Banklar va bank faloyati to‘g‘risida»gi qonunning 38-modada aytilishiga ko‘ra: «Banklar va o‘z mijozlari va vakillarining operatsiyalari, hisobvaraqlar hamda jamg‘armalariga doir ma’lumotlar sir saqlanishiga kafolat beradi. Bankning barcha xizmatlari bank, uning mijozlari va vakillarning bank operatsiyalari, hisobvaraqlari va jamg‘armalariga doir ma’lumotlarni sir saqlanishi shart.

Yuridik shaxslar va boshqa tashkilotlarning operatsiyalari xamda hisobvaraqlariga doir ma’lumotnomalar ana shu tashkilotlarning o‘ziga, prokuror, sudlar, jinoiy ish ko‘zg‘atilgan bo‘lsa, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Jismoniy shaxslarning hisobvaraqlari va omonatlariga doir ma’lumotnomalar mijozlarning o‘ziga va ularning qonuniy vakillariga, mijozlarning hisobvaraqlari va omonatlarida turgan pul mablag‘lari hamda boshqa qimmatbaho narsalarni xatlash, ularga nisbatan undiruv qaratilishi yoki mol-mulk musodara etilishi mumkin bo‘lgan hollarda yuritilayotgan ishlar bo‘yicha sudlar, surishtiruv va tergov organlariga beriladi.

Hisobvaraqlar va omonatning egalari vafot etganda ularga doir ma’lumotnomalar mazkur hisobvaraqlar yoki omonat egasi bankka topshirgan vasiyatnomasida ko‘rsatgan shaxslarga, vafot etgan omonatchilarning

jamg'armalariga doir meros ishlarini yuritayotgan davlat notarial idoralariga, chet el fuqarolarining hisobvaraqlariga doir ma'lumotnomalar esa - chet el konsullik muassasalari`a beriladi.

Xizmat burchi yuzasidan bank axborotidan xabardor bo'lgan shaxslar xizmat sirini oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. «Banklar o'z mijozlari bo'lgan korxonalarining operatsiyalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni ular soliq to'lovlarini to'liq va to'g'ri to'layotganliklarini nazorat qilish uchun soliq organlarining so'roviga binoan taqdim etadilar».

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, bank siri sanaluvchi axborotlar doirasi, ularning saqlanish tartibi va bank siri sanaluvchi ma'lumotlar bilan tanish bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasi bevosita qonun bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, bu narsa bank sirini boshqa sirlardan, xususan gijorat siri tergov va surishtiruv siri, boshqa moliyaviy sirlardan farq qiluvchi xususiyaglarini belgilab beradi. Bank siri sanaluvchi ma'lumotlarni davlat organlariga, xususan surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlariga, soliq hamda bojxona organlariga, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa organlarga taqdim etish asoslari va tartiblari qonun hujjatlarida qat'iy belgilab qo'yilgan hamda amaldagi tartiblarga xilof ravishda ma'lumot olishga urinish qonun bilan qat'iy taqiqlangan.

Bank faoliyatiga taalluqli axborotlar, bank siri sanaluvchi ma'lumotlar esa alohida ahamiyatga ega bo'lgan intellektual mulk-boylik bo'lib, bunday mulkiy hukuqqa har qanday tajovuz qilish amaldagi qonunchilikka muvofiq qat'iy ta'qib etiladi. Ruxsat etilmagan tarzda bank axborotlarini, ayniqsa, bank siri sanaluvchi axborotlarni olishga, to'plashga, ularni uzatishga, ulardan foydalanishga urinish, bu axborotlar bilan muloqotda bo'ladigan bank xizmatchilari, davlat organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qasddan yoki ehgiyotsizlik bilan bunday axborotlarning oshkor etilishiga yo'l qo'yilishi aybdor shaxslarning tegishli huquq javobgarlikka tortilishlariga sabab bo'ladi. Jumladan, O'zbekiston, Respublikasining ma'muriy-javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46-moddasida

tijorat sirlarini oshkor qilganlik uchun jarima solish yo‘li bilan ma‘muriy jazo ko‘llanilishi aytilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 143-moddasida (xat-yozishmalar, telefon so‘zlashuvlari yoki boshqa xabarlarining sir saqlanishi tartibini buzganlik), 174-moddasida (axborotlashtirish qoidalarini buzish), 181-modda (bankrotlikni yashirish), 191-moddasida (qonunga xilof ravishda axborot to‘plash uni oshkor qilish yoki undan foydalanish), 192-moddasida (raqobatchini obro‘sizlantirish), axborotlar bilan bog‘liq ravishda sodir etilgan jinoyatlar uchun fuqarolar va mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishlari belgilab qo‘yilgan.

Bank faoliyatiga oid yopiq axborotlarni va bank siri sanaluvchi ma‘lumotlarni qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli oshkor etganlik, bu ma‘lumotlarni qonunga xilof ravishda to‘plaganlik, uzatganlik, foydalanganlik tufayli bank muassasasiga etkazilgan mulkiy va ma‘naviy zarar o‘rnini aybdor shaxslardan undirib berilishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 64-bobida (1095-1097-moddalar) oshkor etilmaydigan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilishning fuqarolik huquqiy choralari va mexanizmlari belgilangan bo‘lib, bunday axborotlarning oshkor bo‘lishida aybdor bo‘lgan shaxslar axborot egasiga shunday harakatlari tufayli etkazilgan mulkiy zararni hamda ma‘naviy ziyon o‘rnini qoplab berishlari zarurligi belgilab qo‘yilgan. Agar bunday axborotlar bank muassasasi xizmatchisining aybi bilan oshkor etilgan va shu tufayli zarar etkazilgan bo‘lsa, bunday xodim O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 202-moddasi, 6-bandi) muvofiq ish beruvchi oldida to‘liq hajmda moddiy javobgar bo‘lishi nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda bozor iqtisodining qaror topishi bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatlarda amal qiluvchi qoidalarining to‘la xajmda joriy etilishini taqozo etadi. Rivojlangan mamlakatlarda axborotlar ham to‘laqonli tovar sifatida

baholanadi, axborot bozori mavjud va shunga mos ravishda har qanday mulk singari axborotlarni himoya qilinishining samarali xuquqiy hamda boshqa choralari ko‘rilmog‘i shart..

O‘zbekiston Respublikasi Fuqorolik Kodeksi 1095-modda. Oshkora etilmagan axborotni muxofaza qilish xuquqi deb nomlanib, unda uchinchi shaxslarga ma’lum bo‘lmagan texnikaviy, tashkiliy yoki tijorat axborotiga, shu jumladan ishlab chio‘arish sirlariga (nou-xau) o‘onunan ega bo‘lib turgan shaxs uni (oshkor etilmagan axborotni), basharti ushbu kodeksning 98-moddasida belgilab o‘o‘yilgan shartlarga rioya etilgan bo‘lsa, noo‘onuniy foydalanishdan muhofaza o‘ilish huo‘uo‘iga ega

Oshkor etilmagan axborotni noo‘onuniy foydalanishdan muhofaza o‘ilish huo‘uo‘i bu axborotga nisabatan biron-bir rasmiyatchilikni bajarishdan (uni ro‘yxatdan o‘tkazish, guvohnoma olish va hakazodan) o‘at‘i nazar vujudga keladi.

Oshkor etilmagan axborotni muhofaza o‘ilish o‘oidasi o‘onunga muvofio‘ xizmat yoki tijorat siri bo‘la olmaydigan ma’lumotlarga (yuridik shaxslar to‘YOrisidagi, mol-mulkka bo‘lgan huo‘uo‘lar va mol-mulk xususida tuzilib, davlat ro‘yhatidan o‘tkaziladigan kelishuvlar to‘YOrisidagi ma’lumotlarga, davlat statistika hisoboti tariqasida tao‘dim etiladigan ma’lumotlar va hokazolarga) nisbatan tatbiq etilmaydi. Oshkor etilmagan axborotni muhofaza o‘ilish huo‘uo‘i ushbu Kodeksning 98-moddasida nazarda tutilgan shartlar sao‘lanib turgan paytga qadar amal qiladi.

1096-modda. Oshkora etilmagan axborotdan noo‘onuniy foydalanganlik uchun javobgarlik deb nomlanib, oshkora etilmagan axborotni o‘onuniy asosi bo‘lmay turib olgan yoki taro‘atgan yoxud undan foydalanayotgan shaxs bu axborotga o‘onunan ega bo‘lib turgan shaxsga axborotda noo‘onuniy foydalanganlik natijasida etkazilgan zararni to‘lashi shart

Oshkor etilmagan axborotdan noo‘onuniy foydalanayotgan shaxs bu axborotni uni taro‘atishga huo‘uo‘i bo‘lmagan shaxsdan olgan bo‘lsa, axborotni o‘o‘lga kirituvchi shaxs bundan bexabar bo‘lsa va buni bilmasligi kerak bo‘lsa (axborotni insofli egallovchi),

oshkor etilmagan axborotning o‘onuniy egasi axborotni egasi axborotni insofli egallovchi axborotdan foydalanayotganligi noo‘onuniy ekanligini bilib o‘olgandan so‘ng oshkor etilmagan axborotdan foydalanganlik natijasida etkazilgan zararlarni o‘plashni undan talab o‘ilishga hao‘lidir.

Oshkor etilmagan axborotga o‘onunan ega bo‘lib turgan shaxs bu axborotdan noo‘onuniy foydalanayotgan shaxsdan axborotdan foydalanishni darhol to‘xtatishni talab o‘ilishga hao‘lidir.

Biroq sud oshkor etilmagan axborotni insofli egallovchi undan foydalanganda sarflangan mablaYOlarini inobatga olib, bu axborotdan hao‘ to‘lab olinadigan alohida litsenziya asosida bundan buyon ham foydalanishga ruhsat etishi mumkin.

Oshkor etilmagan axborot mazmunini tashkil etuvchi ma‘lumotlarni mustao‘il tarzda va o‘onunan olgan shaxs bu ma‘lumotlardan, tegishli oshkor etilmagan axborot egasining huo‘uo‘laridan o‘at‘i nazar, foydalanishga hao‘li va bunday foydalanish uchun uning oldida javob bermaydi.

1097-modda. Oshkora etilmagan axborotdan noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqining boshqa shaxsga o‘tishiga ham e‘tibor qaratish lozim. Oshkor etilmagan axborotga ega bo‘lgan shaxs bu axborot mazmunini tashkil etuvchi ma‘lumotlarning hammasini yoki bir o‘ismini litsenziya shartnomasi asosida boshqa shaxsga berishi mumkin. Litsenziat shartnoma bo‘yicha olgan axborotlarning maxfiyligini muhofaza o‘ilishga doir kerakli choralarni ko‘rishi shart va uni uchinchi shaxslarning noo‘onuniy foydalanishidan muhofaza o‘ilishda litsenziarniki singari huo‘uo‘larga ega.

SHartnomada o‘zgacha hol nazarda tutilgan bo‘lmasa, axborotlarning maxfiyligini sao‘lash majburiyati, basharti tegishli ma‘lumotlar oshkor etilmagan axborot tario‘asida o‘olaversa, litsenziya shartnomasi bekor bo‘lganidan keyin ham litsenziatning zimmasida bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar: bank siri, tijorat siri, sir, maxfiy axborot, shikoyat, majburiyat, xavfsizligini ta‘minlash, axborot xavfsizligi

Mavzuni o‘rganish bo‘yicha nazorat savollar:

1. Bank siri deganda nimani tushinasiz?
2. Bank siri sohasidan qaysi qonunlarni bilasiz va ular qachon qabul qilingan?
3. “Bank siri to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
4. Bank siri va axborot maxfiyligi qanday ta‘minlanadi?
5. Bank siri va axborot maxfiyligini qaysi tashkilot kafolatlaydi?
6. Bank sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlar qaysi vaqtda, qanday va kimlarga berilishi mumkin.
7. “Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?
8. Banklarda to‘lov tizimi xavfsizligi deganda nimani tushinasiz?
9. Banklar faoliyatiga doir axborotlarni maxfiyligini saqlash zarur chorolari va huro‘yo‘iy asosi o‘aysi o‘onun xujjatida berilgan?
10. Bank siri to‘YOrisidagi o‘onun o‘achon o‘abul o‘ilingan va mazmuni nimadan iborat?
11. Bank axborotlariga o‘o‘yiladigan muayyan talablar va ma‘lumotlar yiYOindisini aytib bering.
12. Bank sirini oshkor o‘ilinganligi uchun javobgarlikning huro‘yo‘iy asoslari o‘aysi o‘onun xujjatlarida ko‘rsatilgan?
13. Bank siri hisoblanuvchi hujjatlar qaysilar

V BOB. Bank operatsiyalari va bank bitimlari, banklarda hisob-kitob munosabatlarini tashkil etishning xuquqiy asoslari.

1-§. Bank operatsiyalar va hisob-kitoblar tushunchasi.

Mamlakatimizda barqaror va samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Mamlakatimizda bozor munosabatlarining jadal taraqqiy qilib borishi sharoitida O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishga yo'naltirilgan Harakatlar Strategiyasining³⁰ qabul qilinishi va unda tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlash, ular faoliyatini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish masalalarining ustivor vazifalar sifatida belgilab olinganligi bank tizimini yanada jadal rivojlanirishga asos bo'lmoqda. 2016 yilda O'zbekistonda YAIM hajmi joriy narxlarda 199 trln. so'mni yoki 67 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM hajmi mos ravishda 6,2 mln. so'mga yoki 2106 AQSH dollariga teng bo'lgan. 2016 yilda so'mning rasmiy almashuv kursi yillik o'rtacha 2966 so'mni (bir dollarga) tashkil etgan. 2017 yil yakunlariga ko'ra, YAIM hajmi joriy narxlarda 249,14 trln. so'm yoki 48,65 mlrd. AQSH dollariga teng bo'ldi. Jon boshiga hisoblaganda, YAIM hajmi 7,7 mln. so'mni yoki 1502,1 AQSH dollarini tashkil qilmoqda³¹.

“2016 yil yakunlari bo'yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YAIM) real o'sish sur'ati 2015 yilga nisbatan 7,8 foizni va uning nominal hajmi 199,3 trln. so'mni tashkil etdi. Iqtisodiyotning bunday sur'atlarda rivojlanishi asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining 9,6 foizga, xizmatlar ko'rsatish hajmining 12,5 foizga, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining 6,6 foizga, shuningdek, tashqi savdo aylanmasining


³⁰O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 7 fevral 2017 y.

³¹ Stat.uz.O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

ijobiy saldosi hisobiga ta'minlandi.”³² Bank tizimi kengayib 2017 yil 1-may holatiga to'lov tizim va hisob kitoblarni amalga oshiruvchi banklar soni 27 tani, filiallari va minibanklari 4000dan ortiq, banklar mijozlari, ularga ochilgan hisobvaraqlar soni va depozitlar xajmining oshishi ham hisob-kitoblar bilan bog'liq. O'zbekiston respublikasi Markaziy Bankining ma'lumotlariga ko'ra, “Har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalari soni 2016 yilda 49,8 tani tashkil etgan bo'lsa, har 1000 ta katta yoshli aholiga to'g'ri keladigan bank hisobvaraqlari soni 1 138 birlikni (1000 tadan ko'p yuqori hisoblanadi) tashkil etdi. Bugungi kunda Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank xizmatlarining yuqori saviyada va me'yoriy hujjatlarga asoslangan bo'lishi, bank muassasalari faoliyatidagi barcha operatsiyalarning buxgalteriya hisobini to'liq va o'z vaqtida tegishli me'riy xujjatlarda belgilab berilgan tartibda amalga oshirilishi, ayniqsa bu borada xalqaro standartlarga amal qilinishi davr talabi bo'lib qolmoqda. Buxgalteriya hisobi, to'lov tizimi va hisob-kitoblar bilan bog'liq risklar, jumladan, pul mablag'larini noto'g'ri yoki o'z vaqtida o'tkazmasligi, uchinchi shaxsning oldida bank obro'yiga putur etishi sababli yo'qotishlar riski hamda hisob-kitoblarni o'tkazish davomida nazoratning sustligi, buxgalteriya hisobini yuritilishidan kamchiliklarga yo'l qo'yilishi, firibgarlik riski, pul mablag'larini bir hisobvaraqa o'tkazish o'rniga boshqa hisobvaraqa o'tkazish holatlarining yuzaga kelishi, hisob-kitob hujjatlarida bilib yoki bilmasdan xatolik yoki kamchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida hisobvaraqlarning xolatiga noto'g'ri baxo berilishi kabilar bilan bog'liq risklarni keltirish mumkin. Ta'kidlash lozimki, tijorat banklarida naqd pulsiz hisob-kitoblar, to'lov tizimi va uni tashkil qilish bilan bog'liq risklar mustaqil ilmiy-tadqiqod ob'ekti sifatida kompleks o'rganilmagan. Amaliyotda bank operatsiyalarining har biri hisob-kitoblar bilan bog'liq bo'lganligi sabab ular risk bilan bog'liq. Naqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalarida hisob varaq nomerlarining noto'g'ri ko'rsatilishi, xujjatdagi summani komp'yuterga noto'g'ri kiritilishi, mijoz tomonidan taqdim etilgan xujjatlardagi imzo va muxrlarning namunaga mos

³² w.w.w.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari

kelishi tekshirilmay o'tkazib yuborilganda bajarilgan operatsiyalarning har biri katta riskka uchrashi holatlari kuzatilishi mumkin. To'lovlarning o'z vaqtida o'tmay qolishi yoki boshqa hisobvaraqlarga noto'g'ri o'tkazilishi, banklarning vakillik hisobvaraqlarida mablag'larning etarli bo'lmay qolishi, bank bilan mijozlar, shuningdek, bir-birlari bilan sherikchilik munosabatlarini o'rnatgan sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlarga putur etishiga sabab bo'ladi. Mijozlar to'lovlarining o'z vaqtida o'tmay qolishi yoki boshqa hisobvaraqlarga noto'g'ri o'tkazilishi, banklarning vakillik hisobvaraqlarida etarli pul mablag'larinining bo'lmasligi natijasida mijozlarning operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarning to'xtab qolishi yoki kechikishi natijasida yuzaga keladigan risklar aynan naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi bilan bog'liq risklar bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda hisob-kitoblarni tez va samarali tashkil etish, ya'ni xo'jalik sub'ektlari o'rtasida o'zaro etkazib berilgan tovar hamda mahsulotlar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul to'lovlari o'z vaqtida, to'la xajmda o'tkazilishini ta'minlash – tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan asosiy bank operatsiyalaridan sanaladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar sub'ektlar o'rtasidagi hisob-kitoblarni naqd pul ishlatmasdan bankdagi bir hisobvaraqdan boshqa hisobvaraqqa o'tkazilishi bo'lib hisoblanadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar o'zining iqtisodiy mohiyatiga karab tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq hisob-kitoblar va notovar xarakterdagi hisob-kitoblarga bo'linadi.



6-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tarkibi

Tovarlarini sotish jarayonidagi hisob-kitoblar moddiy boyliklar aylanishi bilan bog'liq bo'lib, ular asosan korxonada, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida olib boriladi. Lekin plastik kartochkalar orqali hisob-kitoblar respublika bank

amaliyotiga kirib kelgandan so'ng, aholi ham plastik kartochkalar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshira boshladi.

Notovar xarakterdagi hisob-kitoblarga milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar, daromaddan to'lovlar, har xil badallar, soliqlar, kreditlarni to'lash, uy-joy, har xil xizmatlar uchun to'lovlar va boshqalar kiradi. Tovarlar harakati bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarning naqd pulsiz o'tkazilishi, moddiy boyliklarni etkazish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov muddatini yaqinlashtirishga yordam beradi.

Tovar moddiy boyliklar va xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida o'tkazilmasligi korxonalar mablag'larining xo'jalik oborotidan chiqib ketishga, ko'zlangan rejalarni bajarishga mablag'larning etishmasligiga olib keladi. O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarning kengayib borishiga bank tizimining rivojlanishi, infrastrukturaning kengayishi xizmat qiladi, negaki respublikaning turli nuqtalarida joylashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli banklarda o'z hisobvarag'ini ochadi, shu bilan birga ushbu bank hamda boshqa tijorat banklarining mijozlari bilan ho'jalik aloqalarini olib boradilar. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning keng ishlatilishiga keng tarmoqli bank tizimining rivojlanishi, davlat tomonidan makroiqtisodiy jarayonlarni o'rganish va uni tartibga solish nuqtai-nazaridan davlatning qiziqishi, mulkchilik shakllarining ko'payishi va turli mulkchilik munosabatlarining kengayib borishi asos bo'ladi.

Hisob-kitoblarning iqtisodiy hayotdagi ahamiyati yaxshi anglangan holda bu soxadagi ishlarni takomillashtirish hamda rivojlantirilishi hukumatning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Hisob-kitoblarga oid asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan. Jumladan, FKning 790-moddasiga ko'ra fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari bilan bog'liq bo'lmagan holda ular o'rtasidagi hisob-kitoblar va fuqarolar ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pullar bilan yoki naqd pulsiz summasi cheklanmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblar, shuningdek fuqarolarning tadbirkorlik

faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq holda ular ishtirokidagi hisob-kitoblar naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi. Ko‘rsatib o‘tilgan shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, naqd pulda ham amalga oshirilishi mumkin.

Agar qonunda boshqacha tartib kelib chiqmasa va bunday tartibni foydalanilayotgan hisob-kitoblar shakli taqozo etmasa, naqd pulsiz hiso-kitoblar ularda qatnashayotgan shaxslarning hisobvaraqlari ochilgan banklar, boshqa kredit tashkilotlar (bundan buyon banklar) orqali amalga oshiriladi.


«Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida qayd etilishicha: Banklar va ularning mijozlari hisob-kitoblarni Markaziy bank belgilaydigan tartibda amalga oshiradilar. Ko‘rsatilgan tartibni buzganlik uchun ular qonun xujjatlarida belgilangan tarzda javobgar bo‘ladilar.

Hisob-kitoblarga oid huquqiy munosabatlar pul majburiyatlari shaklidagi xuquqiy munosabatlardan bo‘lib, shartnomalar yoki boshqa xuquqiy asoslardan vujudga keladi. Hisob-kitob munosabatlar pul majburiyatlari shaklidagi huquqiy munosabatlardan bo‘lib, shartnomalar yoki boshqa xuquqiy asoslardan vujudga keldi. Hisob-kitob munosabatlarida to‘lovchi va pulni oluvchi tomonlar ishtirok etadilar. Ularning teng xuquqliklari, qonun bilan taqiqlanmagan har qanday harakatlarni sodir etishlari mumkinligi, shartnoma tuzishning erkinligi, hisob-kitoblarning O‘zbekistonning butun xududida erkin amalga oshirilishi tamoyillari to‘la e’tirof etiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi bevosita moliya, valyuta va qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. SHuning uchun, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, bir qator rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganib, tijorat banklarning moliyaviy holati va boshqa omilarni hisobga olgan holda, yangi hisob-kitoblar tizimini tashkil etish maqsadga muvofiq deb topildi va naqd pulsiz hisob-kitoblarni tartibga soluvchi huquqiy hamda me’yoriy baza yaratildi. Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblar 2013 yil

3-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2465-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi Nizom asosida tashkil etiladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni bir tizim sifatida qarasaq, uning bir qator elementlardan tashkil topgan. 1.2- rasmdan ko‘rib turganimizdek, naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining elementlariga naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etishning asosiy tamoyillari, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari, hisob-kitob hujjatlari, to‘lovlar navbati, to‘lov usuli va muddati, to‘lov manbalari, hisob-kitoblar ishtirokchilari, ya’ni sub’ektlari kabilarni kiritish mumkin.



7-rasm. Naqd-pulsiz hisob-kitoblar tizimining elementlari³³

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining elementlaridan biri bu hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillaridir. Naqd pulsiz hisob-kitoblarquyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

³³К.Наврузова, Ж.РабиновЎзбекистонда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар тизими ва уни такомиллаштириш. Монография/-Т.: Moliya-iqtisod 2015йил.

-Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar bo‘sh pul mablag‘larini tijorat banklarida saqlashlari shart.

-Qaysi bankda hisobraqam ochishni, qanday hisob-kitob shakllaridan foydalanishni mijozlarning o‘zlari mustaqil belgilaydilar.

-To‘lov qoidasi va shartlari mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol etkazib berish to‘g‘risidagi shartnomada kelishib olinadi, mijozlarning hisob-kitoblar bo‘yicha shartnomaviy munosabatlariga bank aralashmaydi.

-To‘lovlar xo‘jalik sub’ektlarining hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari hisobidan yoki bank krediti hisobidan amalga oshiriladi.

- Pul mablag‘larini oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazish, ushbu mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘i hisobidan chiqarilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

-Pul mablag‘lari to‘lovchining roziligi yoki uning yozma topshirig‘iga asosan o‘tkaziladi Hozirgi kunda naqd pulsiz hisob-kitoblarning birinchi tamoyili xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘z mablag‘larini bankdagi hisobvaraqlarida saqlashlari va barcha operatsiyalarni bank orqali o‘tkazishlari lozimligini bildiradi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning ikkinchi tamoyili shundan iboratki, qaysi bankda hisobraqam ochishni mijozlarning o‘zlari mustaqil belgilaydilar. Mijozlar o‘ziga qulay bo‘lgan manzildagi, yuqori reyting va imidjli, xizmat ko‘rsatish sifati va darajasi yuqori, qonuniy bo‘lgan barcha bank operatsiyalarini tez va xavfsiz o‘tkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lgan banklarni tanlaydilar va hisob-kitob shakllarini erkin tanlaydilar.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning yana bir tamoyili, to‘lov qoidasi va shartlari mol etkazib beruvchi va mol sotib oluvchi tomonidan mol etkazib berish to‘g‘risidagi shartnomada kelishib olinishini belgilanishidir.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning keyingi tamoyili bu - to‘lovlarning xo‘jalik sub’ektlarining hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari hisobidan yoki bank krediti hisobidan amalga oshirilishidir. Mijozning hisobvarag‘ida operatsiyalarning o‘tkazilishi uchun pul mablag‘larining etarli miqdorda bo‘lganda, barcha kelib tushgan hisob-kitob hujjatlari kelib tushish tartibida birin-

ketin to‘lanadi. Mijozlar hisob-kitob hujjatlarini to‘lash uchun bank kreditidan ham foydalanishlari mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning beshinchi tamoyili bu pul mablag‘larini oluvchining hisobvarag‘iga o‘tkazish, ushbu mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘i hisobidan chiqarilgandan so‘ng amalga oshirilishidir.

Pul mablag‘lari to‘lovchining roziligi yoki uning yozma topshirig‘iga asosan o‘tkazilishi naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilishning yana bir tamoyillaridan biridir. To‘lovchining hisobvarag‘idan pul mablag‘lari uning roziligi asosida o‘tkaziladi.

Banklar “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq mijozlarning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishga yoki ularni bajarishni rad etishga haqlidir. Operatsiyalarni o‘tkazish jarayonida mijoz lozim darajada tekshiriladi. “Mijozni lozim darajada tekshirish bu - mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko‘rayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirish, ta‘sis hujjatlari asosida mulk va boshqaruv tuzilmasini o‘rganish orqali mijozning haqiqiy egasini identifikatsiyalash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni, ularning bunday mijoz va uning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o‘rganishlarni o‘tkazishdir.”³⁴

³⁴“Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2004y. 2019 y. 15 yanvardagi tahriri.

2-§. Bank hisob-kitobi shartnomasi (bitimi) va uning fuqarolik huquqiy jihatlari.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu hisob-kitob shakllaridir. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar, akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar, inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar, cheklar bilan hisob-kitob shakllarda amalga oshiriladi.³⁵ Naqd pulsiz hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida plastik kartochkalardan ham foydalaniladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu hisob-kitob hujjatlaridir. Naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklining har birida alohida hujjatlar ishlatiladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov topshiriqnomasi shaklida to‘lov topshiriqnomasi, akkreditiv shaklida akkreditivga arizadan foydalaniladi. SHu bilan birga, inkasso shaklida inkasso operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ikkita hujjat, ya’ni inkasso topshiriqnomasi va to‘lov talabnomasidan foydalaniladi. Bank ichki operatsiyalarida memorial order, cheklar bilan hisob-kitoblarda hisob-kitob cheklari yordamida operatsiyalar bajariladi.

Iqtisodiyot tarmoqlaridagi tijoratchi tashkilotlar hamda turli notijorat tashkilotlari, byudjet muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblar naqd pulsiz, tijorat banklari orqali amalga oshiriladi. Ana shunday hisob-kitoblar amalga oshirilishi bank biror mijozining hisobvarag‘idan pul mablag‘larini belgilangan tartibda boshqa mijoz yuridik yoki jismoniy shaxs, yakka tadbirkor tashkilot, firma va boshqalar hisobvarag‘iga ko‘chirish orqali amalga oshiriladi.

Har bir mijoz hisob-kitob operatsiyalari amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan hisobvarag‘lariga ega bo‘lmog‘i lozim. YUridik va jismoniy shaxslarga o‘zlari istagan bank muassasasida hisobvarag‘i ochish xuquqi berilgan. Banklarda hisobvarag‘ ochish mijozning bankka murojaat qilishi va shu asosda bank hamda mijoz o‘rtasida maxsus hisobvarag‘ shartnomasi tuzilishi orqali amalga oshiriladi.

³⁵2013 yil 13 iyunda 2465-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 771-moddasida bank hisobvarag‘i shartnomasiga ta’rif berilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

Bank hisobvarag‘i shartnomasi bo‘yicha bir taraf – bank yoki boshqa kredit muassasasi ikkinchi tarafning – mijozning (hisobvara q egasining) hisobvarag‘iga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va kiritib qo‘yish, mijozning hisobvara qdan tegishli summalarini o‘tkazish va to‘lash hamda hisobvara q bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi.

Bank muassasalaridan boshqa kredit tashkilotlari tomonidan ularga berilgan litsenziya asosida hisob-kitob ishlari amalga oshirilgani chog‘da ham hisobvarag‘i shartnomasiga oid yuqoridagi qoidalar tatbiq qilinishi nazarda tutilgan.

Bank o‘z mijozni hisobvarag‘idagi mablag‘lardan foydalanishi mumkin. Biroq, mijozning birinchi talabi bilanoq mablag‘ unga qaytarilishi yoki uning tomonidan ko‘rsatilgan maqsadlar uchun sarflanishi imkoniyati yaratilishi lozim. Bank mijozning bank hisobvarag‘ida mavjud bo‘lgan pul mablag‘laridan mavjud bo‘lishini hamda hisobvara q egasining ushbu mablag‘larni hisobvara qda turgan summalar doirasida moneliksiz tasarruf etish xuquqini kafolatlagan holda foydalanishi mumkin.

Mijoz bankdagi hisobvara qda turgan o‘z pul mablag‘larini mustaqil tasarruf etadi. Bank mijozning pul mablag‘laridan qay tarzda foydalanishni belgilashga va nazorat qilishga hamda uning pul mablag‘larini o‘z hohishiga ko‘ra tasarruf etish xuquqlariga qonunda yoki bank hisobvarag‘i shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa cheklashlarni belgilashga haqli emas.

Bank hisobvarag‘i shartnomasi bank tomonidan mijozga yoki u ko‘rsatgan shaxsga bankda taraflar kelishgan shartlarda hisobvara q ochish yo‘li bilan tuziladi.

Yuridik shaxslar va fuqarolar o‘zlariga hisob-kitob va kassa xizmati ko‘rsatiladigan banklarni mustaqil tanlaydilar hamda bitta bank ham, shuningdek bir nechta bank bilan ham bank hisobvarag‘i shartnomalari tuzishlari mumkin.

Bank muayyan turdagi hisobvaraqlar ochish uchun e'lon qilingan, qonunda va qonunga muvofiq belgilab qo'yilgan bank qoidalarida nazarda tutilgan tegishli talablarga mos keladigan shartlar asosida hisobvaraqlar ochishni taklif qilib murojaat etgan mijoz bilan bank hisobvarag'i shartnomasi tuzishi shart. Bank tegishli operatsiyalarni amalga oshirish qonunda, bankning ta'ris xujjatlarida va unga berilgan litsenziyada nazarda tutilgan hisobvaraqlar ochishni rad etishga haqli emas, ana shunday rad etishga bankda bank xizmati ko'rsatishga qabul qilish imkoniyati yo'qligi sabab bo'lgan hollar bundan mustasno.

Bank, bank hisobvarag'i shartnomasini tuzishdan asossiz ravishda bosh tortgan taqdirda, mijoz uning oldiga ushbu Kodeks 377-moddasining oltinchi va ettinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqli.

Mijoz nomidan hisobvaraqlardagi mablag'larni o'tkazish va berish haqidagi ko'rsatma beradigan shaxslarning xuquqlari mijoz tomonidan bankka qonunda nazarda tutilgan, xolatga muvofiq bank qoidalari hamda bank hisobvarag'i shartnomasi bilan belgilangan xujjatlarni taqdim etish yo'li bilan tasdiqlanadi.

Mijoz uchinchi shaxslarning talabiga muvofiq, shu jumladan mijozning ushbu shaxslar oldidagi majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq talabiga muvofiq pul mablag'larini hisobvaraqlardan o'chirish haqidagi farmoyish berishi mumkin. Bank tegishli talab qo'yilgan vaqtda uni qo'yishga haqli bo'lgan shaxsni aniqlash va bunday talabning xarakteri va asoslarini belgilash imkonini beradigan zarur ma'lumotlar bu farmoyishlarda yozma ravishda ko'rsatilgan taqdirda ularni qabul qiladi.

Bank hisobvarag'i shartnomasida hisobvaraqlarda turgan pul mablag'larini tasarruf etish huquqini elektron to'lov vositalaridan hamda ularda mijozning o'z imzosi, kodlari, parollari hamda farmoyish tegishli vakolati bo'lgan shaxs tomonidan berilganligini tasdiqlaydigan boshqa vositalarning o'xshatmalaridan foydalanilgan boshqa xujjatlar bilan tasdiqlash nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank qonunda, qonunga muvofiq belgilab qo'yilgan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatlarida ushbu turdagi hisobvaraqlar uchun belgilab qo'yilgan operatsiyalarni amalga oshirish yo'li bilan hisobvaraqa kelib tushayotgan pul mablag'larini qabul qilishi va kiritib qo'yishi hamda mijozning pul mablag'larini qo'lga berish xaqidagi topshiriqlarini bajarishi shart.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha muddatlar belgilab qo'yilgan bo'lmasa, bank tegishli to'lov xujjati banka tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan tushgan pul mablag'larini hisobvaraqa kiritib qo'yishi, mijozning topshirig'iga muvofiq hisobvaraqdan pul mablag'larini qo'lga berishi yoki o'tkazishi shart. Hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish muddatlarini buzish bank uchun ushbu Kodeksning 327-moddasida nazarda tutilgan oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Bank mijozni hisobvarag'ida vaqtincha pul mablag'lari bo'lmagani taqdirda mijozning iltimosiga ko'ra bank hisobvarag'ining kreditlash – ya'ni mijoz uchun pul o'tkazish amalga oshirilishi mumkin. Bunda bank tegishli xaq (foiz) oladi.

Hisobvaraqda turgan pul mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan bank operatsiyalarini amalga oshirganligi uchun bank mijozdan hisobvaraqa shartnomasida belgilangan miqdorda haq olinadi.

Mijozning hisobvarag'ida turgan pul mablag'laridan foydalanganligi uchun bank o'z mijoziga xaq (foiz) to'lashi ko'zda tutilgan.

Ushbu foizlar bank tomonidan bank hisobvarag'i shartnomasida belgilanadigan miqdorda, shartnomada tegishli shartlar nazarda tutilmagan taqdirda esa - odatda bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar yuzasidan to'laydigan miqdorda to'lanadi.

Foizlar summasi bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, bunday muddatlar bank hisobvarag'i shartnomasida nazarda tutilmagan hollarda esa - yilning har choragi tamom bo'lgach, hisobvaraqa kiritib qo'yiladi.

Bankning hisobvaraqa kreditlash hamda bank xizmatlari uchun haq to'lash bilan bog'liq holda mijoz oldiga qo'yiladigan pul talablari, shuningdek mijozning pul mablag'laridan foydalanganlik uchun foizlar to'lash xaqida bank oldiga qo'yadigan talablari, agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bir-birlarini talablarini hisobga olish yo'li bilan bekor qilinadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan talablar bank tomonidan hisobga olinib, u talablar hisobga olinganligi to'g'risida mijozga bank hisobvarag'i shartnomasida belgilab qo'yilgan tartibda va muddatlarda, bordiyu tegishli shartlarni taraflar kelishib olishmagan bo'lsa, banklar odatda tegishli hisobvaraqdagi pul mablag'larining holati to'g'risida mijozlarga axborot beradigan tartibda va muddatlarda axborot berishi shart.

Bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari mijozning topshirig'i bilan, shuningdek, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra o'chirilishi mumkin. Mijozga kelgan pul mablag'lari hisobvaraqa o'z vaqtida kiritib ko'yilmagan yoki bank hisobvarakdan mablag'larni asossiz ravishda o'chirgan hollarda bank mijozning talabi bilan tegishli summani darhol hisobvaraqa kiritib qo'yishi shart.

Bank o'z vaqtida kiritilmagan yoki asossiz o'chirilgan summaga foizlar to'lashi va zararining o'rnini qoplashi ham shart. Bank hisobvarakdan mablag'larni o'z vaqtida bermaganligi va mijozning hisobvaraqdan mablag'larni o'tkazish haqidagi farmoyishlarini o'z vaqtida bajarmaganligi uchun ham javobgar bo'ladi. Banklar bank hisobvarag'i va bank omonati, hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalar hamda mijoz haqidagi ma'lumotlar sir saklanishini kafolatlaydi.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar faqat mijozlarning o'zlariga yoki ularning vakillariga berilishi mumkin. Davlat organlariga va ularning mansabdor shaxslariga bunday ma'lumotlar qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda berilishi mumkin. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar bank tomonidan oshkor qilingan taqdirda, huquqlari buzilgan mijoz keltirilgan zararning o'rnini qoplashni bankdan talab qilishi mumkin.

Mijozning hisobvaraqda turgan pul mablag'larini tasarruf qilish huquklarini cheklashga yo'l qo'yilmaydi, hisobvaraqda turgan pul mablag'larini xatlash yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish hollari bundan mustasno. Bank xisobvarag'i shartnomasi mijozning arizasiga muvofiq istalgan vaqtda bekor qilinadi. Bankning talabiga ko'ra bank hisobvarag'i shartnomasi quyidagi hollarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin:

Mijozning hisobvarag'ida saklanayotgan pul mablag'lari summasi bank qoidalarida yoki shartnomada ko'zda tutilgan eng kam miqdordan oz bo'lsa;

Agar bunday summa bank bu xaqda o'gohlantirgan kundan boshlab bir oyda tiklanmasa, agar shartnomada boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu hisobvaraq bo'yicha bir yil davomida operatsiyalar qilinmagan bo'lsa.

Hisobvaraqdagi pul mablag'larining qoldig'i mijozning tegishli yozma arizasi olinganidan keyin kechi bilan etti kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko'rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqqa o'tkaziladi.

Bank xisobvarag'i shartnomasining bekor qilinishi mijoz xisobvarag'ini yopish uchun asos bo'ladi.

3-§. To'lov tizimining sub'ektlar va ular o'rtasidagi munosabatlar

Iqtisodiyotda turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan kompaniya va firmalar faoliyat ko'rsatib, ular doimo bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Korxonalar va tashkilotlar bir-birlari bilan oldi-sotti munosabatlarini o'rnatadilar, bu munosabatlar o'zaro hisob-kitoblar orqali hal qilinadi. Bu hisob-kitoblarni o'tkazish uchun to'lov tizimi mavjud bo'lishi lozim. Ushbu to'lov tizimi arzon, qulay shu bilan birga xavfsiz ham bo'lishi lozim. Agar to'lov tizimi rivojlangan bo'lsa, undan foydalanish sur'ati ham oshib boradi. To'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya'ni aholiga va xo'jalik sub'ektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraqdan boshqa bank hisobvarag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlashdir. To'lov tizimi va uning nazariy, me'yoriy va iqtisodiy asoslarini yoritishdan avval to'lov tizimining mohiyatiga to'xtalib o'tamiz.

Xalqaro hisob-kitoblar Banki ta'rifiga ko'ra, to'lov tizimi –bu tashkilotlar, huquqiy me'yorlar, vositalar hamda hisob-kitoblarda qatnashuvchilarning hisob-kitoblarini o'tkazishni ta'minlaydigan dasturiy, texnik, kommunikatsion-axborot vositalari majmuidir. Bizning banklarimizning amaliyotidan kelib chiqib ta'riflaydigan bo'lsak, to'lov tizimi - to'lovchidan to'lovni oluvchiga pul mablag'larini etkazib berish bo'yicha mavjud bo'lgan va Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadigan pul o'tkazish mexanizmidir.

To'lov tizimi 4 bosqichdan, ya'ni 1-bosqich - to'lovning boshlanishi, ya'ni to'lovchi o'z bankiga pulni o'tkazib berish to'g'risida topshiriq berishdan, 2-bosqich - to'lov tizimining ishtirokchi banklari o'rtasida to'lov hujjatlarining almashishi,

3-bosqich - to'lov tizimining ishtirokchi banklari o'rtasida hisob-kitob o'tkazish, ya'ni to'lovchi banki pul o'tkazib berishdan, 4-bosqich – to'lovlarni qabul bilan bog'liq operatsiyalarni yakunlash.³⁶dan iborat.

³⁶К.Н.Наврүзова ва О.А.Ортиқов.Нақд пулсиз ҳисоб-китоблар ва тўлов тизими. Ўқув қўлланма. -Т.:2014й.

YAnada aniqroq tushuntiradigan bo'lsak, 1-bosqich - to'lovning boshlanishi, ya'ni to'lovchi o'z bankiga pulni o'tkazib berish to'g'risida topshiriq berish jarayoni.

2-bosqich - to'lovchining banki pulni elektron to'lov tizimi orqali Bosh bankka yoki Markaziy bankka o'tkazishi.

3-bosqich- Bosh bank yoki Markaziy bank tomonidan pul mablag'larini to'lovni oluvchining bankining vakillik hisobvarag'iga o'tkazib berishi.

4-bosqich – to'lovlarni qabul bilan bog'liq operatsiyalarning to'lovni oluvchining bankida yakunlanishi.

To'lov tizimini joylashuviga qarab 2 turga, ya'ni xalqaro va milliy to'lov tizimlariga bo'lish mumkin. Xalqaro to'lov tizimlariga SWIFT, CHIPS, CHAPS, ZENCHEKIO va boshqa tizimlar kiradi. Milliy to'lov tizimiga Markaziy bankning elektron to'lov tizimi, Bank-mijoz to'lov tizimi, tijorat banklarining to'lov tizimlari, chakana to'lov tizimlarini kiritish mumkin. Barcha to'lov tizimlarining vazifalari turlicha va o'z hususiyatlariga ega bo'lsada, ularning maqsadlari asosan bir xil. Bizning fikrimizcha, to'lov tizimining bosh maqsadi – iqtisodiy faoliyatni tashkil etish natijasida paydo bo'lgan majburiyatlar yuzasidan to'lovlarni to'liq, tez o'tkazish va havfsizligini ta'minlashdan iborat.

Har bir mamlakat o'zining mustaqil to'lov tizimini tashkil qilgan xolda mamlakat iqtisodiyotidagi to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlaydilar. Bu to'lov tizimi doimo rivojlantirilib va takomillashtirilib boriladi.

Milliy to'lov tizimini shakllantirishning birinchi bosqichi 1991-1994 yillarni o'z ichiga oladi. 1993 yilda O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bankda va uning hududiy boshqarmalari va bo'limlari tashkil etildi. Respublikamizda elektron to'lovlar tizimini yanada mustahkamlash va ushbu tizimning xavfsizligini ta'minlash maqsadida paketli kommunikatsiya aloqa tarmog'i yaratildi. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 16 dekabrda qabul qilingan “Elektron to'lovlar to'g'risida”gi qonuni respublikada to'lov tizimini tashkil etish va to'lov operatsiyalarini olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan, “Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to‘lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to‘lovdir. Elektron to‘lov to‘lov tizimining sub’ektlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida to‘lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.³⁷ Ushbu qonun respublikamizda to‘lov tizimi va unda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan to‘lov turlarining huquqiy asoslarini belgilab bergan. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida elektron to‘lovlar amalga oshirilayotganda to‘lov tizimining subektlari o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmui bu-banklararo to‘lov tizimi, bankning ichki to‘lov tizimi, chakana to‘lovlar tizimi.”³⁸ degan ta’rif keltirilgan. Unga ko‘ra to‘lov tizimining quyidagi qoidalari belgilab berilgan:

to‘lov tizimi a‘zolarining to‘lov tizimiga a‘zo bo‘lishi va a‘zolikdan chiqishi tartibi;

elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi va shartlari, shu jumladan elektron to‘lov hujjati rekvizitlarining tarkibi va formati bo‘yicha talablar;

axborot xavfsizligi va muhofazasini ta’minlash tartibi;

to‘lov tizimining sub’ektlari o‘rtasidagi nizolarni hal etish tartibi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining elektron to‘lovlarni tashkil etish va amalga oshirish masalalari bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari to‘lov tizimining barcha sub’ektlari uchun majburiy bo‘lib to‘lov tizimining a‘zolari va to‘lov tizimidan foydalanuvchilar to‘lov tizimining sub’ektlaridir.

Banklararo to‘lov tizimi banklar o‘rtasidagi elektron to‘lovlarni banklarning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali

³⁷ “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni.2005y.16 dekabr.

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi “Elektron to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonuni (16.12.2005 y., № O‘RQ-13)

amalga oshirish uchun mo'ljallangan va banklararo to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Banklarning ichki to'lov tizimi ham mavjud bo'lib bankning ichki to'lov tizimi bank filiallari va mijozlari o'rtasida elektron to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek banklararo to'lov tizimi bilan o'zaro harakatda bo'lish uchun mo'ljallangan.

Chakana to'lovlar tizimi bank kartalari va boshqa elektron to'lov vositalari qo'llanilgan holda elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Elektron to'lov vositasi uning mazkur chakana to'lovlar tizimiga mansubligini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan farqlovchi belgilarga (tovar belgisiga, xizmat ko'rsatish belgilariga) ega bo'lishi kerak. Chakana to'lovlar tizimining qoidalari mazkur chakana to'lovlar tizimini tuzgan tashkilot tomonidan belgilanadi.

Elektron to'lov hujjatlari pul-hisob-kitob hujjatlarini saqlash uchun qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida elektron axborot tashuvchi jismlarda saqlanadi. Elektron to'lov hujjati pul-hisob-kitob hujjatiga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonunda belgilangan muddatlari to'lov tizimining a'zosi tomonidan buzilgan taqdirda, u kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lov tizimidan foydalanuvchiga penya to'lashi shart. To'lov tizimi a'zosining aybi bilan elektron to'lov noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, to'lov tizimining a'zosi mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining — to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart. Aks holda, to'lovchi — to'lov tizimidan foydalanuvchi to'lov tizimining a'zosidan mablag'larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto'g'ri

amalgaga oshirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni qonunda belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

To'lov tizimining sub'ektlari to'lov tizimida axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan elektron to'lov hujjatlaridan ruxsatsiz foydalanish, ularga o'zgartishlar kiritish, ularni yo'qotish, yo'q qilish va to'sib qo'yishdan muhofaza etishni ta'minlash bo'yicha belgilangan talablarga rioya etishlari kerak. To'lov tizimining sub'ektlari to'lov tizimida axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlashning qo'shimcha vositalari va usullarini belgilashlari mumkin. To'lov tizimining a'zolari elektron to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari kerak³⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ1438-sonli Qarori qabul qilinishi milliy to'lov tizimini takomillashtirishning beshinchi bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi PQ1438-sonli "2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda "UZKART" banklararo chakana to'lov tizimida Hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi bank vazifasi Markaziy bankning Hisob-kitoblar Kliring Markaziga o'tkazildi va qarorda ko'rsatilgan "oraliq bo'g'inlar" tugatildi.

Markaziy banklarning to'lov tizimidagi ishtirokining har xilligi turli davlatlarning turli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Germaniya, Fransiya, Italiya va Ispaniyaning Markaziy banklari to'lov tizimini yaratish va uni ekspluatatsiya qilish masalalariga chuqur kirishib ketganlar. Ba'zi davlatlarning Markaziy banklari qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan spetsifik majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan muvofiqlashtiruvchi rolini bajaradi. Ba'zi davlatlardagi Markaziy banklar o'z mijozlari nomidan to'lovlarni bajarish bo'yicha aktiv faoliyat olib borishni


³⁹ "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.2005y.16 dekabr.

afzal ko‘radilar, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Markaziy banklari o‘z faoliyatini ko‘proq to‘lov xizmatlarini tijorat asosida olib borishga harakat qiladi. To‘lov tizimida Markaziy banklarning ishtiroki turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning maqsadlari kamroq xarajat qilib minimal risk asosida foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi tizimni ta‘minlashdan iboratdir.

Elektron to‘lov tizimi elektron to‘lov hujjatlarni biror belgi bo‘yicha qayta ishlash ustuvorliklari yo‘qligi hamda tizimda ishtirok etish uchun adolatli va oshkora ruxsat, foydalanuvchilar nuqtai nazaridan qulayligi va elektron to‘lovni amalga oshirish vositalarining iqtisodiy samaradorligi, hisob-kitoblar bo‘yicha aniq majburiyatlar tizimini boshqarish samaradorligi, tashabbuskor bank tomonidan elektron to‘lovlarni boshlash, banklarning Markaziy bank Hisob-Kitob Markazidagi vakillik hisobvaraqlari hamda banklarda ularga tegishli hisobvaraqlardagi aylanmalar va qoldiqlar mos kelganda elektron to‘lovlarni amalga oshirish, boshlangan elektron to‘lovni bekor qilish imkoniyati yo‘qligi, yuqori darajadagi xavfsizligi, tezkorligi va ishonchliligi, elektron to‘lov hujjatlar almashuvini qabul qilish – nazorat – uzatish texnologik davrlar ko‘rinishida tashkil etish, jismoniy shaxslarga berilgan tijorat banklarining hisob-kitob cheklari bo‘yicha elektron to‘lovlardan tashqari, elektron to‘lovlarning summasi miqdori uchun qo‘yiladigan cheklashlarning yo‘qligi kabi tamoyillar asosida faoliyat ko‘rsatadi. Tijorat banklari banklararo hisob-kitoblarni elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirishlari uchun albatta ushbu tizimga ulanishi lozim. Banklararo to‘lov tizimiga ulanish uchta yo‘l bilan - bankning to‘lov (hisob-kitob) markazini ulanishi, filialga ega bo‘lmagan banklarni ulanishi (bunda elektron to‘lovlar bankning amaliyot boshqarmasi orqali amalga oshiriladi) va bank filialining ulanishi orqali amalga oshirilishi mumkin. Bank filiallarini ulashda axborotlashtirish bosh markazi xodimlari yordamida bir qancha elektron to‘lovlarning qabul qilish - nazorat qilish - uzatish texnologik almashuvini o‘tkazish yo‘li bilan bank tayyorligining sinov tekshiruvi o‘tkaziladi. Sinov tugaganidan keyin Markaziy bankning to‘lov tizimi va axborotlashtirish departamenti barcha banklarga bankning ochilganligi, unga Bank

depozitorlarining milliy axborot bazasida xos raqam berilgani va banklararo to'lov tizimiga ulanganligi to'g'risida rasmiy xabarnoma yuboradi.


Mablag'larni o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazish maqsadida bankning mas'ul xodimi elektron to'lov hujjat tayyorlashda pul-hisob-kitob hujjatlarining barcha rekvizitlarini to'g'ri kiritishi kerak. Quyidagi rasmda Markaziy bank orqali banklararo hisob-kitoblarni o'tkazish sxemasini keltiramiz.



8-rasm. Markaziy bank orqali banklararo hisob-kitoblarni o'tkazish chizmasi

To'lov tizimlari turli shakllarda tashkil etiladi, lekin ularning maqsadi doimo bitta, ya'ni aholiga va xo'jalik subektlariga o'z pul mablag'larini bir bankdagi hisobvaraqdan boshqa bank hisobvarag'iga tez o'tkazib berishni ta'minlashdir. Banklararo to'lov tizimi banklar o'rtasidagi milliy valyuta (so'm)da elektron to'lovlarni banklarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Respublikamizda hisob-kitoblar va to'lov tizimi bilan bog'liq risklar o'rganishning muhimligi shundaki, oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo to'lov tizimi orqali bank o'tkazmalarining soni va o'tkazilayotgan mablag'larning hajmi ortib borishi natijasida to'lov tizimi aylanmasining beqiyos darajada o'sishi, hamda to'lov tizimi ichida pul mablag'larining bir joydan ikkinchi joyga tez o'tkazilishi ta'minlanmoqda. Buning isboti sifatida quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz.




9-rasm. 2003-2016 yillarda Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni⁴⁰

2003-2016 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklararo to'lov tizimi orqali hisob-kitob hujjatlari yordamida o'tkazilgan tranzaksiyalar soni yildan yilga oshib borib, 2017 yil boshiga 72 mlndan oshib ketdi, bu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan davr ichida 4 barobardan ko'p, birgina 2016 yil 1-yanvarga nisbatan esa 6.0 mln. dan ortiq tranzaksiyaga o'sgan.

⁴⁰<http://cbu.uz/uzc/platyezhnye-sistemy/56615/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlari


- O‘zbekiston Respublikasi hududida banklararo to‘lov tizimida naqd pulsiz **10-10-rasm. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tarkibi**
- hisob-kitoblarni amalga oshirishda memorial order, to‘lov topshiriqnomasi,



to‘lov talabnomasi, inkasso topshiriqnomasi, akkreditivga ariza, tijorat bankining hisob-

kitob cheki kabi to‘lov hujjatlaridan foydalaniladi.

Quyida ushbu to‘lov hujjatlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar sonining jami tranzaksiyalarda tutgan ulushi keltirilgan bo‘lib, unda asosiy ulushlar naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov topshiriqnomasi (53,21%) va memorial order (41,66%) shakllariga to‘g‘ri kelgan. 2016 yil davomida jami o‘tkazilgan 72555 ming tranzaksiyaning umumiy summasi esa 838628.0 mlrd. So‘mni tashkil etgan, bu esa o‘tgan yilgidan 165611.0 mlrd.so‘mga ko‘pdir.



11-rasm. 2003-2016 yillarda Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi⁴¹

Bankning ichki to‘lov tizimini tashkil qilish “Banklarni ro‘yxatga olish va ularga lisenziya berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami № 630, 11.02.1999 y.) muvofiq beriladigan litsenziya asosida amalga oshiriladi. Bankning ichki to‘lov tizimi bank filiallari va mijozlari o‘rtasida elektron to‘lovlarni amalga oshirish, shuningdek banklararo to‘lov tizimi bilan o‘zaro harakatda bo‘lish uchun mo‘ljallangan. Bankning ichki to‘lov tizimi qoidalari to‘lov tizimining a‘zosi – bank tomonidan belgilanadi. Elektron to‘lov vositasi uning mazkur chakana to‘lovlar tizimiga mansubligini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan farqlovchi belgilarga (tovar belgisiga, xizmat ko‘rsatish belgilariga) ega bo‘lishi kerak. Chakana to‘lovlar tizimining qoidalari mazkur chakana to‘lovlar tizimini tuzgan tashkilot tomonidan belgilanadi.

4-§. Hisob-kitoblarning shakllarining to‘lov tizimidagi o‘rni, to‘lov tizimidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari

⁴¹<http://cbu.uz/uzc/platyezshnye-sistemy/56615/> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma’lumotlari

To'lov tizimining sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar qonun hujjatlari va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi. SHartnoma yozma shaklda tuzilgan bo'lishi va unda quyidagi qoidalar ko'rsatilishi kerak:

-elektron to'lovlarni amalga oshirishda elektron to'lov hujjatlarini jo'natish hamda qabul qilib olish tartibi;

-elektron to'lovlarni amalga oshirish jarayonida elektron to'lov hujjatlarida elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash tartibi;

-elektron to'lovlarni amalga oshirganlik uchun haq miqdori;

-taraflarning huquq va majburiyatlari, shu jumladan axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari;

-taraflarning javobgarligi, shu jumladan elektron to'lovlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavflar bo'yicha javobgarlikning taqsimlanishi;

-nizolarni hal qilish tartibi va boshqalar.

Qonunchilikga asosan, to'lov tizimi a'zolarining huquq va majburiyatlari quyidagilardan iborat:

-To'lov tizimining a'zolari elektron to'lovlarni amalga oshirganlik uchun haq olishga va qonunda belgilangan hollarda to'lov tizimidan foydalanuvchilarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga haqlidir.

-To'lov tizimining a'zolari tegishli to'lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq elektron to'lov hujjatiga ishlov berilishini va uning muhofaza qilinishini ta'minlashlari kerak. Bunda to'lov tizimining a'zosi — bank:

to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga tushadigan pul mablag'larini qabul qilishi va hisobga kiritishi, uning tegishli summalarni o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarishi;

o'zining aybi bilan noto'g'ri amalga oshirilgan operatsiyalarni tiklashi yoki tuzatishi;

to'lov tizimidan foydalanuvchiga uning hisobvarag'iga oid axborotni shartnomada belgilangan muddatlarda qog'ozdagi yoki elektron shaklda taqdim etishi;

pul mablag'lari oluvchining-to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga tushganligini to'lovchining-to'lov tizimidan foydalanuvchining so'rovi bo'yicha qog'ozdagi yoki elektron shaklda tasdiqlashi shart.

To'lov tizimining a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. SHuningdek, qonun bo'yicha to'lov tizimidan foydalanuvchilari ham ma'lum huquq va majburiyatlarga ega.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar o'z hisobvaraqlarida turgan pul mablag'larini mustaqil tasarruf etishga va o'z hisobvaraqlari bo'yicha pul mablag'larining harakati to'g'risida axborot olishga haqlidir.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar:

-to'lov tizimining qoidalari bilan belgilangan axborotni muhofaza qilish tartibiga rioya etishi;

-elektron to'lov vositalarining va identifikatsiya ma'lumotlarining saqlanishini ta'minlashi;

-to'lov tizimining a'zosiga elektron to'lov vositalari yoki identifikatsiya ma'lumotlari yo'qolganligi to'g'risida shartnomada belgilangan muddatlarda xabar qilishi shart.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu hisob-kitob shakllaridir. O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar, akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblar, inkasso bo‘yicha hisob-kitoblar, cheklar bilan hisob-kitob shakllarda amalga oshiriladi.⁴² Naqd pulsiz hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida plastik kartochkalardan ham foydalaniladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu hisob-kitob hujjatlaridir. Naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklining har birida alohida hujjatlar ishlatiladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning to‘lov topshiriqnomasi shaklida to‘lov topshiriqnomasi, akkreditiv shaklida akkreditivga arizadan foydalaniladi. SHu bilan birga, inkasso shaklida inkasso operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan ikkita hujjat, ya’ni inkasso topshiriqnomasi va to‘lov talabnomasidan foydalaniladi. Bank ichki operatsiyalarida memorial order, cheklar bilan hisob-kitoblarda hisob-kitob cheklari yordamida operatsiyalar bajariladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining asosiy elementlaridan biri bu - to‘lov usuli va muddatlaridir. Tovar jo‘natilmasdan yoki xizmatlar bajarilmasdan oldingi to‘lovlar avans to‘lovlari yoki oldindan to‘lov ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimining elementlaridan biri- to‘lovlar ketma-ketligidir. Hisob-kitob hujjati bankka to‘lash uchun taqdim etilganda, mijozning hisobvarag‘ida to‘lash uchun pul etmaganda hisob-kitob xujjatlari “O‘z muddatida to‘lanmagan hisob-kitob xujjatlari” nomli 2-kartotekada hisobga qo‘yiladi. Mijozning hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgandan so‘ng, hamma hujjatlar to‘lab beriladi. Agar mablag‘ etarli bo‘lmasa, mablag‘larni hisobdan chiqarish “Xo‘jalik sub’ektlarining bankdagi hisobvarag‘laridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi” 2342-sonli Yo‘riqnomasida proporsional to‘lovlar ketma-ketligi bo‘yicha amalga oshiriladi.

⁴²“O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi 2465-sonli nizom. 2013 yil 3 iyun.

To'lov topshirig'i bilan hisob-kitob qilish (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **792-795 moddasida**) tijorat banklari amaliyotida eng ko'p uchraydigan hisob-kitob shaklidir.

To'lov topshiriqnomasi bilan hisob-kitob qilinganida bank mijozning topshirig'iga muvofiq uning hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan ma'lum miqdor pul summasini mijoz ko'rsatgan shaxsning shu yoki boshqa bankdagi hisobvarag'iga qonun xujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarda, agar bank hisobvarag'i shartnomasida qisqaroq muddat nazarda tutilgan bo'lmasa yoki u bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatlarida belgilangan bo'lmasa, o'tkazish majburiyatini oladi.

To'lov topshiriqnomasida mablag'larni oluvchi sifatida ko'rsatilgan shaxs bankdan to'lovni amalga oshirishni talab qilish xuquqiga ega bo'lmaydi, bunday xuquq qonunda yoki mijozning bank bilan tuzgan shartnomsida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Mijoz tomonidan berilgan to'lov topshirig'i o'z shakli va mazmuniga ko'ra qonun xujjatlarida nazarda tutilgan talab hamda shartlarga mos kelishi lozim.

To'lov topshiriqnomasining hamda u bilan birga taqdim etiladigan hisob-kitob xujjatlarining mazmuni va shakli bank qoidalarida belgilab qo'yilgan talablarga mos kelishi kerak. Mijozning topshirig'i uning hisobvarag'ida mablag'lar bo'lgan taqdirdagina, agar mijoz bilan bank o'rtasidagi shartnomada boshqa hol nazarda tutilgan bo'lmasa, bank tomonidan ijroga qabul qilinadi.

Mijozning to'lov topshiriqnomasini qabul qilgan bank tegishli pul summasini topshiriqnomada ko'rsatilgan shaxsning hisobvarag'iga o'tkazish uchun uni mablag' oluvchining O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 792-moddasi birinchi qismida belgilab qo'yilgan muddatlarda o'tkazishi shart. Bank mijozning topshiriqnomasida ko'rsatilgan hisobvaraqa pul mablag'larini o'tkazish operatsiyalarini bajarish uchun boshqa banklarni jalb qilishga haqli. Bank

mijozning talabiga ko'ra, agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, topshiriqning bajarilganligi haqida unga darhol xabar berishi shart.

Mijozning topshirig'i bajarilmagan yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda, bank buning uchun oluvchining O'zbekiston Fuqarolik Kodeksning 327-moddasiga muvofiq javobgar bo'ladi. To'lov topshiriqnomasi bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etadigan banklar ushbu topshiriqni bergan shaxs oldida solidar javobgar bo'ladilar.

Akkredetiv bo'yicha hisob-kitob qilish. Akkredetiv – bank tomonidan mijozning topshirig'i bo'yicha uning sherigi (kontragenti) foydasiga shartnoma asosida beriladigan pul majburiyatidir. Unga ko'ra akkredetiv ochgan bank muassasasi (emitent) etkazib berilgan mahsulot uchun to'lovni amalga oshirish vakolatini boshqa bankka berishi lozim bo'ladi. Akkredetiv bilan hisob-kitob qilinganida emitent bank o'z nomidan, ammo mijoz mablag'lari hisobiga to'lovlarni amalga oshiradi.

Akkredetiv bo'yicha hisob-kitob qilinganida mijozning (to'lovchining) topshirig'i bilan va uning ko'rsatmalariga muvofiq akkredetiv ochgan bank (bank-emitent) mablag'larni oluvchi yoki u ko'rsatgan shaxs (bundan keyingi matnda – mablag'larni oluvchi) xujjatlarni taqdim etgan va akkredetivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

qoplangan (deponentlangan) akkredetiv ochilgan taqdirda bank-emitent uni ochish vaqtida mijozning o'z mablag'larini yoki unga berilgan kreditni bank emitentining majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga ijrochi bank ixtiyoriga o'tkazishi shart. Qoplanmagan akkredetiv ochilgan taqdirda bank-emitent ijrochi banka akkredetivning butun summasini bank-emitentning ijrochi bankda yuritilayotgan hisobvarag'idan o'chirish xuquqini beradi. Akkredetivni amal qilish muddati va u bo'yicha hisob-kitob qilish tartibi pul mablag'larini to'lovchi bilan oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

SHartnomada yana quyidagilar bo'lishi kerak: bank-emitentning nomi; akkreditivning turi va uni bajarish usuli; mablag'larni oluvchini akkreditiv ochilganligi haqidagi xabardor qilish usuli; akkreditiv bo'yicha mablag'lar olish uchun oluvchi tomonidan taqdim etiladigan xujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi; tovarlar jo'natilganidan (xizmatlar ko'rsatilgan, ishlar bajarilgandan) keyin hujjatlarni taqdim etish muddatlari, ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar. Mablag' oluvchining rozilgisiz bekor qilinishi mumkin bo'lmagan akkreditiv chaqirib olinmaydigan akkreditiv deyiladi.

Bank emitentining iltimosiga binoan akkreditiv bo'yicha operatsiyani o'tkazishda ishtirok etayotgan ijrochi bank chaqirib olinmaydigan akkreditivni tasdiqlashi mumkin (tasdiqlangan akkreditiv). Bunday tasdiqlash ijrochi bank bank-emitentning majburiyatiga qo'shimcha sur'atda akkreditiv shartlariga muvofiq to'lovni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga olganligini bildiradi. Ijrochi bank tomonidan tasdiqlangan chaqirib olinmaydigan akkreditiv ijrochi bankning rozilgisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas. Akkreditivni ijro etish uchun mablag' oluvchi ijrochi bankka akkreditivning hamma shartlari bajarilganligini tasdiqlaydigan hujjatlarni taqdim etadi. Ushbu shartlardan birortasi buzilgan taqdirda akkreditiv hisobidan pul to'lanmaydi.

Agar ijrochi bank akkreditiv shartlariga muvofiq to'lovni amalga oshirgan yoki boshqa operatsiyani bajargan bo'lsa, bank-emitent unga qilingan harajatlarni to'lashi shart. Bank-emitentning ushbu xarajatlari. SHuningdek akkreditivni bajarish bilan bog'liq bo'lgan hamma harajatlarni mijoz tomonidan qoplanadi. Agar ijrochi bank tashqi alomatlari bo'yicha akkreditiv shartlariga muvofiq kelmaydigan hujjatlarni qabul qilishdan bosh tartsa, u bu xaqda darhol mablag' oluvchiga va bank-emitentga sabablarni ko'rsatgan holda ma'lum qilishi kerak. Agar bank-emitent ijrochi bank tomonidan qabul qilingan hujjatlarni olgach, ularni tashqi alomatlariga ko'ra akkreditiv shartlariga mos kelmaydi deb hisoblasa, ularni qabul qilishdan bosh tortishga hamda ijrochi bankdan mablag' oluvchiga akkreditiv shartlarini buzgan holda to'langan summani talab qilishga,

qoplanmagan akkreditiv bo'yicha esa to'langan summani qoplashdan bosh tortishga xaqli bo'ladi.

Ijrochi bank qoplangan yoki tasdiqlangan akkreditiv bo'yicha pul mablag'larini to'lashdan asossiz bosh tortgan taqdirda mablag'larni oluvchi oldidagi javobgarlik ijrochi bank zimmasiga yuklatilishi mumkin. Ijrochi bank akkreditiv shartlarini buzish oqibatida qoplangan yoki tasdiqlangan akkreditiv bo'yicha pul mablag'larini noto'g'ri bergan taqdirda, mijoz oldidagi javobgarlik ijrochi bank zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Akkreditiv ijrochi bankda: akkreditiv muddati tamom bo'lgach; mablag' oluvchining akkreditivning amal qilish muddati tamom bo'lgunicha undan foydalanishdan voz kechishi xaqidagi arizasiga ko'ra, agar bunday voz kechish mumkinligi akkreditiv shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa;

Pul to'lovchining akkreditivni butunlay yoki qisman chaqirib olish xaqidagi talabiga muvofiq, agar bunday chaqirib olishga akkreditiv shartlari bo'yicha yo'l qo'yilsa, yopiladi. Akkreditiv yopilganligi xaqida ijrochi bank bank emitentni xabardor qilishi kerak. Deponentlangan akkreditivning foydalanilmagan summasi akkreditiv yopilishi bilan bir vaqtda bank emitentga qaytarib berilishi kerak. Bank-emitent qaytarib berilgan summalarni to'lovchining mablag'lar deponentlangan hisobvarag'iga kiritib qo'yishi shart.

Inkasso bo'yicha hisob-kitoblar. Inkasso bo'yicha hisob-kitob qilinganida mijoz o'z bankiga (bank-emitentga) pul to'lovchidan to'lovni va (yoki) to'lov akseptini mijoz hisobidan qabul qilish haqida topshiriqnoma yuboradi. Inkasso topshirig'ini olgan bank-emitent uni bajarish uchun boshqa bankni (ijrochi bankni) jalb qilishga haqli. Inkasso bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi qonun hujjatlari bilan va bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatlari bilan boshqariladi.

Mijozning topshirig'i bajarilmagan yoki tegishli suratda bajarilmagan taqdirda, bank-emitent uning oldida ushbu oluvchining Fuqarolik Kodeksning 24-

bobida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra va miqdorda javobgar bo‘ladi. Agar ijrochi bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish qoidalarini buzilganligi munosabati bilan mijozning topshirig‘i bajarilmagan yoki tegishli suratda bajarilmagan bo‘lsa, mijoz oldidagi javobgarlik ushbu bank zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Biron-bir hujjat bo‘lmagan yoki hujjatlar tashqi alomatlariga ko‘ra inkasso topshiriqnomasiga mos bo‘lmagan taqdirda ijro etuvchi bank bu xaqda darhol inkasso topshiriqnomasini bergan shaxsga xabar qilishi shart. Mazkur kamchiliklar bartaraf etilmagan taqdirda, bank topshiriqlarni bajarmasdan hujjatlarni qaytarib yuborishga xaqli. Agar hujjatlar olinishi bilanoq ular bo‘yicha pul to‘lanishi shart bo‘lsa, ijrochi bank inkasso topshiriqnomasini olgan zahoti to‘lovga taqdim etishi shart.

Agar hujjatlar bo‘yicha pul boshqa muddatda to‘lanishi kerak bo‘lsa, ijrochi bank-to‘lovchining akseptini olish uchun hujjatlarni inkasso topshiriqnomasini olinishi bilanoq, darhol akseptga taqdim etishi kerak, to‘lov talabi esa xujjatda ko‘rsatilgan to‘lov muddati boshlanadigan kundan kechiktirmasdan qo‘yilishi kerak. Qisman bajariladigan to‘lovlar bank qoidalarida belgilab qo‘yilgan hollarda yoki inkasso topshiriqnomasida maxsus ruxsat bo‘lsa qabul qilinishi mumkin. Olingan (inkassolangan) summalar ijrochi bank tomonidan darhol bank-emitent tassarrufiga topshirilishi, u esa bu summalarni mijozning yuisobvarag‘iga kiritib qo‘yishi shart. Ijrochi bank inkasso qilingan summadan o‘ziga tegishli haqni va harajatlarni qoplashga ketadigan pulni ushlab qolishga haqli.

Agar to‘lov va (yoki) aksept olingan bo‘lmasa, ijrochi bank pul to‘lanmaganligining yoki akseptdan bosh tortilganligining sabablari to‘g‘risida bank-emitentni bosh tortilganligining sabablari to‘g‘risida bank-emitentni darhol habardor qilishi shart. Bank-emitent bu xaqda darhol mijozga xabar berishi, undan navbatdagi harakatlar hususida ko‘rsatmalar so‘rashi shart. Bundan keyingi harakatlar to‘g‘risida bank qoidalarida belgilangan muddatda ko‘rsatmalar

olinmasa, ijrochi bank hujjatlarni inkasso topshiriqnomasi yuborgan bankka qaytarishga haqli.

Qarzdor (to'lovchi) dan to'lovni yoki akseptni olish uchun yo'naltirilgan harakatlarni inkasso operatsiyalari deb nomlanadi. To'lov oluvchining inkasso topshirig'i inkasso orqali hisob-kitoblar amalga oshirilishiga asos bo'ladi. Inkasso to'lovlari aksept asosida, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda akseptsiz (nizosiz) tartibda ham amalga oshirilishi mumkin.

CHeklar bilan hisob-kitob qilish (O'zbekiston Fuqarolik Kodeksining 807-816 moddalari). CHek – mohiyatiga ko'ra belgilangan shakl va zaruriy rekvizitlariga ega bo'lgan, mulkiy xuquqni tasdiqlovchi xujjatdir. CHek bo'yicha to'lovlar chek taqdim etilganida ijro etiladi.

Fuqarolik kodeksining cheklarga oid qoidalari cheklar bilan hisob-kitob qilish haqidagi 1931 yil Jenevada imzolangan yagona tUSDagi (unifikatsiyalashtirilgan) halqaro qonun talablariga mos keladi. CHek beruvchining chekda ko'rsatilgan summani chek saqllovchiga to'lash haqida bankka hech qanday shart qo'yilmagan topshirig'i mavjud bo'lgan qimmatli qog'oz chek deyiladi. CHek bilan hisob-kitob qilinganida faqat chek beruvchining chek berish yo'li bilan tasarruf etishga haqli bo'lgan mablag'lari saqlanayotgan bankgina chek bo'yicha pul to'lovni qilib ko'rsatilishi mumkin. CHekni taqdim etish muddati o'tmagunicha uni chaqirib olishga yo'l qo'yilmaydi.

CHekning berilishi – bajarish uchun chek berilgan pul majburiyatini bekor qilmaydi. To'lov muomalasida cheklardan foydalanish tartibi va shartlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. CHekda quyidagilar bo'lishi shart: hujjat matniga kiritilgan «chek» degan nom; muayyan pul summasini to'lash haqida to'lovchiga topshiriq; to'lovchining nomi va to'lov qaysi hisobvaraقدan amalga oshirilishi kerakligi; to'lov valyutasi; chek tuzilgan sana va joy; chekni yozib bergan shaxsning – chek beruvchining imzosi. Hujjatda mazkur rekvizitlardan birontasining bo'lmasligi chekni kuchdan mahrum qiladi. Tuzilgan

joyi ko'rsatilmagan chek chek beruvchi turgan joyda imzolangan deb hisoblanadi. CHEkning shakli va uni to'ldirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

CHEk bo'yicha pul chek beruvchining mablag'lari hisobidan to'lanadi. CHEk qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan muddatda to'lovga taqdim etilgan taqdirdagina u bo'yicha pul to'lanadi. CHEk bo'yicha pul to'lagan shaxs chekning to'lov olinganligi haqidagi tilxat bilan birga o'ziga berilishini talab qilishga haqli. CHEk bo'yicha huquqlar ushbu moddada nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilgan holda boshqa shaxsga beriladi. Egasining nomi yozilgan chek boshqa shaxsga berilishi mumkin emas.

O'tkazma chekda pul to'lovchiga qilingan indossament to'lovni olganlik uchun tilxat kuchiga ega bo'ladi. To'lovchi tomonidan qilingan indossament xaqiqiy emas. Agar indossament bo'yicha olingan o'tkazma chekka ega bo'lgan shaxs o'zining xuquqini uzluksiz (bir-birini taqozo etuvchi) indossamentlar qatori bilan asolab bersa, u o'tkazma chekning qonuniy egasi deb hisoblanadi. CHEk bo'yicha to'lov kafolat (aval) vositasida to'la yoki qisman kafolatlanishi mumkin. Avalni to'lovchidan boshqa har qanday shaxs berishi mumkin. Aval chekning old tomoniga yoki qo'shimcha varaqqa «aval deb hisoblansin» degan yozuv bilan va u Kim tomonidan hamda Kim uchun berilganini ko'rsatgan holda qo'yiladi. Agar aval kim uchun berilganligi ko'rsatilmagan bo'lsa, aval chek beruvchi uchun berilgan hisoblanadi. Aval avalchi tomonidan imzolanib, uning yashash joyi (turgan eri) va ustxat yozilgan sana ko'rsatiladi. Avalchi u avalni kim uchun bergan bo'lsa, o'sha shaxs singari javobgar bo'ladi. Agar avalchi kafolatlangan majburiyat shakliga amal qilmaslikdan boshqa har qanday asoslarga ko'ra xaqiqiy bo'lmagan taqdirda ham, avalchining majburiyati xaqiqiy bo'laveradi. CHEk bo'yicha pul to'lagan avalchi u kafolat bergan shaxsga nisbatan ham, bu shaxs oldida majburiyati bo'lgan shaxslarga nisbatan ham chekdan kelib chiqadigan xuquqlarni qo'lga kiritadi. CHEk saqlovchiga xizmat qiladigan bankka to'lovni olish uchun chekni inkassoga taqdim etish to'lovga taqdim etish deb hisoblanadi.

Inkassolangan chek bo'yicha mablag'larni chek saqlovchining hisobvarag'iga kiritish, agar chek saqlovchi bilan bank o'rtasidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, to'lovchidan to'lov olinganidan keyin amalga oshiriladi. Chek bo'yicha to'lovchi chekning xaqiqiyligiga, shu jumladan taqdim etuvchi chek bo'yicha vakil qilingan shaxs ekanligiga ham imkoniyatidagi hamma usullar bilan ishonch hosil qilishi kerak. Inkassolangan chek bo'yicha pul to'langanida to'lovchi indossantlarning imzosini emas, balki indossamentlar to'g'riligini tekshirishi shart.

Soxta, o'g'irlangan yoki yo'qotib qo'yilgan chek bo'yicha to'lovchi pul to'lashi oqibatida ko'rilgan zarar kimning aybi bilan etkazilganligiga qarab, to'lovchining yoki chek beruvchining zimmasiga yuklatiladi. Chek bo'yicha pul to'lashdan bosh tortganlik quyidagi usullardan biri bilan tasdiqlanishi kerak:

- Notarius tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda norozilik bildirish; pul to'lovchi chekka u bo'yicha pul to'lashdan bosh tortganligi haqida belgi qo'yilib, chek haq to'lash uchun taqdim etilgan sanani ko'rsatish;
- Inkasso qiluvchi bankning chek o'z vaqtida taqdim etilganligi va u bo'yicha pul to'lanmaganligi haqida, sanasini ko'rsatgan holda belgi qo'yishi.

Norozilik yoki shu kabi harakat chekni haq to'lash uchun taqdim etish muddati tugaguncha amalga oshirilishi kerak.

Agar chek muddatning oxirgi kunida taqdim etilgan bo'lsa, norozilik yoki shu kabi harakat keyingi ish kunida amalga oshirilishi mumkin.

Chek saqlovchi pul to'lanmaganligi haqida norozilik bildirgan yoki shu kabi harakat amalga oshirilgan kundan keyingi ikki ish kuni mobaynida o'z indossantiga va chek beruvchiga xabar qilishi shart.

Har bir indossant bildirish olgan kundan keyingi ikki ish kuni ichida o'zi olgan bildirish haqida o'zining (oldingi) indossantiga xabar berishi shart, O'sha shaxs uchun aval bergan shaxsga ham shu muddatda xabar yuboriladi. Ko'rsatilgan

muddat davomida xabar yubormagan shaxs chek bo'yicha o'z huquqlaridan mahrum bo'lmaydi. U chek bo'yicha pul to'lanmaganligini xabar qilmagani tufayli keltirilgan zararining o'rnini chek summasi doirasida qoplashi shart. To'lovchi chek bo'yicha pul to'lashdan bosh tortgan va bu hol O'zbekiston Fuqarolik kodeksning 814-moddasiga muvofiq tasdiqlanganida chek saqlovchi o'z hohishiga ko'ra chek bo'yicha majburiyatli bo'lgan bitta, bir necha yoki barcha shaxslarga (чек берувчи, avalchilar, indossantlarga) nisbatan da'vo qo'zg'atishga haqli bo'lib, ular chek saqlovchi oldida solidar javobgar bo'ladilar.

Чек saqlovchi maxkur shaxslardan chek summasini, chek bo'yicha pul olishga qilgan o'z chiqimlarini, shuningdek foizlarni ushbu Kodeks 327-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan miqdorda va tartibda to'lashni talab qilishga haqli. Xuddi shunday huquqqa chek bo'yicha pul to'lashi shart bo'lgan shaxs ham chek bo'yicha pul to'laganidan keyin ega bo'ladi. Чек saqlovchining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan da'vosi chekni haq to'lashga taqdim etish muddati tamom bo'lgan kundan e'tiboran olti oy mobaynida qo'zg'atilishi mumkin. Majburiyatli shaxslarning bir-birlariga nisbatan da'volari bo'yicha regress talablari tegishli majburiyatli shaxs talabni qondirgan kundan yoki unga da'vo qo'zg'atilgan kundan boshlab olti oy o'tgach qoplanadi.

Plastik kartochkalar bilan hisob-kitob qilish. Plastik kartochka shaxsi belgilangan to'lov vositasi bo'lib, uni chiqargan bank tomonidan kartochka egasining tegishli mablag'i bankda saqlanayotganligi va tovarlar, xizmatlar, ishlar uchun ushbu hisobdan kartochka orqali to'lovni amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

Plastik kartochkada emitent bank logotipi, nomi va boshqa identifikatsiyalash belgilari ko'rsatib qo'yilmog'i lozim. Plastik kartochkalar jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlardagi hisob -kitoblarda qo'llaniladi. Plastik kartochkalar orqali bank xizmati ko'rsatish kartochka egasi va

bank muassasasi o'rtasida tuzilgan, uning taraflari, shartnoma predmeti, tomonlarning xuquq va majburiyatlari, javobgarliklari, hisob-kitobni amalga oshirish shartlari, shartnomaning amal qilish shart va muddati, nizolarni hal etilish tartibi, tomonlarning yuridik manzili ko'rsatilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Plastik kartochkalar talluqliligiga ko'ra:

a) shaxsiy; b) oilaviy; v) korporativ bo'lishi mumkin.

Amal qilish rejimiga ko'ra plastik kartochkalar:

a) debet kartochkalar; b) kredit kartochkalar; v) elektron hamyonga bo'linadi.

Plastik kartochkalar bilan hisob-kitob qilish hisob-kitoblarning zamonaviy va qulay shakli sifatida qo'llab-quvvatlanmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 sentyabrdagi «Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 445-sonli qarorida⁴³ plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishni keng yo'lga qo'yish, uning uchun zarur tashkiliy, moddiy-texnikaviy va xuquqiy shart-sharoitlar yaratilishi lozimligi ta'kidlangan.

⁴³ Ўзбекистон Республикасининг ;онун |ужжатлари тьяплами, 2004 йил, 38-39 сон, 425-модда.

5-§. Mijozning bank hisobvarag‘idan mablag‘larni nizosiz tartibda o‘chirish asoslari va tartibi.

Haq undirishga oid ijro hujjatlarini bank orqali ijro etilishi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligi va mulkchilik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan xususiy mulk dahlsizligi haqidagi qoidaga tayangan holda (Konstitutsiyaning 53-moddasi, II qismi) mulkiy huquqlarni har tomonlama kafolatlaydi va himoya qilish choralarini ko‘radi.

Davlatning va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini samarali himoya qilish shakllaridan biri – mablag‘larni uning egasi roziligisiz olib qo‘yilishiga, undan foydalanishiga to‘sqinliklar qo‘yilishiga yo‘l qo‘yilmasligidir. Shunga ko‘ra bank mijozining hisobvarag‘idagi pul mablag‘larini uning roziligisiz olib qo‘yish – tasarruf qilish umumiy qoidaga ko‘ra mumkin emas. Ayni paytda davlatning, o‘zga yuridik va jismoniy shaxslar manfaatlarini mablag‘lar qarzdor tomonidan o‘z vaqtida to‘lanmasligidan himoya qilish maqsadida qonunchilikda bankdagi hisobvaraqda saqlanayotgan pul mablag‘larini qonun hujjatlarida maxsus nazarda tutilgan hollarda, asoslar va shartlarga ko‘ra hamda belgilangan tartibda mablag‘ egasi roziligisiz (nizosiz) olib qo‘yilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Bank hisobvarag‘ida saqlanayotgan bank mijozni mablag‘larini egasining roziligisiz (nizosiz) o‘chirish (olib qo‘yish)ning xuquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida (783-784 moddalar), «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunda (31-33 moddalari), «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 12 fevralda 406-son bilan ro‘yxatga olingan, «Xo‘jalik sub’ektlari bank hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘chirish tartibi to‘g‘risida»gi yo‘riqnomada va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Bank mijozi hisobvarag‘idan pul mablag‘larini uning ruxsatisiz, nizosiz tartibda o‘chirish bank huquqi nazariyasida turlicha qarashlarga sabab bo‘layotgan birmuncha murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu bank huquqiy munosabati ishtirokchilarining ham hususiy, ham ommaviy manfaatlariga daxl qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida «Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum qilinishi mumkin» deb e‘lon qilingan. Ushbu konstitutsiyaviy qoida O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlarida yanada aniqlashtirilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi FKning 166-moddasida ham mulk dahlsiz ekanligi va mulk xuquqini cheklashga qonunda bevosita nazarda tutilgan holatlardan tashqari hollarda yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatilgan. Bunday qoidalarning «O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida»gi, «Korxonalar to‘g‘risida» gi va boshqa qonunlarda ham belgilab qo‘yilganligi ushbu huquq bizning jamiyatimizda haqiqatdan ham muqaddas hamda dahlsiz ekanligini ta’kidlaydi.

Ana shunday huquqiy muhitda pul mablag‘larini hisobvarag‘idan nizosiz tartibda o‘chirish mulkning muayyan turi sanalmish pul mablag‘i egasining muqaddas huquqlariga dahl qilayotgandek, ushbu huquqlarning poymol etilishiga yo‘l ochayotgandek ko‘rinadi. Aksincha hisobvarag‘dan pullarni nizosiz o‘chirish va ularni tegishli haq undiruvchilar hisobvarag‘iga qo‘shib yozib qo‘yish aynan dahlsiz mulk huquqini muhofaza etishga qaratilgan. Bundan tashqari hisobvarag‘dan pul mablag‘larini nizosiz tartibda o‘chirishning asl maqsadida ham aslida mulkiy huquqlarni himoya qilish, buzilgan huquqlarni, haq undiruvchilar huquqlarini himoyalashga qaratilgan, chunki ana shunday majburiy tarzdagi harakat sodir etilishidan avval hisobvarag‘ egasi sanalmish mablag‘lar majburan tortib olinayotgan shaxs tomonidan qonun talablari qo‘pol tarzda buzilgan, boshqa shaxslarning qonuniy huquqlari poymol etilgan hamda b udalil tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organlari chiqargan qaror bilan tasdiqlangan bo‘ladi. SHu sababli pul mablag‘larini hisobvarag‘dan so‘zsiz tartibda o‘chirishga ehtiyotlik bilan yondoshish lozim bo‘ladi.

Pul mablagʻlarini nizosiz tartibda hisobvaraقدan oʻchirishni huquqiy tartibga solish masalalari Oʻzbekiston Respublikasi FK (783-modda), «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi qonun (31-modda), boshqa qonunlar hamda bir qator qonun hujjatlari bilan hal etiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitob qoidalarida koʻrsatilishicha:

- Nizosiz tartibda oʻchirish tartibi belgilangan hollarda haq undiruvchining talabi bilan;
- Boshqa hollarda esa ijro hujjatlari va ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar boʻlganida mablagʻ egasi roziligisiz pul mablagʻlari hisobvaragʻidan oʻchirilishi mumkin.

Mablagʻlar hisobvaraقدan:

- Soliq organlari farmoni bilan soliqlar va boshqa nosoliq toʻlovlar byudjetga oʻz vaqtida toʻlanmaganida;
- Ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasi organlari (pensiya jamgʻarmasi) farmoyishi bilan qarzlarni undirish uchun nizosiz tartibda oʻchirilishi mumkin.

Mablagʻlar nizosiz tartibda oʻchirilishiga asos boʻladigan ijro hujjatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Xoʻjalik sudlari tomonidan berilgan buyruqlar;
- Sudlar tomonidan berilgan ijro varaqlari;
- Notariuslar tomonidan bajarilgan ijro yozuvlari.

SHuningdek, nizosiz tartibda toʻlovlar amalga oshirilishi lozim boʻlgan toʻlov talabnomalari, avtomobil yoʻllari taʼmiri uchun olinadigan tizim boʻyicha qarzlarni undirish haqida hakamlar farmoyishlari, qarzdor tomonidan tan olingan summalarni undirish haqidagi koʻrsatmalar, hukumat qarorlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi toʻlovlar ham ijro hujjatlariga tenglashtiriladi va ular asosida nizosiz tartibda hisobvaraقدalaridan pul mablagʻlarini oʻchirishga yoʻl qoʻyiladi.

Hisobvarag‘laridan pul mablag‘larini o‘chirish tegishli soliq yoki boshqa organlarning to‘lov topshiriqnomalari, sud ijrochilarining bevosita murojaatlari asosida, tegishli hujjatlarning asl nusxasi yoki dublikati bo‘lganida (nusxa asos bo‘lmaydi) amalga oshiriladi.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra mijoz hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘chirilishiga asos bo‘ladigan hujjatlar vakolatli davlat organlari yoki haq undiruvchilar tomonidan belgilangan muddatda bankka taqdim etilishi lozim. Ijro hujjatlarini bankka taqdim etish bo‘yicha quyidagi muddatlar belgilab qo‘yilgan:

- Sudlar tomonidan berilgan ijro hujjatlari bo‘yicha – bir yil ichida;
- Notarial idoralar ijro yozuvlar bo‘yicha (qonunda boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa) – bir yil;
- Xo‘jalik sudi buyruqlari bo‘yicha – uch oy;
- Mehnat nizolari komissiyasi guvohnomalari bo‘yicha uch oy.

Ushbu muddatlar o‘tganidan keyin taqdim etilgan hujjatlar asosida hisobvaraqdan pul mablag‘larini nizosiz tartibda ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Hujjatning bankka yoki sud ijrochisiga taqdim etilishi muddatning uzilishiga va uni taqdim etilgan kundan yangidan hisoblanishiga sabab bo‘ladi.

Davlat byudjetiga, sug‘urtasiga, ijtimoiy ta‘minot organlariga mablag‘ undirish maqsadida taqdim etilgan hujjatlarga nisbatan muddatlar tatbiq etilmaydi va ular asosida muddatidan qat’iy nazar hisobvaraqdan pul mablag‘larini o‘chirish amalga oshirilaveradi. Taqdim etilgan haq undirish haqidagi hujjatlar asosida haq undirish qonunda bevosita nazarda tutilgan hollarda to‘xtatib turiladi yoki bekor qilinadi. Mijoz hisobvarag‘idan pul mablag‘larini o‘chirish paytida bir necha haq undiruvchi yoki bir necha ijro hujjatlari mavjud bo‘lganida mablag‘larni undirish navbati qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 12 fevralda tasdiqlangan V-55 sonli «Xo‘jalik sub’ektlari bank hisobvaraqlaridan o‘chirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomada belgilab qo‘yilgan. Mabodo ana shunday vaziyatda mablag‘lar etarli bo‘lmasa, u holda birinchi

navbatda mutanosib ravishda davlat byudjetiga, pensiya fondi va boshqa byudjetdan tashqari fondlarga hamda mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi talablarni qondirishga oid majburiyatlarni qondirish uchun undiriladi, keyin esa qolgan talablar qondiriladi.

Qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotgan yuridik shaxslar hisobvarag'idan pul mablag'lari o'chirish tugatish komissiyasi ishtirokida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Mijozning bank hisobvarag'ida unga bildirilayotgan pul talablari va uning boshqa turdagi pul majburiyatlarini to'la adetishlik uchun etarli mablag' bo'lmagani taqdirda talablar qonun xujjatlari bilan belgilab qo'yilgan va navbatga ko'ra bank tomonidan ijro etiladi.

Hisobvaraqdagi pul mablag'lari unga qo'yilgan barcha talablarni qondirish uchun etarli bo'lmagan taqdirda, pul mablag'lari quyidagi navbatda o'chiriladi:

Birinchi navbatda mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarni, alimentlar undirish to'g'risidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lash, shuningdek hayotga va salomatlikka etkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul o'tkazishni yoki pul berishni nazarda tutuvchi ijro xujjatlari bo'yicha pul o'chiriladi;

Ikkinchi navbatda byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov xujjatlari bo'yicha pul o'chiriladi.

Tayanch so'zlar: to'lov, to'lov tizimi, naqd pulsiz hisob-kitoblar, akkreditiv, topshiriqnoma, bosh bank, to'lov tizimidan foydalanuvchilar, to'lov hujjati, to'lovchi, chek, avizo, talabnoma, nizo, jarima, ijro

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. Hisob-kitoblar tushunchasini bering.
2. Hisob-kitoblarning fuqarolik huquqiy asoslari nima?
3. Bank tizimidagi hisob-kitoblarning o'ziga xos hususiyatlari

- nimada?
4. Banklarda hisob-kitoblarni tashkil qilishning huquqiy asoslari nimalar?
 5. Hisob-kitoblarni iqtisodiy xayotdagi ahamiyatini soʻzlab bering.
 6. Bank hisob-kitob shartnomasi nima va uning huquqiy jixatlari nimada?
 7. Bank hisobvaragʻi shartnomasi taʼrifining asosi qaysi qonunda berilgan?
 8. Hisobvaraq boʻyicha operatsiyalar va ularni buzish oqibatlarini qaysi qonun xujjatida berilgan?
 9. Mijozning hisobvaragʻidagi pullardan bank foydalanishi mumkinmi, va u qanday amalga oshiriladi?
 10. Bank sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar bank tomonidan oshkor qilinganda, mijoz keltirilgan zararli oʻrnini bankdan talab qilishi mumkinmi, mumkin boʻlsa qaysi qonunga koʻra?
 11. Bank hisob-kitobining shakillarini ayting.
 12. Toʻlov topshirigʻi bilan hisob-kitoblar qaysi qonunga koʻra tartibga solinadi?
 13. Akkreditiv boʻyicha hisob-kitob qilishning huquqiy asosini ayting.
 14. Akkreditiv boʻyicha hisob-kitobda bank emitent bilan ijrochi bankning javobgarliklari qanday xal qilinadi?
 15. Inkasso boʻyicha hisob-kitoblarni amalga oshirishning

- huquqiy asosi qaysi qonunda berilgan?
16. Cheklar bilan hisob-kitobning huquqiy asoslari qaysi qonun xujjati bilan belgilangan?
 17. Aval nima va uning chekka qanday aloqasi bor?
 18. Plastik kartochkalar bilan hisob-kitob qilishning huquqiy asoslari qaerda berilgan?
 19. Mijozning bank hisobvaraYOidan mablaYOlarni nizosiz tartibga ko'chirish huquqiy asoslarini ayting?
 20. Mijozning mablaYOlarini bank hisobvaraYOidan so'zsiz tartibda ko'chirish o'qanday yuridik asoslar bor?

VI BOB. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish. Xalqaro talablar va mahalliy amaliyot.

1-§. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida tushuncha

Mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan bank tizimiga va uning samarali faoliyatiga bog'liq. Bugungi kunda xalqaro bank amaliyoti umumjahon pul-moliya bozoridagi juda katta raqobat va inqiroz ta'siri sharoitida faoliyat yuritilayotganligi barchamizga ma'lum. Xalqaro amaliyotda banklar faoliyatidagi raqobat ulardan o'z faoliyatini eng zamonaviy usullar va uslublar, yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashni taqazo etadi. Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymay turib, davlat iqtisodiyotini yuksaltirish va uning barqarorligiga erishish mumkin emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Ikkinchi pog'onani esa tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari shakllantiradi. .

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Zero, banklar mamlakatdagi kapitalni safarbar qilish va kreditlar taqdim etish bilan mamlakat moliya tizimida faol ishtirok etadi. Va albatta, nazoratning asosiy maqsadi mamlakat aholisini qolaversa mamlakat iqtisodiyoti manfaatlarini himoya qilishdir. Masalan, banklarda birgina kredit berish jarayonini qaraydigan bo'lsak ham Bank qanday kreditlar, qancha miqdorda, kimga, qaysi sharoitlar bilan berilishini hal qilishi zarur. Biznesning shunday turlari borki, bank kredit bera turib ular bo'yicha qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. SHuning uchun xar bir faoliyat risk bilan bog'liq ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bankning kredit siyosati uning faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarning oldini olishga, buning uchun depozitlar va kreditlar o'rtasidagi nisbatning, bank

majburiyatlari bilan kapitali o'rtasidagi va boshqa ko'rsatkichlarning me'yorida bo'lishini taqazo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi FATF (*FAT F-Financial Action Task Force on Money Laundering*- «FATF»), ya'ni "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi mintaqaviy guruhi"ning a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi 2004 yil 26 avgustda "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunni qabul qilgan va bu qonunga 2019 yil 15 yanvarda qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Mazkur qonunning ba'zi bir jihatlarining mohiyatini kengroq tushuntirish lozim deb o'ylaymiz. Ushbu qonunda keltirilgandek **jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar** bu — jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari va boshqa mol-mulk, shuningdek bunday mol-mulkdan foydalanish orqali olingan har qanday foyda yoki naf, xuddi shuningdek to'liq yoki qisman boshqa mol-mulkka aylantirilgan yoxud o'zgartirilgan yoki qonuniy manbalar hisobidan olingan mol-mulkka qo'shilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni ko'zda tutadi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda — pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilikini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishni tushunish lozim.

Terrorizmni moliyalashtirish — terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, faoliyat ko'rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida

ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmishdir.

Ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish — yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa turdagi ommaviy qirg‘in qurolini, bunday qurolni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo‘lgan materiallarni hamda uskunalarni yaratish, ishlab chiqarish, olish, to‘plash, saqlash, o‘tkazish, foydalanish maqsadida har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berish yoki yig‘ish, boshqa xizmatlar ko‘rsatishni ifodalaydi.

Qonunga ko‘ra jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

-maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;

-ichki nazorat;

-mijozlarni lozim darajada tekshirish bo‘yicha chora-tadbirlar;

-tavakkalchiliklarni aniqlashga, baholashga va kamaytirishga doir choralar.

Ushbu yo‘nalishda tashkil etilgan maxsus vakolatli davlat organi doimiy ravishda qonun talablariga nazoratni amalga oshirishi lozim. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat — pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar taqdim etadigan axborotni tekshirish va qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga

oshirish bo'yicha maxsus vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan chora-tadbirlar majmuini o'zida mujassamlashtiradi.

Ichki nazorat pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatidir. Ichki nazorat amalga oshirilayotganda zarur axborotni rasmiylashtirish, uning maxfiylikni ta'minlash tartibi, kadrlarni tayyorlash va o'qitishga doir malaka talablari, shuningdek maxsus vakolatli davlat organiga xabar qilinishi lozim bo'lgan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni aniqlash mezonlari va ularning alomatlari belgilanadi. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun ichki nazorat qoidalari tegishli nazorat qiluvchi, litsenziyalovchi va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli davlat organi bilan birgalikda, bunday organlar bo'lmagan holda esa, maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi;

Ichki nazorat qoidalariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat mazkur qoidalarni tasdiqlagan organlar, shuningdek maxsus vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlarning quyidagi majburiyatlari yuqoridagi qonunga asosan belgilab berilgan. Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar:

ichki nazorat tizimlarini tashkil qilishi va joriy etishi;

identifikatsiyalash tartib-taomillarini amalga oshirishi va mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishi, shu jumladan mijoz va uning mulkdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni verifikatsiyalashi hamda muntazam yangilab borishi;

mulkdorlar va mijozlarni nazorat qiluvchi shaxslarni identifikatsiyalashi hamda ularning shaxsini tekshirish bo'yicha imkon qadar choralar ko'rishi;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bo'yicha o'z tavakkalchiliklarini aniqlash hamda baholash choralarini ko'rishi, ushbu tavakkalchiliklarni hujjatlar bilan qayd etishi va ularni kamaytirish yuzasidan choralar ko'rishi;

mijozni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, hisobvaraqa ochishni, operatsiyani amalga oshirishni, amaliy munosabatlarga kirishishni rad etishi va mavjud amaliy munosabatlarni tugatishi, shuningdek shubhali operatsiya to'g'risidagi xabarni maxsus vakolatli davlat organiga yuborishi;

shubhali operatsiyalar to'g'risidagi xabarlarni, shu jumladan ularni amalga oshirishga bo'lgan urinishlar to'g'risidagi xabarlarni ular aniqlangan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay maxsus vakolatli davlat organiga belgilangan tartibda yuborishi;

operatsiya ishtirokchilarini terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati bilan solishtirishi;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyasini kechiktirmasdan va oldindan xabar qilmasdan to'xtatib turishi, bundan yuridik yoki jismoniy shaxsning hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini hisobga kiritish bo'yicha operatsiyalar mustasno, va (yoki) pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yishi, shuningdek shubhali operatsiya to'g'risida maxsus vakolatli davlat organiga xabar yuborishi shart.

Terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to'xtatib turish, pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to'xtatib qo'yish, ishga solmay to'xtatib qo'yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.⁴⁴

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (FATF)ning tavsiyalari ijrosini ta'minlash maqsadida 2018 yil 20 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoevning "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3947-son qarori qabul qilingan bo'lib unda respublikaning moliyaviy tizimini yanada mustahkamlash va takomillashtirish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimining umumqabul qilingan xalqaro normalar va andozalarga muvofiqiligini ta'minlash maqsadida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Evroosiyo guruhiga a'zo davlatlarning o'zaro baholashning ikkinchi bosqichini o'tkazish rejasiga muvofiq 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini o'zaro baholash rejalashtirilgan. O'zaro baholashning ikkinchi bosqichi muvaffaqiyatli o'tishi va Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (FATF)ning tavsiyalari ijrosini ta'minlash maqsadida jinoiy

⁴⁴ "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun. T.2004y.26 avgust.

faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ishtirokida xavflarni milliy darajada baholash o'tkazilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyasi tasdiqlagan bo'lib O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (Departament) Komissiyaning ishchi organi hisoblanadi.

Komissiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

-jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq xavflarni baholash bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish, shuningdek, uning asosida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini yanada rivojlantirishga va mustahkamlashga oid takliflar ishlab chiqish va choralar ko'rish;

-jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-FATF tavsiyalaridagi talablarni va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga implementatsiya qilishni ta'minlash;

-jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotini tahlil

qilish, mazkur sohadagi huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va boshqalar.

Bugungi kunda tijorat banklarida ichki nazoratni tashkil etishda banklarning ichki meyoriy hujjatlaridan keng foydalanilmoqda. Chunki etibor qilinadigan bo'lsa Markaziy bank va boshqa vakolatli organlar tomonidan ishlab chiqilgan va banklarga tavsiya etilgan meyorlar ushbu tizimning umumiy xususiyatlarini qamrab oladi va har bir bank boshqaruvi o'z ichki me'yorlari asosida ichki nazorat xizmatini to'liq va samarli tashkil etadi.

2-§.Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida"gi Qarori asosida "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari" tasdiqlangan. Mazkur me'yoriy hujjat tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida ichki nazoratni tashkil qilish hamda amalga oshirish tartibini belgilaydi. Bugungi kunda banklarda ichki nazoratni tashkil qilishda mazkur hujjat hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Chunki banklarning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga jalb etilishi iqtisodiyotning yashirin ko'rinishga o'ta borishiga imkon yaratadi.

Tijorat banklarida ichki nazorat tizimi uch elementdan tarkib topadi, bular nazorat muhiti, ichki nazorat turlari, hamda ichki nazorat sub'ekti va ob'ektidan iborat. Ichki nazoratga baho berishda asosiy e'tiborni qaratadigan yana bir omil –

bu ichki nazorat (ichki audit) bo'limlarining mustaqillik darajasidir. Bunda mustaqillik darajasini aniqlash muammosi yuzaga keladi. Mustaqillik darajasi ichki nazorat bo'limlarining ham moliyaviy jihatdan, ham har xil aralashuvlardan mustaqilligini aniqlash orqali baholash mumkin bo'ladi.

Ichki nazorat bo'limlarining aralashuvlardan holi ekanligini aniqlash esa mushkul masaladir. Chunki aksariyat holatlarda ularning aniq dalillari bo'lmaydi. Bunda faqatgina ichki nazorat bo'limlarining hisobdorligi, haqiqatda ular tomonidan birinchi kimga hisobot berishlari, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha buyruqlarni kim chiqarishi va ularni bartaraf etilishi qay tarzda amalga oshirilishini tahlil qilgan holda nisbiy aniqlash imkoni bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazorat ishini tashkillashtirish, uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, ushbu jarayonda har bir xodimning faol ishtirokini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy jihatdan olib qaraganda bank ichki nazoratida bank barcha xodimlarining o'z o'rnini bor, ya'ni bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan lavozim majburiyatlarida har bir xodimning operatsiyalarni bajarishdagi faqatgina o'zigagina tegishli huquq va majburiyatlari belgilanadi va ana shu majburiyatlar ichida nazorat mexanizmini amalga oshirishdagi shu xodimga tegishli ma'lum vazifa aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Bu holat xodimning ichki nazorat xizmatiga to'g'ridan-to'g'ri aloqadorligini anglatmaydi, lekin bank asosan mijozlar mablag'lari bilan ish olib borishini inobatga olganda nazorat har bir bo'g'inda shartligi yaqqol ko'rinadi. Mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazoratning amaliy jihatdan tashkil qilinishini inobatga olib, bank ichki nazoratining asosiy ish yo'nalishlarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bankda kundalik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishini nazorat qilish.

2. Banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat ishini tashkil etish.

Ichki nazoratning birinchi yoʻnalishi yuzasidan asosiy meyoriy hujjat Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2008-yil 3-mayda qabul qilingan 674-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi toʻgʻrisida yoʻriqnoma” hisoblanadi. SHuningdek tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan ichki meyoriy hujjatlar va xodimlarning xizmat vazifalari toʻgʻrisidagi buyruqlar shular jumlasidan.

Bank faoliyati nazorati administrativ va moliyaviy nazorat liniyalari orqali amalga oshiriladi: Administrativ nazorat bank operatsiyalarini faqatgina bank tomonidan oʻrnatilgan xizmat vazifalari taqsimoti asosida amalga oshirilishini taʼminlashi zarur. Moliyaviy nazorat aktivlar butligini saqlash, operatsiyalarning meʼyoriy hujjatlar asosida bajarilishi, bank operatsiyalarini hisob va hisobotda toʻgʻri aks ettirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini taʼminlashga qaratiladi.

Dastlabki nazoratda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qoʻyish jarayoni nazoratga olinadi. Ichki nazorat xizmati bankda xodimlar bazasiga nisbatan oʻrnatilgan mezonlarga amal qilinishini nazorat qiladi. Ushbu mezonlar xizmat yoʻriqnomasida toʻla aks ettiriladi. Bunda xodimning klassifikatsiyasi (maʼlumoti, ish tajribasi) va individual xususiyatlariga katta etibor beriladi.

Joriy nazoratda ichki nazorat xizmati bank xodimlari tomonidan operatsiyalar bajarishda qabul qilingan meyorlarga amal qilinishini doimiy monitoring qiladi. SHuningdek, xodimlarning oʻz xizmat majburiyatlariga toʻlaqonli amal qilishi ham nazorat ostiga olinadi.

Soʻnggi nazoratda bankda mavjud maʼlumotlardan xodimlarning foydalanish imkoniyati, yaʼni xodimning maʼlumotlar bazasiga kirish yoki kirmasligi toʻla nazorat qilinadi. SHu oʻrinda aytib oʻtish kerakki, hozirgi vaqtda tijorat banklarida xodimlarning bank amaliyotlarini mavjud meyoriy asoslarga tayanib bajarishiga ichki nazorat tizimida katta eʼtibor berilmoqda. Xodimlarning bank operatsiyalarini toʻgʻri bajarishi keyingi nazorat tomonidan muntazam kuzatib boriladi. Bugungi kunda bank operatsiyalarining murakkablashib borayotganini inobatga olib

xodimlarni murakkab amaliyotlar bo'yicha muntazam malakasini oshirib borish eng asosiy vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasidagi mavjud qonunchilikka asosan moliyaviy nazorat tizimida buxgalteriya operatsiyalarining dastlabki nazorati front ofis xodimlari yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalar samaradorligi, ularning bank ichki siyosatiga hamda amaldagi qonunchilikka mosligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar operatsiyalar xalqaro shartnomalar asosida xorijiy valyutada amalga oshirilayotgan bo'lsa, shartnoma shartlariga rioya qilinishi ta'minlanadi. Mijozlardan pul hisob-kitob hujjatlari qabul qilinayotganda quyidagi jihatlarga kata e'tibor qaratilishi kerak:

- ❖ Ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan shakldagi blankda yozilib to'g'ri rasmiylashtirilganligi;

- ❖ Barcha rekvizitlar to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi;

- ❖ Ushbu pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligi;

- ❖ Hisobvaraqlarni tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mosligi va boshqalar.

Dastlabki nazoratni amalga oshirgan xodim quyidagi hollarda pul hisob-kitob hujjatini ijro uchun qabul qilmaydi:

- Hujjatda belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa;

- Hujjatda summa, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan bo'lsa ;

- Hujjat mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda o'zgartirish kiritilgan bo'lsa;

- To'lov talabnomalari sanasi bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri mavjud bo'lmagan holda;

- Mijozning talab qilib olinguncha deposit hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda (budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari mijozning

hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda 2-son kartatekaga qabul qilinadi);

- To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniladigan e'lonlarning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lmasa.

Joriy nazorat bek ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nushalarini qabul qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Joriy nazoratda xodim quyidagi nazorat tadbirlarini amalga oshiradi;

❖ Dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nushalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligini qaytadan tekshiradi;

❖ Hujjatlardagi muhr izi va imzolarni o'zlarida mavjud muhr izi va imzo namunalari bilan solishtiradi;

❖ To'lov hujjatlarinig asl nushasida front ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini tekshiradi;

❖ Bankning ichki moliya-xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nushalari hamda ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan bank tegishli bo'linmalari Xizmat farmoyishlarining nushalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

YAkuniy nazorat banklarda amaliyot kuni tugaganidan so'ng, kunlik operatsiyalar uchun asos bo'lgan hujjatlar o'rnatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib bo'lingandan keyin amalga oshiriladi. Bunda yakuniy nazorat xodimlari bankning elektron ma'lumotlar bazasiga kirib hujjatlarning asl va elektron nushalarini nazoratdan o'tkazadi. YAkuniy nazorat xodimi bank operatsiyalarini bajarish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilishga va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada to'g'ri va maqsadga muvofiq bajarilganligi bo'yicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.

3-§. Banklarda pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarning ichki nazorat xizmatini amalga oshirish

Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazorat ishini tashkillashtirish, uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash, ushbu jarayonda har bir xodimning faol ishtirokini ta‘minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy jihatdan olib qaraganda bank ichki nazoratida bank barcha xodimlarining o‘z o‘rni bor, ya‘ni bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan lavozim majburiyatlarida har bir xodimning operatsiyalarni bajarishdagi faqatgina o‘zigagina tegishli huquq va majburiyatlari belgilanadi va ana shu majburiyatlar ichida nazorat mexanizmini amalga oshirishdagi shu xodimga tegishli ma‘lum vazifa aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bu holat xodimning ichki nazorat xizmatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqadorligini anglatmaydi, lekin bank asosan mijozlar mablag‘lari bilan ish olib borishini inobatga olganda nazorat har bir bo‘g‘inda shartligi yaqqol ko‘rinadi.

2-jadval

Jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashda zarur bo‘ladigan ma‘lumotlar⁴⁵

№	Jismoniy shaxslarning zaruriy ma‘lumotlari
1.	Familiyasi, ismi va otasining ismi.
2.	Tug‘ilgan sanasi va joyi.
3.	Fuqaroligi.
4.	Doimiy va (yoki) vaqtinchalik yashash joyi.
5.	Pasport yoki uning o‘rnini bosadigan hujjat rekvizitlari: hujjat seriyasi va raqami, hujjat berilgan sana, hujjatni bergan organ nomi.
6.	Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (agar mavjud bo‘lsa).

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296 –sonli farmoni. T.: 2018 yil 9 yanvar asosida tuzildi.

7.	Uy telefoni raqami (agar mavjud bo'lsa).
----	--

Mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazoratning amaliy jihatdan tashkil qilinishini inobatga olib, bank ichki nazoratining asosiy ish yo'nalishlarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bankda kundalik hujjatlashtirish va xodimlarning o'z xizmat vazifalarini to'laqonli bajarishini nazorat qilish;

2. Banklarda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat ishini tashkil etish.

3-jadval

Yuridik shaxslarni identifikatsiyalashda zarur bo'ladigan ma'lumotlar⁴⁶

№	Yuridik shaxslarning zaruriy ma'lumotlari
1.	To'liq, shuningdek, agar davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasida ko'rsatilgan bo'lsa, qisqartirilgan nomi;
2.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumot: sana, raqam, ro'yxatga oluvchi organ nomi;
3.	Soliq to'lovchining identifikatsion raqami
4.	Joylashgan eri (pochta manzili)
5.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar
6.	Litsenziyalanishi lozim bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun mavjud bo'lgan litsenziyalar to'g'risida ma'lumotlar: faoliyat turi, litsenziyaning raqami va berilgan sanasi; kim tomonidan berilganligi; amal qilish muddati
7.	Imzo huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxs nomidan ish ko'ruvchi jismoniy shaxsning identifikatsiyasi to'g'risida ma'lumotlar
8.	Yuridik shaxs ta'sischilari (yirik aksiyadorlari, ishtirokchilari) haqidagi hamda mijozning ustav fondi (kapitali)dagi ularning ulushlari to'g'risida ma'lumotlar

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296 –sonli farmoni. T.: 2018 yil 9 yanvardagi farmon asosida tuzildi

9.	Ro'yxatga olingan va to'langan ustav fondi (kapitali) miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar
10.	Yuridik shaxs boshqaruv organlari (yuridik shaxsning boshqaruv organlarining tuzilmasi va shaxsiy tarkibi) to'g'risidagi ma'lumotlar
11.	Telefon raqamlari.

Bank faoliyati nazorati administrativ va moliyaviy nazorat liniyalari orqali amalga oshiriladi: Administrativ nazorat bank operatsiyalarini faqatgina bank tomonidan o'rnatilgan xizmat vazifalari taqsimoti asosida amalga oshirilishini ta'minlashi zarur. Moliyaviy nazorat aktivlar butligini saqlash, operatsiyalarning me'yoriy hujjatlar asosida bajarilishi, bank operatsiyalarini hisob va hisobotda to'g'ri aks ettirish va moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashga qaratiladi.

Dastlabki nazoratda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish jarayoni nazoratga olinadi. Ichki nazorat xizmati bankda xodimlar bazasiga nisbatan o'rnatilgan mezonlarga amal qilinishini nazorat qiladi. Ushbu mezonlar xizmat yo'riqnomasida to'la aks ettiriladi. Bunda xodimning klassifikatsiyasi (ma'lumoti, ish tajribasi) va individual xususiyatlariga katta e'tibor beriladi.

4-jadval

Yakka tartibdagi tadbirkorlarni identifikatsiyalashda zarur bo'ladigan ma'lumotlar⁴⁷

1.	Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarida ko'zda tutilgan ma'lumotlar
2.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumot: sana, raqam, ro'yxatga oluvchi organ nomi
3.	Faoliyat amalga oshiriladigan joy
4.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan boshqa ma'lumotlar
5.	Faoliyat turlarini amalga oshirish uchun mavjud guvohnomalar va litsenziyalar to'g'risidagi ma'lumotlar: faoliyat turi, litsenziya raqami, berilgan sanasi, kim tomonidan berilganligi, amal qilish muddati

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida"⁴⁷ qarori. T.: 2017 yil 17 aprel asosida tuzildi.

6.	Telefon raqamlari.
-----------	--------------------

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud qonunchilikka asosan moliyaviy nazorat tizimida buxgalteriya operatsiyalarining dastlabki nazorati front ofis xodimlari yoki mas’ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalar samaradorligi, ularning bank ichki siyosatiga hamda amaldagi qonunchilikka mosligini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar operatsiyalar xalqaro shartnomalar asosida xorijiy valyutada amalga oshirilayotgan bo‘lsa, shartnoma shartlariga rioya qilinishi ta’minlanadi. Mijozlardan pul hisob-kitob hujjatlari qabul qilinayotganda quyidagi jihatlarga kata e’tibor qaratilishi kerak:

- ❖ Ularning O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan shakldagi blankda yozilib to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi;

- ❖ Barcha rekvizitlar to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilganligi;

- ❖ Ushbu pul hisob-kitob hujjatlarida bo‘yash, chizish va tuzatishga yo‘l qo‘yilmaganligi;

- ❖ Hisobvaraqlarni tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mosligi va boshqalar.

5- jadval

Mijoz anketasida ko‘rsatiladigan malumotlar⁴⁸

1.	Mijozni identifikatsiyalash jarayonida olingan, Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarida ko‘rsatilgan ma’lumotlar.
2.	Tavakkalchilik darajasi haqida ma’lumot, shu jumladan, tavakkalchilikni baholash asoslari.
3.	Bank tomonidan mijozni identifikatsiyalashda amalga oshirilgan qo‘shimcha choratadbirlar natijalari.

⁴⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida”⁴⁸ qarori. T.: 2017 yil 17 aprel .qarori asosida tuzildi.

4.	Mijoz bilan munosabatlar o'rnatilgan sana — tijorat bankidagi birinchi bank hisobvarag'i (omonati) ochilgan sana.
5.	Mijoz anketasi to'ldirilgan va o'zgartirish kiritilgan sana.
6.	Mijoz bilan ishlashga mas'ul xodim, xususan, hisobvaraqq ochgan va hisobvaraqq ochilganligini tasdiqlagan xodim (bosh buxgalter va uning muovini) familiyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi.
7.	Qog'oz shaklidagi mijoz anketasini to'ldirgan xodim imzosi (familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi ko'rsatilgan holda) va elektron ko'rinishdagi mijoz anketasini to'ldirgan xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi.
8.	Ichki qoidalarda belgilanadigan boshqa ma'lumotlar

Ichki nazoratning birinchi yo'nalishi yuzasidan asosiy me'yoriy hujjat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2008-yil 3-mayda qabul qilingan 674-sonli "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma" hisoblanadi. SHuningdek tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjatlar va xodimlarning xizmat vazifalari to'g'risidagi buyruqlar shular jumlasidandir.

Joriy nazoratda ichki nazorat xizmati bank xodimlari tomonidan operatsiyalar bajarishda qabul qilingan meyorlarga amal qilinishini doimiy monitoring qiladi. SHuningdek, xodimlarning o'z xizmat majburiyatlariga to'laqonli amal qilishi ham nazorat ostiga olinadi.

So'nggi nazoratda bankda mavjud ma'lumotlardan xodimlarning foydalanish imkoniyati, ya'ni xodimning ma'lumotlar bazasiga kirish yoki kirmasligi to'la nazorat qilinadi. SHu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi vaqtda tijorat banklarida xodimlarning bank amaliyotlarini mavjud me'yoriy asoslarga tayanib bajarishiga ichki nazorat tizimida katta e'tibor berilmoqda. Xodimlarning bank operatsiyalarini to'g'ri bajarishi keyingi nazorat tomonidan muntazam kuzatib boriladi. Bugungi kunda bank operatsiyalarining murakkablashib borayotganini inobatga olib xodimlarni murakkab amaliyotlar bo'yicha muntazam malakasini oshirib borish eng asosiy vazifalardan biridir.

Dastlabki nazoratni amalga oshirgan xodim quyidagi hollarda pul hisob-kitob hujjatini ijro uchun qabul qilmaydi:

- Hujjatda belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa;
- Hujjatda summa, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan bo'lsa ;
- Hujjat mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda o'zgartirish kiritilgan bo'lsa;
- To'lov talabnomalari sanasi bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri mavjud bo'lmagan holda;
- Mijozning talab qilib olinguncha deposit hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda (budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari mijozning hisobvarag'ida to'lov uchun etarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda 2-son kartatekaga qabul qilinadi);
- To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniladigan e'lonlarning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lmasa.

Joriy nazorat bek ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nushalarini qabul qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Joriy nazoratda xodim quyidagi nazorat tadbirlarini amalga oshiradi;

❖ Dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nushalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligini qaytadan tekshiradi;

❖ Hujjatlardagi muhr izi va imzolarni o'zlarida mavjud muhr izi va imzo namunalari bilan solishtiradi;

❖ To'lov hujjatlarinig asl nushasida front ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini tekshiradi;

❖ Bankning ichki moliya-xo'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nushalari hamda ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan bank tegishli bo'linmalari Xizmat farmoyishlarining nushalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

YAkuniy nazorat banklarda amaliyot kuni tugaganidan so'ng, kunlik operatsiyalar uchun asos bo'lgan hujjatlar o'rnatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib bo'lingandan keyin amalga oshiriladi. Bunda yakuniy nazorat xodimlari bankning elektron ma'lumotlar bazasiga kirib hujjatlarning asl va elektron nusxalarini nazoratdan o'tkazadi. YAkuniy nazorat xodimi bank operatsiyalarini bajarish uchun asos bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilishga va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada to'g'ri va maqsadga muvofiq bajarilganligi bo'yicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.


Ichki nazoratga nisbatan bunday kompleks yondashuv banklar faoliyatida uchraydigan barcha risklarni aniqlash, tahlil qilish va oldini olish, shuningdek operatsiyalar samaradorligini baholashda operativlikni taminlaydi. Banklarda Bank Kengashi, Bank boshqaruvi, ichki va tashqi auditorlar ichki nazoratni tashkil qilish va uning samarali faoliyat yuritishida ma'lum vazifalarni bajaradi:

- 1- Ichki nazorat tizimini shakllantirish;
- 2- Ichki nazorat tizimi ishini ko'zatib borish;
- 3- Ichki nazorat tizimi ish faoliyatini tashkil qilish;
- 4- Ichki nazorat tizimining ishini nazorat qilish;
- 5- Ichki nazorat tizimi ishini tekshirib turish;
- 6- Ichki nazorat tizimi ishini baholash;

Bank sohasini isloh qilishning ustuvor jihati oqilona bank nazoratini amalga oshirishdan iboratdir. SHu jihatdan, respublikamizda ta'sirchan bank nazorati tizimi iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydigan asosiy o'zak ekanligini hisobga olgan holda Markaziy bank tomonidan banklarni nazorat qilish faoliyati «oldindan ogohlantirish tizimi» asosida tashkil etilgan.

Tijorat banking ichki nazorat tizimi bank faoliyatining jihatlari, asosiy yo'nalishi, mijozlar bazasi va mijozlar hamda ularning operatsiyalari bilan bog'liq xatarlar darajasini hisobga olgan holda tashkillashtiriladi. Masalan, yirik banklarda bu xizmat alohida department shaklida, shu bank filiallari tarmog'ida esa alohida bo'lim sifatida tashkil etilib, xodimlar bazasi ham ichki nazoratni muvofiq darajada

olib borish uchun etarli bo'lishi zarur. Tijorat banki ichki nazorat tuzilmasi quyidagi rasmda keltirilgan.



12-rasm. Tijorat banki ichki nazorat tuzilmasi ⁴⁹

Rasmdan ko‘rinadiki, filiallardagi ichki nazorat xizmati xodimlari bevosita filial rahbariga bo‘ysunadi. Ushbu tashkiliy tuzilma ichki nazorat xodimining rahbarga aniqlangan kamchiliklar, aktivlardan samarali foydalanish yo‘nalishlari haqida o‘z vaqtida aniq axborotni etkazib borishiga imkon yaratadi. Ichki nazorat xizmati boshqarmasi esa bank bo‘g‘inlaridagi nazorat tizimi uchun umumiy yo‘riqlarni ishlab chiqadi, mas’ul xodimlarning xuquq va majburiyatlari, ish faoliyatini tashkil qilish tartibini belgilab beradi.

Jahon tajribasi ko‘rsatadiki, nazorat tizimida ishlovchi xodimlar bank bo‘linmalari tomonidan bajariladigan barcha operatsiyalar tavsifi haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Xususan, yirik fransuz banklari (Societe General, Credit Agricole Agricole, BNP-Paribas va boshqalar)da nazorat tizimi rahbarlariga kamida 8-10 yil ish tajribasi bo‘lishi va yoshi 35-40 dan kam bo‘lmasligi kerak.

⁴⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2009 yil 13 oktyabrdagi 23/6, 32-sonli “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida” qarori asosida tuzildi.

Ichki nazorat xizmati rahbari yoki xodimi lavozimiga quyidagi shaxslar tayinlanishi mumkin emas:

⇒ o'z faoliyati va axlohida ishonib topshirilgan bo'linmani noto'g'ri boshqargani yoki ishni vijdonan yuritmagani namoyon etgan shaxslar;

⇒ iqtisodiyot sohasidagi jinoyati uchun avval sud tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar.

Umuman mamlakatimiz tijorat banklarida ichki nazoratni tashkil etish va uning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash borasida umumiy jihatdan etarlicha huquqiy asos mavjud va bunda ko'proq e'tiborni ushbu yo'nalishning bank boshqaruvida etarlicha o'rin tutishini ta'minlashga qaratish kerak. Bunda xodimlarni rivojlangan mamlakatlar bank tizimi, shuningdek xalqaro miqyosda tashkil qilingan maxsus tashkilotlar (masalan FATFning hududiy guruhlari) ish faoliyati bilan tanishtirish hamda ular tomonidan ishlab chiqilayotgan va amaliyotga joriy qilinayotgan taklif va tavsiyalarni bevosita kuzatish imkoniyatini yaratib berish lozim.

4-§. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlarning huquq va majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 20 fevralda ro'yxatdan o'tkazilgan 2886-3-sonli «Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida»gi qarorga asosan respublika tijorat banklarida ichki nazorat tizimini yanada mustahkuamlash bo'yicha qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi.

2017 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish

departamentining “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida”⁵⁰ qarorlari i qabul qilingan bo‘lib unga asosan “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat” qoidalari tijorat banklarida amal qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «Bank siri to‘g‘risida»gi va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunlariga muvofiq tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida ichki nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish hamda terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro‘yxatiga kiritilgan shaxslarning operatsiyalarini to‘xtatib turish, pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkini ishga solmay to‘xtatib qo‘yish, ishga solmay to‘xtatib qo‘yilgan mol-mulkidan foydalanishga ruxsat berish va operatsiyalarini tiklash tartibini belgilangan. Unga asosan bank ichki nazorati — tijorat banking mijozlarni lozim darajada tekshirish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish, gumonli va shubhali operatsiyalarni aniqlash hamda terrorchilik yoki ommaviy qirg‘in qurollarini

⁵⁰ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini tasdiqlash haqida”⁵⁰ qarori. T.: 2017 y.

tarqatish faoliyati ishtirokchisi yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar bilan bog‘liq operatsiyalarni aniqlashga doir faoliyatini tashkil etadi.

6-jadval

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog‘liq xatarlarni boshqarish bo‘yicha bank ichki nazorati sub‘ektlari⁵¹

№	Ichki nazorat sub‘ektlari	Sub‘ekt va uning funksiyalari
1.	Ichki nazorat xizmati	Ichki nazoratni amalga oshirish uchun javobgar bo‘lgan tijorat bankining maxsus bo‘linmasi
2.	mas‘ul xodim	Tijorat banki filialida ichki nazoratning amalga oshirilishi uchun mas‘ul bo‘lgan shaxs
3.	Ichki nazorat xizmati xodimlari	Ichki nazoratning amalga oshirilishi uchun mas‘ul bo‘lgan tijorat banki bosh ofisidagi Ichki nazorat xizmati xodimlari, tijorat banki filialidagi mas‘ul xodim yoki Ichki nazorat xizmati rahbari va xodimlari
4.	Maxsus vakolatli davlat organi	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
5.	Mijoz Operatsiya ishtirokchilari	Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyani amalga oshirish to‘g‘risida tijorat bankiga topshiriqnomaga bilan murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs
6.	Benefitsiar mulkdor	Yakuniy holatda mulk huquqiga egalik qiluvchi yoki mijozni haqiqatda nazorat qiluvchi jismoniy shaxs yoxud manfaati ko‘zlangan holda pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiya amalga oshirilayotgan yuridik shaxs
7.	Operatsiya ishtirokchilari	Mijozlar, ularning vakillari hamda mijozning operatsiyada ishtirok etuvchi hamkorlari
8.	Yuqori mansabdor shaxslar	Chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma‘muriy yoki sud organida yoxud xalqaro tashkilotda doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo‘yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, tashkiliy-boshqaruv vazifalarni bajaradigan va yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxslar

Bank ichki nazorati sub‘ektlari bankda amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarni nazorat qilishi va ular bilan bog‘liq jarayonlarni kuzatib borishlari,

⁵¹ «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonun asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

lozim boʻlgan hollarda bank operatsiyalarining tavsifchiligi bilan bogʻliq jarayonlarning oldini olishlari lozim. Tijorat bankining ichki nazorat tizimi belgilab berilgan qoidalar va ichki hujjatlar bilan belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishga qaratilgan tijorat bankining Ichki nazorat xizmati va boshqa boʻlinmalarining harakatlari yigʻindisini tashkil etadi. Bank ichki nazorati boʻyicha ichki hujjatlar tijorat banki faoliyatini tartibga soluvchi va uning rahbariyati tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan hujjatlarni tashkil etadi. Bank nazorati boʻyicha ichki qoidalar tijorat bankida va uning filiallarida ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi ichki hujjatlardir. Bank ichki nazoratin amalga oshirishda bank operatsiyalariga alohida nazorat etiladi, bank operatsiyalaridan gumonli yoki shubhali operatsiyalarni aniqlash va ular boʻyicha choralar koʻrish bank ichki nazoratining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. SHundan kelib chiqqan holda quyida biz bank operatsiyalari turlarini quyidagi jadvalda ifodalashimiz mumkin.

7-jadval

Bank ichki nazoratida aniqlanadigan operatsiyalar turlari⁵²

№	Operatsiya turlari	Operatsiya mazmuni
1.	Gumonli operatsiya	ichki nazoratni oʻtkazish jarayonida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligi toʻgʻrisida tijorat bankida gumon uygʻotuvchi hamda uni shubhali operatsiyalar turkumiga kiritish (kiritmaslik) haqida qaror qabul qilgunga qadar boʻlgan operatsiya
2.	SHubhali operatsiya	tayyorlash, sodir etish jarayonida boʻlgan yoki sodir etib boʻlingan, ichki nazoratni oʻtkazish vaqtida tijorat bankida uning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va (yoki) ommaviy qirgʻin qurolini tarqatishni moliyalashtirish maqsadida amalga oshirilganligiga shubha paydo boʻlgan operatsiya

⁵².«Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi qonun asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

3.	Bir marotabalik operatsiyalar	mijozlar tomonidan bank hisobvarag'ini ochmagan holda, kamida bir oy davomida takrorlanmaydigan, bir marotabalik tartibda amalga oshiriladigan operatsiyalar
4.	Offshor hudud	imtiyozli soliq rejimini taqdim qiluvchi va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ular haqidagi ma'lumotlarni oshkor etmaslikni va taqdim qilmaslikni ko'zda tutuvchi davlatlar va hududlar;
5.	Masofaviy xizmatlar	mijozning tijorat bankiga kelmagan holda operatsiyani amalga oshirish imkonini beruvchi dasturlar yordamida operatsiyalarni o'tkazish bo'yicha bank xizmatlari;
6.	Operatsiyalarni to'xtatib turish	mijozning pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkni ko'chirish, konversiyalash, o'zga shaxslarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, shuningdek yuridik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqnomalari ijrosini to'xtatib turish

Bank ichki nazoratida mijozni lozim darajada tekshirish — mijozning va qaysi shaxslar nomidan ish ko'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxslarning shaxsini hamda vakolatlarini tekshirish, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash, shuningdek mijoz tomonidan amalga oshiriladigan amaliy ish munosabatlari va operatsiyalarni, ularning bunday mijoz va uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, doimiy asosda o'rganishlarni o'tkazishni, mijozni identifikatsiyalash esa tijorat banki tomonidan mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida mijozlar haqidagi ma'lumotlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida aniqlashni, mijozning benefitsiar mulkdorini identifikatsiyalash — tijorat banki tomonidan qonun hujjatlari bilan belgilangan ta'sis hujjatlari (ustav va (yoki) ta'sis shartnomasi, nizom) asosida mulk va boshqaruv tuzilmasini o'rganish orqali yuridik shaxs bo'lgan mijozning mulkdori, shu jumladan uni nazorat qiluvchi shaxsni aniqlashni ko'zda tutadi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlar — Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralarni ishlab chiqish guruhining rasmiy bayonotlarida

xalqaro moliyaviy tizimga xavf tug'diruvchi hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish tizimlarida strategik kamchiliklari mavjud deb belgilangan davlatlar va hududlar hisoblanadi.

Mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan amalga oshirilganda, tijorat banklari mijoz bilan ish munosabatlariga kirishish to'g'risidagi qarorni o'z tavakkalchiliklaridan kelib chiqib, mustaqil ravishda qabul qiladi. Bunda bank hisobvarag'i shartnoma ofertasida mijozlarni lozim darajada tekshirish bo'yicha chora-tadbirlar tijorat banklari tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi ko'rsatilishi lozim.

Mijozlar va operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklarni o'rganish, tahlil qilish, aniqlash, baholash, monitoring qilish, boshqarish, kamaytirish va hujjatlashtirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish tartibi tijorat bankining ichki qoidalari bilan belgilanadi. O'zbekiston banklari faoliyatida depozitlarni jalb qilish, ularga monand kredit operatsiyalarini tashkil etish, valyuta va hisob operatsiyalari, kadrlar siyosati, hujjatlar saqlanishi, muammoli kreditlar, ularning sabablari, zarur zaxiralarning shakllantirilishi va boshqa qator masalalar bank ichki nazoratining obekti bo'lib bu yo'nalishlarda bank ichki nazoratini yanada takomillashtirish lozim.

Tayanch so'zlar: legallashtirish, jinoiy faoliyat, terrorizm, axborot maxfiyligi, yashirin faoliyat, offshor, offshor hudud, moliyalashtirish, operatsiyalarni to'xtatib turish, operatsiyalarni ta'qiqlash, ichki nazorat, nazorat o'b'ekti

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar deganda nimani tushunasiz?
2. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish deganda nimani tushunasiz
3. Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni tushuntiring

4. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatlar to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Operatsiyalarni to'xtatib turish deganda nimani tushunasiz?
6. Offshor hudud deganda nimani tushunasiz?
7. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida O'zbekistonda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
8. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida tijorat banlarining ishtiroki nimalardaqn iborat?
9. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash sohasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qanday yoriqnomalari mavjud?
10. Tijorat banklarida ichki nazorat tizimi nima uchun zarur va uning rolini tushuntiring.

VII BOB. Aholi omonatlari va ular bo'yicha bank-fondlarning majburiyatlari va kafolatlari: mahalliy va xorijiy amaliyot

1-§. Aholi omonat va kredit munosabatlari tushunchasi hamda ularning iqtisodiyotdagi o'rni.

Mamlakatda pul muomalasini tartibga solinishi va muomaladagi naqd pul massasini talablar darajasiga to'la mos kelishini ta'minlash, pul qadrsizlanishi jarayonlarini to'xtatib turish, yuridik va jismoniy shaxslar vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini bankka jalb etish va ularni iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari uchun investitsiya qilinishini ta'minlash, yuridik va jismoniy shaxslarning naqd pul summalariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish-tijorat banklari oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosati ishlab chiqilishi hamda ro'yobga chiqarilishi chog'ida tijorat banklari imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish va ularning mamlakatimizdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, aholi moddiy-turmush sharoitlarini yuksaltirishga samarali ta'sirini ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar ko'rilmoqda.

Mamlakatimizda samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni zarur mablag'lar bilan ta'minlash, milliy valyutamiz – so'mning boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan qadr-qimmatini bir maromda saqlab turish, aholining talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizmlardan bo'lib – yuridik va jismoniy shaxslar bo'sh pul mablag'larini bank omonatiga jalb qilish hamda mazkur jalb qilingan mablag'lardan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarida omilkorlik bilan foydalanish – ularni kreditlar shaklida berish yo'li bilan xalq xo'jaligini sarmoyalash hisoblanadi.

Bank omonatlari va bank krediti bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning xuquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (XXV bob, 122-124 moddalar), O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida 41-

bob, (732-748 moddalar); 43-bob (759-770 moddalar); «O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida»gi qonun, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonuni, «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida»gi, «Kredit uyushmalari to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlarda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Hukumat qarorlari hamda idoraviy normativ-xuquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan.

Muddatli yoki muddatsiz qo‘yilgan omonatlar omonatchi tomonidan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan umumiy qoidaga ko‘ra shartnomada ko‘zda tutilgan hollarda naqd pul topshirish yoki pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘ldirilishi mumkin. SHuningdek, omonatga qo‘yilgan mablag‘lar omonatchining talabi bilan istagan paytda qaytarilmog‘i shart. Bunda muddatli omonatlar belgilangan muddatidan avval qaytarib olinganida ularga talab qilib olinadigan omonatlar uchun belgilangan stavkalarda pasaytirilgan foizlar to‘lanishi ko‘zda tutilgan.

Muddatli yoki muayyan shart nazarda tutuvchi omonat muddati tamom bo‘lgach yoki belgilangan shart yuz berganidan keyin ham qaytarib olinmaganligi bunday omonatni talab qilib olinadigan (oddiy) omonatga aylanishiga sabab bo‘ladi. Omonat shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilishi mumkin. Omonatchi vafot etgan hollarda omonatni kaytarib olish yoki qaysi rasmiylashtirish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksning 1150-moddasida belgilangan tartibda hal etiladi. qo‘yilgan barcha omonatlarga bank tomonidan bank omonati shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda foizlar to‘laydi.

Omonat qo‘yilganligini tasdiqlovchi asosiy hujjatlar omonat dafgarchasi va omonat (depozit) sertifikati bo‘lib, ularning asosiy belgilari va hususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 769-770-moddalarida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan me‘yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan.

Fuqarolarning tijorat banklari va boshqa kredit muassasalariga qo‘yilgan omonatlari o‘z vaqtida qaytarilishini hamda ularning ishonchli tarzda muhofaza

qilinishini ta'minlashga qaratilgan xuquqiy bazani yanada mustahkamlash va takomillashtirish yuzasidan keyingi yillarda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi, «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa qonunlarning qabul qilinishi bank muassasalarida saqlanayotgan fuqarolar omonatlari uchun zarur xuquqiy kafolat yaratdi va bank muassasalariga bo'lgan ishonchni ortishiga, banklardagi omonat qo'yilmalari hajmini ortishiga sabab bo'ldi. Xususan, **2018 yilda banklardagi aholi omonatlari hajmi 21.2% ga oshib, 14 704 mlrd. so'mni tashkil etdi. SHundan, milliy valyutadagi omonatlar 38.2% ga o'sib, ularning jami omonatlardagi ulushi 53% dan 61% gacha ko'tarildi.**



Кўрсаткичлар номи / млрд. сўм	2015	2016	2017	2018
Аҳоли омонатлари, жами	6 966	8 531	12 132	14 704
йиллик ўсиш суръати, фоизда	24,8%	22,5%	42,2%	21,2%
Миллий валютадаги омонатлар	5 397	6 523	6 442	8 901
йиллик ўсиш суръати, фоизда	23,9%	20,9%	-1,2%	38,2%
Хорижий валютадаги омонатлар	1 569	2 008	5 690	5 804
йиллик ўсиш суръати, фоизда	27,9%	28,0%	183,3%	2,0%
Миллий валютадаги омонатлар улуши, фоизда	77%	76%	53%	61%
Хорижий валютадаги омонатлар улуши, фоизда	23%	24%	47%	39%

13- rasm. Aholi omonotlari dinamikasi va uning valyuta tarkibi⁵³

SHu bilan birga, xorijiy valyutadagi omonatlar qoldig‘i 2% ga oshgan bo‘lsada, ularning jami omonatlardagi ulushi 47% dan 39% gacha kamaydi.

Omonatchilarga bank muassasalariga qo‘yilgan omonatlarni o‘z vaqtida qaytarilishini ta‘minlash, aholining bank tizimlariga ishonchini yanada ortishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 avgustdagi «Bankdagi depozit hisobvaraqlardan naqd pul to‘lovlarini uzluksiz ta‘minlash kafolatlari to‘g‘risida»gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

2-§. Omonat saqlash va uning xuquqiy asoslari. Omonat shartnomasi hamda uning mazmuni.

O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati go‘g‘risida»gi qonunining II-moddasida omonatlarni jalb etish, kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lar hisobidan kreditlar berish banklar tomonidan amalga oshiriladigan bank operatsiyalarning asosiy turlaridan hisoblanadn. Har ikkala operatsiya ham mamlakatdagi pul mablag‘lari bilan bog‘liq iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, pul resurslaridan ayrim fuqarolar, ho‘jalik yurituvchi sub‘ektlar hamda davlat va jamiyat manfaatlarida oqilona, eng ko‘p foyda berishni mo‘ljallagan holda foydalanish maqsadlariga xizmat qiladi. Vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini yirik investnsiya loyihalarini ro‘yobga chiqarilishiga yo‘naltirish yo‘li bilan mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashishga xizmat qiladi. Ushbu bank operatsiyalari pul mablag‘larini jamlashga va maqsadga muvofiq taqsimlashga qaratilgan yagona nqtisodiy jarayonning bosqichlari sifatida baholanishi mumkin.

Amaldagi umumfuqarolik va bank qonunchiligi ushbu iqqisodiy jarayon ishtirokchilari bo‘lgan omonat qo‘yuvchi shaxslar, bank-kredit muassasalari hamda bank krediti iste‘molchilari bo‘lmish jismoniy va yuridik shaxslar hukuqlarya,

⁵³ Finance.uz. rasmiy sayti malumotlari.

qonuniy manfaatlarini qo‘riqlash, bu huquqlar buzilgan taqdirda esa ularni qayta tiklashga qaratilgan aniq vositalarni ko‘zda tutadi, kafolatlarni belgilab qo‘yadi. Bunday huquqiy vositalarning eng asosiylaridan biri, bu bank omonati va bank krediti shartnomalari bo‘lib, ular himoyalash vositalari bo‘lishdan tashqari omonat va kreditga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solish, bu munosabatlar ishtirokchilarining o‘zaro huquq va majburiyatlari, avobgarliklarini belgilash vositasi bo‘lib, ular o‘rtasida ana shu yo‘nalishdagi munosabatlar kengayishini tasdiqlovchi rasmiy guvohnoma — hujjat vazifasini ham bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksning 759-moddasiga muvofiq «Bank omonati shartnomasi bo‘yicha birinchi tarafdin (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni qabul qilib olgan ikkinchi taraf bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi».

Bank omonati shartnomasi omonatlarni jalb etish bilan bog‘liq bank operatsiyalarini amalga oshirish vakolatini olgan banklar va boshqa kredit muassasalari bilan omonatchi jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida tuzilishi mumkin. qonunda belgilanganidek, omonatchining pul mablag‘i bankka kelib tushgan yoki topshirilgan kundan boshlab bank omonati shartnomasi tuzilgan xisoblanadi.

Bank omonati shartnomada maxsus ko‘rsatib qo‘yilgan bo‘lsa, talab qilib olingunicha qo‘yilgan omonatlarga to‘lanadigan foizlar miqdori bank tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. Bank foizlari kamaytirilgan taqdirda, bu bank foizlarni kamaytirishi to‘g‘risida qaror qabul qilinganidan keyin qo‘yilgan omonatlarga nisbatan qo‘llaniladi. Undan avval qo‘yilgan omonatlarga nisbatan esa shartnomada boshqacha hol nazarda tutilgan bo‘lmasa omonatchi bu haqda yozma xabardor qilinganidan keyin bir oy o‘tgach qo‘llanilishi mumkin. Muddatli omonatlar uchun to‘lanadigan foiz haqlar shartnomada bu haqda maxsus ko‘rsatib

qo'yilgan hollardan tashqari bank tomonidan bir tomonlama pasaytarilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bank qabul qilib olgan omonatning qaytarilishini ta'minlashi shart. Ushbu kafolatni amalga oshirilish vositalari va usullari qonunlar bilan hamda bank omonati shartnomasida nazarda tutiladi.

Bank tomonidan omonatga qaytarilishi ta'minlanmagan ta'minotni yo'qotgan yoki yomonlashtirilgan bank omonatiga tegishli foizlar to'lashdan tashqari omonatchi ko'rgan barcha zararlarni qoplab berishi shart. qonunda uchinchi shaxs foydasiga omonat qo'yilish mumkinligi nazarda tutilgan bo'lib, tegishli pul bankka kelib tushgan paytdan boshlab u omonatchi huquqlariga ega bo'ladi.

Bank yoki boshqa kredit muassasasining aholidan va yuridik shahslardan omonat qabul qilishga haqli ekanligi ushbu muassasaga O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda berishni maxsus ruxsatnoma (litsenziya)da ko'rsatib qo'yilgan bo'lishi lozim.

Ana shunday maxsus ruxsat (litsenziya) olmagan holda fuqarolardan omonat qabul qilgan bank yoki boshqa shaxs omonatni darhol qaytarib berishi, shuningdek, o'zining ana shunday g'ayriqonuniy harakati tufayli etkazilgan zarar o'rmini to'la qoplab berishi lozim. Bunday zarar jumlasiga o'z mablag'ini ishonib topshirgan fuqaro ololmay, qolgan daromad va foyda summolari, unga etkazilgan ma'naviy zararlari kiritilishi mumkin.

Tegishli ruxsat (litsenziya)siz yuridik shaxslar mablag'i omonatga qabul qilinganda bunday shartnomalarning belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilishiga va aybdorga fuqarolik kodeksining 327 - moddasida ko'zda tutilgan javobgarlik qoidalari

qullanilishi mumkin. Ushbu moddaga ko'ra, boshqa shaxslarning pul mablag'larini g'ayriqonuniy jamg'arish natijasida ulardan foydalanganlik uchun ushbu mablag'lar summasiga foiz to'lanishi kerak.

Foiz miqdori kreditor yashaydigan joyda, kreditor yuridik shaxs bo'lganida esa, uning joylashgan erida pul majburiyati yoki uning tegishli qismi bajarilgan kunda mavjud bo'lgan bank foizlarining hisob stavkasi bilan belgilanadi. qarz sud tartibida undirilganida esa kreditorning xohishiga ko'ra qarz berilgan kundagi yoki sud qarori chiqarilgan kundagi bank foizining hisob-stavkasiga qarab undirib berilishi mumkin.

Bank omonati shartnomasi odatda yozma shaklda har ikkala tomon imzolaydigan maxsus hujjat tarzida tuzilishi va rasmiylashtirilishi lozim. Biroq qonunga muvofiq belgilangan bank qoidalarida va bank amaliyotida qo'llaniladigan ish muomalasi odatda ko'zda tutilgan hollarda shartnomaga xos xususiyatlarni o'zida aks ettiruvchi boshqa hujjatlar tuzilganligi va omonat qo'yuvchiga berilganligi ham bank omonati shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi fakt hisoblanishi va shartnoma tuzilganidagi huquqiy oqibatlarni yuzaga keltirish mumkin. Ana shunday xujjatlar qatoriga omonat daftarchasi, jamg'arma (depozit) sertifikati yoki boshqa hujjatlar kiritilishi mumkin. Amaldagi fuqarolik va bank qonunchiligi jismoniy shaxslarning ham, yuridik shaxslarning ham pul mablag'larini omonatga jalb etish mumkinligini belgilaydi hamda jismoniy shaxslar pul mablag'larini jalb etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab qo'yadi. Bu xususiyatlar fuqarolar omonatlarini himoyalashning maxsus, qushimcha choralari belgilanganligi bilan ajralib turadi.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunda o'zbek so'mida ham, chet el valyutasida ham omonatlar qo'yilishi yoki qabul qilinishi mumkinligi nazarda tutiladi. Bank omonati shartnomasi fuqarolik huquqiy belgilariga ko'ra bir tomonlama, real hamda xaq barobariga tuziladigan shartnomalardan sanaladi. Omonatchi jismoniy shaxslar o'z pul mablag'larini saqlashlik uchun cheklanmagan miqdorda omonat hisoblariga ega bo'lishlari mumkin. «O'zbekiston Respublikasi banklarda ochiladigan bank xisob raqamlari to'g'risidagi yo'riqnomada belgilab qo'yilgan.

Fuqarolik kodeksining 759-moddasida fuqaro omonatchi bo'lgan bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma bo'lib hisoblanib, ommaviy shartnomaga xos xususiyatlar fuqarolik (kodeksining 358-moddasida sanab ko'rsatilgan va unga muvofiq jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish xuquqi berilgan bank uni murojaat qiluvchi har qanday fuqarolardan pullarni omonatga qabul qilishi lozim bo'ladi. Bunda bank qonunda bevosita ko'rsatib qo'yilgan hollardan tashqari kimgadir afzallik berishga, kimningdir huquqlarini cheklashga haqli bo'lmaydi, barcha shaxslar bilan bir xil shartlarda shartnoma tuzishi kerak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bank omonati shartnomasi tuzish paytida har ikkala tomon uchun majburiy bo'lgan qoidalar ishlab chiqilishi va joriy etilishi mumkin. qonun talablariga va mazkur majburiy qoidalarga zid keluvchi shartnomalar o'z-o'zidan xaqiqiy sanalmaydigan bitimlar bo'lib hisoblanadi. Bank omonatining turlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiniyag 762-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unda omonat talab qilinishi bilanoq berilishi (talab qilinguncha saqlanadigan omonat bo'lsa) lozim bo'lgan hamda omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat bo'lsa) lozim bo'ladigan omonatlarga bo'linadi.

3-§. Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi faoliyati

O'zbekiston Respublikasining 2002 yilda qabul qilingan «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi" qonunida fuqarolarning banklardagi, qonun hujjatlari bilan kafolatlashning alohida tartibi nazarda tutilgan omonatlarida turgan, fuqarolarning banklar ishonchli boshqaruviga topshirilgan, taqdim etuvchiga to'lanadigan hisobvaraqlarda saqlanayotgan, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning hisobvaraqlariga (agar bu hisobvaraqlar mazkur faoliyat munosabati bilan ochilgan bo'lsa) qo'yilgan, mazkur bank yoki uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarni ta'minlash uchun fuqarolarning banklardagi garovda turgan omonatlariga qo'yilgan mablag'lari fuqarolarning banklardagi omonatlari va bankning kafolatlash ob'ekti hisoblanadi.

Mazkur qonunning maqsadini amalga oshirish uchun Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tuzilgan. Fond faoliyatining maqsadi bankning bank operatsiyalarini o'tkazish huquqini beruvchi litsenziyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chaqirib olinganda fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lanishini ushbu Qonunda nazarda tutilgan shartlarda va miqdorda kafolatlashdan iboratdir.

Fond yuridik shaxs hisoblanadi va banklar bilan yozma ravishda tuziladigan bitimlar asosida faoliyat yuritadi. Fondning mol-mulki banklarning majburiy badallari, mablag' qo'yilishidan olingan daromadlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar hisobidan shakllantiriladi. Fondning pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida saqlanadi.

Fondni boshqarish Fondning kuzatuv kengashi va Fondning ijro etuvchi organi tomonidan amalga oshiriladi. Fondga moliyaviy yordam ko'rsatish va xayriya faoliyati bilan shug'ullanishi, shuningdek yuridik shaxslarning muassisi bo'lishiga ruxsat berilmaydi.

Mamlaktimizda faoliyat yurituvchi banklar mazkur fondga majburiy badallarni to'laydilar. Ular bir yo'la to'lanadigan va kalendar badallar banklarning Fondga to'laydigan majburiy badallari hisoblanadi. Bankning Fondga bir yo'la to'laydigan badali bankning amalda shakllangan ustav kapitali miqdorining 0,1 foizini tashkil etadi. Kalendar badal banklar tomonidan Fondga yilning har choragida o'tkaziladigan pul mablag'laridan iborat bo'ladi. Kalendar badallarning miqdori qonunga muvofiq kafolatlanishi lozim bo'lgan fuqarolar omonatlarining yil choragidagi amaldagi qoldig'iga qarab Fond kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan, ammo omonatlar umumiy summasining 0,5 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Kalendar badallarning to'langan summasi fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'i umumiy summasining 5 foiziga etganda banklar tomonidan kalendar badallarni to'lash to'xtatiladi. Fuqarolarning bankdagi omonatlari qoldig'ining umumiy summasi o'zgarganda Fondga to'langan kalendar badallarning summasi qayta hisoblab chiqilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan banklar uchun fuqarolarning pul mablag'larini omonatlarga jalb etishga taqiq joriy etilishi banklarni Fondga kalendar badallarini to'lashdan ozod etmaydi.

Kalendar badalning stavkasi o'zgartirilgan taqdirda Fond banklarni bundan kamida o'ttiz kun oldin xabardor qilishi shart. Fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha kalendar badal chet el valyutasida hisob-kitob qilinganda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan, kalendar badal o'tkazilgan kundan oldingi kungi kurs bo'yicha qayta hisoblab chiqiladi.

Banklar tomonidan Fondga to'lanadigan majburiy badallar banklarning ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlariga qo'shib qo'yiladi. Tijorat banklari Fond oldida ma'lum majburiyatlarga ega bo'lib bu majburiyatlar quyidagilardan iborat. Banklar:

-Fond bilan yozma bitimlar tuzishlari;

-qonunda belgilangan majburiy badallarni o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lashlari;

-qonunga muvofiq kafolatlanishi zarur bo'lgan fuqarolarning banklardagi omonatlari soni va miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Fondga taqdim etishlari shart.

-bank tugatilgan taqdirda, bankning tugatish komissiyasi fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha to'lanadigan haq summasi bilan tugatilayotgan bankning Fondga to'laydigan badali summasi o'rtasidagi farqni, shuningdek omonatlar bo'yicha haq to'lash paytida qilingan xarajatlarni Fondga to'lashi shart.

Fuqarolarning omonatlari bo'yicha haq to'lash bankning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan oraliq tugatish balansida aks ettirilgan omonatlarning qoldig'idan kelib chiqqan holda bank va Fond mablag'lari hisobidan to'liq hajmda amalga oshiriladi. Fuqarolarning omonatlari bo'yicha haq to'lash uchun Fondning mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Fondga ssuda beriladi va u keyinchalik Fond tushumlari hisobidan qaytariladi.

Fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lash maqsadida bankning tugatish komissiyasi litsenziya chaqirib olingan kundan e'tiboran ikki oy mobaynida kreditorlarni aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining majburiy zaxiralari fondiga depozitga qo'yilgan debitorlik qarzlari va mablag'larini olish choralarini ko'radi. Mazkur mablag'lar birinchi navbatda tugatilayotgan bankning fuqarolar omonatlari bo'yicha qarzlarini to'lashga yo'naltiriladi.

Fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lashni Fond ommaviy axborot vositalarida xabar e'lon qilingan paytdan e'tiboran o'n kun ichida boshlashi shart. Haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining roziligi bilan Fond belgilaydigan bank (agent bank) tomonidan amalga oshiriladi. Omonatchilar agent bankka o'z omonatlari bo'yicha haq olish uchun murojaat qilganlarida agent bank mazkur haqni omonatchi o'zining omonati borligini va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni ko'rsatgan taqdirda to'lashi shart. Fond o'z navbatida bank sirining oshkor etilmasligini kafolatlaydi.

Bank omonati shartnomasida qaytarib berishning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlari asosida omonatlar qo'yish ham (masalan, yutuqqa, bolalar uchun va hokazo) nazarda tutilishi mumkin.

Tayanch so'zlar: omonot, depozit, omonot shartnomasi, omonotni kafolatlash, kafolat, Fond, bank siri, fond majburiyatlari, bank haqi, agent

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. Bank omonati va kreditining iqtisodiyotdagi o'rnini tushintirib bering.
2. Bank omonati tushunchasini ayting.
3. Omonat saqlashning huquqiy asoslari qaysi qonunda berilgan.
4. Omonat shartnomasi tushunchasi va mazmunini aytib bering.
5. Omonat shartnomasi munosabatlari sub'ektlari kimlar bo'lishi mumkin?
6. Bank omonati operatsiyasini o'ziga xos xususiyatlari nimada?

7. Yuridik shaxslar tomonidan depozit hisob varaqlari va mablag'larini saqlash tartiblari qaysi qonun hujjatida o'ayd etilgan?
8. Fuqarolar omonatchi bo'lgan bank omonati shartnomasi qanday xarakterdagi shartnoma hisoblanadi?
9. Omonat shartnomasiga ko'ra tomonlar xuquq va burchlari qanday?
10. Omonat shartnomasi va deposit shartnomasining farqli va o'xshash tomonlarini tushuntiring.
11. Fuqarolar omonatlari bo'yicha risk yoki yoqotishlar bo'lishi mumkinmi? Agar risk yuzaga kelsa kim u bo'yicha javobgar hisoblanadi?
12. Omonat saqlashning huquqiy asoslari, shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari qaysi hujjatda ko'rsatiladi?

VIII BOB. Kredit munosabatlarini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari

1-§. Kredit munosabatlarining sub'ektlari va ular o'rtasida shartnomalarning zarurligi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditning asosiy turi bo'lib, bank krediti, ya'ni tijorat banklari tomonidan beriladigan har xil turdagi va ko'rinishdagi kreditlar hisoblanadi. Kredit munosabatlari yuzaga kelishi uchun uning obyektlari va subyektlari bo'lishi lozim. Kreditlarning turiga qarab kredit munosabatlarining ishtirokchilari, ya'ni kreditning obyekti yoki subyekti turli subyekt va obyektlar bo'lishi mumkin. Bank krediti sohasidagi kredit munosabatlarining subyekti bo'lib banklar xo'jalik subyektlari, aholi, davlat va boshqa subyektlar hisoblanishi mumkin. Ma'lumki, kreditlash jarayonida, bir tomondan, kredit beruvchi va ikkinchi, tomondan, qarz oluvchi o'rtasida kredit munosabatlari yuzaga keladi. Kreditorlar bo'lib, o'zining vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini ma'lum bir muddatga qarz oluvchi ixtiyoriga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadilar.

Qarz oluvchi – o'ziga tegishli bo'lmagan mablag'ni vaqtincha ishlatib, uni belgilangan muddatda qaytarib berish va u bo'yicha foiz to'lash majburiyatini oluvchi tomondir. Bank kreditiga kelsak, kredit munosabatlarining subyektlari bo'lib, albatta, kredit beruvchi bank va turli yuridik va jismoniy shaxslar esa qarzdor bo'lib hisoblanadilar. Kreditning bu turi asosan banklarning jalb qilingan mablag'lar bilan ishlashiga bog'liq. O'zida jalb qilingan mablag'larni ehtiyoji borlarga pul mablag'larini qayta taqsimlash orqali banklar kreditor sifatida faoliyat ko'rsatadi.

XX asrning 80-yillarida iqtisodiyotda qayta qurish jarayonlarining boshlanishiga qadar sobiq ittifoqda bank kreditini qarzga oluvchi bo'lib asosan xo'jalik yurituvchi korxonalar va tashkilotlar qatnashganlar, ammo xo'jalik organlari va banklar orasida bank krediti sohasidagi amalga oshirilgan munosabatlar aksariyat hollarda bir xil turdagi davlat mulkchiligiga asoslangan subyektlar o'rtasida bo'lgan.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi va bozor munosabatlarning shakllanishi bilan O‘zbekistonda kredit munosabatlari subyektlarining mavqeyi o‘zgardi. Bu vaziyat mulkchilik munosabatlarning chuqur o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Bank sohasidagi mulkchilik munosabatlari qo‘shimcha ravishda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solina boshlandi. Ishlab chiqarishni dekonstratsiyalash va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini joriy qilish, iqtisodiyotni demonopolizatsiyalash O‘zbekistonda qabul qilingan qonunlar asosida to‘g‘ri amalga oshirilishi:

birinchidan – xo‘jalik yurituvchi subyektlar va boshqa banklar sonining tez ko‘payishiga;


ikkinchidan – ularning ko‘pchiligida egalik qilayotgan davlat mulkchilik shaklini turli xil mulkchilik shakllariga o‘zgartirilishiga olib keldi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida xususiy, davlat, jamoa va kollektiv mulkchiligiga asoslangan korxonalar va tashkilotlar tuzilishi hamda faoliyat ko‘rsatishiga, aralash mulkchilikka asoslangan korxonalarining tashkil etilishi va faoliyat ko‘rsatishiga huquqiy asos yaratildi.

Ayniqsa, hukumat tomonidan xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag‘batlantirish, aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish, ularni xususiylashtirish va faoliyatini erkinlashtirish borasida qonunlar va qator me‘yoriy hujjatlarning qabul qilinishi kredit munosabatlari subyektlari ko‘lamining oshib borishini jadallash-tirmoqda.

Kreditlash obyekti – bu qarzga olingan summa va uning qaysi obyekt-tovar-moddiy boyliklar, xarajatlar va hokazolarga yo‘naltirilganligini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kreditlash tarkibini quyidagicha tasvirlash mumkin:



14-rasm. Kreditlash mexanizmi elementlari

Kredit subyekt, obyekt, ta'minoti, kreditlash metodlari va usullari, kredit monitoringini yuritish va boshqalar kredit mexanizmining asosiy elementlari hisoblanadi. Albatta, kredit mexanizmining mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud, lekin shu bilan birga, yuqorida keltirilgan elementlar kredit mexanizmining asosini tashkil etadi. Kredit munosabatlarini o'rnatishda mazkur elementlarning qaysi biridir muhim ahamiyatni o'zida mujassamlashtirishi va kreditorning qaror qabul qilishida hal qiluvchi omilga aylanishi mumkin. Masalan, obro'li va xalqaro bozorda o'z o'rniga ega bo'lgan kompaniya yoki firma, joriy faoliyatida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelib bank kreditiga murojaat etdi. Bunda bank iloji boricha unga kreditni berishga harakat qiladi, chunki bunday mijozni yo'qotish bank uchun foydali emas. Yana bir misol – korxonada kelajakda juda samarali va yuqori foyda keltiradigan, istiqbolli loyihani bankka taqdim etib, bu loyihani moliyalashtirishni so'rashi mumkin. Bank ushbu loyiha istiqboliga amin bo'lib, yuqori foyda olish maqsadida kredit berishi mumkin.

Bu ikkala misolda, birinchi holda, kreditlash subyektiga, ikkinchi holda, kreditlash obyektiga e'tibor berilmoqda. Bu hollarda kreditlash riskini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shuning uchun kreditlash jarayonida kredit mexanizmining yuqorida sanab o'tilgan bazaviy elementlarga umumlashgan holda e'tibor berish lozim.

Endi kreditlash subyektiga yana qaytadigan bo'lsak, qarz oluvchi bo'lib mulkchilik turidan qat'iy nazar, bank ishonchini qozongan, ma'lum moddiy va huquqiy kafolatlarga ega foiz to'lash va kreditni o'z vaqtida qaytarishga rozi bo'lgan subyektlar bo'lishi mumkin.

Kreditlash subyektlariga yanada aniqroq yondashadigan bo'lsak, ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- davlat korxonalar va tashkilotlari;
- xususiy mulkchilikka asoslangan korxonalar va tashkilotlar;
- kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari, kooperativlar;
- ishlab chiqarish subyektlari va savdo tashkilotlari;
- oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar, fermerlar, mikrofirmalar, birlashmalar;
- boshqa banklar;
- boshqa xo'jaliklar, xususan, hukumat korxonalar, qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Undan tashqari, qisqa muddatli kreditlarning yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat ko'rsatayotgan yakka tadbirkorlar ham olishlari mumkin. Yuqoridagi subyektlar kredit oluvchi sifatida faoliyat ko'rsatsa, tijorat banklari yoki boshqa kredit muassasalari kredit beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, banklar banklararo kreditlarda qarz oluvchi subyekt sifatida ham faoliyat ko'rsatadilar.

Tor ma'noda kreditlash obyekti, kredit (ssuda) aynan qaysi maqsad uchun berilsa, shu kredit obyekti hisoblanadi va kredit bitimi shu obyekt bo'yicha tuziladi. Amaliyotda qisqa muddatli kreditlar ishlab chiqarish zaxiralarining turli elementlari uchun beriladi. Sanoatda, masalan, banklar xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, zaxiralar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va boshqalarni kreditlaydi. Savdoda kreditlashning obyekti bo'lib, tovaroborotdagi tovarlar, xizmatlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida banklar dehqonchilik va chorvachilik xarajatlari; mineral o'g'itlar, yoqilg'i va boshqa xarajatlarni kreditlaydi. Umuman olganda, qisqa muddatli kreditlar quyidagi 3 ta asosiy obyektни kreditlashga yo'naltiriladi:

- tovar-moddiy boyliklar;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan mablag'lar.

Tovar moddiy boyliklari yuqori salmoqqa ega bo'lgan kreditlash obyekti hisoblanadi. Korxonaning tovar moddiy boyliklarini ishlab chiqarishga joriy qilish, sotish jarayonlarida, mavsumiy korxonalarda tovar moddiy boyliklarni rejadan tashqari qabul qilinganda, import mahsulotlari kelib tushganda, ularning transportirovkasi bilan bog'liq xarajatlarni, savdo va ta'minot tashkilotlarida normativdan yuqori tovar zaxiralari yuzaga kelganda kreditlarga murojaat etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarish bilan mablag'lar tushishi jarayoni bir-biriga mos kelmaganda, tugallanmagan ishlab chiqarish salmog'i oshib ketganda kelgusi davr xarajatlariga, ba'zi korxonalariga yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqarish va korxonani qayta ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni amalga oshirishda kreditlarga murojaat etiladi.⁵⁴

2-§. Kredit shartnomasi tushunchasi va uning asosiy belgilari. Kichik va xususiy biznes sub'ektlarini kredit bilan ta'minlash.

YUqorida ta'kidlanganidek, kredit munosabatlari vositasida turli manbalar hisobiga jamg'arilgan mablag'lar iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni hal etishga jalb etiladi va muayyan xalq xo'jaligi vazifalarini bajarishga imkon yaratiladi.

Kredit operatsiyalari tijorat banklari faoliyatida asosiy o'rinlardan birini egallaydi va bank uning vositasida yuridik hamda jismoniy shaxslarning omonatga jalb etilgan mablag'lari, o'z mablag'lari hamda tashkil etilgan maqsadli davlat

⁵⁴ Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank ishi T.: IQTOSOD-MOLIYA 2019 y.278-285 b.

mablagʻlari hisobiga tadbirkorlik subʻektlariga, fuqarolarga turli koʻrinishlardagi kreditlar berish, evaziga foizlar olish orqali tijorat faoliyatini amalga oshiradi.

Davlat oʻz iqtisodiy va ijtimoiy siyosati ustuvor yoʻnalishlarini amalga oshirish uchun muayyan tarmoqlarni qoʻllab - quvvatlash hamda ragʻbatlantirish bilan shugʻullanadi. Ana shunday qoʻllab-quvvatlash shakllaridan biri – tegishli soxani imtiyozli shartlarda tijorat banklari orqali kredit bilan taʼminlashdan iboratdir.

Ushbu yoʻnalishdagi davlat siyosatining xuquqiy asoslari Oʻzbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida»gi qonunida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 avgustdagi «Iqtisodiyotni kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 349-sonli, 2003 yil 4 fevraldagi «Pul-kredit koʻrsatkichlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 63-sonli, 2003 yil 23 dekabrda «Kichik tadbirkorlik subʻektlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish toʻgʻrisida»gi 563-sonli qarorida va boshqa normativ-xuquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2004 yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subʻektlariga barcha moliyalash manbalari hisobidan jami 354 mlrd. soʻm miqdorida kreditlar ajratilgan boʻlib, uning 249 mlrd. soʻmi yoki 70,3 foizi uzoq muddatli kreditlarni tashkil etdi. SHu hisobdan mamlakatda 81 mingta yangi ish oʻrinlari yaratildi.

Bugungi kunda (2019 yil 1 yanvar holatiga koʻra) respublikamizda 29 ta tijorat banki roʻyxatdan oʻtkazilgan boʻlib, ularning 5 tasi davlat banki, 13 tasi aksiyadorlik-tijorat banki, 5 tasi xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklar, 6 tasi esa xususiy banklardan iborat. 2011 yilda Oʻzbekistonda kredit uyushmalari faoliyati

to'ratildi va bugungi kunda respublikamizda kredit uyushmalar faoliyat olib bormaydi.

Kredit munosabatlarini amalga oshirishning asosiy huquqiy shakli kredit shartnomasi tuzishdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 744- moddasiga muvofiq:

«**Kredit shartnomasi** bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi taraf — (qarz oluvchi)ga shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi. Kredit shartnomasi bank amaliyotida bank ssudasi (qarzi) shartnomasi deb ham yuritiladi.

Bank krediti shartnomasi oddiy qarz shartnomasidan o'z sub'ektlari va ob'ektlari doirasi bilan farq qiladi. Eng avvalo, kredit shartnomasida qarz beruvchi bo'lib tegishli vakolatga (litsenziyaga) ega bo'lgan banklar va boshqa kredit tashkilotlari (masalan, jamg'armalar, sug'urta tashkilotlari)gina qatnasha olishi mumkinligi, ikkinchidan, bu shartnomaning krediti faqat pul (o'zbek so'mlaridagi yoki chet el valyutasidagi) mablag'larigina bo'lishi mumkinligi qayd etilmog'i lozim.

Kredit shartnomasi haq barobariga, qaytarilishi sharti bilan, oldindan kafolatlanish yo'li bilan, maqsadli shaklda tuziladi. U bir tomonlama, real tuziladi. Tomonlar kelishuviga ko'ra yoki qonunda bevosita ko'rsatilgan hollarda bu shartnoma tekin (foiz olinmasdan) tuzilishi ham mumkinligi qonunda ko'zda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 745-moddasiga ko'ra kredit shartnomasi yozma tuzilishi shart. ©zma shartnomaga rioya qilmaslik uning xaqiqiy bo'lmasligiga olib keladi. Ko'pchilik hollarda har ikkala tomon imzolaydigan yagona hujjat shaklidagi shartnoma tuziladi. Ammo ayrim hollarda qarz oluvchi bu xaqda yozma ariza va o'z iltimosini asoslovchi hujjatlar (texnik-iqtisodiy asoslar, biznes reja) bilan murojaat qilishi mumkin. Bank ariza va taqdim etgan xujjatlarni, kredit olish

shartlarini, qarz oluvchining to'lov qobiliyati, kredit olinayotgan loyiha tavakkalchiligi olinadigan foyda hajmi, kredit kafolatlari va boshqa holatlarni hisobga olgan holda kredit berish yoki iltimosni rad etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Ayrim tarmoqlar bo'yicha yoki ayrim ob'ektlar bo'yicha kredit bilan taminlashning o'ziga xos qoidalari alohida me'criy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Masalan, hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1999 yil 9 oktyabrda tasdiqlangan 330-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan uzoq va o'rta mudatli kredit bilan ta'minlashni tashkil etish qoidalari, «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermerlik xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa sub'ektlarini milliy va chet el valyutasida mikrokreditlash tartibi», 2000 yil 7 martda 907 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan. «O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalarni moliyalash va kredit bilan ta'minlash tartibi», «SHaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan kredit liniyasi ochilganida tijorat banklari tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarini kredit bilan ta'minlash tartibi», O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa bir qator manfaatdor vazirliklar xamda idoralar tomonidan 1998 yil 20 iyulda tasdiqdangan «Byudjetdan tashqari jamg'armalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit liniyalari ochish yo'li bilan kichik va o'rta biznes subektlarini kredit bilan ta'minlash tartibi» va boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1998 yil 22 avgustda «Banklarga lombard kredit berish tartibi to'g'risida nizom» tasdiqlangan.

Kredit berilish usullari, ular uchun olinadigan foiz haq miqdori va uning to'lanishi, kreditdan foydalanish tartibi, muddati kelgan kreditni qaytarish tartiblari o'z vaqtida qaytarilgan kredit uchun javobgarlik choralarini qo'llanilishi masalalari fuqarolik kodeksida, bank qonunchiligida va boshqa me'yoriy hujjatlarda hamda kredit shartnomasida belgilab qo'yilgan.

Bank krediti berilishi paytida uning qaytarilishini ta'minlash choralari (garov, ipoteka), uni qo'llash tartib va shakllari hamda oqibatlari ham amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan.

Ashyolarni kreditga berish va tijorat krediti (muayyan mahsulot yoki ish uchun pul to'lashni kechiktirib berishga oid masalalar) tegishli qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan.

Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi shu xaqdagi Nizom bilan belgilangan.

Ushbu Nizomga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor mikrofirma va kichik korxonalariga mikrokreditlar, dastlabki (start) kapitalini shakllantirish maqsadlari uchun kreditlar beriladi. Nizomda kredit berish shartlari, muddatlari, eng ko'p miqdorlari va berilish tartiblari batafsil belgilangan.

Fermer xo'jaliklariga bo'lg'usi hosilni garovga olgan holda, er uchastkasini garovga olgan holda kredit berish tartiblari joriy etilgan. Bunday shartlarda kredit berish tartiblari va olingan kreditni qaytarilish masalalari tegishli normativ xuquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan. Tijorat banklari o'z mijozlariga kredit berish yuzasidan tegishli kredit siyosatini ishlab chiqishlari hamda uni og'ishmay ro'yobga chiqarishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 22fevralda «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan. Mazkur «Nizom»da har bir tijorat banki tomonidan ishlab chiqiladigan kredit siyosatiga qo'yiladigan asosiy talablar ko'rsatib qo'yilgan. Kredit siyosati alohida hujjat sifatida ishlab chiqilishi va bank Kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim. Kredit siyosati haqidagi hujjatda bank muassasasi amalga oshiradigan kredit siyosatining mazmuni, maqsad va strategiyasi, kreditlarni to'planishi, to'lanishi, garov ta'minotiga qo'yiladigan talablar va boshqa zarur holatlar batafsil bayon etiladi.

3-§. Kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit shartnomaning xususiyatlari va ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banki va mijoz o'rtasidagi kredit munosabatlar kredit shartnomasiga asoslanadi. Shu bois bank tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashni tashkil etishning asosiy xususiyatlaridan biri – bu har bir kredit bitimining shartnomaviy xarakterga ega ekanligidadir.

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunning 31-moddasida banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlari shartnomalar asosida amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, amaliyotda banklar va mijozlar o'rtasidagi har bir kredit munosabati shartnomaviy xarakterga ega. Bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi kredit bitimining huquqiy-iqtisodiy shartlarini aniqlaydi va bu shartlar kredit munosabatlari ishtirokchilarining mavqeyidan qat'iy nazar o'zaro manfaatlarga asoslangan bo'ladi.

Kredit shartnomasi yuridik hujjat hisoblanib, uning barcha punktlari bajarilishi tomonlar uchun majburiydir. Bu O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Kredit shartnomasining mohiyati shundan iboratki, unga ko'ra bank (kreditor) shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida va unda belgilangan miqdorda qarz oluvchiga pul mablag'larini kreditga berish, qarz oluvchi esa kreditni va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida qaytarib berish majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasida tomonlarning nomlanishi, shartnomaning amal qilish muddati, kredit bitimining predmeti va shartlari, tomonlarning huquq va majburiyatlari, bu majburiyatlarni bajarilishining huquqiy kafolatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Kredit shartnomasi, odatda, yozma shaklda tuziladi va kerakli shaxslar tomonidan imzolanadi. Yozma shaklda tuzilmagan kredit shartnomasi haqiqiy hisoblanmaydi. Fuqarolik kodeksining 744-moddasiga asosan **kredit shartnomasiga** ko'ra, bir taraf – bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va

shartlar asosida pul mabalgʻlari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar toʻlash majburiyatini oladi.

Kredit shartnomasi:

-ikki taraflama shartnomadir, yaʼni har ikki taraf tegishli huquq va majburiyatlarga ega boʻladi;

-haq evaziga tuziladigan shartnomadir, yaʼni qarzdor kreditorga kredit olganligi uchun foiz, marja, komissiya koʻrinishida haq toʻlashi lozim;

-konsensual shartnomadir, yaʼni u kredit shartnomasi taraflar tomonidan imzolanishi bilanoq tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi, biroq berilgan kreditga foizlar shartnoma tuzilgan kundan emas, balki haqiqatda kredit mablagʻlaridan foydalanilgan davr uchun toʻlanadi;

-xoʻjalik shartnomasidir, chunki kredit shartnomasi asosan tadbirkorlik faoliyatiga mansub sohalarda tuziladi.

Kredit miqdori va uning qaytarilish muddati, foiz miqdori va uni toʻlash muddati, kreditning maqsadi va boshqalar kredit shartnomasining muhim shartlari hisoblanadi. Tijorat banki va mijoz oʻrtasidagi kredit munosabatlari kredit shartnomasiga asoslanadi. Rivojlangan davlatlar bank tizimida har qanday kredit munosabatlari unda ishtirok etuvchi tomonlarning mavqeyidan qatʼiy nazar oʻzaro manfaatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida quyidagi asosiy shartlar koʻrsatiladi:

Kreditning maqsadi.

Tijorat banki uchun kreditning qanday maqsadlarga soʻralayotganligi muhim hisoblanadi. Shartnomada kreditning qaysi maqsad uchun ishlatilishi koʻrsatiladi va bu korxonalarining biznes rejasida oʻz aksini topishi lozim. Biznes rejada koʻrsatilgan maqsad boʻyicha kredit summasi oʻtkazilib beriladi va korxonaning keyingi faoliyati ham bank tomonidan kreditning shartnomada koʻrsatilgan maqsadlarga yoʻnaltirilishi nazorat qilib boriladi.

Kredit summasi.

Kredit shartnomasida kreditning summasi mijozning garovga qoʻygan mulkining 120 foizi miqdorida yoki kafolatlangan summa miqdorida belgilanib

ko'rsatiladi. Tijorat banki mijoz arizasida ko'rsatilgan summani har tomonlama asoslab berishi kerak. Odatda, mijozlar o'z imkoniyatlarini maksimal darajada baholab keladilar. Tijorat banklari kerakli hollarda kreditlanayotgan obyektни to'la o'rganib chiqish uchun mutaxassislarni jalb qilishi mumkin.

Kreditning foiz stavkasi.

Hozirgi kunda ko'pgina tijorat banklari qayta moliyalash stavkasini va jalb qilgan resurslarining bahosini hisobga olgan holda o'zlarining kredit siyosatiga muvofiq mustaqil foiz stavkalarini o'rnatadi.

Kreditni qaytarish muddati.

Shartnomaga asosan kreditdan foydalanish muddati kelganda, kredit olgan korxonaga muddatida kreditni qaytarmasa, muddati o'tgan qarz hisob raqamiga chiqariladi. Har oyning birinchi kuniga har oy uchun olinadigan foiz summasini o'z vaqtida to'lab bormasa, muddati o'tgan foiz hisoblanib boriladi. Kredit uchun olinadigan foiz bir necha marta muddati o'tgan foiz hisob raqamiga chiqsa, bank kreditni muddatidan oldin yopishga farmoyish beradi. Barcha ssuda operatsiyalari shu hisob raqam orqali olib boriladi. Kredit summasi bankning o'z mablag'lari hisobidan vakillik hisob raqami orqali to'lab beriladi.

Respublikamizda qisqa muddatli kreditlash va, umuman, tijorat banklari tomonidan kredit berish "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan olib boriladi. Banklar tomonidan kredit berish kreditlashning asosiy tamoyillari kreditning maqsadlilik, kreditning ta'minlanganligi, muddatliligi, qaytarilishi, to'lovliligi asosida amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasi huquqiy jihatdan bir qator xususiyatlarga ega. O'zining huquqiy tabiatiga ko'ra kredit shartnomasi tomonlarning maqsadlarini va shu maqsadlarning amalga oshirishini birlashtiradi. Maqsad sifatida kredit shartnomasi bankning ma'lum shartlar asosida ssuda berish roziligi va qarz oluvchining uni ma'lum davrdan so'ng qaytarib berishga tayyorligini aks ettiradi. Maqsadlarning bajarilishi sifatida kredit shartnomasi ssuda berish va to'lash bo'yicha aniq harakatni ko'zda tutadi. Mijozning ssudani qaytarish bo'yicha majburiyatlari shartnomani imzolashdan oldin amalga oshirilgan bo'lsa ham, faqatgina ssuda

olingandan so‘ng paydo bo‘ladi. Kredit shartnomasi, shuningdek, kredit bitimining iqtisodiy shartlarini tartibga soladi. U bir tomondan mijoz talabining to‘laroq hisobini, ikkinchi tomondan esa bankni kredit riskidan saqlashning muvofiq mexanizmini ta‘minlab beradi.

Kredit shartnomasi qarz shartnomasining bir turi hisoblansada, u qarz shartnomasidan farq qiladi. Bu farqni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

9-jadval

Kredit shartnomasi va qarz shartnomasining farqli jihatlari

Kredit shartnomasi (Fuqarolik kodeksining 744-748-moddalari)	Qarz shartnomasi (Fuqarolik kodeksining 732-743-moddalari)
Asosan banklar, boshqa kredit tashkilotlari kredit berishi mumkin	Barcha jismoniy va yuridik shaxslar boshqa shaxslarga qarz berishi mumkin
Bankdan kredit sifatida faqat pul mablag‘lari beriladi	Qarz sifatida esa pul mablag‘lari va boshqa ashyolar berilishi mumkin
Doimo yozma shaklda tuzilishi kerak	Ba‘zi hollarda qarz shartnomasi og‘zaki shaklda ham tuzilishi mumkin
Kredit shartnomasi konsensual shartnomadir	Qarz shartnomasi real shartnomadir, ya‘ni u pul yoki ashyolar qarz oluvchiga topshirilishi bilan tuzilgan hisoblanadi
Kreditor tomonidan qarz oluvchiga, hatto shartnoma tuzilgandan keyin ham kredit summasi butunlay yoki qisman berilmasligi mumkin	Qarz beruvchi qarz oluvchiga qarz summasini berishdan bosh tortishga haqli emas, chunki qarz summasi berilmagan taqdirda, qarz shartnomasi tuzilmagan bo‘lib qoladi

Bank bilan mijoz o‘rtasida kredit shartnomasini tuzishda barcha shartnomalar uchun zarur bo‘lgan quyidagi asosiy talablar inobatga olinsa, maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin:

-barcha huquq va manfaatlarni to‘liq himoya qilish imkonini beruvchi, barcha holat va vaziyatlar uchun to‘g‘ri keluvchi **universal shartnomalar shakli mavjud emas**. Barcha holat va vaziyatlarni o‘z ichiga qamrab oladigan shartnoma shaklini ishlab chiqishning imkoni yo‘q;

- shartnoma (bizning holatda kredit shartnomasi) **individual** xarakterga ega bo'lgan rasmiy yuridik hujjatdir;

- aniq kredit shartnomasini tuzishda, kredit olish uchun murojaat qilgan mijozlarga alohida (individual tarzda) yondashib, ularning huquqiy maqomi, tashkiliy-huquqiy shakli va kreditlanayotgan loyihaning xususiyatiga e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shartnoma tuzish jarayoniga yuridik va iqtisodiy jihatdan puxta, aniq, talab darajasida ijodiy yondashish kerak.

Kredit shartnomasi tarkibi qonunda belgilanmagan. Kredit shartnomasini tuzishda bir qancha talablarni, jumladan, kreditning maqsadi, summasi, muddati, ta'minlanganligi, foizlari, kreditni qoplash tartibi va boshqalar aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Kredit shartnomasining tarkibi odatda quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- kirish qism - umumiy holat – shartnoma predmeti – kredit berish maqsadi, shartlari - hisoblanish shartlari va tarkibi – tomonlarning huquq va majburiyatlari – boshqa shartlari – yuridik manzillari, rekvizitlari, tomonlar imzolari.

Har bir kredit shartnomasi shakliga ko'ra quyidagi to'rtta asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- mustahkam huquqiy asos;
- shartnoma tuzish erkinligi;
- tomonlarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma shartlarining kelishilganligi.

Kredit shartnomasining huquqiy asosini qonunlar, bank faoliyatiga oid boshqa yuridik va me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Kredit shartnomasini tuzish erkinligi mijozni ssuda olmoqchi bo'lgan bankni tanlash erkinligida va bankning shu mijozga kredit berish masalasini yechish erkinligida o'z aksini topadi. Ikkala tomon shartnomaviy munosabatlarga o'z xohishlariga ko'ra kiradilar. Tomonlarning bir-biridan o'zaro manfaatdorligi kredit

shartnomasi shartlarini kelishish imkoniyatini bildiradi. Har bir tomon ham o'z manfaatlarini qondiruvchi optimal variantni topishga harakat qiladi.

Kredit shartnomasi tarkibini shakllantirishda, muhim va yordamchi shartlarning bor ekanligiga ahamiyat berish kerak. Muhim shartlar deganda, biz kredit shartnomasini tuzish imkoniyatini aniqlovchi shartlarni tushunamiz. Ularga tomonlarning nomi, shartnoma muddati, predmeti va summasi, ssudani berish va qaytarish tartibi, ssudadan foydalanish bahosining darajasi, kredit qaytarilishning ta'minlanganligi, tomonlarning javobgarligi kiradi.

Qo'shimcha shartlar kredit qaytarilishini ta'minlashga, qo'shimcha garovni yaratishga qaratilgan bo'ladi. Ular aniq bir qarzdorlar uchun qo'llaniladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- qarzdorning aniq bir kreditga layoqatlilik darajasiga erishish majburiyati;
- hisob va hisobotning zaruriy holati;
- garovga qo'yilgan mulkning saqlanganligi;
- bank nazorat qoidalariga rioya qilishlik;
- bank ruxsatisiz korxonani qayta tashkil etishning ta'qiqlanganligi v.b.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni hisobga olgan holda, kredit shartnomasining umumiy sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- shartnoma maqsadi;
- bank huquqlari;
- qarz oluvchining huquqlari;
- bank majburiyatlari;
- qarz oluvchining majburiyatlari;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- boshqa shartlar;
- tomonlarning yuridik manzili va imzolari.

Shartnoma boshlanishida ishtirokchilarning yuridik shaxs sifatidagi rekvizitlari: qarz oluvchi uchun – nomi, hisob-kitob varag'i raqami; bank uchun

esa uning nomlanishi, ular tomonidan ish ko'ruvchi shaxslar mansabi, ismi, familiyasi, otasining ismi ko'rsatiladi. Bu bo'limda, shuningdek, mijozning huquqiy shaklini: u alohida korxonami yoki tashkilotmi (shirkat, korporatsiya) ko'rsatishi kerak.

-“Shartnoma maqsadi” bo'limi kredit bitimi obyektining sifat va miqdor tavsifini aks ettiradi.

Kredit bitimi obyektining sifat tavsifi ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Shularga ko'ra kredit turi quyidagicha tavsiflanadi:

Maqsadiga ko'ra kredit:

- kundalik ishlab chiqarish talablarini;
- savdo-vositachilik ehtiyojlarini;
- investitsiya ehtiyojlarini;
- iste'mol ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi.

Iqtisodiy tarkibiga ko'ra kredit:

- to'lovga mablag' yetishmasligi;
- tovar-moddiy boyliklarini shakllantirish;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- ishlab chiqarish xarajatlari;
- ko'chmas mulk sotib olish va boshqalar uchun berilgan kreditlar.

Obyekt umumlashuviga ko'ra kredit:

- yiriklashgan;
- jamlangan (yig'ma);
- alohida ehtiyojga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Shartnoma maqsadi bo'limida kredit bitimi obyektini, shuningdek, kredit summasi ko'rsatiladi. U kreditlashning miqdoriy chegarasini xarakterlaydi. Kredit agarda kredit liniyasi ochish tartibida berilayotgan bo'lsa, uning darajasi oylarga bo'lingan holda ko'rsatiladi.

Ikkinchi bo'lim ssudani berish va qaytarish tartibi va u bo'yicha bank huquqlarini o'z ichiga oladi. Yiriklashgan yoki jamlangan obyektini kreditlash sistematik tarzda amalga oshiriladi va shuning uchun kredit berish ayni to'lovlar

amalga oshirilayotgan paytda hisob-kitob varag'idan o'tmagan holda bajariladi. Kreditni qaytarish ham xuddi shunday sistematik tarzda hisob-kitob varag'idan tomonlarni kelishilgan muddatlarida amalga oshiriladi. Kredit shartnomasida bankning quyidagi huquqlari belgilanadi:

- qarz oluvchidan kreditni ishlatishini nazorat qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan buxgalteriya va statistika hisobotlarini olish;

- berilgan kreditlar uchun foizlar olish;

- shartnoma shartlariga amal qilinmagan hollarda shartnomani bekor qilib, kredit berishni qisman yoki to'liq to'xtatish va berilgan kreditlarning muddatidan oldin foizlari bilan undirib olish;

- qayta moliyalash foizi o'zgargan holda kredit uchun foizlarni o'zgartirish;

- shartnoma muddatini uzaytirish sabablarini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish;

- shartnomada ko'rsatilgan boshqa huquqlar;

- kredit bo'yicha qarzдорlik jadval bo'yicha muddati o'tgan qarzдорlikka o'tkazilgandan so'ng mijozning hisob raqamiga pul mablag'i bo'lganda va kelib tushgan holatda kreditning asosiy summasini qaytarish maqsadida mijozning roziligisiz uning hisob raqamidan chegirib olish hisoblanadi. Bu holda bank qarz oluvchiga hisob raqamidagi mablag'lar kredit bo'yicha qarzni qondirishga qaratilishi to'g'risida yozma xabar beradi. Qarz oluvchining hisob raqamida mablag'i bo'lganda va mablag' kelib tushgan holda bank tomonidan kredit bo'yicha qarzдорlik mijozning roziligisiz memorial order bilan chegirib olinishi amalga oshiriladi;

- qarzdorning pul mablag'lari yetishmagan taqdirda kredit bo'yicha qarzlarni qarzdorning roziligiga ko'ra, uning likvidli mol-mulki hisobidan yoki xo'jalik sudi orqali qarzdorning mol-mulkiga qaratish yo'li bilan undirishdan iborat.

Qarz oluvchi to'lovga qobiliyatsiz deb belgilanganda, biznes-rejada ko'rsatilgan pul oqimlari tushumi muddatida ta'minlamay bank oldida qarzдорliklarni yuzaga keltirganda, u tomonidan kreditning ta'minlanishi bo'yicha majburiyatlari bajarilmaganda, kreditning asosiy qarzi yoki unga tegishli foiz

to'lovlar ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lanmaganda, qarz oluvchi tomonidan kreditning ishlatilishi majburiyatlari buzilganda, qarz oluvchi tomonidan hisobotlar muntazam taqdim etilmaganda yoki ular aniq bo'lmaganda, bank xodimlariga birlamchi hisobotlar va buxgalterlik hujjatlarini o'rganishga ruxsat berilmaganda, kafil tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tashkilotning tugatilishi yoki bankrot bo'lishi holati kelib qolganda, garovga olingan mulk saqlash holati talabga javob bermagan hollarda bank quyidagi huquqlarga ega:

- ushbu kredit shartnomasida qayd etilgan kreditni qarz oluvchiga to'liq yoki qisman berishni rad etishi;

- berilgan kredit va u bo'yicha foiz to'lovlarini muddatidan oldin undirish, shu jumladan, ushbu shartnomada belgilangan kredit ta'minoti hisobidan undirish;

- ta'minot turini boshqa likvid turiga almashtirilishini talab qilishi mumkin.

Alohida obyektlarni kreditlash esa o'zgacha mexanizmga ega bo'lib, u kredit shartnomasida belgilangan bo'lishi kerak. Masalan, kreditni berish va qaytarish to'liq summada yoki qismlarga bo'lib bajarilishi mumkin. Muvofiq tarzda kredit berish va qaytarishning summa va muddatlari ko'rsatilishi kerak. Ssudani berish mablag'lari to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarni bajarishga yo'naltirish yo'li bilan, shuningdek, mablag'larni hisob-kitob qilish varag'iga o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holatda ssudaning maqsadli yo'naltirilganligini ta'minlovchi mexanizm bo'lishi kerak. U o'z ichiga: a) mijozning ssudaning maqsadli yo'naltirilganligiga rioya etish majburiyati; b) berilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi ustidan bank nazorati shaklini oladi. Kredit shartnomasining 3-bo'limida qarz oluvchining huquqlari ko'rsatiladi.

Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va muddatda kreditni olish;
- shartnomaga asosan yoki kreditor qarshi bo'lmasa, kreditni muddatidan oldin qaytarish;

- shartnomaga amal qilinmasa kredit shartnomasini bekor qilish;

- kredit shartnomasi muddatini uzaytirish va qayta moliyalash stavkasiga asosan kredit foizini o'zgartirishni talab qilish;

- kredit shartnomasida ko'rsatilgan boshqa huquqlar.

Kredit shartnomasining 4-bo'limida bankning majburiyatlari aks etadi. Bank majburiyatlarida mijozga ssuda varag'ini ochish, ssudalarni kerakli summa, ko'rinish va aniq muddatlarda berishni kiritish mumkin.

Bank majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o'z vaqtida kreditni berish va pul hisob hujjatlari bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish;

- kredit shartnomasiga binoan kreditlarga foiz hisoblash;

- kreditni va unga foizlarni muddatidan oldin undirish hollarida qarzdorga ma'lumot berish;

- normativ hujjatlarning o'zgarishi to'g'risida mijozni xabardor qilib turish;

- shartnomada ko'rsatilgan boshqa majburiyatlar.

Bu majburiyatlarni bajarmaganda, bank mijozga jarima to'lashi ko'zda tutilgan bo'ladi (odatda, har bir kechiktirilgan kun uchun 0,01 foiz miqdorida). Shuningdek, bank kredit berishni to'liq yoki qisman to'xtatib qo'yish huquqiga egadir. Agar qarz oluvchi uni qaytara olmasligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lsa, berilgan kredit bank tomonidan muddatidan ilgari undirilishining sabablari to'g'risida qarz oluvchiga yozma xabar beradi. Qarz oluvchining hisobvarag'iga mablag' kelib tushgan sana inobatga olingan holda berilgan kreditlar bo'yicha kunlik foiz to'lovlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash bo'yicha kiritiladigan o'zgarishlar bo'yicha qarz oluvchiga xabar berish v.b.

5-bo'lim mijozning majburiyatlariga bag'ishlanib, bu bo'limda quyidagi mijozlar kredit va foizlarining o'z vaqtidaligi to'liq ko'rsatilgan, qaytarilishiga yo'naltirilgan kreditlarning maqsadsiz ishlatilishi aniqlangan hollarda, maqsadsiz ishlatilgan summaning 25 foizi miqdorida jarima to'lash va ushbu shartnomaning 1-bandida ko'rsatilgan kredit summasining to'liq qaytarilishini;

qarz oluvchi korxonalar rahbari investitsiya loyihalarini (biznes-reja) texnik-iqtisodiy asoslanganligi, axborotning o'z vaqtida taqdim etilishi va ishonchligi, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslash parametrlarini va biznes-rejalarni amalga oshirilishi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javob berishi, biznes-reja bo'yicha ko'zda tutilgan pul oqimlarini grafik bo'yicha tushishini ta'minlashi;

bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklar sug'urta idoralarida sug'urtalangan va kredit shartnomasi yuridik kuchga ega bo'lishi uchun harakatdagi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan notarial idoralarda tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi shart.

Bankka garovga berilayotgan ko'chmas mulk va moddiy boyliklarning yaxlitligini saqlash yuzasidan to'liq moddiy javobgar bo'lishi (kredit va unga hisoblangan foiz to'lovlar to'liq to'langunga qadar), ularni sotib yubormasligi va boshqa uchinchi shaxsga bermasligi shart. Kafolatchi tashkilotning moliyaviy holati yomonlashganda, tugatilishi yoki bankrotlik holatiga kelib qolish holatlari ro'y berganda, kredit ta'minotiga berilgan mulk holati yomonlashganda, bank talabiga binoan olingan kredit va foizlarni muddatidan oldin uzish yoki ta'minotini boshqa likvid ta'minotga almashtirish ko'zda tutilishi mumkin.

Kredit uchun foiz to'lovlar har oyning 20 sanasigacha to'lanadi.

Qarz oluvchi bankka quyidagilarni taqdim etadi:

- qarzlarning yuzaga kelish sanalari ko'rsatilgan debitor va kreditor qarzdorligi bo'yicha yoyilmasi ilova qilingan yillik va chorak balanslari;
- muddati o'tgan qarzlarni bo'yicha solishtirma dalolatnomalar va bank nazorat funksiyasi uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

Birlamchi hisobotlar va buxgalterlik hujjatlariga ruxsat berilishi va bank talabiga ko'ra qarz oluvchi tegishli hujjatlardan zarurlarining nusxasi taqdim etilishi. Kreditning maqsadli ishlatilishi yuzasidan bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazilishiga ruxsat berilishi, shuningdek, kreditning ishlatilishini joyiga chiqib tekshirish uchun ruxsat berilishidir. Ushbu kredit shartnomasi bilan huquqiy jihatdan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy boyliklarining saqlanishi holati bo'yicha bank xodimlari tomonidan tekshiruv o'tkazishga ruxsat berilishi, agar kredit

sug'urtalangan bo'lsa, har yil uchun sug'urta to'lovlarining o'z vaqtida to'lab borilishi, har yil uchun alohida kafil tashkilot moliyaviy holati to'g'risida yozma ma'lumot taqdim etish kabilar bo'lishi lozim.

Shuning uchun mijozning majburiyatlari to'g'ridan-to'g'ri kreditning tamoyillari, qoidalari va shartlariga amal qilishga bog'liqdir. Mijoz majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- kreditdan belgilangan maqsadlarda foydalanishni ta'minlash;
- o'z vaqtida foizlarni to'lash va kreditni qaytarish;
- to'lovga layoqatliligi to'g'risida bankka ma'lumot berib turish;
- kreditni ta'minlash;
- berilgan kredit bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni yechish uchun birlamchi buxgalteriya hisobotlari va hujjatlarini kerakli paytda kredit bo'limiga taqdim etish;
- 3-shaxsdan kredit olish to'g'risida bankni xabardor qilish;
- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarishi hollarida bankni xabardor qilish;
- likvidatsiya paytida zudlik bilan kreditni (foizlari bilan) qaytarish;
- shartnomaga binoan boshqa majburiyatlar.

Kredit shartnomasining 5-bo'limida kredit qaytarilishini ta'minlovchi aniq usullari ko'rsatiladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin:

- a) garovga qo'yilgan tovar-moddiy boyliklar;
- b) bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;
- d) uchinchi shaxsning kafilligi;
- e) sug'urta polisi.

Yuqorida keltirilgan kredit qaytarilishining kafolatini ta'minlovchi usullar kreditning barcha turlarida, qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini hisobga olgan holda ishlatiladi. Ular mijozga ishonch yetarli bo'lmaganda, ssudani pul tushumlari hisobiga qaytarishning yuqori riski mavjud bo'lganida qo'llaniladi.

5-bo'limda kreditdan foydalanganlik uchun bankka to'lanadigan foizlar darajasi aks etadi. Bu bo'limda quyidagi hollardagi foiz stavkasini belgilash, qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- a) shartnomada ko'rsatilgan ssudadan foydalanish muddati davomida;
- b) ssuda prolongatsiya qilinganda;
- d) ssuda to'lashni kechiktirganda;
- e) mijozning kreditga layoqatliligining yomonlashganida yoki bitimning kredit riskini ko'paytiruvchi boshqa omillarning paydo bo'lishida.

Bundan tashqari kredit shartnomasida kreditga foiz hisoblash va uni undirish muddatlari ko'rsatilishi zarur. Inflyatsiya sharoitida kredit shartnomasining yana bir punktida boshlang'ich o'rnatilgan foiz stavkalarining inflyatsiya o'sish darajalariga bog'liq holda o'zgartirish tartibi berilgan bo'ladi. Foiz stavkasini qayta ko'rib chiqishga asos bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda kredit shartnomasida tomonlarning javobgarligi 6-bo'limda tomonlar olgan majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganda, O'zbekiston Respublikasi qonunlari oldida javobgar ekanligi haqida sanksiyalar berilgan bo'ladi. "Shartnomaning qo'shimcha shartlari" degan bo'limda oldingi bo'limlarda ko'rsatilmagan boshqa shartlar belgilanadi. Ularga agar mijoz bu bankda hisob-kitob varag'iga ega bo'lmasa, summa va muddati ko'rsatilgan majburiy muddatli depozit ochish; kreditlash yoki kredit liniyasi limitining boshlang'ich o'rnatilgan summasini o'zgartirish tartibi; kredit shartnomasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini kiritish mumkin.

"Kelishmovchiliklarni hal qilish" bo'limida quyidagilarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) tomonlar o'rtasida shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilish;

b) o‘zaro kelishuv bilan hal qilish mumkin bo‘lmagan kelishmovchiliklarni O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan respublika xo‘jalik sudida hal qilish.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit shartnomasining yana bir bo‘limi shartnomaning amal qilish muddati bo‘lib, unda kredit shartnomasining amal qilish muddatini, ya’ni uning boshlanishi va oxirini belgilaydi.

Shartnomada, shuningdek, tomonlarning yuridik manzili (pochta manzili, hisob-kitob yoki vakillik hisoblari, telefon (faks) hamda muhrlar bilan tasdiqlangan imzolar aks etadi⁵⁵.

4-§. Kredit berishga oid hujjatlarni rasmiylashtirish. Kreditlashga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.

Kredit shartnomasining qonun hujjatlariga to‘la mos tarzda to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uning qaytarilishini, bank manfaatlari buzilmasligi uchun zarur huquqiy baza yaratilishiga, bank mijozlari huquqlari ishonchli muxofaza etilishiga sabab bo‘ladi.

Kredit munosabatlari asosi sifatida kredit shartnomasiga qo‘yiladigan asosiy talablar fuqarolik qonunchili- gida va uning asosida qabul qilingan boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2000 yil 22 fevralda tasdiqlangan 432-sonli «O‘zbekiston Respublikasi banklarida kredit xujjatlarini yuritish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 2 martida 906-son bilan ro‘yxatga olingan) mavjud.

Ushbu nizomda Respublikadagi barcha tijorat banklari tomonidan o‘z mijozlariga beriladigan kreditlar va ularda ochilayotgan kredit liniyalariga nisbatan qo‘llaniladi. Kredit bank tomonidan kredit shartnomasi asosida pul shaklida beriladi (mijozning hisobvarag‘iga o‘tkaziladi).

⁵⁵ Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi T.: IQTOSOD-MOLIYA 2019 y.312-317 b.

Bank har bir berilgan kredit bo'yicha kredit yig'majildini tayyorlaydi, u kredit shartnomasi imzolangan yoki tasdiqlangan kundan boshlab ochiladi hamda mazkur Nizomda ko'zda tutilgan hollardan tashqari asosiy qarz va foizlar to'liq to'langanidan so'ng yopiladi.

Kredit yig'majildi hujjatlari muhofazasi va vakolatligini ta'minlash majburiyati yuklatilgan bank xodimi kredit yig'majildini yuritish va saqlash uchun mas'uldir.

qabul qilingan buxgalterlik andozalariga muvofiq tayyorlangan, oxirgi hisobot sanasida qarzdor tomonidan imzolangan, moliyaviy hisobotlar, jumladan, balans hisoboti hamda daromadlar va pul oqimiga doir hisobotlar; zarurat tug'ilganda qarz oluvchining hisobotlari bank va bankning maslahat bo'limining mas'ul kredit xodimi hamkorligida talab qilinayotgan formatga muvofiq keltirilishi shart;

Mas'ul bank xodimi tomonidan tayyorlangan, kreditni to'lash uchun qarzdorning pul oqimi etarligini tasdiqlovchi pul oqimi to'g'risidagi hisobot tahlili;

Bank kredit qo'mitasining kredit tasdiqlangan muddat va shartlarini o'z ichiga oluvchi kredit shartnomasini tasdiqlashga doir qarori.

Agar kredit ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlangan bo'lsa, unda kredit yig'majildida qo'shimcha ravishda quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

Ipoteka to'g'risida tuzilgan shartnomaning asl nusxasi;

Garovga beruvchi va bank tomonidan imzolangan, garov ob'ekti qiymatini kelishuv dalolatnomasi;

Garovga qo'yilgan mulkni sug'urga qilish shartnomasi va ushbu shartnoma bo'yicha sug'urta polisi;

Garov shartnomasining davlat kadastr idoralarida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma yoki davlat kadastr idoralarida garov shartnomasining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi, belgilangan shaklda garov shartnomasiga qo'yilgan belgi;

Garov predmetini sotish narxini tasdiqlovchi hujjatlar, agar kredit, uni sotib olishni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa.

Agar kredit ko'chmas mulkni qurish, ta'mirlash va tiklashni moliyalash maqsadida berilgan bo'lsa, bank kredit yig'majildiga smeta hujjatlarini, shuningdek, bank tomonidan tayyorlangan tekshirish to'g'risidagi hisobotni yoki kredit berilgan ishlar bajarilishligini tasdiqlovchi qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani kiritishi lozim.

Agar kredit boshqa shaxs tomonidan kafolatlansa, kredit yig'majildiga quyidagi qo'shimcha hujjatlar kiritiladi:

- kafillik to'g'risidagi shartnoma yoki yozma kafolat;
- auditorlik tashkiloti yoki auditorning kafolatchiniig (kafil) qoniqarli moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi xulosasi;
- shaxsning kafil nomidan (kafolatchi) kafolat to'g'risidagi shartnomani (majburiyatni) imzolash xuquqini tasdiqlovchi hujjat.

Kreditni berishga doir bank bilan tuzilgan shartnomaga, jumladan, garov to'g'risidagi shartnomaga kiritiladigan, o'zgartirish va qo'shimchalar ushbu shartnomalar shartlariga muvofiq rasmiylashtirilishi va tegishli yig'majildlarga kiritilishi lozim.

Kredit to'liq yoki qisman to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar kredit yig'majildiga kiritilishi na kreditni to'lash manbalarini (qarzdor tomonidan o'tkazilgan yoki garov ob'ektini sotishdan olingan mablag'lar) aks ettirishi zarur.

qarzdorning o'zgarishi dastlabki qarzdor tomonidan o'z qarzini boshqa shaxs — yangi qarzdorga berish to'g'risidagi shartnoma, shuningdek, kredit shartnomasiga kiritiladigan tegishli to'ldirishlar yordamida rasmiylashtiriladi.

qarzdor o'zgargan kreditga doir asosiy xujjaglar quyidagi hujjatlarni o'z ichiga olishi lozim:

- qarzdor va mo'ljallanayotgan yangi qarzdorning bank tomonidan qarzni o'tkazishga rozilik berishini surab yozgan arizalari;
- Yangi qarzdorga nisbatan tayyorlangan asosiy hujjatlar, ular qarzni o'tkazish to'g'risidagi bank roziligi, qarzdor o'zgarishi munosabati bilan kredit shartnomasiga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarga oid hujjatlarga nisbatan qo'llaniladi;
- bankning qarzni o'tkazish yuzasidan bergan yozma roziligi, dastlabki va yangi qarzdor o'rtasida tuzilgan yozma shartnoma;
- kredit shartnomasiga yozma tarzda kiritilgan va yangi qarzdor tomonidan imzolangan o'zgartirish va to'ldirishlar.

Bank qarzni o'tkazish yuzasidan o'z roziligini berishga asos bo'lgan, yangi qarzdor bergan ta'minot shartlariga qarab yangi qarzdorga ochilgan kredit yig'majildiga tegishli qo'shimcha hujjatlar kiritib qo'yilishi lozim.

qarzdor kreditni to'lamagan taqdirda, kafil bank javobgarlikni o'z zimmasiga olishi haqida kreditorga yozma ravishda xabar berilgan holda kafolat berishga doir yozma shartnomada bank tomonidan kafillik va kafolatlar berilishi mumkin.

qarzdor kreditni to'lamaganligi sababli bank tomonidan amalga oshirilgan kafolatlar bo'yicha yig'majildi ochiladi. U kafolat berilgan shaxs tomonidan qarz to'langunga qadar yuritiladi.

Bank tomonidan kafil sifatida majburiyatlarning bajarilishi munosabati bilan ochilgan kredit yig'majildlari mazkur nizomda ko'zda tutilgan talablarga muvofiq kafolat berish to'g'risidagi shartnomani tuzish uchun tayyorlangan xujjatlarni o'z ichiga oladi.

qarzdorning o'ziga kafolat berayotgan bank oldidagi majburiyatlari ta'minlangan taqdirda ushbu kafolatga doir kredit yig'majildi tayyorlangan hujjatlarni qamrab olishi kerak.

Bank har bir berilayotgan yoki olinayotgan kreditlar bo'yicha yig'majildga quyidagi hujjatlarni tikib qo'yishi lozim:

- qarzdorning moliyaviy ahvoli va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyatini tekshirish maqsadida tegishli shartnomalar tuzilganidan so'ng bank va qarzdor o'rtasida yuz bergan muomalalarni aks ettiruvchi yozishmalar va hujjatlar;
- kredit ta'minoti sifatida berilgan mulkni tekshirish hujjatlari;
- qarzdor kafilining (kafolatchi) moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi barcha hujjatlar;
- kreditlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishini tasdiqlovchi hujjatlar;
- qarzdor to'lovlarni amalga oshirmagan holda bank tomonidan ko'rilgan chora-tadbirlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Kreditga doir xizmat ko'rsatuvchi bank o'tkazish to'g'risidagi shartnoma shartlariga muvofiq kreditning o'z vaqtida va to'liq to'lanishini aks ettiruvchi hujjatlarni kredit yig'majildida yuritishi shart.

Tijorat banklari tomonidan kredit hujjatlarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va talablariga qat'iy amal qilinishi kreditlar qaytarilishining hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini nazorat qilishning muhim shartlaridan bo'lib sanaladi.

Kreditlash va kredit shartnomasi tuzish hamda uni bajarilishiga oid qonunchilik normalari, o'zaro tuzilgan kredit shartnomasi shartlarini buzganlik uchun xuquqiy hamda moliyaviy (iqtisodiy) javobgarlik yuz beradi. Bunda kreditga oid munosabatlarda huquqbuzarlik hatti-xarakatiga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan va javobgarlikka tortiladigan shaxslar doirasini to'g'ri belgilab olinishi muhim ahamiyatga ega.

Bizning nazarimizda bunday shaxslar jumlasiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- a) tijorat bank muassasasi;
- b) bank xodimlari (rahbar va mansabdor shaxslar);
- c) kredit olgan mijozlar (tadbirkorlik sub'ektlari, ayrim fuqarolar);
- d) tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan korxonalar va tashkilot mansabdor shaxslari.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunining 30-moddasiga ko'ra: «Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari kredit resurslaridan erkin foydalanishda teng xuquqlarga ega.

Byudjetdan tashqari fondlar mablag'laridan tadbirkorlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga ajratiladigan kreditlardan foydalanganlik uchun davlat tomonidan imtiyozli foiz stavkalari belgilanishi mumkin». Tadbirkorlik sub'ektlarining ushbu huquqlarini buzgan yoki ularni amalga oshirilishiga to'sqinlik qilgan banklar va ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 38-moddasida tadbirkorlik sub'ektlariga g'ayriqonuniy hatti-harakatlar bilan etkazilgan moddiy va ma'naviy zarar o'rni aybdor shaxslardan, shu jumladan bank muassasalari va ularning mansabdor shaxslaridan undirib beriladi.

Banklarning mansabdor shaxslari tomonidan g'arazli maqsadlarda mansabni suiste'mol qilish, ta'magirlik qilish tegishli hollarda jinoiy javobgarlikni yuz berishiga olib kelishi mumkin. Banklar tomonidan kreditga oid munosabatlarda sansalorlikka yo'l qo'yish, kredit shartnomasida tuzishdan asossiz bosh tortish, pul mablag'larini o'z vaqtida tadbirkorlik sub'ektiga ajratmaslik, kredit hujjatlarini yuritish qoidalarini buzish kabi shakllarda huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkin.

Kreditga oid munosabatlarda bank mijozlari – kredit oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan shartnoma shartlarini bajarmaslik, sohta hujjatlar va

ishonchli bo'lmagan axborotlar taqdim qilish, kreditni qaytarish rejasi va jadvaliga rioya qilmaslik, uni o'z vaqtida qaytarmaslik ko'rinishlarida huquqbuzarliklar sodir etiladi. Ko'pchilik hollarda bank mijozi-kredit olgan xo'jalik sub'ekti xo'jalik sudi orqali fuqarolik huquqiy-mulkiy javobgarlikka tortiladi. Ammo, korxonalar rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslarning mulkiy hamda g'arazli jinoyatlar sodir etganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortilish hollari uchrab turadi.

5-§. Bir qarzdor yoki bir-biriga daxldor qarzdorlar guruhi uchun risk darajasining eng ko'p miqdorlari

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 26 - moddasiga asosan bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bankka bog'liq bo'lmagan shaxslarga nisbatan qulayroq shartlar asosida bitim tuzishni ta'qiqlaydi va Markaziy bankka bunday bitimlar bo'yicha cheklashlar belgilash yuzasidan vakolatlar berilgan. Bankning asosiy aksiyadorlari, uning rahbarlari, xodimlari va ular bilan bog'liq shaxslar bank xizmatlaridan imtiyozli asosda foydalanmasliklari va amaldagi qonunlarga rioya qilishlari kerakdir.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015 yil 22 iyuldagi 19/16 –sonli qaroriga binoan qabul qilingan “Bir qarzdor yoki bir-biriga daxldor qarzdorlar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdorlari to'g'risida”gi nizom bir qarzdor yoki bir-biriga daxldor qarzdorlar guruhi uchun riskning eng ko'p miqdorlarini belgilaydi.

Mazkur nizomga binoan **yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi (aksiyadori)** — ustav kapitali yoki ovoz beruvchi ulushlarning (aksiyalarning) 10 yoki undan ortiq foiziga bevosita yoki bilvosita ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi, **yirik risk deganda esa** — jami summasi bank birinchi darajali kapitalining 10 foizidan oshadigan bir qarzdor yoki bir-biriga daxldor qarzdorlar guruhi uchun to'g'ri keladigan risk tushuniladi.

Agarda faoliyati davomida qarzdor(lar)dan biri boshqa qarzdor(lar)ga katta ta'sir o'tkaza olishi mumkin bo'lsa, bankning qarzdori bo'lgan shirkat, mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning ishtirokchisi ayni bir paytda

bankning qarzdori bo'lsa, ikki yoki undan ortiq qarzdor aynan bir shaxsning (bu shaxs bank oldida qarzdor yoki qarzdor emasligidan qat'i nazar) ta'siri ostida bo'lsa, xo'jalik jamiyati yoki shirkatning bankdan qarzdor bo'lgan ikki yoki undan ortiq ishtirokchisi aynan bir shaxs bilan solidar javobgarlikni o'z zimmasiga olgan bo'lsa (bu shaxs bank oldida qarzdor yoki qarzdor emasligidan qat'i nazar), bir qarzdor ikkinchisiga kredit sifatida olingan mablag'larni bergan bo'lsayoki ko'pchilik bo'lib olingan kreditlar bir sub'ektga berilgan bo'lsa, ikki va undan ortiq qarzdorlar birgalikda faoliyat yuritishga bankdan kreditlar olsa va undan Yagona manbadan to'lashsa, qarzdorlarning birida moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan taqdirda to'lov bo'yicha muammolar qarzdorlarning boshqasida ham yuzaga keladigan hollar bo'ladigan bo'lsa, bunday sub'ektlar banklar faoliyatida bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi deb hisoblanadi.

Quyida biz banklar faoliyatida bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhlarga qo'yilgan ba'zi me'yorlarni keltirib o'tamiz.

10-jadval

Bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhlarga qo'yilgan ba'zi me'yorlar⁵⁶

Me'yorlar	Me'yoriy talablar
Yuridik shaxsning yirik ishtirokchisi (aksiyadori)	Ustav kapitali yoki ovoz beruvchi ulushlarning (aksiyalarning) 10 yoki undan ortiq foiziga bevosita yoki bilvosita ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs
Yirik risk	Jami summasi bank birinchi darajali kapitalining 10 foizidan oshadigan bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun riskk.
Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun riskning eng Yuqori miqdori	Bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak
Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minlanmagan kredit, hamda faktoring xizmatlari uchun riskning eng Yuqori	Bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur.

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining "Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning eng ko'p miqdorlari to'g'risida"gi nizomi asosida tuzilgan

miqdori	
Yirik risklarning umumiy miqdori	Bank birinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshmasligi lozim.
CHet el valyutasida kiritilgan depozit ostida beriladigan kredit miqdori	Valyutaning qiymati kredit qoldig'ining kamida 105 foizini tashkil etishi lozim.

Jadval ma'lumotlari Shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy talablariga asosan bankning bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun riskning eng Yuqori miqdori bank birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak. Shuningdek, bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keluvchi ta'minlanmagan kreditlar, bank amalga oshiradigan faktoring xizmatlari uchun riskning eng Yuqori miqdori esa bank birinchi darajali kapitalining 5 foizidan oshmasligi zarur. Yuqorida keltirilgan talablar bozor qiymati kreditlarning 125 foizini qoplay oladigan davlat qimmatli qog'ozlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolati yoki boshqa majburiyatlari bilan ta'minlangan kreditlar, bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobiga qayta moliyalashtirilgan kreditlarga, Shuningdek, kredit beruvchi bankdagi depozitlar bilan kreditlar ta'minlangan bo'lsa tadbiriq etilmasligi ham Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Bank faoliyatida yuzaga keladigan risklardan himoyalaniish maqsadida banklar tomonidan beriladigan yirik risk darajalarning umumiy miqdori bank birinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshmasligi, bankga qo'yilgan depozit chet el valyutasida kiritilgan bo'lsa, bu valyutaning qiymati kredit qoldig'ining kamida 105 foizini tashkil etishi lozim.

Tijorat banklari tomonidan bu me'yoriy talablar bajarilishi va har bir bank bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun riskning hamda yirik risklarga doir yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha yirik yo'qotishlar to'g'risidagi ma'lumotlar (ular to'lamagan bank krediti umumiy summasi, qarzdorning boshqa majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar, bankda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha yirik risklarning umumiy summasi)ni o'z

ichiga olgan hisobotni yuritishi va har oyda bir marotaba Markaziy bankka taqdim etishi lozim. Bu talablarning qo'yilishi va ularning amalga oshirilishining talab qilinishi banklarni ular faoliyatda yuzaga keladigan qator risklardan himoya qilishda, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Agar yo'l qo'yilgan tartib buzilishlar yoki bank o'tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug'dirgan bo'lsa, Markaziy bank:

banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan summada jarima undirishga;

bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, Shu jumladan aktivlar tuzilmasini o'zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aksiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini ko'rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini, Shu jumladan bank kengashi rahbarlari va a'zolarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilishga;

bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirishga;

bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo'lgan muddatga, Shuningdek filiallar ochishni ham Shuncha muddatga taqiqlab qo'yishga haqli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 18 avgustdagi 27/13-son qaroriga asosan "Bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar to'g'risidagi nizom"ga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritildi va mazkur nizom bo'yicha banklar tomonidan bankka aloqador shaxsga yoki uning nomidan faoliyat ko'rsatuvchi shaxsga beriladigan har qanday kredit ta'minoti bo'yicha me'yorlarga o'zgartirishlar kiritildi. Bu o'zgarishlarni quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Bankka aloqador shaxsga yoki uning nomidan faoliyat ko'rsatuvchi shaxsga beriladigan har qanday kreditlarning ta'minoti bo'yicha me'yorlar⁵⁷

Ko'rsatkichlar	O'rnatilgan me'yorlar
Kredit beruvchi bankka milliy valyutada kiritilgan depozitlar qo'yilganda	Depozitlar kreditning kamida 100 foizi miqdorida bo'lishi shart.
Kredit beruvchi bankka chet el valyutasida kiritilgan depozitlar qo'yilganda	Chet el valyutasida kiritilgan depozitlar kreditning kamida 105 foizi miqdorida bo'lishi shart.
Kreditning ta'minoti sifatida davlat qimmatli qog'ozlari qo'yilganda	davlat qimmatli qog'ozlari kreditning kamida 125 foizi miqdorida bo'lishi shart.
Kreditning ta'minoti sifatida boshqa ta'minot vositasi qo'yilganda	kreditning kamida 130 foizi miqdori bozor bahosidagi ta'minot bilan ta'minlanishi shart.

Bank faoliyatini tartibga solish bo'yicha Xalqaro Bazel qo'mitasining asosiy talablari qabul qilingan bo'lib Bazel qo'mitasi o'zining "Bazel I", "Bazel II" va 2010 yil 12 sentyabr kuni dunyoning 27 mamlakati markaziy banklari vakillari banklar kapital bazalariga talablarni kuchaytiruvchi "Bazel III" bank faoliyati nazorati me'yorlarining yangi to'plamini tasdiqladilar. "Bazel III"ga ko'ra, banklarning kelajakda ehtimoli bo'lgan inqirozlarga qarshi tura olishi uchun kapitalning 2,5 foizi miqdorida qo'shimcha "himoya yostig'i"ga ega bo'lishi talab etiladi. Bank faoliyatini tartibga solish tizimining iqtisodiy tabiatiga ta'sir ko'rsatuvchi sermazzmun yangiliklar tarkibiga qo'yidagilar kiritiladi:

-markaziy bank vositasida alohida banklarni emas, balki yalpi moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan makroprudensial nazoratni tatbiq etish;

-kredit davrining real iqtisodiyotga salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan kontrsiklik tartibga solishni rivojlantirish.

Banklar faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish borasida Bazel qo'mitasining bazaviy tamoyillari 25 tadan iborat bo'lib ular:

⁵⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2018 yil 18 avgustdagi 27/13-son [qaroriga](#) asosan "Bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan tuziladigan bitimlar to'g'risidagi nizom"ga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritildi va mazkur nizom asosida tuzildi.

- Samarali bank nazoratini ta'minlash shart-sharoitlari;
- Litsenziyalash va struktura;
- Prudensial talablar va prudensial tartibga solish;
- Joriy bank faoliyatini tartibga solishning metodikasi;
- Axborotni taqdim etish bo'yicha talablar;
- Nazorat instansiyalarining vakolatlari;
- Xalkaro bank operatsiyalari kabilarni o'z ichiga oladi.⁵⁸

Tayanch so'zlar: kredit, kredit shartnoma. Mijoz huquqi? Bank huquqi, majburiyat, taminot, kredit taminoti, kafil, kafillik, subekt, obekt, nazorat

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

- 1.Kredit shartnomasi tushunchasini ayting
- 2..Kredit shartnomasining asosiy belgilarinimalar?
- 3.Kredit munosabatining asosiy huo'uo'iy shakli nima?
- 4.Kredit shartnomasining ob'ekti, sub'ektlari doirasi oddiy o'arz shartnomasidan o'anday faro' o'iladi?
- 5.Kredit berish usullari tartib o'oidalarini belgilovchi asosiy huo'uo'iy xujjat nima?
- 6.Kredit si€satiga nisbatan talablar o'aysi me'€riy xujjatda berilgan?
- 7.Kredit berishga oid xujjatlarga nimalar kiradi?
- 8.Kredit xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi o'anday?
- 9.Ipoteka krediti o'anday rasmiylashtiriladi?
13. Kredit shartnommasida o'arzdorning o'zgarishi o'anday rasmiylashtiriladi?
14. Kreditga oid nizolar o'anday xal o'ilinadi?

⁵⁸ Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'. Bank risklari T.:IQTISOD-MOLIYA 2019 y.

IX BOB. Banklarning qimmatli qog‘ozlar, maxsus vositalar bilan operatsiyalarining huquqiy asoslari.

1-§. Qimmatli qog‘ozlar tushunchasi va uning huquqiy asoslari.

Qimmatli qog‘ozlar bozori O‘zbekiston Respublikasidagi moliya bozorining muhim segmenti bo‘lib xisoblanadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini ushbu bozorga jalb etilishi natijasida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlash, muhim ijtimoiy muammolarni hal etish, pul muomalasini barqarorlashtirish, inflyasiya jarayonlarini sekinlashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan esa, bo‘sh mablag‘larni investitsion muomalada bo‘lishi uning sohibi bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga ham barqaror foyda olishni ta‘minlaydi.

Bozor munosabatlarining asosiy prinsiplaridan biri – to‘xtovsiz harakatlanishdan iborat va bu qoida ayniqsa pul shaklidagi kapitalga nisbatan to‘la taalluqlidir.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat bank muassasalari qimmatli qog‘ozlar bozorining eng faol ishtirokchilari bo‘lib, ular ushbu bozorda turli shaklda ishtirok etadilar.

“Qimmatli qog‘ozlar” tushunchasi keng va tor ma‘noda ta‘riflanadi. Uning keng ma‘nosi, mulkiy xuquq ob‘ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 96-moddasida berilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

Mulkiy huquqlarni belgilangan shakilga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlarning boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o‘sha shaxsga o‘tadi.

Qimmatli qog‘ozlar jumlasiga; obligatsiyalar, veksell, chek, depozit va jamg‘arma setifikati, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg‘arma

daftarchasi, konosament, aksiya hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar kiradi.

Uning tor ma’nodagi (qimmatli qog‘ozlar bozoridagi muomala ob’ekti sifatidagi) ta’rifi O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 3 iyunda yangi tahrirda qabul qilingan “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunida keltirilgan. Unga ko‘ra qimmatli qog‘ozlar — hujjatlar bo‘lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilish shakliga ko‘ra blankalar tarzida hujjatli va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz bo‘lishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar –blankalar, sertifikatlar shaklida yoki schetlardagi yozuv shaklida bo‘lishi va hisob –kitob qilishda, shuningdek kreditlar bo‘yicha garov sifatida foydalanilishi mumkin. Qimmatli qog‘ozlar yuridik va jismoniy shaxislar o‘rtasida ixtiyoriylik asosida tarqatiladi.

Kiritilgan ulush shaklidan qat’i nazar, qimmatli qog‘ozlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasi puli berilganda, ularni chiqarish shartlarida nazarda tutilgan holda esa –chet el valyutasida (aksiyalar bo‘yicha – mulkni o‘tkazib berish yo‘li bilan ham) ifodalanadi va to‘lanadi.

YUqoridagi ikki hil ta’rif qimmatli qog‘ozlarning umumfuqarolik muomalasidagi hamda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi holatini o‘zida ifodalaydi.

Qimmatli qog‘ozlarning chiqarilish shakli qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Aksiyalar, korporativ va infratuzilma obligatsiyalari, shuningdek depozitar tilxatlar hujjatsiz shaklda chiqariladi.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish u to'g'risidagi qaror bo'yicha chiqariladi. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- emitentning to'liq nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror tasdiqlangan sana;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorni tasdiqlagan emitent boshqaruv organining nomi;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning turi va xili hamda ularning chiqarilish shakli;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egasining huquqlari;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirish shartlari;
- chiqarilishdagi emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni;
- ilgari joylashtirilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning soni;
- emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.

Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin. Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi qaror qonun hujjatlariga va emitentning ustaviga muvofiq emitent boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi. Emitent majburiyatlarining bajarilishi garov, bank kafolati yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan qo'shimcha ta'minlanadigan obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda qo'shimcha ta'minot bergan shaxs to'g'risidagi va ta'minot shartlari haqidagi ma'lumotlar ham ko'rsatilishi kerak. Bu holda obligatsiyalarni chiqarish to'g'risidagi qaror qo'shimcha ta'minot bergan shaxs tomonidan ham imzolanishi kerak.

Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali miqdori doirasida;

-keyingi uch yilda rentabellik, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko'rsatkichlariga ega bo'lgan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan emitentlar tomonidan;

-investorlarga tegishli mablag'larning emitentlar tomonidan to'lanishi bo'yicha to'lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Infratuzilma obligatsiyalari esa quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

-emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o'z kapitali va chiqarilish bo'yicha qo'shimcha ta'minot miqdori doirasida;

-infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan olingan mablag'lardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa;

-infratuzilma obligatsiyalari bo'yicha emitentning majburiyatlari ular to'liq muomaladan chiqarilguniga qadar belgilangan tartibda sug'urtalangan bo'lsa, chiqariladi.

Davlat korxonalari infratuzilma obligatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda chiqaradi.

Infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag'lar alohida bank hisobvarag'ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko'ra sarflanadi.

Aksiyalarga doir opsiyonni chiqarish shartlari ularning muomalasiga cheklovlarni nazarda tutishi mumkin. Agar aksiyadorlik jamiyatining e'lon qilingan aksiyalari soni olish huquqini opsiyonlar beradigan aksiyalar sonidan kam bo'lsa, mazkur jamiyat aksiyalarga doir bunday opsiyonlarni joylashtirishga haqli emas.

Aksiyadorlik jamiyatining mehnat jamoasi va kuzatuv kengashi a'zolariga mukofotni yoki rag'batlantirish to'lovini aksiyalarga doir opsiyonlar tarzida berish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Olish huquqini opsiyonlar beradigan muayyan turdagi aksiyalarning soni aksiyalarga doir opsiyonlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra joylashtirilgan ushbu turdagi aksiyalarning 5 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Aksiyalarga doir opsiyonlar aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali uni ta'sis etish chog'ida to'liq to'langanidan keyin joylashtirilishi mumkin bo'ladi.

2-§. Qimmatli qog'ozlar turlari va ular bilan operatsiyalarni tashkil etishning huquqiy asoslari

Tijorat banklari respublika qimmatli qog'ozlar bozorining eng faol va asosiy ishtirokchilaridan hisoblanadi hamda Fond birjasi umumiy savdo aylanmasida tijorat banklari ulushining yuqoriligi bank qimmatli qog'ozlarining ishonchliligi, ular to'g'risidagi axborotlarning ochiq-ligidan dalolat beradi. Agar biz 2014-yilda fond birjasida savdo hajmi yuqori bo'lgan emitentlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 10 ta yirik emitentdan 9 tasi tijorat banklari hisoblanadi. 2014-yil davomida birja savdolari orqali jismoniy shaxslar investitsiyalarining 93,4 foizi, yuridik shaxslar investitsiyalarining 86,3 foizi aynan tijorat banklari qimmatli qog'ozlariga yo'naltirilgan. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Banklarning aksiyadorlik jamiyati shaklida faoliyat yuritishi ularga qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi emitent sifatida fond bozorida faol ishtirok etishiga imkoniyat beradi. Shu sababli, tijorat banklarining birja savdolariga qo'yilayotgan qimmatli qog'ozlari mamlakatimizda pul aylanishini jadallashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha turgan bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga investitsiya qilishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tijorat banklari repo bitimlarini amalga oshirishda qimmatli qog'ozlar bozorida investor sifatida ishtirok etishlari mumkin.

Ma'lumki, repo bitimlari qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish yo'li bilan pul mablag'larini qarzga olishning ommabop usuli bo'lib, investitsiya kiritishning boshqa usullariga qaraganda xavfsiz hisoblanadi va investorlarning zarar ko'rish darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda tijorat banklari fond bozorida investitsiya vositachisi va maslahatchisi, aktivlarni ishonchli boshqaruvchi, transfer-agent va depozitariylik vazifasini ham bajarmoqda.

Bugungi kunda 20 ta tijorat bankining qimmatli qog'ozlari birja savdolariga qo'yilgan bo'lib, ularning aksariyati birja listingining yuqori "A" toifasiga kiritilgan. Mazkur banklarning qimmatli qog'ozlari birjada muntazam kotirovka qilinadi, qator tijorat banklari esa qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun brokerlik idoralari tashkil etgan holda fond bozorida samarali faoliyat yuritib, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalarini sotish va sotib olish orqali ularning qo'shimcha daromad olishini ta'minlamoqda.

Qimmatli qog'oz – o'zi bilan bog'liq mulkiy huquqlarni aks ettiradigan hujjatdir, u daromad manbayi bo'lib xizmat qiladi, fond bozorida muomalada yuritilishi va oldi-sotdi vositasi bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar bozori kredit munosabatlari bilan birgalikda, o'z qiymatiga ega bo'lgan, sotish, sotib olish va to'lovini amalga oshirish mumkin bo'lgan maxsus hujjatlar (qimmatli qog'ozlar)ga egalik qilish bilan ham bevosita bog'liq. Qimmatli qog'ozlar o'zida mulkchilik huquqini mujassamlashtirgan bozorda erkin aylanadigan, sotib olish-sotish va boshqa bitimlarning obyektini bo'ladigan, doimiy va bir martalik daromad olish manbayi bo'lib xizmat qiladigan, pul kapitalining bir ko'rinishidagi hujjatdir. «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi 2015-yil 4-iyunda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi qonunining 3-moddasiga asosan **qimmatli qog'ozlar** – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi,

dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi.

Qimmatli qog'ozlar turli subyektlar tomonidan chiqarilishi mumkin. Umumiy holda bu emitentlar 5 guruhga bo'linadi:

hukumat;

davlat korxonalarini;

xususiy sektor;

Markaziy bank;

chet el subyektlari.

Egaligi yoki emitentiga qarab qimmatli qog'ozlarni davlat, xususiy, xalqaro qimmatli qog'ozlarga ajratish mumkin. Xususiy sektor tomonidan chiqarilayotgan qimmatli qog'ozlar tarkibida turli ishlab chiqarish korxonalarini, tijorat banklari, investitsion banklar, investitsion fondlar va boshqalarning qimmatli qog'ozlari alohida o'rin tutadi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar esa ularning hisoblanadigan valyutasiga qarab va emitentlari bo'yicha bo'linadi.

Qimmatli qog'ozlar muomalada bo'lish hududiga ko'ra regional (mahalliy), milliy va xalqaro qimmatli qog'ozlarga bo'linadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi turdagi qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va muomalada bo'lishi mumkin:

aksiyalar;

obligatsiyalar;

davlat qimmatli qog'ozlari;

depozit sertifikatlari;

veksellar;

qimmatli qog'ozlar hosilalari, ya'ni opsiya va fyucherslar (ilovaga qarang).

Shuningdek, qonun bo'yicha O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar, egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar, korporativ obligatsiyalar, infratuzilma obligatsiyalari ham qimmatli qog'ozlarning turlari hisoblanadi.

Qimmatli qogʻozlar toʻgʻrisidagi qonunning 3-moddasiga asosan **aksiya**—oʻz egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga boʻlgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qogʻozdir. Aksiya qimmatli qogʻoz sifatida amal qilish muddati cheklanmagan, yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan aksionerlik jamiyatiga muayyan ulush qoʻshganini va mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini guvohlovchi, aksiya boʻyicha dividend koʻrinishida foyda olish huquqini beruvchi aksiyadorning shu jamiyat boshqarish ishiga qatnasha olishini tasdiqlovchi yuridik hujjatdir.

Obligatsiya esa emissiyaviy qimmatli qogʻoz boʻlib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qatʼiy belgilangan foizni olishga boʻlgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi. «Obligato» – lotin tilida «qarz olish» mazmunini bildiradi. Obligatsiya munosabatida obligatsiya egasi tomonidan emitent faoliyatiga maʼlum summada pul mablagʻi kiritiladi va emitent obligatsiyada koʻrsatilgan muddatda uning nominal qiymatini hamda u boʻyicha qoʻshimcha foizni toʻlab berish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi. Aksiyadan farqli ravishda obligatsiya uning egasiga emitentning ishini boshqarishda qatnashish huquqini bermaydi. Meʼyoriy hujjatlarga asosan obligatsiyalar **infratuzilma obligatsiyalari** va korporativ obligatsiyalarga boʻlinadi. **Infratuzilma obligatsiyalari** – ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablagʻlarini jalb etish maqsadida xoʻjalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblansa, aksiyadorlik jamiyatlari va oʻzining tashkiliy-huquqiy shaklidan qatʼi nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar **korporativ obligatsiyalar** deyiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining gʻazna majburiyatlari – emissiyaviy qimmatli qogʻozlar boʻlib, ular emissiyaviy qimmatli qogʻozlar egalari tomonidan

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag‘lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog‘ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat’iy belgilangan daromad olish huquqini beradi. G‘azna majburiyatlari butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to‘lab berish majburiyatini guvohlovchi qimmatli qog‘ozdir.

Depozit sertifikat – bankka qo‘yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘ozdir. Depozit sertifikat bank tomonidan beriladi.

Veksel – veksel beruvchining yoxud vekselde ko‘rsatilgan boshqa to‘lovchining vekselde nazarda tutilgan muddat kelganda, veksel egasining vekselde ko‘rsatilgan summani to‘lab berishiga doir qat’iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz va to‘lov vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari, odatda, **davlat qimmatli qog‘ozlari** deb yuritiladi.⁵⁹

Qimmatli qog‘oz hosilalari – bular shunday qimmatli qog‘ozlarki, ularning foydasi yoki zarari bir nechta bozor ko‘rsatkichlari bilan, ya’ni bozor indekslari bilan bog‘liqdir. Qimmatli qog‘ozlar hosilalari – «opsion» yoki «fyucherslar» ko‘rinishida bo‘ladi. **Opsion** – emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u o‘z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog‘ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat’iy belgilangan narx bo‘yicha sotib olishga bo‘lgan huquqini tasdiqlaydi

Hozirgi davrga kelib qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar tobora ko‘payib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda aksionerlashtirish va mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish orqali aksionerlik jamiyatlariga aylantirish va ular tomonidan har xil qimmatli

⁵⁹ Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O’ Bank ishi IQTISOD-MOLIYA 2019y.

qog'ozlarni muomalaga chiqarishi fond bozorlarini rivojlantirishga turtki bo'lmoqda. Qimmatli qog'ozlar jahonning katta bir boyligi hisoblanib, boshqa boylıklarga nisbatan ham umumiy qiymati bo'yicha, ham hajmi bo'yicha oldingi o'rinlarga chiqmoqda.

Qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarib, pullarni bir necha o'n yillarga muddatsiz foydalanishga olish mumkin. Bu korxonalar va tashkilotlar uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib, ularga ishlab chiqarish, hamda moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun bank ssudalaridan foydalanmasdan turib pul resurslarini jalb qilish imkoniyatini beradi. Qimmatli qog'ozlar aholi uchun ham juda katta ahamiyatga ega, ular pullarni ko'lda ushlab turmasdan, qimmatli qog'ozlarga egalik qilish yo'li bilan o'z jamg'armalari hisobiga daromad oladilar va korxonalarni boshqarishda amalda ishtirok etadilar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini omonatga qo'yishdan ko'ra qimmatli qog'ozlarga sarflashlari ma'lum afzalliklarga ega, masalan, sarflangan mablag'lar muddatidan ilgari foydalanish zarurati tug'ilganda uni sotishi hamda undan qulay va hech qanday sarf-xarajatsiz to'lov yoki kredit olish uchun garov vositasi sifatida foydalanishi mumkin.⁶⁰

3-§. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati va uning huquqiy asoslari.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishi bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, yuqorida eslatilgan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va boshqa qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumat qarorlari hamda idoraviy meyyoriy xujjatlar bilan tartibga solinadi.

⁶⁰ Shelagh Heffernan. Modern Banking. Ltd. Great Britain. John Wiley & Sons, 2012. 19-26.

David S. Kidwell, Richard L. Peterson, David W. Blackwell. Financial institutions, markets, and money. New Jersey: John Wiley & Sons, c.2003. 235-255.p.

Henny van Greuning, Sonia Brajovich Bratanovich. The Analysis of banking risks. THE WORLD BANK Washington, D.C. 2014.

O‘zbekiston Respublikasi xududida qimmatli qog‘ozlar chiqarish, ular muomalasini tashkil etish, ikkilamchi bozorni yo‘lga qo‘yish hamda qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozordagi muomalasi tartib-qoidalarini belgilashning tashkiliy hamda xuquqiy mexanizmlari yuqorida qayd etib o‘tilgan qonunlar, qonun xujjatlari hamda boshqa aktlar bilan belgilanadi. Bunda qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari bo‘lgan sub’ektlarning bevosita o‘zlari tomonidan qabul qilinadigan hamda amalda qo‘llaniladigan lokal me‘yoriy xujjatlar (depozitariylar, fond birjalari va boshqa sub’ektlar tomonidan ishlab chiqiladigan ichki nizomlar, namunaviy shartnomalar va xokazolar) ham o‘ziga xos ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra tijorat banklariga qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirok etish, ular bilan bog‘liq bank operatsiyalarini amalga oshirish vakolati berilgan (Qonunning 4-moddasi).

Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq quydagi operatsiyalarni amalga oshirilishi mumkin:

- qimmatli qog‘ozlar (veksellar. Aksiyalar, obligatsiyalar. Depozit sertifikatlari va boshqalar) chiqarish (emissiya qilish);
- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish. Sotish, saqlash va ular bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish;
- mahsulot etkazib berish, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ravishda yuzaga keluvchi talab qilish huquqlarini olish, bunday talablarni bajarish tavakkalchiligini o‘z zimmasiga olishi va ularni indeksatsiyalashi;
- ishonchli boshqarish (trast) operatsiyasi xizmatlarini ko‘rsatish: qimmatli qog‘ozlarni jalb etishi va joylashtirilishi, mijoz topshirig‘iga ko‘ra boshqa operatsiyalarni ado etishi;

-qimmatli qogʻozlarga oid bank operatsiyasi xizmatlarini koʻrsatishi: qimmatli qogʻozlarni jalb etish va joylashtirilishi, mijoz topshirigʻiga koʻra boshqa operatsiyalarni ado etish;

- qimmatli qogʻozlarga oid bank operatsiyalari yuzasidan maslahat xizmat koʻrsatish.

Banklar qimmatli qogʻozlar bozorida professional ishtirokchilar – investitsiya institutlari sifatida ishtirok etib, u erda tadbirkorlikning quyidagi turlari bilan shugʻullanilishlari mumkin:

-emissiya faoliyati;

- brokerlik faoliyati;

- dillerlik faoliyati;

- qimmatli qogʻozlar va ular bilan bogʻliq pul mablagʻlarini oʻtkazish boʻyicha hisob – kiliring, depozitor faoliyati;

- qimmatli qogʻozlar savdosini tashkil etish faoliyati;

- trast opratsiyalari;

- inkasso faoliyati;

- maslahat faoliyati va boshqalar.

Tijorat banklar qimmatli qogʻozlar bozorida yuritilayotgan siyosatga muvofiq ravishda amalga oshiriladigan operatsiyalarni tanlab olish. Bunday tijorat banklar qimmatli qogʻozlar bozorida ishtirok etishdan bir qator maqsadlarni koʻzlashi mumkin. Ular jumlasiga.

Qimmatli qogʻozlar chiqarish orqali kredit faoliyati uchun qoʻshimcha mablagʻlar jalb etish;

-mijozlarga qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar orqali xizmat ko'rsatishda foyda olish;

- qimmatli qog'ozlar orqali kamyob moliyaviy resurslarni qo'lga kiritish va boshqalar kiritilishi mumkin.

Tijorat banklari belgilangan tartibda olingan umumiy bank litsenziya asosida qimmatli qog'ozlar bozorida qatnashishlari mumkin va buning uchun qo'shimcha, maxsus litsenziya olish talab etilmaydi. Faqat qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni bevosita amalga oshiruvchi bank mutaxassislari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va « Qimmatli qog'ozlar operatsiyasi» bo'yicha kurslarni o'tashlari va fond bozori mutaxassisi malaka attestatini olishlari lozim.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishining ayrim shakillarini batafsilroq ko'rib o'taylik.

1. Investitsiya kompaniyasi sifatidagi faoliyat. Investitsiya kompaniyasi hisoblanuvchi tijorat banki:

- qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularni kafolatlash yuzasidan;
- qimmatli qog'ozlarga mablag' sarflash;
- qimmatli qog'ozlarni diller sifatida savdo – sotiq qilish bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar hisoblanadi.

Bank mijoz uchun qimmatli qog'ozlar emissiyasi bilan shug'ullanganda vositachi sifatida quydagicha harakat qiladi:

- 1- bosqich – emissiyaga tayorgarlik ko'rish;
- 2- bosqich – qimmatli qog'ozlar emitentdan qabul qilib yoki sotib olish;
- 3 – bosqich – qimmatli qog'ozlarni investorlar orasida joylashtirish.

II. Trast operatsiyalari. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksining 849-moddasiga ko'ra «mol mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi bo'yicha bir taraf (boshqaruvchining muassisi) ikkinchi tarafga (ishonchli boshqaruvchiga) mol – mulkni muayyan muddatga ishonchli boshqaruvchiga toshiradi. Ikkinchi taraf esa

Ushbu mol – mulkni boshqaruvchining muassisi yoki u ko‘rsatgan shaxs (foйда oluvchi) manfaatlarini ko‘zlab boshqarish majburiyatini oladi.

Mol –mulkni ishonchli boshqarishga topshirish bu mol – mulkka mulk huquqining ishonchi boshqaruvchiga olib berilmaydi».

Trast o‘z ichiga mijozning qimmatli qog‘ozlar portfeli yoki uning bir qismini boshqarish, aksiyalar, veksellar, davlat qimmatli qog‘ozlari va boshqalarni olishi mumkin. Ishonchli boshqaruvchi (trassant)ning mustaqilligi darajasiga ko‘ra to‘la vakillik va agent sifatidagi vakillik o‘zaro farqlanadi.

To‘la vakillikda bank o‘z mijozni nomidan va undan oldindan rozilik olmasdan har qanday operatsiyalarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Agent vazifasini bajarganda esa har bir harakat oldindan trassant bilan kelishib olinishi talab etiladi. Ishonchli boshqarish bilan bog‘liq holdagi bank va uning mijozlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslari «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunda, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 849 – 861- modalarida belgilab qo‘yilgan.

III. Depozitarlik faoliyati. Tijorat banklari «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonun, «Qimmatli qog‘ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasi, fuqarolik kodeksining 896-moddasi va boshqa qonun hujjatlariga ko‘ra boyliklarni, shu jumladan, qimmatli qog‘ozlarni omonat saqlashi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlarning hisob-kitobini olib borish va saqlash mijoz bilan o‘zaro tuzilgan shartnomaga muvofiq tarzda amalga oshiriladi. Ular umumiy bank litsenziyasi asosida depozitar faoliyati bilan shug‘ullanadilar va bu faoliyat davomida qimmatli qog‘ozlarni hisobga olib borish va saqlashdan tashqari ularni o‘tkazish, sotish va sotib olish, buhgalteriya hisob-kitobini to‘g‘ri yuritilishini kuzatib borish va boshqa operatsiyalarni ham ro‘yobga chiqarish mumkin.

Bank depozitariy sifatida asosan uch turdagi operatsiyalarni:

- ma'muriy operatsiyalari;
- buxgalterlik operatsiyalar;
- axborotlar bilan bog'liq operatsiyalarni bajaradi.

IV. Brokerlik faoliyati. Tijorat banklari o'z mijozlari topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni sotish, sotib olishi, ya'ni komissioner sifatida ishtirok etishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuni, Fuqorolik kodeksining 832-848 – moddalari, «Qimmatli qog'ozlar bozorning faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi, «Qimmatli qog'ozlar va fond birjalari to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlari bu sohadagi faoliyatining huquqiy asoslaridir.

Tijorat banki broker sifatida o'z mijozlari bilan vositachilik shartnomasi hamda ushbu asosga tayangani holda uchinchi shaxslar bilan qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish shartnomasini tuzish mumkin. Qimmatli qog'ozlar savdosida brokerlik vazifasini bajarish, mijozlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini tartibga solish, topshiriq, uning mazmuni va ijro etilishi tartiblari qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, bank mijozlari talabini birjaga o'tkazishdan avval uni tekshirib ko'rish shart.

V. Maslahat xizmatiga oid faoliyat. Tijorat banklari mijoz bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qimmatli qog'ozlarni muomilaga chiqarish yuzasida maslahat beradi va mijozga quyidagi xizmatlar ko'rsatish mumkin:

- qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish va uning istiqboli haqida axborot berish;
- huquqiy maslahatlar berish;
- kasbiy tayorlashga yordamlashishni;
- axborot xizmati ko'rsatish.

Bank maslahat xizmati ko'proq foyda olishga, tavakalchilikning asosli bo'lishiga, zarar yuz berishining oldini olishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga, bozor munosabatlarining mamlakatimizda samarali joriy etilishiga xizmat qiladi va shu sababli ularning bu sohadagi faoliyati yanada rivojlanishi hamda qo'llab quvvatlanishi lozim.

Tayanch so'zlar: qimmatli o'g'ozlar, qimmatli o'g'ozlar bozori, fondler, fond birjasi, aksiya, obligatsiya, birja, bozor ishtirokchisi, dividend, aksiyador, pay to'lovi

Mavzuni o'rganish bo'yicha nazorat savollar:

1. Qimmatli qog'ozlar tushunchasini ta'riflang.
2. Qimmatli qog'ozlar turlari va uni bozordagi operatsiyalarini ta'riflang.
3. Tijorat banklarning qimmatli oq og'ozlar bilan operatsiyalarini huquqiy asoslarni aytib bering.
4. Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarini va ularning faoliyatiga xarakteristika bering.
5. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirokining shakllarini aytib bering.

X BOB. Banklar xalqaro operatsiyalari va bitimlarini huquiy jihatdan muvofiqlashtirish

1-§. Banklarning xalqaro operatsiyalari, valyutaga oid munosabatlar va valyuta qonunchiligi asoslari.

Valyuta munosabatlari deganda ko‘pincha chet el davlati pul birligi sanaluvchi boylikka nisbatan bo‘lgan xuquqlarni o‘zga shaxsga o‘tkazish yoki qo‘lga kiritish yuzasidan shaxslar o‘rtasida yuz beradigan ijtimoiy aloqalar tushuniladi. Valyutaga oid munosabatlarni tartibga solishning xuquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumat qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qabul qilinadigan idoraviy me‘yoriy xujjatlarda belgilab qo‘yilgan.

“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra: “Chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasidagi to‘lov xujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi”.

Mamlakat iqtisodiyatining yuqori suratlar bilan rivojlanishini taminlash mamlakatda amalga oshirilayotgan pul-kredit va valyuta siyosatining samarali amalga oshirilishini tasqazo etadi. O‘zbekistonda bu borada keying yillarda keng ko‘lamli ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining⁶¹ “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjetlarning

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, banklarda risk – menejmentni rivojlantirish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 2-sentyabrda imzolagan, «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni va 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta siyosatining ta'sir qilish mexanizmlarini takomillashtirish ... pul-kredit siyosatining samarasini ta'minlash va ta'sirchanligini oshirish lozimligi"⁶² deb ta'kidlanganligi ham valyuta siyosati ustivor e'tibor berish lozimligini taqazo etadi.

Har qanday davlatda ijtimoiy — iqtisodiy munosabatlarda valyuta munosabatlari asosiy o'rinni tutadi. Mamlakatlar o'rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi va mazmunan rivojlanib, takomillashib borishiga zamin yaratdi. Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanib borishi natijasida respublikamizga ham kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar xajmi yildan yilga ortib bormoqda.

2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish, keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i

⁶² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoni.2018 yil 9 yanvar.

ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshirish rejalashtirilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirish bank tizimining mamlakat iqtisodiyotida ishtirokini yanada kengaytirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini ta'minlash ko'p jihatdan banklar faoliyatini strategik jihatdan to'g'ri rejalashtirish, ular faoliyatida yuzaga keladigan risklar va riskli holatlarni to'g'ri boshqarish orqali bo'lishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar va zararlarning oldini olishdan iborat.

Dunyoning barcha mamlakatlari Markaziy banklarining pul kredit siyosatining bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini va mamlakatdagi baholar barqarorligini ta'minlash hisoblanib, bu maqsadga erishishda rivojlangan davlatlardagi kabi joriy valyuta operatsiyalari, kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalar hamda derivativlar bilan bog'liq operatsiyalarining keng qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida erishilgan natijalar bilan birga O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy bosqichida Markaziy bank valyuta siyosatining samaradorligini oshirish borasida sezilarli muammolarning mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlanishi, tovarlar, ishlar, xizmatlar eksporti va importini avj olishi, mamlakatlararo iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, siyosiy aloqalarni kuchayib borayotganligi tufayli xalqaro hisob-kitoblar kengayishiga ham sabab bo'lmoqda. Bunday xalqaro hisob-kitoblar odatda xorijiy valyuta birliklarida amalga oshiriladi. Mamlakat iqtisodiy va siyosiy xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni va milliy tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini muhofaza qilish, pul muomalasi barqarorligini saqlab turish maqsadlarida chet el valyutasi bilan amalga oshiriladigan hisob-kitob va boshqa operatsiyalarni maxsus tartibga solish, uni davlat nazorati ostida saqlash zarurati yuzaga keladi. O'zbekiston Respublikasi valyuta qonunchiligi tizimi hamda uning vositasida amalga oshiriladigan valyuta nazorati yuqoridagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi xududida valyutani tartibga soluvchi organ bo'lib O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki hisoblanadi.

Valyutani tartibga soluvchi organ o‘ziga berilgan vakolatlarga muvofiq chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to‘lov xujjatlari muomalasi tartibini, milliy valyutani chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash mexanizmini, chet el valyutasidagi hisobvarag‘larni ochish tartibini, rezident yuridik shaxslar tomonidan xorijda xisobvarag‘lar ochish tartibini, chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini belgilab beradi.

Tijorat banklariga chet el valyutasida bank operatsiyalarini amalga oshirishning umumiy qoidalarini belgilash ham, bu soxadagi bank faoliyatini nazorat qilish ham valyutani tartibga solishga oid faoliyatidan iboratdir.

Valyutani tartibga soluvchi organ o‘z vakolatlari doirasida boshqa turdagi faoliyatlarni ham amalga oshiradi.

Valyuta siyosatining to‘g‘ri olib borilishi mamlakat oltin valyuta zaxiralarining ortishiga, uning to‘lov va savdo balanslarining aktiv bo‘lishiga zamin yaratadi. Biz quyidagi jadvallardan valyuta siyosatini xalqaro moliyaviy munosabatlarda uyg‘unlikda barqaror olib borayotgan birinchi 10 talikdagi davlatlar zaxiralarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

12-jadval

Katta oltin-valyuta zaxirasiga ega bo‘lgan davlatlar guruhi (AQSH doll., 2017 yil)⁶³

1.	Xitoy	3 235 681 607 213
2.	Yaponiya	1 264 140 980 384
3.	Shveysariya	811 030 675 726
4.	Saudiya Arabistoni	547 260 618 084
5.	AQSH	451 285 263 406
6.	Rossiya	432 730 507 964

⁶³ worldbank.org.-Tiklanish va Taraqqiyot Jahon nbanki rasmiy sayti.

7.	Hindiston	412 613 792 020
8.	Janubiy Koreya	388 804 901 514
9.	Braziliya	373 955 518 686
10.	Singapur	285 000 274 600

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda jahon miqyosida eng katta oltin-valyuta zaxirasiga ega bo'lgan davlat Xitoy hisoblanib, uning zaxiralari miqdori 3 trln.235 mlrd.681,6 mln. AQSh doll.ni tashkil etadi. Ikkinchi o'rinda katta miqdorda oltin-valyuta zaxiralari ega bo'lgan davlat Yaponiya bo'lib uning zaxiralari miqdori 1 trln. 264 mlrd. qariyb 141 mln. AQSh doll.ni tashkil etadi. Uchinchi o'rinni egalayotgan davlat Shveysariya davlati bo'lib undagi valyuta zaxiralari miqdori 811 mlrd.30,7 mln. AQSh doll.ga teng miqdorni tashkil etadi. Saudiya Arabistoni 547,3 mlrd. AQSh doll, miqdorida zaxiraga ega bo'lsa, AQSh, Rossiya, Hindiston davlatlarining valyuta zaxiralari o'rtasidagi farq uncha yuqori bo'lmagan ularning miqdori mos ravishda 451,3 mlrd. AQSh doll, 432, 7 mlrd. AQSh doll, 412,6 mlrd. AQSh doll.ga teng.

Alohida olingan mamlakatda valyuta siyosatini amalga oshirishda muhim manbalar sifatida shu mamlakatning oltin-valyuta zaxiralari muxim o'rin tutadi. Biz yuqorida eng ko'p valyuta zaxirasiga ega bo'lgan o'n mamlakat amaliyoti to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishdik.

13-jadval

Yirik oltin zaxiralari ega bo'lgan davlatlar o'ntaligi

(2019 y.aprel, tonna)

1.	AQSH	8133,5
2.	Germaniya	3369,7
3.	Italiya	2451,8
4.	Fransiya	2436
5.	Rossiya	2168,3

6.	Xitoy	1885,5
7.	Shveysariya	1040
8.	Yaponiya	765,2
9.	Gollandiya	612,5
10.	Hindiston	608,8

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oltin zaxiralarining ko'pligi bo'yicha birinchi uchlikni AQSh, Germaniya va Italiya egallamoqda. Masalan, AQSh eng katta oltin zaxirasiga ega bo'lib uning miqdori 8133,5 tonnani, Germaniya 3369,7 tonnani, Italiyaning zaxiralari esa 2451,8 tonnani tashkil etadi.

14-jadval

O'zbekiston Respublikasining oltin - valyuta zaxiralari miqdori(1.07.2018 yil.)⁶⁴

№	Ko'rsatkichlar	mln. AQSH doll.
1.	XVFDagi rezerv pozitsiya	0,01
2.	SDR	374,3
3.	Oltin	13 842,2
4.	Sof hajmi mln. troyya unsiyada	11,1
5.	Boshqa zaxira aktivlar	-
6.	Xorijiy valyutadagi zaxiralar	13 444,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2018 yilning iyul oyi davrida O'zbekiston Respublikasining XVFDagi rezerv pozitsiyasi 0,01 mln. AQSh doll.ga, oltin zaxirasi 13 842,2 mln. AQSh doll.ga va Xorijiy valyutadagi zaxiralari esa 13444,0 mln. AQSh doll.ga teng miqdorni tashkil etgan.

⁶⁴ cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti malumotlari.

Umuman olganda, mamlakatda amalga oshiriladigan valyuta siyosat mamlakatning nafaqat ichki iqtisodiy yuksalishi, balki uning xalqaro amaliyotda, jahon moliyaviy bozorida o'z o'rniga ega bo'lishida valyuta siyosatini to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega SHundan kelib chiqib bizningcha, valyuta siyosati tushunchasining sodda va tushunarli bo'lishi tarafdorimiz va fikrimizcha, valyuta siyosati - bu mamlakatda valyuta munosabatlarini olib borish, tartibga solish va boshqarish sohasidaga iqtisodiy munosabatlarning yig'indisidir. Amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari va valyuta operatsiyalari mamlakatdagi valyuta siyosati asosida tartibga solinadi.

2-§. Valyuta operatsiyalari tushunchasi va amalga oshirilishining umumiy qoidalari

Valyuta operatsiyalari deganda valyuta boyliklariga nisbatan mulk xuquqini bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazish, xususan, ulardan to'lov vositasi sifatida foydalanish, uni sotish yoki sotib olish, O'zbekiston xududiga olib kirish yohud chetga olib chiqish, xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan amaliyotlar nazarda tutiladi.

Valyuta operatsiyalari vakolatli banklar yoki boshqa muassasalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Rezidentlar bilan norezidentlar o'rtasida milliy valyutada amalga oshiriladigan operatsiyalar ham valyuta operatsiyalari bo'lib hisoblanadi.

Joriy xalqaro operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari o'zaro farqlanadi.

Joriy xalqaro operatsiyalarga quydagilar kiradi:

- tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan, shuningdek odatdagi qisqa mudatli bank va kredit mexanizimlari ishlashi munosabati bilan to'lanishi zarur barcha to'lovlar;

- foizlar va boshqa daromadlar ko‘rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kriditlar hamda lizing bo‘yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to‘lanishi zarur to‘lovlar;
- kriditlarni, qarzlarni uzish uchun yoki to‘g‘risidan – to‘g‘ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to‘lash;
- savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalarining maqbul summalari.

Savdo bilan bog‘liq bo‘lmagan pul jo‘natmalariga quydagilar kiradi:

- ish xaqi, stipendiyalar, pensyalar, alimentlar to‘lash;
- xodimlarni O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan xarajatlarni to‘lash;
- talim va davolanish uchun haq to‘lash;
- O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlaridagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilot huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta‘minoti uchun haq to‘lash.
- Notarial va tergov xarakatlari bilan bog‘liq to‘lo‘vlar, shuningdek bunday xarakatlarni amalga oshirish va ishlarni sudlarda ko‘rish munosabati bilan davlat boji to‘lash;
- sudning, arbitrajning, shuningdek tergov va boshqa huquqini muhofaza qiluvchi organlarining karorlari asosida pul mablaglari to‘lash;
- xalkaro kongresslar, simpoziumlar, konferensiyalarda, sport va madaniy tadbirlarda shuningdek boshqa xalqaro uchrashuvlar, ko‘rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etganlik uchun to‘lovlar investitsiya bilan bog‘liq va moddiy xarajatlar bundan mustasno;
- dafn qilish bilan bog‘liq to‘lovlar;
- mualliflik haqini to‘lash, patent bojlarini to‘lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalari bo‘yicha haq to‘lash;
- xalqaro notijorat tashkilotlariga badallar;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan boshqa operatsiyalar.

Joriy xalqaro operatsiyalar va chet el valyutasini ular bilan bog‘liq holda sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar, shu jumladan:

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarining amalga oshirish
- ko‘chmas mulk sotib olish va sotish;
- xorijiy davlatlardan mablag‘larini hisobvaraqaqlarini va omonatlarga jalb etish hamda xorijiy davlatlarda mablag‘larni hisobvaraqaqlari va omonatlari joylashtirishi kiradi.

O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan - to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni repatriatsiya qilish, shuningdek to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish munosabati bilan olingan huquqlardan foydalanish cheklovlarsiz amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining diplomatik va boshqa vakolatxonalarini ehtiyojlari uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ko‘chmas mulk ob’ektlari olish va ularni ko‘rish bo‘yicha kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida norezidentlar tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar sotib olinishi, shuningdek rezidentlar chiqarga qimmatlar qog‘ozlar bozorni tartibga solish va muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank bilan birgalikda belgilanadi.

Jismoniy shaxslar:

- o‘z mulkida O‘zbekiston Respublikasida olingan yoki sotib olingan valyuta boyliklariga ega bo‘lishga;
- vakolatli banklarga va ularning filiallarida chet el valyutasida hisobvaraqlar ochish hamda omonatlar qo‘shishga;
- bank hisobvaraqlarini ochgan holda yoki bunday hisobvaraqlarini ochmay turib xalqaro pul jo‘natmalarini amalga oshirishga;
- valyuta boyliklarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasiga o‘tkazish, olib kirish va jo‘natishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazish, olib chiqish va jo‘natishga;
- valyuta boyliklaridan qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda foydalanishga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishiga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi xududida chet el valyutasini sotib olish va sotish yuridik shaxslar tomonidan vakolatli banklar orqali;

Jismoniy shaxslar tomonidan vakolatli banklar, ularning filiallari va ayiraboshlash shoxobchalari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha operatsiyalar milliy valyutasining chet el valyutasiga nisbatan chet el valktasiga bo‘lgan talab hamda taklifning joriy nisbati asosida shakillanadigan almashuv kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistika hisoboti hamda boshqa hisobot maqsadlari uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank valyutasi operatsiyalari hisobi, statistika hisoboti hamda boshqa hisobot maqsadlar uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash uchun milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini muntazam ravishda belgilab boradi.

Jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga naqd chet el valyutasini olib kirish cheklovlarisiz amalga oshiriladi.

Rezident jismoniy shaxslar naqd chet el valyutasini olib chiqish xuquqini tasdiqlovchi hujjatlarni ko‘rsatmasdan qonun hujjatlarida belgilangan miqdordagi naqd chet el valyutasini olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini ko‘rsatmasini qonun hujjatlarida belgilangan miqdordagi naqd chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasidan bir yo‘la olib chiqishlari mumkun.

Qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiq bo‘lgan naqd chet el valyutasining rezident jismoniy shaxslar tomonidan olib chiqilishi ulardan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki vakolatli banklar tomonidan beriladigan, O‘zbekiston Respublikasidan naqd chet el valyutasini olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Norezident jismoniy shaxslar:

Bojxona deklaratsiyasiga muvofiq olib kirilgan naqd chet el valyutasi miqdoridagi naqd chet el valyutasini;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va vakolatli banklar tomonidan beriladigan, ularning naqd chet el valyutasini olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lgan taqdirda esa olib kirilgan naqd chet el valyutasidan ko‘p bo‘lgan miqdordagi naqd chet el valyutasini O‘zbekiston Respublikasidan bir yo‘la olib chiqishlari mumkun.

Rezident hamda norezident yuridik shaxslar tomonidan naqd chet el valyutasi va milliy valyutasini olib kirish hamda olib chiqish bo‘yicha opersiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va vakolatli banklar bundan mustasno.

Vakolatli banklar tomonidan naqd chet el valyutasi va milliy valyutasini olib kirish hamda olib chiqish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ruxsatnomasi bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Rezident va norezident jismoniy shaxslarni naqd milliy valyutasini olib kirish hamda olib chiqish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Rezident O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishlari mumkin.

Rezident yuridik shaxslar chet el valyutasidagi mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli banklardagi valyuta xisob varaqlarida saqlanadi va ular tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda foydalanadi.

Rezident yuridik shaxslar tomonidan olinadigan chet el valyutasi, shu jumladan tavarlar (ishlar, xizmatlar) ekisportidan olingan valyuta tushumi, agar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqacha qoida belgilagan bo‘lmasa, ularning vakolatli banklardagi hisobvaraqlariga o‘tkazilishi shart.

Rezident yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi banklarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda milliy valyutada va chet el valyutasida hisobvaraqlar ochishga hamda ulardan foydalanishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining rezident jismoniy shaxslar, diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tashkilotining chet eldagi, xo‘jalik yoki boshqa tijorat faoliyati bilan shug‘ulanmaydigan vakolatxonalari O‘zbekiston respublikasidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga hamda bu hisobvaraqlardan foydalanishga xaqli va faoliyat ko‘rsatishi davrida bunga yo‘l qo‘yiladi. Ularning chet elda bo‘lishi yoki faoliyati ko‘rsatishi tugagach, hisobvaraqlari yopilishi lozim, hisobvaraqlardagi mablag‘larning qoldiqlari esa O‘zbekiston Respublikasiga o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasida qonun xujjatlarida bevosita nazarda tutilgan hollardan tashqari barcha hisob-kitoblar va to‘lovlar milliy valyutada (so‘mda) amalga oshiriladi

3-§. Valyuta nazorati va valyuta qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

Valyuta nazorati bu – chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirilishi chog‘ida qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan davlatning vakolatli organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatdan iborat.

Valyuta nazorati moliyaviy faoliyat ustidan olib boriladigan nazorat ko‘rinishlaridan biridir.

Valyuta nazoratining asosiy yo‘nalishlari jumlasiga:

a) valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishi uchun litsenziya mavjudligini, o‘tkazilayotgan operatsiyalarning qonun talablariga mosligini aniqlash;

b) rezidentlar tomonidan chet el valyutasi bilan bog‘liq majburiyatlarni, shu jumladan valyuta tushumining muayyan qismini majburiy sotish bo‘yicha majburiyatini bajarishini kuzatib borish;

v) valyuta operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar va hisobotlar to‘liqligi, to‘g‘riligini kuzatib borish;

g) chet el valyutasi bilan bog‘liq noqonuniy operatsiyalarga yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi.

O‘zbekistonda valyuta nazoratini amalga oshirish vakolati quyidagi davlat organlariga berilgan:

a) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

b) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;

v) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi;

g) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo‘mitasi.

Ushbu organlarning valyuta nazoratini amalga oshirish yuzasidan vakolatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan.

Vakolatli tijorat banklari ham chet el valyutasi bilan bog‘liq bank operatsiyalarini amalga oshirish chog‘ida bunday operatsiyalarning qonun talablariga muvofiq kelishini kuzatib boradilar.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishga doir cheklovlar jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida belgilanishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga taxdid soluvchi xavf-xatar yuz bergan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki vaqtincha chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirilishini to‘xtatib qo‘yishi yoki muayyan cheklovlar joriy etishi mumkin.

Valyuta nazoratini amalga oshirilishi chog‘ida yoki xuquqbuzarlik holatlarini vakolatli organlar tomonidan surishtirish-tergov qilish chog‘ida valyuta qonunchiligi buzilgani haqidagi faktlar ma‘lum bo‘lgani hollarda tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan iqtisodiy javobgarlik, mansabdor shaxslarga nisbatan esa ma‘muriy yoki hatto jinoiy javobgarlik qo‘llanilishi mumkin.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan chet el valyutasida olingan daromadlarni yashirganlik, ular yuzasidan soliqlar va boshqa majburiy badallarni to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik, to‘lovni kechiktirganlik, daromadlarni kamaytirib ko‘rsatganlik uchun iqtisodiy jazo chorasi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida (176-modda) hamda Jinoyat kodeksida (177-178 moddalar) valyutaga oid qonunchilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarliklar nazarda tutilgan.

Tayanch soʻzlar: valyuta, valyuta kursi, valyuta pozitsiyasi, valyuta kursi, valyuta karidori, kodeks, valyuta operatsiyasi, valyuta qoldogʻi, valyuta nazorati

Mavzuni oʻrganish boʻyicha nazorat savollar:

1. Valyuta munosabatlari tushunchasi va uning oʻonunchiligini ayting.
2. Valyuta operatsiyalari tushunchasi va amalga oshirilishining umumiy oʻoidalarini tushintiring.
3. Joriy xaloʻaro valyuta operatsiyalariga nimalar kiradi?
4. Kapital xarakat bilan bogʻliq valyuta operatsiyalari oʻanday boshoʻariladi?
5. Jzbekiston hududida jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalarini oʻtkazish tartibi oʻoidalari oʻanday?
6. Valyuta nazorat tushunchasi va oʻoidalarini aytib oʻting.

Ilova

«Bank huquqi» fani bo'yicha test savollari

1. Bank huquqi – bu:

- a) Kreditlash va sarmoyalashni boshqarish me'yorlarining mujassamligi;
- b) Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishni tartibga solish me'yorlari;
- c) Tijorat banklari, Markaziy bank faoliyati va shuningdek, bank operatsiyalarini amalga oshirishni tartibga solish ishlarini mujassam yuridik me'yorlar asosida tashkil etish;
- d) Bank hisoblari faoliyatini tartibga solishni boshqarish va uning qoidalari;
- e) Bank operatsiyalarini tartibga solishni boshqarishning umumiy qabul etilgan me'yorlari.

2. Bank huquqining manbalariga kirmaydi -:

- a) Huquqiy me'yoriy aktlar (qonun va qonun osti aktlari);
- b) Xo'jalik shartnomalari;
- c) Sud pretsedenti;
- d) Bank qoidalari va hizmat yo'riqnomalari;

3. Bank huquqi fanining predmeti:

- a) O'zbekiston respublikasi MB va tijorat banklari;
- b) Bank faoliyati;
- c) Tijorat banklari;
- d) Bank tizimi va bank faoliyati.

4. Bank tizimi - bu:

- a) O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yurituvchi banklarning tarkibiy tizilmasining majmui.
 - b) Faqat O‘zbekiston xududida faoliyat yurituvchi tijorat banklar.
 - c) MB va unga tobe bo‘lgan idoralar.
 - d) O‘zbekiston MBdan litsenziya olgan banklar va boshqa tashkilotlar.
5. Bank tizimi quyidagi ikki pog‘onadan tashkil topadi.:
- a) Xalq banki va tijorat banklari;
 - b) Markaziy bank va xalq banki.
 - c) Markaziy bank va tijorat banklari;
 - d) Markaziy bank va kredit idoralari.
6. Bank tizimi pag‘onalari orasidagi o‘zaro munosabatlar quyidagi xarakterga ega.
- a) Amaldorlik va tobelik;
 - b) Tenglik;
 - c) Ikka tomonlama xarakterga ega
 - d) Bir tomonlama.
7. Banklar quyidagi uch operatsiyani bajarishi kerak.
- a) Kreditlash, hisob-kitob va sarmoyalash;
 - b) Jamg‘armalarni qabul qilish, kreditlash va sarmoyalash;
 - c) Hisob-kitob, sarmoyalash, jamg‘armalarni qabul qilish.
 - d) Hisob-kitob, jamg‘armalarni qabul qilish, kreditlash.
8. O‘zbekiston MB - bu:
- a) O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi boshqaruvchi tizimdagi ijroiya idorasi;
 - b) Hukumat idoralariga xizmat ko‘rsatuvchi davlat-tijorat banki;
 - c) Bank sohasida boshqaruvchi organ;
 - d) Byudjetni kreditlash maqsadida tuzilgan bank.
9. O‘zbekiston MBning asosiy maqsadi.

- a) Bank faoliyatini boshqarish;
- b) Xukumatga kredit berish;
- c) Baholar , bank tizimi, va to'lov tizimi barqarorligini mustahkamlash;
- d) Hisob-kitoblarni tashkil etish.

10. Quyida ifodalangan faoliyatning qaysi turi O'zbekiston MB uchun ta'qiqlanmagan?

- a) Boshqa yuridik shaxslarning kapitalida ishtirok etishi.
- b) Moliyaviy yordam ko'rsatish;
- c) Sug'urta faoliyati;
- d) Banklarni kreditlash.

11. Quyida sanab o'tilganlardan qay biri iqtisodning pul-kredit muomalasining vositasi hisoblanmaydi?

- a) Majburiy rezerv talablari;
- b) Almashuv kursi;
- c) Ochiq bozordagi operatsiyalar;
- d) Qayta moliyalashtirish;

12. O'zbekiston respublikasi MB O'zbekiston Respublikasi xukumati oldida quyidagi sanab o'tilgan nomlarning qaysi biriga ega bo'lolmaydi?

- a) bankir;
- b) fiskal agent;
- c) maslahatchi;
- d) xukumat pullarini taqsimlovchi.

13. Pul muomalasini tashkil etish o'z ichiga ... ni oladi:

- a) Pul massasi va hisoblarni tartiblashtirish;
- b) Naqd va pul o'tkazish hisob-kitoblari.
- c) Pul massasini boshqarish.
- d) O'zbekiston Respublikasi xududida hisob-kitoblarni tashkil etish.

14. Agar omonatchi qisqa muddatga qo'yilgan jamg'armasini olish muddati etmasdan to'lashlarini talab etsa:

- a) Omonatchiga pul qaytariladi, biroq shu qo'yilmalardagi pullarga foiz to'lanmaydi.
- b) Omonatchiga jamg'arma qaytariladi va pul foyzi omonatchining qo'yimlarini qaytib olgan kunga qadar oddiy omonotlardek to'lanadi.
- c) Bank omonatchiga to'lov muddati kelguncha jamg'armalari va foizini to'lamaydi.
- d) Xamma javoblar to'g'ri.

15. Quyida sanab o'tilganlardan qay biri bank faoliyatini boshqarishga dahldor emas.

- a) Ochiq bozordagi operatsiyalar;
- b) Bank nazorati;
- c) Iqtisodiy me'yorlarni o'rnatish;
- d) Majburiy rezerv talablari.

16. O'zbekiston respublikasi MBning boshqaruv organi bo'lib ... hisoblanadi.

- a) Kengash, Boshqaruv va rais.
- b) Boshqaruv va rais;
- c) Boshqaruv, rais va bosh xududiy boshqarmalar.
- d) Boshqaruv, Rais va taftish komissiyasi.

17. O'zbekiston respublikasi MB Oliy organi kim?

- a) O'zbekiston Respublikasi MB Kengashi.
- b) Boshqaruv;
- c) Rais;
- d) Taftish komissiyasi.

18. O'zbekiston MBning raisi kim tomonidan tayinlanadi?

- a) O'zbekiston Prezidenti;

- b) Oliy majlis Kengashi tomonidan Prezident tavsiyasiga ko'ra.
- c) Prezident tavsiyasiga ko'ra Oliy majlis Senati tomonidan.
- d) Prezident tavsiyasiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

19. O'zbekiston Respublikasi MB ning boshqaruv a'zolari kim tomonidan tayinlanadi.

- a) O'zbekiston respublikasi Prezidenti tomonidan;
- b) O'zbekiston respublikasi MB raisi tomonidan;
- c) O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi raisi tomonidan.
- d) O'zbekiston respublikasi tomonidan Oliy Majlis Kengashi tavsiyasi bilan.

20. Quyida ko'rsatilganlarning qay biri O'zbekiston respublikasi MB raisining vakolatiga kirmaydi.

- a) O'zR MB ning tezkor faoliyat boshqaruvi;
- b) Buyruq va ko'rsatmalar berish;
- c) O'zR MB nomidan boshqa muassasalarda qatnashuv;
- d) O'zR MB tashkiliy tuzilmasini aniqlaovchi.

21. TB ning ichki audit xizmati ... dan shakllanadi:

- a) TB ning boshqaruvidan;
- b) TB hissadorlarining umumiy yig'inidan;
- c) O'zR MB boshqaruvidan;
- d) TB banklari Kengashidan.

22. Tijorat banklari ... shaklda tashkil topadi:

- a) Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida;
- b) Qoidaga binoan hissadorlik jamiyati shaklida;
- c) SHaxsiy muassasalar shaklida;
- d) Ixtiyoriy tashkiliy-xuquqiy shaklda.

23. Tijorat bankini boshqaruvchi organlar:

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig'ini, Bank Kengashi, boshqaruvi;

- b) Bank Kengashi , rais, taftish qo‘mitasi;
- c) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ini, rais, Bank Kengashi;
- d) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ini, kredit qo‘mitasi, Boshqaruv.

24. Bank faoliyatini kim nazoart qiladi?

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ini;
- b) Boshqaruv;
- c) Bank Kengashi;
- d) Taftish komissiyasi.

25. Bank filiallari quyidagilarning qaroriga muvofiq ochiladi:

- a) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ini;
- b) Bank Kengashi;
- c) Boshqaruvi;
- d) Rais.

26. Bankning ishonchli vakili:

- a) Bank joylashgan joydan boshqa joyda uning funksiyasini bajarishi;
- b) Bankdan boshqa joyda uning manfaatini himoya qiladi;
- c) Bank foydasiga tijorat faoliyatini amalga oshiradi;
- d) Xamma javoblar to‘g‘ri.

27. Bank faoliyati uchun vaqtinchalik litsenziya muddati::

- a) 1 yil
- b) 3 yil;
- c) 6 oy.
- d) 4 oy.

28. . . . notarial guvohlantirilishi shart.

- a) Ipoteka shartnomasi;
- b) Garov to‘g‘risidagi barcha shartnomalar;

- c) Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi shartnoma.
- d) To'g'ri javob yo'q.

29. Kelgusiga mo'ljallangan garovga ruhsat etiladi agar bu . . .

- a) Qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa;
- b) O'zR MB me'yoriy xujjatlari qoidalariga zid kelmaydigan bo'lsa;
- c) Agar u amaldagi shartnomada ta'qiqlanmagan bo'lsa.
- d) Barcha javoblar to'g'ri

30. Garov yuzasidan qilinadigan talab va e'tirozlar faqat sud qarori bilan

amalgga oshiriladi:

- a) agar garov shartnomasi tuzish uchun bosho'a shaxs yoki organning roziligi talab etilgan bo'lsa;
- b) agar shartnoma predmeti sifatida (Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yuzaga chiqsa;
- c) agar garov predmeti sifatida jamiyat uchun tarixiy, badiiy qimmatga ega bo'lgan mulk yuzaga chiqsa;
- d) barcha javoblar to'g'ri
- e) to'g'ri javob a) va b).

31. Kafolat berishlari mumkin . . .

- a) Barcha tashkilot va muassasalar;
- b) Faqat sarmoyaviy kompaniyalar;
- c) Banklar va sug'urta tashkilotlari;
- d) Faqat trust kompaniyalari

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.:O‘zbekiston, 2014. - 73
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. - Toshkent: Adolat, - 520 b.
- 3 O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida"gi Konuni. 1995 yil 21 dekabr,154-1-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 5-29 b.
- 4 O‘zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Konuni. 1996 yil 25 aprel, T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 29-47b.
- 5 O‘zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to‘g‘risida"gi Konuni. 2003 yil 11 dekabr, 556-11-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 55-69b.
- 6 O‘zbekiston Respublikasining "Bank siri to‘g‘risida"gi Konuni. 2003 yil 30 avgust, 530-11-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 69-76 b.
- 7 O‘zbekiston Respublikasining "Lizing to‘g‘risida"gi Konuni. 1999 yil 14 aprel, 756-1-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 226-238b.
- 8 O‘zbekiston Respublikasining "Iste‘mol krediti to‘g‘risida"gi Konuni. 2006 yil 6 may, O‘RQ-33-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 331-340b.
- 9 O‘zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalash to‘g‘risida"gi Konuni. 2006 yil 15 sentyabr, O‘RQ-50-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011. 340-349b.
- 10 O‘zbekiston Respublikasining "Ipoteka to‘g‘risida"gi Konuni. 2006 yil 4 oktyabr, O‘RQ-58-son. O‘zbekiston respublikasi bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to‘plami T.“O‘zbekiston” NMIU,2011.349-398b.
- 11 O‘zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida"gi Konuni. 2008 yil 22 iyul,O‘RQ-163-son. O‘zbekiston respublikasi bank

- faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar to'plami T. "O'zbekiston" NMIU, 2011. 398b.
- 12 O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyatining erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Konuni. 2000 yil 25 may, O'zbekiston respublikasi banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T. "O'zbekiston" NMIU, 2011. 7-34b. va 2 may 2012y.
- 13 O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Konuni. 2012 yil 26 aprel T. "O'zbekiston" NMIU, 2012y.
- 14 O'zbekiston Respublikasining "Mikrokredit tashkilotlari to'g'risida"gi Konuni. 2006 yil 2 sentyabr T. "O'zbekiston" NMIU, 2006y.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlari erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438 sonli qarori.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 1998 yil 2 dekabrdagi 557-sonli "Bir qarzdor yoki o'zaro daxldor bo'lgan qarzdorlar guruhiga to'g'ri keluvchi tavakkalchilikning eng yuqori darajasi to'g'risida"gi nizomi.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "2015 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari"ga bag'ishlab, joriy yilning 15-yanvarida Hukumat majlisida o'tkazilgan ma'ruzasi.
19. Abdullaeva SH.Z. "Pul va banklar". T.: "Iqtisod-Moliya", 2018.
- 15 Abdullaeva SH.Z. "Pul muomalasi va kredit". T.: ILM ZIYO, 2014.

- 16 Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O' "Bank ishi". Darslik - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 576 b.
- 17 Abdullaeva Sh., Azizov U.O' «Bank risklari» Darslik. –T.: Igtisod-moliya, 2019 . - 678 b.
- 18 Abdullaeva SH.Z. Kredit va kreditlash amaliyoti. T.: .: Igtisod- moliya, 2017 . - 327 b.
19. Abdullaeva SH.Z. Bank risklari va kreditlash. – Toshkent: Moliya, 2002. – 304 b.
20. Abdullaeva SH.Z. Bank ishi. Darslik.T.: "Iqtisod-Moliya", 2017
21. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital standards. – Basel, 1998. publications@bis.org
22. Basel Committee on banking supervision. International convergence of capital measurement and capital standards. Basel-II – Basel, 2006. publications@bis.org
- 19 Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems– Basel, 2010. publications@bis.org
- 20 Kotler F., Keller K.L. Marketing, Management. 2006. 431 str.
- 21 SHelagh Hefferman «Modern Banking», John Wiley and Sons, Ltd. USA. 2012. 717p.
- 22 Kent Matthews and John Thompson. The economics of Banking, John Wiley and Sons, Ltd. USA. 2008. 295p.
- 23 David C.Kidwell, Richard L. Peterson, David W. Blackwell «Financial institutions, Markets and Money» New York. 2014. 751 p.
- 24 Murray N. Rothbard. A History of Money and Banking in the Unites States, Ludwig Von Misses Institute, 2002.
- 25 Murray N. Rothbard. The theory of Money and Credit, Ludwig Von Misses Institute 266-page
- 26 Murray N. Rothbard. The Mystery of Banking second edition, Auburn, Alabama. 2008. 298-page.

- 27 SHelagh Hefferman Modern Banking regulation. 2004 .
- 28 Richard Scott Carnell The Law of Banking and Financial institutions, Statutory Supplement. 2011.
- 29 Korol K. Spars, Harding C. Williams The keys to Banking Law: A handbook for lawyers. The Principles of Banking, John Wiley and Sons Singapore pte Ltd 2012
- 30 John Wiley and Sons Bank asset and Liability Management, Singapore pte Ltd. 2007.
- 31 Carl Felsenfel, David Glass. Banking Regulation in the United States.
- 32 Moorad CHoudhry. An introduction to Banking.
- 33 Jean Dermine. Bank Valuation and Value Based Management: Deposit and Loan Pricing Performance evaluation and Risk. 2014. 514-page
- 34 James W. Kolari, Benton E. Commercial Banking: The management of Risk, Gup, 2005. 530-page.
- 35 Community Banking Strategies: Steady Growth, Safe Portfolio Management and Lasting Client Relationships. Vince Boberski, 2010.
- 36 John Wiley and Sons. Banking Systems, Center for Financial Training. Ltd. USA 2012. 495-p.

Internet saytlari:

- <http://www.uba.uz>-O‘zbekiston Banklar Asotsiatsiyasi rasmiy sayti
- <http://www.lex.uz>-O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to‘plami
- <http://www.cbu.uz>-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining vebsayti
- <http://www.stat.uz>- Respublika Statistika qo‘mitasi rasmiy sayti
- <http://www.mf.uz>-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
- <http://www.uzpsb.uz>- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning vebsayti
- <http://www.worldbank.org>- Jahon banki vebsayti
- <http://www.fca.org.uk>- iqtisodiy tahliliy sayt
- <http://www.moneyfacts.co.uk>- iqtisodiy tahliliy sayt.
- <http://www.Ahbor.uz>- “Axbor-reyting” reyting agentligi rasmiy sayti

- <http://www.cba.gov> (Small business administration)
- <https://www.sciencedirect.com/science/book/9780123785855>
- www.italianbanks.com Italiya banklari malumotlari sayti
- www.en.wikipedia.org –Ilmiy-ommaviy malumotlar sayti.
- <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187704281630489X> - [Bobby Boon, Hui Chai Pek, See Tan Thian, Shong Goh./ Banking Services that Influence the Bank Performance./ Procedia - Social and Behavioral Sciences Volume 224, 15 June 2016, Pages 401-407](#)
- www.ebrd.com.ETTb rasmiy sayti
 - www.uba.uz (O'zbekiston banklari uyushmasi rasmiy sayti)
 - www.cbu.uz (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti)
 - www.bank.uz(O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari portali rasmiy sayti)
 - www.imf.org-International Monetary Fund
 - www.bis.org- Bank for International Settlements

Mundarija

	KIRISH	4
I BOB	Bank huquqi fanining predmeti va vazifalari. Bank huquqi mohiyati, tamoyillari va manbalari	9
1-§.	Banklarning paydo bo‘lishi va bank huquqining shakllanishi	9
2-§.	Bank huquqi tushunchasi, uning predmeti va vazifalari	22
3-§.	Bank huquqining tamoyillari va manbalari	30
4-§.	Bank huquqining uslublari va tizimlari	46
5-§.	Bankga oid munosabatlarda nizolar va ularni hal etilishi.	55
II BOB	Markaziy bank faoliyatining huquqiy asoslari, kredit tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish	62
1-§.	Markaziy bank faoliyatini tashkil qilishning huquqiy jihatlari, uning huquqiy maqomi va moliyaviy ahvoli	62
2-§.	Mamlakatda pul-kredit siyosatini olib borishda Markaziy bankning huquq va majburiyatlari	66
3-§.	Markaziy bankning hukumat bilan o‘zaro munosabatlari	73
4-§.	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’muriy-boshqaruv vakolatlari va ularni amalga oshirilishi.	80
5-§.	Markaziy bankni boshqarish.	83
6-§.	Markaziy bankning boshqa kredit tashkilotlar faoliyatini tartibga solish sohasidagi faoliyati	86
III BOB.	Tijorat banklari faoliyatining huquqiy asoslari: tashkil etish, qayta tashkil etish .	94
1-§.	Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning yuridik shaxs sifatidagi maqomi.	94
2-§.	Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish	105
3-§.	Banklarni qayta tashkil etish va tugatish.	109
4-§.	Tijorat banklarining moddiy-texnika bazasi va kadrlar malakasiga qo‘yiladigan asosiy talablar	120
5-§.	Tijorat banklari moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish.	124

	Xisob-kitob va hisobotlar tartibi.	
6-§.	Banklarga vasiylik qilish.	126
7-§.	Banklar tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlar	130
IV BOB	Bank siri va bank axborotining maxfiylikiga rioya qilish talablari	140
1-§.	Bank siri va bank axboroti maxfiylik tushunchalari	140
2-§.	To‘lov tizimida axborot xavfsizligi va muhozaftasini ta‘minlash	144
3-§.	Bank faoliyatiga oid axborotlar va bank sirini xuquqiy himoya qilish.	148
V BOB	Bank operatsiyalari va bank bitimlari, banklarda hisob-kitob m unosatlarini tashkil etishning xuquqiy asoslari.	157
1-§.	Bank operatsiyalar va hisob-kitoblar tushunchasi.	157
2-§.	Bank hisob-kitobi shartnomasi (bitimi) va uning fuqarolik huquqiy jihatlari.	165
3-§.	To‘lov tizimining sub‘ektlar va ular o‘rtasidagi munosabatlar	171
4-§.	Hisob-kitoblarning shakllarining to‘lov tizimidagi o‘rni, to‘lov tizimidan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari	180
5-§.	Mijozning bank hisobvarag‘idan mablag‘larni nizosiz tartibda o‘chirish asoslari va tartibi.	194
VI BOB	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish. Xalqaro talablar va mahalliy amaliyot.	201
1-§.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni tashkil etish	201
2-§.	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni tashkil etish.	208

3-§.	Banklarda pul mablagʻlari bilan bogʻliq operatsiyalarning ichki nazorat xizmatini amalga oshirish	213
4-§.	Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlarning huquq va majburiyatlari	221
VII BOB.	Aholi omonatlari va ular boʻyicha bank-fondlarning majburiyatlari va kafolatlari: mahalliy va xorijiy amaliyot	228
1-§.	Aholi omonat va kredit munosabatlari tushunchasi hamda ularning iqtisodiyotdagi oʻrni.	228
2-§.	Omonat saqlash va uning xuquqiy asoslari. Omonat shartnomasi hamda uning mazmuni.	231
3-§.	Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi faoliyati	235
VIII BOB	Kredit munosabatlarini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari	240
1-§.	Kredit munosabatlarining subʼektlari va ular oʻrtasida shartnomalarning zarurligi	240
2-§.	Kredit shartnomasi tushunchasi va uning asosiy belgilari. Kichik va xususiy biznes subʼektlarini kredit bilan taʼminlash.	255
3-§.	Kredit munosabatlarini tashkil etishda kredit shartnomaning xususiyatlari va ahamiyati	260
4-§.	Kredit berishga oid hujjatlarni rasmiylashtirish. Kreditlashga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik.	273
5-§.	Bir qarz oluvchi yoki bir-biriga daxldor qarz oluvchilar guruhi uchun risk darajasining eng koʻp miqdorlari	279
IX BOB.	Banklarning qimmatli qogʻozlar, maxsus vositalar bilan operatsiyalarining huquqiy asoslari.	286
1-§.	Qimmatli qogʻozlar tushunchasi va uning huquqiy asoslari.	286
2-§.	Qimmatli qogʻozlar turlari va ular bilan operatsiyalarni	290

	tashkil etishning huquqiy asoslari	
3-§.	Banklarning qimmatli qogʻozlar bozoridagi faoliyati va uning huquqiy asoslari.	295
X BOB.	Banklar xalqaro operatsiyalari va bitimlarini huquqiy jihatdan muvofiqlashtirish	302
1-§.	Banklarning xalqaro operatsiyalari, valyutaga oid munosabatlar va valyuta qonunchiligi asoslari.	302
2-§.	Valyuta operatsiyalari tushunchasi va amalga oshirilishining umumiy qoidalari	308
3-§.	Valyuta nazorati va valyuta qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.	314
	Bank huquqi fani boʻyicha test savollari	317
	Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	324
	MUNDARIJA	329

	ВВЕДЕНИЕ	4
Глава I	Предмет и задачи банковского права. Сущность банковского права, принципы и источники	9
§1.	Происхождение банков и формирование банковского права	9
§2.	Понятие банковское право, его предмет и задачи	22
§3.	Принципы и источники банковского права	30
§4.	Системы и методы банковского права	46
§5.	Споры в банковских отношения и их решения	55
II. ГЛАВА	Правовые основы деятельности Центрального банка, государственное регулирование деятельности кредитных организаций	62
§1.	Правовые аспекты организации деятельности Центрального банка, его правовой статус и финансовое положение	62
§2.	Права и обязательства Центрального банка в проведении денежно-кредитной политики в стране	66
§3.	Взаимоотношения Центрального банка с правительством	73
§4.	Административно-управленческое полномочия Центрального банка и их осуществление	80
§5.	Управление Центрального банка.	83
§6.	Деятельность Центрального банка в области регулирования деятельности других кредитных организаций	86

Глава III.	Правовые основы деятельности коммерческих банков: организация, реорганизация	94
§1.	Правовые основы деятельности коммерческих банков и его статус как юридическое лицо	94
§2.	Регулирование деятельности коммерческих банков	105
§3.	Реорганизация и ликвидация банков	109
§4.	Основные требования к материально-технической базе и квалификации кадров коммерческих банков	120
§5.	Контроль финансово-хозяйственной деятельности коммерческих банков. Расчеты и порядок расчетов.	124
§6.	Попечительство банков.	126
§7.	Дополнительные услуги коммерческих банков	130
Глава IV	Банковская тайна и требования соблюдения безопасности банковской информации	140
§1.	Понятия банковская тайна и безопасность банковской информации	140
§2.	Обеспечение безопасности банковской информации в платежной системе	144
§3.	Правовые основы обеспечения банковской тайны и безопасности банковской информации	148
Глава V	Банковские операции и банковские сделки, правовые основы организации расчетных отношений в банках	157
§1.	Банковские операции и понятие расчетов	157
§2.	Договор(сделка) по банковским расчетам и его гражданско-правовые аспекты.	165
§3.	Субъекты платежной системы и их взаимоотношения	171
§4	Место форм расчетов в платежной системе, права и обязанности пользователей платежной системы	180
§5	Порядок и основы списание средств со счета клиента без спора	194
Глава VI	Противодействию легализации доходов, полученных от преступной деятельности: международные	201

	требования и местная практика	
§1.	Понятие о противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма	201
§2.	Организация борьбы противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма	208
§3.	Организация сферы внутреннего контроля операций банков связанные с денежными средствами	213
§4.	Права и обязанности органов банка осуществляющий борьбы противодействии легализации доходов, полученных от преступной деятельности, финансированию терроризма	221
Глава VII	Сбережения населения и грантия и обязательства банков-фондов: международная и местная практика	228
§1.	Понятия сбережения населения и кредитные отношения , их место в экономике	228
§2.	Сбережение и ее правовые основы. Договор сбережение и его сущность	231
§3.	Деятельность фонда грантия сбережение население в банках	235
Глава VIII	Правовые основы регулирование кредитных отношений	240
§1.	Субъекты кредитных отношений и необходимость кредитного договора	240
§2.	Сущность кредитного договора и его основные черты. . Обеспечение малого бизнеса кредитом	255
§3.	Значение и особенности кредитного договора в организации кредитных отношений	260
4-§.	Оформление документов для выдачи кредита. Ответственность за нарушение кредитного законодательство	273
§5.	Максимальные размеры риска на одного заемщика или группу взаимосвязанных заемщиков	279

Глава IX	Правовые основы операций банков с ценными бумагами и деривативами	286
§1.	Сущность ценных бумаг и их правовые основы	286
§2.	Виды ценных бумаг и правовые основы организации операции с ценными бумагами	290
§3.	Деятельность банков на рынке ценных бумаг и ее правовые основы	295
Глава X	Международные операции банков и правовое регулирование сделок	302
§1.	Международные операции банков, основы валютных отношений и валютного законодательства	302
§2.	Сущность валютных операций и общие правила их осуществления	308
§3.	Валютный контроль и ответственность за нарушение валютного законодательства	314
	Вопросы тестов по предмету «Банковское право»	317
	Список использованной литературы	324
	ОГЛАВЛЕНИЕ	329

	INTRODUCTION	4
Chapter I	Subject and objectives of banking law. Essence of banking law, principles and sources	9
§ 1.	Origin of banks and formation of banking law	9
§2 .	The concept of banking law, its subject and objectives	22
§3 .	Principles and sources of banking law	30
§ 4.	Systems and methods of banking law	46
§ 5 .	Disputes in banking relations and their solutions	55
ChAPTE R II.	Legal basis of the Central Bank, state regulation of credit institutions	62
§ 1.	Legal aspects of the organization of the Central Bank, its legal status and financial position	62
§2 .	Rights and obligations of the Central Bank in conducting monetary policy in the country	66
§3 .	Relationship of the Central Bank with the government	73
§4 .	Administrative and managerial powers of the Central Bank and their implementation	80
§5.	Management of the Central Bank.	83
§6.	Activities of the Central Bank in the field of regulation of other credit institutions	86
Chapter I II.	Legal basis of commercial banks: organization, reorganization	94
§ 1.	Legal basis of commercial banks and its status as a legal entity	94
§ 2.	Regulation of commercial banks	105
§3 .	Reorganization and liquidation of banks	109
§ 4.	Basic requirements for the material and technical base and qualification of commercial banks	120

§ 5.	Control of financial and economic activities of commercial banks. Calculations and settlement procedure.	124
§ 6	Custody banks.	126
§ 7.	Additional services of commercial banks.	130
Chapter I V.	Bank secrecy and requirements for compliance with the safety of banking information	140
§ 1.	Concepts banking secrecy and security of banking information	140
§2 .	Ensuring the security of banking information in the payment system	144
§ 3.	Legal basis of Bank secrecy and security of Bank information	148
Chapter V	Banking operations and banking transactions, the legal basis for the organization of settlement relations in banks	157
§ 1.	Banking operations and the concept of settlements	157
§2 .	Agreement(transaction) on Bank settlements and its civil aspects.	165
§ 3.	Subjects of the payment system and their relationships	171
§ 4.	Place of payment forms in the payment system, rights and obligations of payment system users	180
§ 5.	Procedure and basis debiting the client's account without dispute	203
Chapter VI	Countering the legalization of proceeds from crime: international requirements and local practices	201
§ 1.	The concept of countering the legalization of proceeds from criminal activity, the financing of terrorism	201
§2 .	Organization of the fight against the legalization of	208

	proceeds from crime, the financing of terrorism Conservation and its legal basis. Contract savings and its essence	
§3 .	Organization of the sphere of internal control of Bank operations related to cash Activities of the Fund guarantee savings population in banks	213
§4.	Rights and obligations of the Bank bodies engaged in combating legalization of proceeds from criminal activity, financing of terrorism	221
Chapter VII.	Savings of the population and grants and obligations of banks-funds: international and local practice	228
§ 1.	Concepts of population savings and credit relations, their place in the economy	228
§ 2.	Conservation and its legal basis. Contract savings and its essence	231
§ 3.	Activities of the Fund guarantee savings population in banks	235
Chapter VIII	Legal basis regulation of credit relations	240
§ 1.	Subjects of credit relations and the need for a credit agreement	240
§ 2.	The essence of the loan agreement and its main features. Providing small businesses with credit	255
§ 3.	The value and features of the loan agreement in the organization of credit relations	260
§4 .	Paperwork for the loan. Responsibility for violation of credit legislation	273
§ 5.	Maximum risk per borrower or group of related borrowers	279

Chapter I X	Legal basis of bank operations with securities and derivatives	286
§ 1.	Essence of securities and their legal basis	286
§2 .	Types of securities and legal basis for the organization of operations with securities Paperwork for the loan. Responsibility for violation of credit legislation	290
§3 .	Paperwork for the loan. Responsibility for violation of credit legislation	295
Chapter X	International operations of banks and legal regulation of transactions	302
§ 1.	International operations of banks, fundamentals of currency relations and currency legislation.	302
§ 2.	The essence of currency transactions. General rules of their implementation.	308
§3 .	Currency control and responsibility for violation of currency legislation	314
	Test questions on the subject " Banking law»	317
	List of used literature	324
	Content	329

